

53
X84



A.T.Xudoyberdiyev,
N.A.Jumayev, S.J.To'rayev

**UMUMIY FIZIKADAN MASALALAR
VA ULARNI YECHISHDA DASTURIY
VOSITALARDAN FOYDALANISH
NAMUNALARI**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI AXBOROT TEXNOLOGIYALARI
VA KOMMUNIKATSIYALARINI RIVOJLANTIRISH VAZIRLIGI

MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI TOSHKENT
AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI

A.T.Xudoyberdiyev, N.A.Jumayev, S.J.To'rayev

**UMUMIY FIZIKADAN MASALALAR
VA ULARNI YECHISHDA DASTURIY
VOSITALARDAN FOYDALANISH
NAMUNALARI**

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi
tomonidan Toshkent axborot texnologiyalari universiteti va uning
filiallarida barcha bakalavriat ta'lif yo'nalishlari uchun o'quv
qo'llanma sifatida tavsiya etgan. (Guvochnoma 133-011).*

Toshkent – 2021



UDK: 53(075)

KBK:22.3

A.T.Xudoyberdiyev, N.A.Jumayev, S.J.Turayev. Umumiy fizikadan masalalar va ularni yechishda dasturiy vositalardan foydalanish namunalari. –T.:«Nihol print» OK, 2021.– 232.b.

ISBN 978–9943–7342–5–8

Ushbu o‘quv qo‘llanma 3 bobdan iborat bo‘lib uning birinchi bobi fizikaning mexanika, elektr va magnetizm bo‘limlariga oid 13 ta mavzuni, ikkinchi bobi asosan mexanik va elektromagnit tebranishlar va to‘lqinlar, optika, atom va yadro fizikasi hamda molekulyar fizika bo‘limlariga oid 9 ta mavzuni o‘z ichiga oladi. Har bir mavzuda unga doir formulalar, masala yechish namunalari va mustaqil yechish uchun masalalar javoblari bilan keltirilgan. Bundan tashqari masalalar yechishda zarur bo‘ladigan jadval kattaliklar va doimiylar berilgan. Uchunchi bobida esa fizikaviy masalalarni yechishda eng zamonaviy dasturiy vositalarni qo‘llash usullari, dastur kodlari va kompyuterda ulardan foydalanish bo‘yicha tavsiyalar, hamda, grafiklarini olish va tahlil qilish bo‘yicha namunalar berilgan.

O‘quv qo‘llanmadan AKT sohalarida tahsil olayotgan talabalar va o‘qituvchilar foydalanishlari mumkin.

UDK: 53(075)

KBK:22.3

Taqrizchilar:

G‘.N. Uzoqov

– texnika fanlari doktori, professor;

R.D. Shodiyev

– pedagogika fanlari doktori, professor

ISBN 978–9943–7342–5–8

© «Nihol print» OK nashriyoti, 2021.

KIRISH

Oliy ta'lim muassasalarida umumiy fizika kursini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan, axborot kommunikatsiya vositalaridan va ularning imkoniyatlaridan o'z o'mida foydalanish yuksak intellektual salohiyatga ega bo'lgan, bilimli kadrlar tayyorlash kafolatidir.

Jahoning taraqqiy etgan mamlakatlari qatoridan o'rin egallash va uni mustahkam saqlab turish uchun O'zbekistonda fundamental fanlarni o'qitish jahon andozalari darajasida bo'lishi lozim. Respublikamizda "Talim to'g'risidagi qonun" va "Kadrlar tayyorlash Milliy Dasturi" ni qabul qilinishi, hamda pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini rivojlantirishga qaratilgan qonunlarning qabul qilinishi zaminida aynan shu muammoni hal etish ko'zda tutilgan.

Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning "O'zbekiston innovatsion rivojlanish turining hozirgi zamon modeliga o'tish uchun zarur sharoitlarga ega. Bu model vujudga keltirilgan ilmiy-texnikaviy salohiyatdan keng va samarali foydalanishga, fundamental va amaliy fanning yutuqlarini, chuqur ilm talab qiladigan amaliyotga keng qamrovda joriy etishga, yuqori malakali, iqtidorli kadrlar sonini ko'paytirishga asoslanadi. Bu mamlakatimiz jahondagi iqtisodiyoti va sanoati rivojlangan davlatlar qatoriga kirib borishining zarur sharti va mustahkam poydevori bo'lib xizmat qiladi" degan fikrlarini keltirib o'tish o'rnlidir.

Zamonaviy axborot kommunikatsiya vositalarini ta'lim jarayonlariga joriy etish o'quvchi shaxsining fikrleshishini, kommunikativ qobiliyatini, optimal qaror qabul qilish malakasini, estetik tarbiyasini, axborot olish madaniyati hamda kasbiy malaka va ko'nikmalarini rivojlanishini ta'minlaydi.

Shu bilan bir qatorda o'qituvchiga ham o'ziga xos ma'suliyat yuklashi bilan birga ta'lim muassasalarining zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari bilan ta'minlanishi - pedagoglarning o'z mehnat faoliyatiga yangicha yondashish lozimligini talab qiladi va shu orqali pedagogik faoliyatning mukammallahuviga olib keladi.

Hozirgi pedagoglar axborot kommunikatsiya vositalaridan foydalanish ko'nikmasiga ega bo'lishi bilan birga bir qatorda dasturiy vositalarni amaliyotda qo'llay bilishi lozim.

Jumladan, umumiy fizika va uning mantiqiy davomi bo'lgan elektronika va sxemotexnika fanlarini o'qitishda, ushbu fanlardan

amaliy mashg'ulotlar jarayonida dasturiy vositalardan foydalanish o'qituvchidan xuddi shunday yondashuvni talab qiladi.

Barcha sohalar kabi, axborot texnologiyalari sohalari doirasida tayyorlanayotgan mutaxassis kadrlar uchun tabiiy jarayonlarni modellashtirish va ularni o'rganishda har xil zamonaviy dasturiy vositalardan foydalana bilih ko'nikmalariga ega bo'lishi ahamiyatlidir. Shuning uchun fizika fanini o'qitish jarayonida zamonaviy dasturiy tizimlardan foydalanish usullarini ko'rsatib o'tish maqsadga muvofiqdir.

Ushbu maqsadlarni ko'zda tutgan holda, hamda talabalarni keyinchalik o'qitiladigan elektronika va sxemotexnika fanlarini o'rganishga tayyorlash maqsadida oliv ta'lif muassasalarida tahsil olayotgan talabalarning fizikadan amaliy mashg'ulotlar jarayoniga bo'lgan qiziqishini oshirish - ta'lif sifatini oshirishning mezonini sifatida ushbu o'quv qo'llanmada fizikadan amaliy mashg'ulotlar jarayoniga dasturiy vositalarni samarali qo'llash, jumladan, eng sodda masala va fizikaviy jarayonlarni Matlab/Simulink muhitida modellashtirish, hamda Delphi7, C++ va boshqa zamonaviy dasturlash tillaridan foydalanish orqali qonuniyat grafiklarini hosil qilish va o'rganish usullari keltiriladi.

O'quv qo'llanma 3 bobdan iborat bo'lib, uning birinchi bobi fizikaning mexanika, elektr va magnetizm bo'limlariga oid 15 ta mavzuni, ikkinchi bobi asosan mexanik va elektromagnit tebranishlar va to'lqinlar, optika, atom va yadro fizikasi hamda molekulyar fizika bo'limlariga oid 14 ta mavzuni o'z ichiga oladi. Har bir mavzuda unga doir formulalar, masala yechish namunalari va mustaqil yechish uchun masalalar javoblari bilan keltirilgan. Bundan tashqari masalalar yechishda zarur bo'ladigan jadval kattaliklar va doimiylar berilgan. Uchunchi bobida esa fizikaviy masalalarni yechishda eng zamonaviy dasturiy vositalarni qo'llash usullari, dastur kodlari va kompyuterda ulardan foydalanish bo'yicha tavsiyalar, hamda bog'lanish grafiklarini olish va tahlil qilish bo'yicha namunalar berilgan.

O'quv qo'llanma AKT ning "5330501-Kompyuter injiniringi", "5350101-Telekommunikatsiya texnologiyalari", "5330600-Dasturiy injiniring", "5330300-Axborot xavfsizligi" va "5350400-Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida kasb ta'limi" bakalavriat ta'lif yo'nalishlarining namunaviy o'quv dasturlari asosida tayyorlangan bo'lib undan ushbu ta'lif yo'nalishlarida tahsil olayotgan talabalar foydalanishlari mumkin.

1-BOB. MEXANIKA. MAXSUS NISBIYLIK NAZARIYASI. ELEKTROMAGNETIZM

§1. Ilgarilanma harakat kinematikasi



- Umumiy holda tezlik va tezlanish quyidagicha ifodalanadi:

$$\vartheta = \frac{dS}{dt}, \quad a = \frac{d\vartheta}{dt} = \frac{d^2 S}{dt^2}$$

- To'gri chiziqli tekis harakatda tezlik va tezlanish:

$$\vartheta = \frac{S}{t} = \text{const}, \quad a = 0$$

- To'g'ri chiziqli tekis o'zgaruvchan harakat tenglamalari:

$$a = \text{const}, \quad \vartheta = \vartheta_0 + at, \quad S = S_0 + \vartheta_0 t + \frac{at^2}{2}, \quad x = x_0 + \vartheta_0 t + \frac{at^2}{2}$$

- Tortishish maydoni ta'siridagi jismning harakat tenglamalari:

$$g = 9.81 \text{ m/s}^2, \quad \vartheta = \vartheta_0 + gt, \quad h = \vartheta_0 t + \frac{gt^2}{2}, \quad y = y_0 - h = y_0 - \vartheta_0 t - \frac{gt^2}{2}$$

- To'g'ri chiziqli notejis harakatda o'rtacha tezlik:

$$\vartheta_{o'rt} = \frac{S_{um}}{t_{um}}$$

Masala yechish namunalari

- Avtomobil o'z harakati vaqtining birinchi yarmini 80km/soat tezlik bilan, qolgan vaqtida 40km/soat tezlik bilan harakatlangan. Avtomobil harakatining o'rtacha tezligi topilsin.

Berilgan: $\vartheta_1 = 80 \text{ km/soat}$, $\vartheta_2 = 40 \text{ km/soat}$, $t_1 = t_2 = t/2$.

Topish kerak: $\vartheta_{o'rt} - ?$

Yechilishi: To'g'ri chiziqli notejis harakatda o'rtacha tezlik $\vartheta_{o'r} = \frac{S_{um}}{t_{um}}$ (1)

formuladan aniqlanadi, bu yerda $t_1 = t_2 = \frac{t}{2}$, S_1 – avtomobilning t_1 vaqtda bosib o'tgan yo'li, S_2 – avtomobilning t_2 vaqtda bosib o'tgan yo'li va

$S_{um} = S_1 + S_2$, $t_{um} = t_1 + t_2 = t$, $S_1 = \frac{\vartheta_1 t}{2}$, $S_2 = \frac{\vartheta_2 t}{2}$ ifodalarni 1-formulaga olib borib qo'ysak natijada $\vartheta_{or} = \frac{S_1 + S_2}{t_1 + t_2} = \frac{\vartheta_1 t + \vartheta_2 t}{2t} = \frac{\vartheta_1 + \vartheta_2}{2} = 60 \text{ km/soat}$ ekanligi kelib chiqadi. Javob: 60 km/soat .

2. Jismning bosib o'tgan yo'li S ning t vaqtga bog'lanishi $S = A + Bt + Ct^2 + Dt^3$ tenglama orqali ifodalanadi, bu yerda $C = 0.14 \text{ m/s}^2$, $D = 0.01 \text{ m/s}^3$ ekanligi ma'lum bo'lsa, harakat boshlangandan qancha vaqt o'tgach tezlanishi $a = 1 \text{ m/s}^2$ ga teng bo'ladi?

Berilgan: $S = A + Bt + Ct^2 + Dt^3$, $C = 0.14 \text{ m/s}^2$, $D = 0.01 \text{ m/s}^3$, $a = 1 \text{ m/s}^2$.

Topish kerak: $t - ?$

Yechilishi: Umumiy holda tezlik $\vartheta = \frac{dS}{dt}$, tezlanish $a = \frac{d\vartheta}{dt} = \frac{d^2 S}{dt^2}$ ekanligi uchun

$$\begin{aligned}\vartheta &= \frac{dS}{dt} = \frac{d}{dt}(A + Bt + Ct^2 + Dt^3) = B + 2Ct + 3Dt^2 \quad (1) \text{ va} \\ a &= \frac{d\vartheta}{dt} = \frac{d}{dt}(B + 2Ct + 3Dt^2) = 2C + 6Dt \quad (2).\end{aligned}$$

(2) ifodadan vaqt t ni topamiz: $t = \frac{a - 2C}{6D} = 12 \text{ s}$. Javobi: 12 s .

3. Vertikal yuqoriga otilgan jism 3 sekund o'tgach yerga qaytib tushdi. Jismning boshlangich tezligi qanday bo'lган? Jism qanday balandlikka ko'tarilgan? Havoning qarshiligi hisobga olinmasin.

Berilgan: $t_{um} = 3 \text{ s}$

Topish kerak: $\vartheta_0 - ?, H - ?$


Yechilishi: Bizga ma'lumki biror ϑ_0 tezlik bilan vertikal otilgan jism qancha vaqtda H balandlikka ko'tarilsa xuddi shuncha vaqtda yerga qaytib tushadi (1.1-rasm), shuning uchun $t_{um} = t_1 + t_2 = 2t$, va undan

$$t_1 = t/2 \quad (1)$$

deyishimiz mumkin. Agar t_1 vaqtini jismni H balandlikdan tushish vaqt deb qarasak u holda,

$$H = \frac{gt_1^2}{2} \quad (2)$$

bo'ladi, chunki H balandlikka ko'tarilgan jism qaytib tushayotganda boshlang'ich tezlikka ega bo'lmaydi, ya'ni erkin tushadi. (1) ifodadan foydalangan holda (2) dan H ni hisoblash qiyin



1.1-rasm

$$\text{emas: } H = \frac{gt_1^2}{2} \approx 11 \text{ m.}$$

Endi masalada so'ralgan ϑ_0 boshlang'ich tezlikni topamiz. Bilamizki, biror H balandlikka ϑ_0 tezlik bilan vertikal otilgan jism shu balandlikdan erkin tushayotganda, yerga urilish paytda yana ϑ_0 tezlikka erishadi. Shuning uchun yerga urilish paytdagi tezlik ϑ_0 ni otilgan boshlang'ich tezlik ϑ_0 ga teng deyish mumkin. H balandlikdan boshlang'ich tezliksiz erkin tushayotgan jismning yerga urilish paytdagi tezligi $\vartheta = gt_1(3)$.

$\vartheta = \vartheta_0$ bo'lgani uchun va (1) ifodaga ko'ra:

$$\vartheta_0 = \frac{gt}{2} \quad (4)$$

(4) ifodadan ϑ_0 ni hisoblaymiz: $\vartheta_0 \approx 14.7 \text{ m/s}$.

Javobi: $H \approx 11 \text{ m}$, $\vartheta_0 \approx 14.7 \text{ m/s}$.


4. Piza minorasi ustidan boshlang'ich tezliksiz erkin tushayotgan jismning 1 s, 2 s va 3 s dagi tushish masofasini aniqlang. Tushish balandligini vaqtga bog'lanish grafigini chizing. Havoning qarshiligi hisobga olinmasin (1.2-rasm).

Berilgan: $y_0 = 0$, $\vartheta_0 = 0$, $g = 9.8 \text{ m/s}^2$, $t = 1 \text{ s}, 2 \text{ s}, 3 \text{ s}$

Topish kerak: $H - ?$ $H(t) - ?$

Yechilishi:

Yuqorida vertikal tashlangan jism uchin harakat tenglamasini quyidagicha yozamiz: $y(t) = y_0 + \vartheta_0 t + \frac{gt^2}{2}$ (1). $y(t) = H(t)$ deb olamiz, bunga ko'ra (1) formulaga asosan $y_0 = 0$ bo'lgani uchun $y(1) = H(1) \approx 4.9 \text{ m}$, $y(2) = H(2) \approx 19.6 \text{ m}$, $y(3) = H(3) \approx 44.1 \text{ m}$ (1.2-a rasm). Tushush balandligining vaqtga bog'lanish grafigi 1.2-b rasmda tasvirlangan.




1.2-rasm

Mustaqil yechish uchun masalalar

1. $\vartheta = 720 \text{ km/soat}$ tezlik bilan uchayotgan samolyot Toshkentdan Moskvagacha bo'lgan $s = 3000 \text{ km}$ masofani qancha vaqtda bosib o'tadi? ($t = 4 \text{ soat}$ 10 min).
2. Avtomobil dovonga ko'tarilishda $\vartheta_1 = 15 \text{ m/s}$ tezlik bilan, dovondan tushishda esa $\vartheta_2 = 72 \text{ km/soat}$ tezlik bilan harakat qilgan. Dovondan


tushish yo'li ko'tarilish yo'lidan ikki marta uzun bo'lsa, avtomobilning butun yo'l davomidagi o'rtacha tezligini toping (18 m/s).

- Ikkita poyezd bir-biriga 155 km/soat tezlik bilan yaqinlashmoqda. Ular orasidagi boshlang'ich masofa 8.5 km bo'lsa, ular qancha vaqtida bir-biri bilan uchrashadi (1.3-rasm)? (1.7 min).



1.3-rasm

- Avtomobil va velosipedchi bir-biriga qarab tekis harakatlanayotganda ular orasidagi masofa har $t = 3 \text{ s}$ davomida $s_1 = 60 \text{ m}$ ga kamaya boradi. Agar ular avvalgi tezligi bilan bir tomonga harakatlansa, ular orasidagi masofa har $t = 4 \text{ s}$ davomida $s_2 = 40 \text{ m}$ dan uzoqlasha boradi. Avtomobil va velosipedchining tezliklarini toping ($\vartheta_A = 54 \text{ km/soat}$, $\vartheta_V = 18 \text{ km/soat}$).
- 75 m uzunlikdagi poyezd tinch holatdan boshlab tekis tezlanuvchan harakat qila boshladi. Harakat boshlanishidan oldin poyezddan 180 m masofada kuzatuvchi turgan (1.4-rasm). Poyezdnинг birinchi vagoni kuzatuvchi yonidan 18 m/s tezlikda o'tgan bo'lsa oxirgi vagon kuzatuvchi yonidan qanday tezlikda o'tishini aniqlang (21 m/s).



1.4-rasm


- Havo sharida turgan odam tomonidan gorizontal yo'naliishda 10 m/s tezlik bilan jism uloqtirildi (1.5-rasm). a) havo shari 3 m/s tezlik bilan ko'tarilayotgan, b) havo shari 3 m/s teslik bilan tushib kelayotgan hollar uchin jismning kuzatuvchiga nisbatan nisbiy tezliklarini aniqlang (a) 10.4 m/s , (b) 10.4 m/s).
- $\vartheta_1 = 1 \text{ m/s}$ tezlik bilan oqayotgan daryoda suvga nisbatan $\vartheta_2 = 2 \text{ m/s}$ tezlik bilan harakat-lanayotgan qayiqning quyidagi hollarda qirg'oqqa

nisbatan tezligi topilsin: 1) qayiq oqim bo'yicha suzganda, 2) qayiq oqimga qarshi suzganda, 3) qayiq oqimga perpendikulyar suzganda.
 (1) 3 m/s , 2) 1 m/s , 3) 2.24 m/s)




1.5-rasm

8. 1.6-rasmida tasvirlangan tezlik va vaqtning bog'lanish grafigini tushintiring.



1.6-rasm

9. Qayiq suvgaga nisbatan 7.2 km/soat tezlik bilan qirg'oqqa tik yo'nalishda harakat qilmoqda. Oqim qayiqni 150 km pastga sudradi. Daryoning kengligi 0.5 km . 1) Daryo oqimining tezligi va 2) qayiqning daryodan o'tishi uchun sarf qilingan vaqt topilsin ($\vartheta = 0.6 \text{ m/s}$, $t = 250 \text{ s}$).
10. Poyezd 36 km/soat tezlikda harakat qilmoqda. Agar bug' berish to'xtatilsa, poyezd tekis sekinlanuvchan harakat qilib 20 s dan keyin to'xtaydi. 1) Poyezdning manfiy tezlanishi topilsin. 2) To'xtash joyidan necha metr narida bug' berishni to'xtatish kerak? ($a = -0.5 \text{ m/s}^2$, $s = 100 \text{ m}$)
11. Beysbolchi to'pni $\vartheta = 43 \text{ m/s}$ tezlik bilan uloqtirgan (1.7-rasm). To'pni uloqtirishda beysbolchi 3.5 m masofagacha tezlanish bergen bo'lsa tezlanishning qiymatini hisoblang (260 m/s^2).



1.7-rasm

12. Vagon -0.5 m/s^2 manfiy tezlanish bilan tekis sekinlanuvchan harakat qilmoqda. Vagonning boshlang'ich tezligi 54 km soat . Vagon qancha vaqtadan keyin va boshlang'ich nuqtadan qancha masofada to'xtaydi? ($t = 30 \text{ s}$, $S = 225 \text{ m}$).
13. Jismning bosib o'tgan yo'li s ning t vaqtga bog'lanishi $s = A - Bt + Ct^2$ tenglama orqali berilgan, bunda $A = 6 \text{ m}$, $B = 3 \text{ m/s}$, $C = 2 \text{ m/s}^2$. Jismning 1 sekunddan 4 sekundgacha bo'lgan vaqt oralig'idagi o'rtacha tezligi va o'rtacha tezlanishi topilsin. $0 \leq t \leq 5 \text{ s}$ intervalda 1 sekund oralatib yo'l, tezlik va tezlanishning grafigi chizilsin ($\vartheta = 7 \text{ m/s}$, $a = 4 \text{ m/s}^2$).
14. Jismning bosib o'tgan yo'li s ning t vaqtga bog'lanishi $s = A - Bt + Ct^2$ tenglama orqali berilgan, bunda $A = 3 \text{ m}$, $B = 2 \text{ m/s}$, $C = 1 \text{ m/s}^2$. Jism harakatining birinchi, ikkinchi va uchinchi sekund oralig'idagi o'rtacha tezligi va tezlanishi topilsin ($\vartheta_1 = 3 \text{ m/s}$, $\vartheta_2 = 5 \text{ m/s}$, $\vartheta_3 = 7 \text{ m/s}$, $a_1 = a_2 = a_3 = 2 \text{ m/s}^2$).
15. $\vartheta_0 = 2 \text{ m/s}$ boshlang'ich tezlikka ega bo'lgan moddiy nuqta $t_1 = 3 \text{ s}$ davomida tekis, $t_2 = 2 \text{ s}$ davomida $a_2 = 2 \text{ m/s}^2$ tezlanish bilan, $t_3 = 5 \text{ s}$ davomida $a_3 = 1 \text{ m/s}^2$ tezlanish bilan, $t_4 = 2 \text{ s}$ da $a_4 = -3 \text{ m/s}^2$ tezlanish bilan va nihoyat $t_5 = 2 \text{ s}$ davomida t_4 vaqt oralig'i oxirida olgan tezligi bilan tekis harakat qilgan. Moddiy nuqtaning oxirgi tezligini, bosib o'tgan yo'lini va o'rtacha tezligini aniqlang ($\vartheta = 5 \text{ m/s}$, $S = 82.5 \text{ m}$, $\vartheta_{o'rt} = 5.9 \text{ m/s}$).
16. $\vartheta_0 = 2 \text{ m/s}$ boshlang'ich tezlik bilan harakatlanayotgan jism oltinchi sekundda $S_1 = 24 \text{ m}$ yo'lni bosib o'tgan bo'lsa u qanday tezlanish bilan harakatlangan? Jismning o'n oltinchi sekundda bosib o'tgan yo'li S_2 ni toping ($a = 4.9 \text{ m/s}^2$, $S_2 = 78 \text{ m}$).


17. 225 m uzunlikdagi, doimiy tezlik bilan harakatlanayotgan poyezd telegraf ustuni yonidan 15 sekund davomida o'tadi. Teplovozning uzunligi 450 m bo'lgan tunnelga kirish paytidan oxirgi vagonning tunneldan chiqish paytigacha qancha vaqt o'tadi? Bu poyezd haydovchisining yonidan qarama-qarshi yo'nalishda 10 m/s tezlik bilan ketayotgan 300 m uzunlikdagi poyezd qancha vaqtida o'tadi?

$$(t_1 = 45 \text{ s}, t_2 = 12 \text{ s}).$$

18. Vertikal yuqoriga otilgan jism 3 sekund dan keyin yerga qaytib tushdi.

1) Jismning boshlang'ich tezligi qanday bo'lgan? 2) Jism qanday balandlikka ko'tarilgan. Havoning qarshiligi hisobga olinmasin.

$$(\vartheta_0 \approx 14.7 \text{ m/s}, h \approx 11 \text{ m}).$$



1.8-rasm

19. Jism $h = 19.6 \text{ m}$ balandlikdan boshlang'ich tezliksiz tushmoqda. 1) Jism o'z harakatining birinchi 0.1 sekundida qancha yo'l bosadi? 2) Oxirgi 0.1 sekunddachi? Havoning qarshiligi hisobga olinmasin ($h_1 = 0.049 \text{ m}, h_2 = 1.9 \text{ m}$).


20. Tosh balandligi 75 m bo'lgan qoyadan yuqoriga vertikal ravishda 15.5 m/s tezlikda otildi (1.8-rasm). a) tosning qancha vaqt harakatlanganini, b) toshni suvga qanday tezlikda urilishini, c) tosh qancha masofa bosib o'tishini hisoblang

$$(a) 5.8 \text{ s}, (b) 41.4 \text{ m/s}, (c) 99.5 \text{ m}).$$

21. $\vartheta_1 = 4 \text{ m/s}$ tezlik bilan ko'tarilayotgan aerostat gondolasidan Yerdan $h = 40 \text{ m}$ balandlikda yuqoriga aerostatga nisbatan $\vartheta_2 = 6 \text{ m/s}$ tezlik bilan jism otilgan. Jism qancha vaqtida keyin Yerga tushadi? Shu paytda aerostat qanay balandlikda bo'ladi? ($t = 4 \text{ s}, h = 56 \text{ m}$).

22. Jism boshlang'ich tezliksiz $t_1 = 6 \text{ s}$ da Yerga erkin tushadigan balandlikdan shu jismni $\vartheta_0 = 39.2 \text{ m/s}$ boshlang'ich tezlik bilan tashlansa, u qancha vaqtida keyin Yerga tushadi? ($t_2 = 3.21 \text{ s}$).

§2. Aylanma harakat kinematikasi



- Umumiy holda aylanma harakatda burchak tezlik va burchak tezlanishi:

$$\omega = \frac{d\varphi}{dt}, \quad \varepsilon = \frac{d\omega}{dt} = \frac{d^2\varphi}{dt^2}$$



Bunda: φ -jismning t vaqtdagi burilish burchagi.

- Aylanma bo'y lab tekis harakatda burchak tezlik va burchak tezlanish:

$$\omega = \frac{\varphi}{t} = \text{const}, \quad \varepsilon = 0$$

- Agar jism aylanma uzunligini tekis harakat qilib bosib o'tsa, u holda:

$$\omega = \frac{\varphi}{t} = \frac{2\pi}{T} = 2\pi\nu = \text{const}$$



2.1-rasm

- Aylanma bo'y lab tekis o'zgaruvchan harakat tenglamalari:

$$\varepsilon = \text{const}, \quad \omega = \omega_0 + \varepsilon t, \quad \varphi = \omega_0 t + \frac{\varepsilon t^2}{2}$$

- Shuni aytib o'tish kerakki, ilgarilanma harakatdan farqli o'lar oq aylanma harakatda burchak tezlik va burchak tezlanishlardan tashqari chiziqli tezlik va tezlanish ham mavjud, chiziqli tezlik:

$$g = \frac{\Delta \tilde{S}}{\Delta t} = \frac{2\pi R}{T} = 2\pi R\nu$$

bunda $\Delta \tilde{S}$ - Δt vaqt ichida jism o'tgan yoy uzunligi, R - aylanma radiusi, T - aylanish davri, ν - aylanish chastotasi bo'lib, $\nu = \frac{1}{T}$.

- Chiziqli to'liq tezlanish:

$$a = \sqrt{a_n^2 + a_t^2}$$


Bunda a_t -tangensial va a_n -normal tezlanishlar bo'lib: $a_t = \frac{d\vartheta}{dt} - \vec{\vartheta}$ -tezlik vektori bo'ylab yo'nalgan $a_n = \frac{\vartheta^2}{R} - \vec{\vartheta}$ -tezlik vektoriga perpendikulyar, ya'ni aylana radiusi bo'ylab aylana markaziga tomon yo'nalgan, shuning uchun u markazga intilma tezlanish deyiladi.

- Chiziqli va burchak tezliklar orasidagi bog'lanish va tezlanishlar orasidagi bog'lanish:

$$\vartheta = \omega R, a_t = \varepsilon R, a_n = \omega^2 R$$

Masala yechish namunalari

1. Maxovik g'ildirak 1min da 720 ayl/min ga mos tezlikka erishdi, g'ildirakning burchak tezlanishini toping (2.2-rasm).



2.2-rasm

Berilgan: $t = 1 \text{ min} = 60 \text{ s}$, $\nu = 720 \text{ ayl/min} = 12 \text{ ayl/s}$

Topish kerak: $\varepsilon - ?$

Yechilishi: G'ildirak harakati tekis tezlanuvchan aylanma harakat bo'lganligi uchun, $\omega = \omega_0 + \varepsilon t$ (1), shartga ko'ra $\omega_0 = 0$ va $\omega = \varepsilon t$ (2), bundan $\varepsilon = \frac{\omega}{t}$ (3) ikkinchidan, $\omega = 2\pi\nu$ bo'lgani uchun: $\varepsilon = \frac{2\pi\nu}{t}$ (4). (4) ifoda orqali ε ni hisoblaymiz: $\varepsilon = 1.26 \text{ rad/s}^2$.

2. Nuqta $R=2sm$ radiusli aylana bo'ylab harakatlanadi, yo'lning vaqtga bog'lanishi $S=Ct^3$ tenglama orqali berilgan, bunda $C=0.1sm/s^2$, chiziqli tezlik $\vartheta=0.3 m/s$ bo'lsa, normal va tangensial tezlanishlarni toping.

Berilgan: $R = 2 \text{ sm} = 2 \cdot 10^{-2} \text{ m}$, $S = Ct^3$, $C = 0.1 \text{ sm/s}^3 = 10^{-3} \text{ m/s}^3$, $\vartheta = 0.3 \text{ m/s}$

Topish kerak: $a_t - ?, a_n - ?$

Yechilishi: Quyidagilarga egamiz:

$a_n = \frac{g^2}{R}$ (1), $\vartheta = \frac{dS}{dt} = \frac{d}{dt}(Ct^3) = 3Ct^2$ (2), bundan $t = \sqrt{\frac{\vartheta}{3C}} = 10 \text{ s}$. Tangensial tezlanish uchun: $a_t = \frac{d\vartheta}{dt} = \frac{d}{dt}(3Ct^2) = 6Ct$ (3). (1) ifoda orqali a_n ni hisoblaymiz: $a_n = 4.5 \text{ m/s}^2$. (3) ifoda orqali a_t ni hisoblaymiz: $a_t = 0.06 \text{ m/s}^2$.

Javobi: $a_n = 4.5 \text{ m/s}^2$, $a_t = 0.06 \text{ m/s}^2$.

3. G'ildirak o'zgarmas $\varepsilon = 2 \text{ rad/s}^2$ burchak tezlanish bilan aylanmoqda, harakat boshlangandan $t = 0.5 \text{ s}$ o'tgach, uning gardishidagi nuqtaning to'la tezlanishi $a = 13.6 \text{ sm/s}^2$ ga teng bo'lsa, uning radiusini toping.

Berilgan: $\varepsilon = 2 \text{ rad/s}^2$, $t = 0.5 \text{ s}$, $a = 13.6 \text{ sm/s}^2$

Topish kerak: $R - ?$

Yechilishi: Quyidagini yozamiz: $a = \sqrt{a_t^2 + a_n^2} = a_t \sqrt{1 + \varepsilon^2 t^4}$ (1)

Ushbu tenglikni quyidagicha isbotlaymiz:

Ma'lumki, $a = \sqrt{a_n^2 + a_t^2}$, $a_n = \omega^2 R$ (2). Agar $\omega = \varepsilon t$ ekanligini hisobga olsak, $a_n = \varepsilon^2 t^2 R$ (3), $a_t = \varepsilon R$ (4). (4) dan R ni topib (3) ifodaga qo'ysak, $a_n^2 = \varepsilon^2 t^4 a_t^2$ (5) (5) ni (2) ga olib borib qo'yamiz:

$$a = \sqrt{a_t^2 + \varepsilon^2 t^4 a_t^2} = a_t \sqrt{1 + \varepsilon^2 t^4} \quad (6)$$

$$a_t = \frac{a}{\sqrt{1 + \varepsilon^2 t^4}} \quad (7)$$

(4) va (7) ni tenglashtirib quyidagiga ega bo'lamiz:


$$R = \frac{a}{\varepsilon \sqrt{1 + \varepsilon^2 t^4}} \quad (8)$$

(8) tenglikdan hisoblashlar natijasida $R = 6.1 \text{ m}$ ekanligini topiladi.


Javobi: 6.1 m .

Mustaqil yechish uchun masalalar:


1. Aylanma harakat qilayotgan g'ildirak gardishidagi no'qtaning ϑ_B chiziqli tezligi gardishdan o'qqa 5 sm yaqin bo'lgan nuqtasining ϑ_A chiziqli tezligidan 2.5 marta katta bo'lsa, g'ildirakning radiusi topilsin (2.3-rasm) ($R = 8.33 \text{ sm}$).



2.3-rasm



2. Maxovik g'ildirak harakat boshlanishidan $t = 1 \text{ min}$ o'tgach $\vartheta = 720 \text{ ayl/min}$ ga mos tezlikka erishadi. G'ildirakning burchak tezlanishi va 1 min dagi aylanishlar soni topilsin. Harakat tekis tezlanuvchan deb hisoblansin ($\varepsilon = 1.26 \text{ rad/s}^2$, $N = 360 \text{ ayl}$).
3. Nuqta $R = 20 \text{ sm}$ radiusli aylana bo'ylab o'zgarmas $a_t = 5 \text{ m/s}^2$ tangensial tezlanish bilan harakatlanadi. Harakat boshlanishidan qancha vaqt o'tgach nuqtaning a_n normal tezlanishi: 1) tangensial tezlanishga teng, 2) tangensial tezlanishdan ikki marta katta bo'ladi (2.4-rasm)? ($t_1 = 2 \text{ s}$, $t_2 = 2.8 \text{ s}$). **2.4-rasm**
4. Nuqta $R = 10 \text{ sm}$ radiusli aylana bo'ylab o'zgarmas tangensial tezlanish a_t bilan harakatlanadi. Agar harakat boshlangandan keyingi beshinchisi marta aylanish oxirida nuqtaning tezligi $\vartheta = 79.2 \text{ sm/s}$ ga teng bo'lsa, nuqtaning a_t tezlanishi topilsin (2.5-rasm), ($a_t = 0.1 \text{ m/s}^2$).



2.5- rasm

5. Nuqta $R = 10 \text{ sm}$ radiusli aylana bo'ylab o'zgarmas tangensial tezlanish a_t bilan harakatlanadi. Agar harakat boshlangandan keyingi

beshinchi marta aylanish oxirida nuqtaning tezligi $\vartheta = 10 \text{ sm/s}$ ga teng bo'lsa, harakat boshlangandan $t = 20 \text{ s}$ o'tgandan keyin a_n normal tezlanishi topilsin ($a_t = 0.01 \text{ m/s}^2$).


6. Nuqta aylana bo'ylab shunday harakatlanadiki, jismning bosib o'tgan yo'li s ning t vaqtga bog'lanishi $S = A + Bt + Ct^2$ tenglama orqali berilgan, bunda $B = -2 \text{ m/s}$, $C = 1 \text{ m/s}^2$. Adar harakat boshlangandan 2 sekund o'tgach nuqtaning normal tezlanishi $a = 0.5 \text{ m/s}^2$ bo'lsa, harakat boshlanishidan 3 sekund o'tgach nuqtaning chiziqli tezligi, tangensial, normal va to'la tezlanishi topilsin
($\vartheta = 4 \text{ m/s}$, $a_t = 2 \text{ m/s}^2$, $a_n = 2 \text{ m/s}^2$, $a = 2.8 \text{ m/s}^2$).
7. Avtomobil egrilik radiusi $R = 500 \text{ m}$ bo'lgan burilishda $t = 11 \text{ s}$ davomida o'z tezligini $\vartheta_1 = 15 \text{ m/s}$ dan $\vartheta_2 = 35 \text{ m/s}$ gacha oshirdi. Avtomobil tangensial tezlanishini aniqlang ($a_t = 3.2 \text{ m/s}^2$).
8. G'ildirak o'zgarmas $\varepsilon = 2 \text{ rad/s}^2$ burchak tezlanish bilan aylanadi. Harakat $t = 0.5 \text{ s}$ o'tgach g'ildirakning to'la tezlanish $a = 13.6 \text{ sm/s}$ ga teng bo'lsa, uning radiusi topilsin ($R = 6.1 \text{ m}$).
9. Velosiped g'ildiragi $t = 0.5 \text{ min}$ da $N = 60$ marta tekis aylangan bo'lsa, g'ildirakning aylanish davri, aylanish chastotasi, burchak tezligi va velosipedchining chiziqli tezligini toping. Velosiped g'ildiragining radiusi $R = 40 \text{ sm}$ ga teng ($t = 0.5 \text{ s}$, $v = 2 \text{ s}^{-1}$, $\omega = 12.56 \text{ rad/s}$, $\vartheta = 5.024 \text{ m/s}$).
10. Yerning sun'iy yo'ldoshi Yerning bir nuqtasi ustida turgandek ko'rinishi uchun u qanday orbita bo'ylab, qanday balandlikda harakatlanishi kerak? Yerning radiusini 6370 km deb oling
($h = 35830 \text{ km}$, $T = 24 \text{ soat}$).
11. Yerning sun'iy yuldushi doiraviy orbita bo'ylab $\vartheta = 8 \text{ km/s}$ tezlik va $T = 96 \text{ min}$ davri bilan aylanmoqda. Sun'iy yulduoshning Yer atrofidagi balandligini toping. Yer radiusini $R = 6400 \text{ km}$ deb oling ($h = 938 \text{ km}$).
12. Sun'iy y'dosh Yer atrofini doiraviy orbita bo'ylab 100 minutda aylanib chiqishi mumkinmi? 80 minutdachi? Yerning radiusini 6370 km deb oling (Mumkin, $h = 760 \text{ km}$, mumkin emas).
13. Yer ekvatoridagi nuqtaning chiziqli va markazga intilma tezlanishlarini aniqlang. Yer sharining radiusini $R = 6400 \text{ km}$ deb oling ($\vartheta = 465 \text{ m/s}$, $a_n = 0.034 \text{ m/s}^2$).
14. Yerning sutkalik aylanishi ($T = 24 \text{ soat}$) aylanishida Toshkent kengligi ($\varphi_1 = 41^\circ 20'$) da va Sankt-Peterburg kengligi ($\varphi_2 = 60^\circ$) da Yer sirtidagi nuqtalarning chiziqli tezliklari va markazga intilma tezlanishlarini toping. Yer radiusini $R = 6400 \text{ km}$ deb oling

($\vartheta_1 = 149 \text{ m/s}$, $\vartheta_2 = 232 \text{ m/s}$, $a_1 = 1.08 \cdot 10^{-2} \text{ m/s}^2$, $a_2 = 1.69 \cdot 10^{-2} \text{ m/s}^2$).

15. Bir-biridan $l = 0.5 \text{ m}$ masofada ikki disk maxkamlangan o'q $v = 1200 \text{ ayl/min}$ chastotaga mos burchakli tezlik bilan aylanma harakat qilmoqda. Disk o'qiga parallel ravishda uchib borayotgan o'q diskлarni teshib o'tadi. Bunda ikkinchi diskdagi teshik birinchi diskdagiga nisbatan $\varphi = 9^\circ$ burchakka burilgan bo'lsa, o'qning tezligini toping ($\vartheta = 40 \text{ m/s}$).
16. Vodorod atomidagi elektron taxminan $R = 5 \cdot 10^{-11} \text{ m}$ radiusli Bor orbitasi bo'y lab o'zgarmas $\vartheta = 2.2 \cdot 10^6 \text{ m/s}$ tezlik bilan harakatlansa, elektronning yadro atrofidagi aylanma harakatining burchak tezligi va markazga intilma tezlanishlarini toping ($\omega = 4.4 \cdot 10^{16} \text{ rad/s}$, $a_n = 9.68 \cdot 10^{22} \text{ m/s}^2$).
17. Bola uzunligi $L = 0.6 \text{ m}$ bo'lgan ipga bog'lagan toshni vertikal tekislikda $v = 240 \text{ ayl/min}$ chastota tezlik bilan aylantirilmoqda. Agar toshning tezligi mos ravishda yuqoriga yo'nalgan paytda ip uzilib ketsa, tosh qanday balandlikka ko'tariladi? ($h = 11.6 \text{ m}$).
18. Tosh gorizontal yo'nalishda 10 m/s tezlik bilan otilgandan 3 s o'tgach, tosh trayektoriyasining egrilik radiusi topilsin. Havoning qarshiligi hisobga olinmasin ($R = 3.5 \text{ m}$).
19. Samolyotdagi yo'lovchiga Quyosh osmonda qo'zg'almay turgandek ko'rinishi uchun, samolyot ekvator bo'y lab g'arbdan sharqqa tomon qanday tezlik bilan harakatlanishi kerak? ($\vartheta = 1660 \text{ km/soat}$).
20. Nuqta $R = 2 \text{ sm}$ radiusli aylana bo'y lab harakatlanadi. Yo'lning vaqtga bog'lanishi $x = Ct^3$ tenglama orqali berilgan, bunda $C = 0.1 \text{ sm/s}$. Tezligi $\vartheta = 0.3 \text{ m/s}$ ga teng bo'lganda nuqtaning normal va tangensial tezlanishi topilsin ($a_n = 4.5 \text{ m/s}^2$, $a_t = 0.06 \text{ m/s}^2$).
21. Massasi $m = 150 \text{ g}$ bo'lgan sharcha radiusi $R = 0.6 \text{ m}$ bo'lgan aylana bo'y lab $T = 2 \text{ s}$ davr bilan tekis aylanmoqda. Sharcha markazga intilma tezlanishini aniqlang ($a = 94.7 \text{ m/s}^2$).
22. Oyning Yer atrofida aylanish davri $T = 27.3 \text{ sutka}$ va aylanish radiusi $R = 384000 \text{ km}$ ekanligini bilgan holda Oyning markazga intilma tezlanishini aniqlang ($a_n = 2.72 \cdot 30^{-3} \text{ m/s}^2$).
23. Yer hisobida Mars sayyorasi aylanish davri 687 kun. Yerdan Quyoshgacha masofa 150 mln. km ekanligini bilgan holda Mars sayyorasining Quyoshdan uzoqligini hisoblang. ($R = 2.28 \cdot 10^{11} \text{ m}$).
24. Tosh gorizontga 60° burchak ostida $\vartheta_0 = 10 \text{ m/s}$ tezlik bilan otilgan. Trayektoriyaning eng yuqori va oxiridagi egrilik radiuslarini toping

$(R_1 = 2.5 \text{ m}, R_2 = 20 \text{ m})$.

25. Gorizontga nisbatan $\alpha = 30^\circ$ burchak ostida $\vartheta_0 = 12 \text{ m/s}$ boshlang'ich tezlik bilan otilgan toshning ko'tarilish balandligi H , uchish vaqtini t va uchish uzoqligini S_x ni toping ($H = 18.4 \text{ m}$, $t = 1.22 \text{ s}$, $S_x = 12.7 \text{ m}$).
26. Futbolchi 1 m balandlikdagi to'pni 20 m/s tezlik bilan gorizontga nisbatan 37° burchak ostida tepdi. To'p qancha vaqtida va qanday masofaga borib tushishini aniqlang (2.6-rasm). (2.53 s , 40.5 m)



2.6-rasm

27. Tosh gorizontal otilgandan 0.5 sekund o'tgach, uning tezligi boshlang'ich tezligidan 1.5 marta katta bo'lган. Toshning boshlang'ich tezligi topilsin. Havoning qarshiligi hisobga olinmasin ($\vartheta_0 \approx 4.4 \text{ m/s}$).
28. $H = 500 \text{ m}$ balandlikda $\vartheta_0 = 108 \text{ km/soat}$ tezlik bilan uchayotgan vertolyotdan unga qarama-qarshi yo'nalishda $\vartheta = 36 \text{ km/soat}$ tezlik bilan harakatlanayotgan turistlar teploxdodiga vimpel tashlanishi kerak. Uchuvchi teploxdoddan qanday masofada vimpelni tashlashi kerak? ($s = 400 \text{ m}$).



§3. Moddiy nuqta dinamikasi

- Dinamikaning asosiy qonuni: $\vec{F} = m\vec{a}$ yoki $F = m \frac{d\vartheta}{dt}$
- Agar $m = const$ bo'lsa u holda: $F = \frac{d(m\vartheta)}{dt} = m \frac{d\vartheta}{dt}$

bunda m -massasi m bo'lgan jismning F kuch ta'sirida olgan tezlanishi.

- Jismning impulsi: $\vec{k} = m\vec{g}$.
- Jism impulsining o'zgarishi kuch impulsiga teng: $dk = d(m\vec{g}) = Fdt$ yoki $\Delta k = F\Delta t$.
- Jism impulsining saqlanish qonuni:

$$\vec{k}_1 + \vec{k}_2 + \dots + \vec{k}_n = \sum_{i=1}^n \vec{k}_i = \sum_{i=1}^n m_i \vec{g}_i = const$$

- Massalari m_1 va m_2 bo'lgan ikki jismning noelastik markaziy to'qnashuvdan keyin olgan umumiy tezligi:

$$\vec{g} = \frac{m_1 \vec{g}_1 + m_2 \vec{g}_2}{m_1 + m_2}$$

bunda g_1 va g_2 mos holda m_1 va m_2 massali jismlarning to'qnashuvdan avvalgi tezliklari.

- Agar jismlar elastik to'qnashsa, to'qnashuvdan keyin turli tezliklar oladi, massasi m_1 bo'lgan birinchi jismning olgan tezligi:

$$u_1 = \frac{(m_1 - m_2)g_1 + 2m_2 g_2}{m_1 + m_2}$$

- Massasi m_2 bo'lgan ikkinchi jismning olgan tezligi:

$$u_2 = \frac{(m_2 - m_1)g_2 + 2m_1 g_1}{m_1 + m_2}$$

- O'zgarmas kuchning bajargan ishi: $dA = (\vec{F} \cdot d\vec{S})$ va $A = \int (\vec{F} \cdot d\vec{S})$ yoki $A = FS \cos\alpha$ va $A = (\vec{F} \cdot d\vec{S})$.

bunda, α - \vec{F} kuch va \vec{S} ko'chish vektorlari orasidagi burchak.

- O'zgarmas quvvat: $N = \frac{\Delta A}{\Delta t}$, bunda ΔA -t vaqt ichida bajarilgan ish.
- Mexanikada kuchlar:
- Elastiklik kuchi, Guk qonuniga ko'ra deformatsiya Δl ga proporsional: $F = k\Delta l$, bunda k-bikrlik deyiladi.
- Og'irlilik kuchi va jismning og'irligi $P = mg$, $g = 9.81 m/s^2$.
- Butun olam tortishish qonuni $F = \gamma \frac{m_1 m_2}{R^2}$, $\gamma = 6.67 \cdot 10^{-11} Nm^2/kg^2$, bunda R-ikkala jismlar massalar markazi orasidagi masofa.
- Ishqalanish kuchi normal bosim kuchiga proporsional $F_{ishq} = \mu P_n$, μ -ishqalanish koeffisiyenti.

- Kinetik energiya: $W_k = \frac{m\vec{g}^2}{2}$

- Og'irlilik kuchi maydonidagi jismning potensial energiyasi: $W_p = mgh$

h- jismning Yerdan balandligi.

- Energiyaning saqlanish qonuni: $W = W_k + W_p = \frac{m\vartheta^2}{2} + mgh = const$

- Jismning gravitasion maydonidagi potensial energiyasi: $W_p = \gamma \frac{mM}{r}$
yoki $W_p = \int F dr$.

Masala yechish namunalari

- Og'irligi $F = 10^4 N$ bo'lgan avtomobil tormozlangandan keyin $t = 5 s$ davomida tekis sekinlanuvchan harakat qilib, $S = 25 m$ masofani o'tib to'xtadi, tormozlanish kuchini toping.

Berilgan: $P = 10^4 N$, $t = 5 s$, $S = 25 m$

Topish kerak: $F - ?$

Yechilishi: Nyutonning ikkinchi qonuniga ko'ra $F = ma$ (1), bunda F -tormozlovchi kuch, m -avtomobil massasi, a -tekis sekinlanuvchan harakatda avtomobilning manfiy tezlanishi. Ikkinchi tomondan tekis o'zgaruvchan harakat uchun $a = \frac{2S}{t^2}$ (2). Shuningdek, $m = \frac{P}{g}$ (3). (2) va (3) ni (1) ga qo'yib quyidagini yozamiz: $F = \frac{P}{g} \frac{2S}{t^2}$ (4). Ushbu tenglama orqali F ni hisoblaymiz va $F = 2 kN$.

- $m = 0.5 kg$ massali jism $S = A - Bt + Ct^2 - Dt^3$ qonuniyat bo'yicha harakatlanmoqda, $C = 5 m/s^2$ va $D = 1 m/s^3$, birinchi sekund oxirida jismga ta'sir qiluvchi kuchni toping.

Berilgan: $m = 0.5 kg$, $S = A - Bt + Ct^2 - Dt^3$, $C = 5 m/s^2$, $D = 1 m/s^3$, $t = 1 s$

Topish kerak: $F - ?$

Yechilishi: Nyutonning ikkinchi qonuniga ko'ra $F = ma$ (1), umumiy holda

tezlanish $a = \frac{d^2 S}{dt^2}$ (2), (3) dan foydalanib jismning harakat tenglamasini quyidagicha yozamiz:

$$\frac{dS}{dt} = \frac{d}{dt}(A - Bt + Ct^2 - Dt^3) = -B + 2Ct - 3Dt^2 \text{ va}$$

$$a = \frac{d^2 S}{dt^2} = \frac{d}{dt} \left(\frac{dS}{dt} \right) = \frac{d}{dt} (-B + 2Ct - 3Dt^2) = 2C - 6Dt$$

Demak, $a = 2C - 6Dt$ (3), (3) ni (1) ga olib borib qo'ysak $F = m(2C - 6Dt)$ (4).

Masala shartidagi kattaliklarni (4) ga qo'yib hisoblaymiz. Javobi: $F = 2 N$.

3. Biror diametrli po'lat sim $F=4400N$ gacha kuchga bardosh bera oladi, bu simga $P=3900N$ yuk osib uzilib ketmasligi uchun uni qanday tezlanish bilan yuqoriga ko'tarish lozim?

Berilgan: $F = 4400N$, $P = 3900N$, $g = 9.81 m/s^2$

Topish kerak: $a - ?$

Yechilishi: Jism a tezlanish bilan yuqoriga ko'tarilayotganligi uchun:


$$F = m(g + a) \quad (1)$$

Ikkinchidan bizga ma'lumki: $P = mg$ (2), (2) va (1) tengliklardan foydalanib tezlanishni hisoblaymiz: $F = \frac{P}{g}(g + a)$, $a = g(\frac{F}{P} - 1)$ (4).

Javobi: $a = 1.25 m/s^2$.

Mustaqil yechish uchun masalalar


1. Og'rligi $10^4 N$ bo'lgan avtomobil 5 sekund tormozlangandan keyin tekis sekinlanuvchan harakat qilib, 25 m masofani o'tib to'xtaydi. 1) Avtomobilning boshlang'ich tezligi, 2) tormozlanish kuchi topilsin ($\vartheta_0 = 36 km/soat$, $F = 208 kG$).
2. Avtomobil $\vartheta_0 = 100 km/h$ tezlik bilan tormozlangandan sekinlanuvchan harakat qilib, 55 m masofani o'tib to'xtaydi (3.1-rasm). Tormozlanish kuchini aniqlang ($F = 1.1 \cdot 10^4 N$).



3.1-rasm

3. 0.5 kg massali jism shunday to'g'ri chiziqli harakatlanadiki, u o'tgan s yo'lning t vaqtga bog'lanishi $S = A - Bt + Ct^2 - Dt^3$ tenglama bilan berilgan, bunda $C = 5 m/s^2$ va $D = 1 m/s^3$. Harakatning birinchi sekundi oxirida jismga ta'sir qiluvchi kuchning kattaligi topilsin ($F = 2N$).
4. Massasi $3 \cdot 10^4 kg$ bo'lgan vagon gorizontal tekislikda o'zgarmas $1.5 m/s$ tezlik bilan harakatlanib tich turgan massasi $2 \cdot 10^4 kg$ bo'lgan ikkinchi vagonga ulandi. Vagonlarning tuqnashuvdan keying tezligini aniqlang ($0.9 m/s$).
5. $\vartheta = 600 m/s$ tezlik bilan uchayotgan $m = 4.65 \cdot 10^{-26} kg$ massali molekula idish devoriga tik uriladi va tezligini o'zgartirmasdan devordan elastik qaytadi. Urilish vaqtida idish devoriga berilgan kuch impulsini topilsin ($5.6 \cdot 10^{-23} N \cdot s$).

6. A va B ishchilarning qayiqni surishdagi natijaviy kuchuni hisoblang (3.2-rasm), ($F = 53.3\text{N}$).




3.2-rasm

7. Og'irligi 1kG jism 1m/s tezlik bilan gorizontal harakatlanib, 0.5kG og'irlilikdagi jismni quvib yetadi va u bilan noelastik to'qnashadi. 1) Ikkinchi jism harakatsiz turgandagi, 2) ikkinchi jism birinchi jismning yo'nalishida 0.5m/s tezlikda harakat qilganda, 3) ikkinchi jism birinchi jismga qarama-qarshi yo'nalishda 0.5m/s tezlik bilan harakat qilgandagi hollar uchun jismlarning urilishdan keyingi tezliklari topilsin (0.67m/s , 0.83m/s , 0.5m/s).
8. Avtomobilning og'irligi $9.8 \cdot 10^3\text{N}$. Avtomobil harakatlanayotganda unga o'z og'irligining 0.1 qismiga teng bo'lgan ishqalanish kuchi ta'sir etadi. 1)Avtomobil tekis harakatlanganda motorming tortish kuchi qancha bo'lishi kerak? 2)Avtomobil 2m/s^2 tezlanish bilan harakat qilgandachi? ($F_1 = 980\text{N}$, $F_2 = 3000\text{N}$).
9. Temir yo'l vagoni tormozlanganda, uning tezligi $\Delta t = 3.3\text{s}$ vaqt oralig'ida $s_1 = 47.5\text{km/soat}$ dan $s_2 = 30\text{km/soat}$ gacha bir tekis o'zgaradi. Vagon tormozlanganda, polkadagi chamadon siljiy boshlashi uchun, chamadon bilan polka orasidagi ishqalanish koeffisiyentining chegaraviy qiymati qancha bo'lishi kerak? ($k = 0.15$)
- 10.Mutloq silliq stol ustida bir-biriga cho'zilmas, vaznsiz ipga bog'langan ikkita qutichalar joylashgan bo'lib, qutichalarning massasi $m_1 = 12\text{ kg}$ va $m_2 = 10\text{ kg}$. 12kg massali qutichaga gorizontal ravishda $F = 40\text{N}$ kuch ta'sir qilmoqda. Har bir quticha olgan tezlanish va ipning taranglik kuchi topilsin ($a = 1.82\text{m/s}^2$, $T = 21.8\text{N}$).
- 11.Og'irligi $P = 2\text{kG}$ yukni $h=1\text{m}$ balandlikka F o'zgarmas kuch bilan vertikal ko'tarishda $A = 8\text{kG}\cdot\text{m}$ ish bajargan. Yuk qanday tezlanish bilan ko'tarilgan? ($a = 29.4\text{ m/s}^2$).
- 12.Dvigatelning o'rtacha quvvati 15 o.k. (ot kuchi) ga teng bo'lgan avtomobil 100 km yo'lni 30 km/soat o'rtacha tezlik bilan bosib o'tganda qancha miqdor benzin sarflaydi? Dvigatel FIK i 22% ga


teng, benzinning issiqlik berish qobiliyati $4.7 \cdot 10^7 \text{ J/kg}$ ga teng, 1 o.k. = 736W ($m=13\text{kg}$).

13.Og'irligi 2kG bo'lgan tosh ma'lum balandlikdan yerga 1.43s da tushadi. Toshning yo'lning o'rta nuqtasidagi kinetik va potensial energiyasi topilsin. Havoning qarshiligi hisobga olinmasin ($W_k = W_p = 98.1\text{J}$).

14.Massasi m bo'lgan o'q gorizontal ravishda uchib kelib ipga osilgan M massali taxtachaga kelib urildi va unga tifilib qoldi. Natijada taxtacha h balandlikka ko'tarildi. O'qning urilishdan oldingi tezligini aniqlang (3.3-rasm), ($\vartheta = \frac{m+M}{m} \sqrt{2gh}$).




(a)




3.3-rasm

15.Bilyard shari A gorizontal yunalishda $\vartheta_A = 3.0 \text{ m/s}$ tezlik bilan uchib kelib tinch holatdagi B sharga urildi. Hatijada sharlar 3.4-rasmdagidek o'z yo'nalishini o'zgartirib harakatlana boshladi. Urilishdan keying sharchalarning tezliklarini aniqlang.



3.4-rasm


16. Har to'rt yuz yilda bir qancha sayyoralar Quyoshga nisbatan bi tomonda bir to'g'ri chiziqga joylashadi. Sayyoralarning massalari mos ravishda: $m_V = 0.815m_{Yer}$, $m_Y = 318m_{Yer}$, $m_s = 95.1m_{Yer}$. Quyoshdan uzoqligi mos ravishda 108, 150, 778 va 1430 million km. (3.5-rasm). Yerga ta'sir qiluvchi natijaviy kuch va ta'sir kuchining ulushini aniqlang ($9.6 \cdot 10^{17} N$, $2.7 \cdot 10^{-5}$).



3.5-rasm

17. Galley kometasi har 76 yilda Quyoshga yaqinlashadi. Bunda kometa Quyoshga yetarlicha yaqinlashadi. Kometaning Quyoshdan eng uzoq masofasini toping. Kometa qaysi sayyoraga eng yaqin keladi? ($5.4 \cdot 10^{12} m$, *Pluton*).

18. Gorizontal yunalishda tarang tortilgan 10 m uzunlikdagi arqon ustidan massasi 50 kg bo'lgan dorboz o'tmoqda (3.6-rasm). Dorboz arqon o'rtasiga kelganda arqon gorizontga nisbatan 10^0 pasaygan bo'lsa, arqonning taranglik kuchini toping ($1410 N$).




3.6-rasm

19. Massasi 870 kg bo'lgan ko'tarma kranga yuk osilgan. Kran bir necha soniyada o'nga tomon o'zgarmas tezlikda harakatlanganda yuk vertikalga nisbatan 5 daraja burchakka og'gan (3.7-rasm). Kranning qanday tezlanish bilan harakatlanganligini toping ($0.86 m/s^2$).



3.7-rasm

20. Massasi $m=1\text{kg}$ bo'lgan jism $a=9\text{m/s}^2$ tezlanish bilan tushmoqda. Jismga ta'sir qiluvchi havoning qarshilik kuchini aniqlang ($0.8N$).
21. Massasi 70 kg bo'lgan alpinist mo'rige tuqli va orqasi bilan tiralgan holda turibdi. Tuqli va alpinist orqa tomonining devor bilan ishqalanish koeffisiyenti mos ravishda 0.8 va 0.6 ga teng. Alpinist tushib ketmasligi uchun devorga qanday normal bosim kuchi bilan ta'sir etish kerak? Mo'ri devorini vertikal deb hisoblang ($490N$).
22. Qiyaligi $\theta=30^\circ$ bo'lgan qiya tekislikga ikkita $m_A = m_B = 2.7\text{kg}$ bo'lgan ikkita jism turibdi (3.8-rasm). Agar m_B jism pastga harakatlayotgan bo'lsa, jismlar tezlanishini aniqlang. Ishqalanish koeffisiyenti $k = 0.15$, blok va ipning massalarini hisobga olmang (1.6m/s^2).



3.8-rasm



Albert Eynshteyn(1879-1955)

§4. Maxsus nisbiylik nazariyasini

Nisbiylik nazariyasining fizikaviy asosi quyidagi ikki prinsipga tayanadi:

1. Nisbiylik prinsipi.

Barcha fizikaviy qonuniyatlar istalgan inersial sanoq sistemasida o'rnlidir, ya'ni ayni biror fizik hodisani inersial sanoq sistemalarining birida kuzatish orqali olingan natijalar boshqa inersial sanoq sistemalarida olingan natijalardan farq qilmaydi.

2. Yorug'lik tezligining doimiylik prinsipi.

Yorug'likning vakuumdagi tezligi barcha inersial sanoq sistemalarida birday qiymatga ega bo'lib u yorug'lik manbaining ham kuzatuvchining ham tezligiga bog'liq emas.

Ushbu prinsiplar asosida quyidagi natijalar kelib chiqadi:

- Inersial sanoq sistemasiga nisbatan ϑ tezlik bilan harakatlanayotgan jismning chiziqli o'lchamlari kamayadi:

$$l = l_0 \sqrt{1 - \frac{\vartheta^2}{c^2}}$$

bunda, l -harakatdagi jism chiziqli o'lchami, l_0 - tinch holatdagi jism o'lchami, c -yorug'lik tezligi.

- Inersial sanoq sistemasiga nisbatan ϑ tezlik bilan harakatlanayotgan sistemada vaqt o'tishi sekinlashadi:

$$t = t_0 \sqrt{1 - \frac{\vartheta^2}{c^2}}$$

bunda t -harakatlanayotgan sistemada o'tayotgan vaqt, t_0 -tinch turgan sistemada o'tayotgan vaqt.

- Inersial sanoq sistemasiga nisbatan ϑ tezlik bilan harakatlanayotgan jismning massasi ortadi:

$$m = \frac{m_0}{\sqrt{1 - \frac{\vartheta^2}{c^2}}}$$

- Jismning tinchlikdagi energiyasi quyidagicha bo'ladi:

$$W_0 = m_0 c^2$$

- ϑ -tezlik bilan harakatlanganda to'la energiya quyidagicha o'zgaradi:


$$W_t = mc^2 = \frac{W_0}{\sqrt{1 - \frac{\vartheta^2}{c^2}}}$$

- Jism kinetik energiyasi bilan massasi orasidagi bog'lanish:

$$W_k = W - W_0 \text{ yoki } W_k = m_0 c^2 \left(\frac{1}{\sqrt{1 - \vartheta^2 / c^2}} - 1 \right)$$

- Inersial sanoq sistemasiga nisbatan ϑ tezlik bilan harakatlanayotgan jismning impulsi ortadi:

$$k = \frac{m_0 c^2}{\sqrt{1 - \frac{\vartheta^2}{c^2}}}$$



4.1-rasm

Hayoliy tajribada hisoblanishicha kosmik kemada Yerdagi kuzatuvchiga nisbatan kam vaqt o'tgan (4.1-rasm).

Masala yechish namunalari

1. Harakatdagi jism uzunligining relyativistik qisqarishi 25% ni tashkil qilsa, nisbiy tezlikni toping.

$$\text{Berilgan: } \frac{\Delta l}{l_0} = 0.25, \quad c = 3 \cdot 10^8 \text{ m/s}$$

Topish kerak: $\vartheta - ?$

Yechilishi: Inersial sanoq sistemasiga nisbatan ϑ tezlik bilan harakatlanayotgan jismning chiziqli o'lchamlari kamayadi: $l = l_0 \sqrt{1 - \frac{\vartheta^2}{c^2}}$ (1). Shartga ko'ra $\Delta l = 0.25l$ (2), kelib chiqadi. (2) ni (1) ga qo'yib quyidagilarni olamiz: $0.75l_0 = l_0 \sqrt{1 - \frac{\vartheta^2}{c^2}}$, yoki $0.75 = \sqrt{1 - \frac{\vartheta^2}{c^2}}$,

bundan ikki tomonini kvadratga ko'tarish natijasida $0.5625 = 1 - \frac{\vartheta^2}{c^2}$ ga ega bo'lamiz. Bundan ϑ ni topish qiyin emas $\vartheta = \sqrt{(1 - 0.5625)c^2}$ (3). Ushbu tenglikdan $\vartheta = 2 \cdot 10^8 \text{ m/s}$ kelib chiqadi.

Javobi: $\vartheta = 2 \cdot 10^8 \text{ m/s}$.

2. Harakatdagi elektronning massasi qanday tezlikda unung tinch holatdagi massasidan ikki marta katta bo'ladi?

$$\text{Berilgan: } m = 2m_0, \quad c = 3 \cdot 10^8 \text{ m/s}$$

Topish kerak: $\vartheta - ?$

Yechilishi: Inersial sanoq sistemasiga nisbatan ϑ tezlik bilan harakatlanayotgan jismning massasi ortadi: $m = m_0 / \sqrt{1 - \frac{\vartheta^2}{c^2}}$ (1), bundan $\frac{m_0}{m} = \sqrt{1 - \frac{\vartheta^2}{c^2}}$ (2). Ushbu tenglamaga masala shartidagi $m = 2m_0$ ni ta'sir ettirsak: $\frac{1}{2} = \sqrt{1 - \frac{\vartheta^2}{c^2}}$ (3). Bundan qidiralayotgan ϑ ni topish mumkin: $\vartheta = \frac{c}{2}\sqrt{3}$ (4). Javobi: $2.598 \cdot 10^8 \text{ m/s}$.

3. Elektron tezligi yorug'lik tezligining 95% ini tashkil qilishi uchun u qanday tezlashtiruvchi potensiallar ayirmasidan o'tishi lozim?


Berilgan: $\vartheta = 0.95c$, $e = 1.6 \cdot 10^{-19} \text{ C}$, $m_e = 9.1 \cdot 10^{-31} \text{ kg}$, $c = 3 \cdot 10^8 \text{ m/s}$

Topish kerak: $U = ?$

Yechilishi: Potensiallar ayirmasi U bo'lgan tezlashtirgichdan o'tgan elektron potensial energiyasi $w_p = eU$ (1) ga teng, ikkinchi tomondan $w_k = m_0 c^2 \left(\frac{1}{\sqrt{1 - \vartheta^2/c^2}} - 1 \right)$ (2). Masala shartidagi $\vartheta = 0.95c$ ni (2) tenglikka qo'llasak quyidagi kelib chiqadi: $w_k = 2.2m_0 c^2$ (3). (1) bilan (3) ni tenglashtiramiz: $eU = 2.2m_0 c^2$ (4). Bundan $U = \frac{2.2m_0 c^2}{e}$. Bu formula orqali izlanayotgan U ning son qiymatini hisoblasak $U = 1.1 \cdot 10^6 \text{ V}$ kelib chiqadi. Javobi: $1.1 \cdot 10^6 \text{ V}$.


Mustaqil yechish uchun masalalar

1. Harakatdagi jismning bo'ylama o'lchami ikki baravar kichrayishi uchun u qanday tezlikka erishuvi kerak? ($\vartheta = 2.6 \cdot 10^8 \text{ m/s}$).
2. To'rtburchak shaklidagi rasmning bo'yi 1m eni 1.5 m. Ushbu rasm devorida joylashgan kosmik kema Yerdan $0.9c$ tezlik bilan uzoqlashmoqda (4.2-rasm). a) Kosmik kemadagi kuzatuvchiga, b) yerdagi kuzatuvchiga nisbatan kosmik kema o'lchamlari qanday bo'ladi? (1.5 m, 0.65 m).



4.2-rasm

3. Beqaror zarracha yorug'lik tezligining 99 foizini tashkil etuvchi tezlik bilan harakat qilsa(qo'zg'almas kuzatuvchining soati bo'yicha), uning yashash vaqtini necha marta uzayadi? (7.1marta).
4. α zarracha massasi nolga teng boshlang'ich tezlikdan yorug'lik tezligining 0.9 iga baravar tezlikka qadar tezlashganida qanchaga yetadi? ($8.6 \cdot 10^{-27} kg$).
5. 4.3-rasmdan foydalanib ikkinchi kosmik kemaning yerga nisbatan tezligini hisoblang.
6. Zarracha massasining nisbiy kattalashuvi 5% dan ortmasligi uchun, siklotrondagi zarrachalarni qanday energiyaga qadar tezlashtirish mumkin? Masalani 1) elektronlar, 2) protonlar, 3) deytronlar uchun hal qiling.
($k = 0.05$)



4.3-rasm

7. π -mezonning to'la energiyasi tinch holatdagi energiyasidan 10 marta katta bo'lsa, uning tezligini toping ($\vartheta = 2.985 \cdot 10^8 m/s$).

8. 4 km/s tezlikda harakatlanayotgan kosmik kema uchun XBS da vaqtning nisbiy xatoligini hisoblang ($\varepsilon = 10^{-10}$).
9. Zarracha kinetik energiyasi uning tinch holatdagi energiyasiga teng bo'lishi uchun zarracha tezligi yorug'lik tezligining qancha ulushini tashkil qilishi kerak? ($\beta = 86.6\%$).
10. Siklotrondan uchib chiquvchi elektronlar 0.67 MeV kinetik energiyaga ega. Shu elektronlarning tezligi yorug'lik tezligining qancha ulushini tashkil qilishi kerak? ($\beta = 0.9$).
11. Harakatdagi elektron massasi uning tinch holatdagi massasidan ikki baravar katta. Bu elektronning kinetik energiyasini toping ($W_k = 0.2 \cdot 10^{-14} \text{ J}$).
12. Massaning elektronning tinch holatdagi massasi kattaligicha o'zgarishiga muvofiq keluvchi energiya o'zgarishini toping. ($\Delta W = 8.2 \cdot 10^{-14} \text{ J} = 0.51 \text{ MeV}$)
13. Quyosh har minutda $6.5 \cdot 10^{21} \text{ kW} \cdot \text{soat}$ ga teng energiya chiqaradi. Quyosh nurlanishi o'zgarmas deb hisoblansa, Quyosh massasi qancha vaqtda ikki baravar kamayishini toping ($7 \cdot 10^{12} \text{ yilda}$).
14. a) Laboratoriya sharoitida $0.6c$ tezlikkacha tezlashtirilgan myuonning o'rtcha yashash vaqtini nimaga teng? Myuonning xususiy yashash vaqtini 2.2 mks b) Myuon yemirilgunga qadar qancha masofa bosib o'tadi? ($2.8 \cdot 10^{-6} \text{ s}, 500 \text{ m}$)
15. Yuqori tezlikda, ya'ni $0.75c$ tezlik bilan Yerdan Yupiterga kosmik kema uchib ketmoqda deylik. Kemadagi passajir 10 minut davomida jurnal o'qigan. a) Yerdagi soat bo'yicha bu hodisa qancha vaqt davom etadi? b) Yerdagi kuzatuvchiga nisbatan jurnal o'qib tugatilguncha kosmik kema qancha masofa bosib o'tadi? Kosmik kema yo'lovchiga nisbatanchi? (a) 1.51 min , b) $2.04 \cdot 10^{11} \text{ s}, 1.35 \cdot 10^{11} \text{ s}$)
16. Elektronning harakat miqdorini klassik mexanika va relyativistik nisbiylik prinsipi qonunlari orqali hisoblang va taqqoslang. ($k = m\vartheta = 1.01m_0\vartheta = 1.01k_0$)
17. Fermi laboratoriyasida proton tezlashtirilishi natijasida $W_k = 10^{12} \text{ eV}$ kinetik energiyaga ega bo'lган. Bunda proton qanday tezlikkacha tezlashtirilgan? ($\vartheta = 0.9999995c$)

§5. Qattiq jismlarning aylanma harakat dinamikasi



- F kuchning biror aylanish o'qiga nisbatan momenti M quyidagi formula bilan ifodalanadi:

$$M = Fl$$

bunda l -aylanish o'qidan kuch yo'nalgan to'g'ri chiziqqacha bo'lgan eng qisqa masofa.

- Moddiy nuqtaning biror aylanish o'qiga nisbatan inersiya momenti deb

$$J = mr^2$$

kattalikka aytildi,

bunda m -moddiy nuqtaning massasi va r nuqtaning aylanish o'qidan uzoqligi.

- Moddiy nuqtaning o'z aylanish o'qiga nisbatan inersiya momenti:

$$J = \int r^2 dm$$

Ushbu integralni turli geometrik shakldagi jismlarning butun hajmi bo'yicha hisoblash orqali quyidagi natijalar olinadi:

1. Yaxlit silindr(disk)ning oz o'qiga nisbatan inersiya momenti:

$$J = \frac{1}{2}mr^2$$

2. Ichki radiusi R_1 , tashqi radiusi R_2 bo'lgan kovak silindrning oz o'qiga nisbatan inersiya momenti:

$$J = m(R_1^2 + R_2^2)/2$$

3. R radiusli bir jinsli sharning markazidan o'tuvchi o'qqa nisbatan inersiya momenti:

$$J = \frac{2}{5}mr^2$$

4. l uzunlikdagi bir jinsli sterjenning o'rtasidan tik ravishda o'tgan o'qqa nisbatan inersiya momenti:

$$J = \frac{1}{12}ml^2$$

- Agar jismning o'z o'qiga nisbatan inersiya momenti J_0 bo'lsa u holda shu o'qqa parallel ixtiyoriy boshqa o'qqa nisbatan inersiya momenti. J Steyner teoremasiga asosan quyidagi tenglama bilan ifodalanadi:

$$J = J_0 + md^2,$$

bunda d - parallel o'qlar orasidagi masofa.

- Moddiy nuqta impulsining ixtiyoriy qo'zg'almas O nuqtaga nisbatan impuls momentini

$$L = rps \sin(\alpha)$$

ko'rinishda yozish mumkin. Bu yerda α radius vektor va impuls yo'nalishlari orasidagi burchak.

- Kuch momentini ifodalovchi yana bir tenglama qattiq jism aylanma harakat dinamikasining asosiy tenglamasi deyiladi:

$$M = J \frac{d\omega}{dt}$$

bunda ω -burchak tezlik bo'lib, agar $J = \text{const}$ bo'lsa

$$M = J \frac{d\omega}{dt} = J\beta,$$

bunda β -burchak tezlanish.

- Biror o'q atrofida aylanayotgan qattiq jismning kinetik energiyasi:

$$W_k = \frac{J\omega^2}{2}$$

bunda ω -burchak tezlik.

Masala yechish namunaları

- Inersiya momenti $J = 63.6 \text{ kg}\cdot\text{m}^2$ ga teng bo'lgan maxovik 31.4 rad/s burchak tezlik bilan aylanmoqda. 20 s dan keyin to'xtasa, tormozlovchi moment qanchaga teng?

Berilgan: $J = 63.6 \text{ kg}\cdot\text{m}^2$, $\omega_1 = 31.4 \text{ rad/s}^2$, $\omega_2 = 0$, $t = 20 \text{ s}$

Topish kerak: $M - ?$

Yechilishi: Qattiq jismning aylanma harakat dinamikasining asosiy tenglamasi:

$$M = J\beta \quad (1). \quad \text{Bunda } \beta = \frac{\omega_1 - \omega_2}{t}, \quad \omega_2 = 0 \quad \text{bo'lgani uchun } \beta = \frac{\omega_1}{t} \quad (2).$$

tenglikni (1) formulaga qo'yamiz $M = J \frac{\omega_1}{t}$ va $M = 100 \text{ N}\cdot\text{m}$ ni topamiz.

Javobi: $100 \text{ N}\cdot\text{m}$.

- Ikkita jism massalari mos ravishda $m_1 = 5.0 \text{ kg}$, $m_2 = 7.0 \text{ kg}$ ga teng. Ular orasidagi masofa $r = 4 \text{ m}$. a) har ikkala jism o'rtasidan o'tgan o'q buyicha inersiya momenti, b) birinchi jism chap tomonidan 0.5 m masofadan o'tgan o'q buyicha inersiya momentini toping.

Berilgan: $m_1 = 5.0 \text{ kg}$, $m_2 = 7.0 \text{ kg}$, $r_1 = 4 \text{ m}$, $r_2 = 0.5 \text{ m}$


Topish kerak: I_1 , $I_2 - ?$

Yechilishi: Har ikkala jism ham aylanish o'qidan bir xil a) $2m$ masofada ekanligidan umumiy inersiya momenti:

$$I_1 = \sum mr^2 = m_1\left(\frac{r_1}{2}\right)^2 + m_2\left(\frac{r_2}{2}\right)^2 = 48 \text{ kg} \cdot \text{m}^2, \quad \text{ikkinci} \quad \text{b)} \quad \text{hol} \quad \text{uchun:}$$

$$I_2 = \sum mr^2 = m_1r_2^2 + m_2(r_1 - r_2)^2 = 143 \text{ kg} \cdot \text{m}^2.$$

3. Radiusi $R = 0.5 \text{ m}$ barabanga ip o'ralgan bo'lib, $m = 10 \text{ kg}$ yuk osilgan, osilgan yuk quduqqa $a = 2.04 \text{ m/s}^2$ tezlanish bilan tushayotgan bo'lsa, barabanning inersiya momentini toping (5.1-rasm)?



5.1-rasm

Berilgan: $R = 0.5 \text{ m}$, $m = 10 \text{ kg}$, $a = 2.04 \text{ m/s}^2$

Topish kerak: $J_0 - ?$ Yechilishi: Masala shartidan ko'rindiki ipning taranglik kuchi T aylantiruvchi moment: $M = IR$ (1) ni yuzaga keltiradi. Boshqa tomondan $M = J\varepsilon$ (2). Baraban aylanishining tangensial tezlanishi yukning tushish tezlanishiga teng bo'lganligi uchun $\varepsilon = \frac{a}{R}$ (3).

Yuk a tezlanish bilan pastga tushayotganligi uchun ipning taranglik kuchi quyidagiga teng bo'ladi $T = m(g - a)$ (4). (1), (2), (3) tenglamalarni birlgilikda yechib quyidagini olamiz: $J = \frac{TR^2}{a}$ (5). (4) ni (5) ga qo'ysak

$$J = \frac{mR^2(g - a)}{a}, \text{ ushbu tenglamadan } J \text{ ni hisoblaymiz.}$$

Javobi: $J = 9.52 \text{ kg} \cdot \text{m}^2$.

4. 2 kg og'irlilikdagi disk gorizontal tekislikda 4 m/s^2 tezlik bilan sirpanishsiz dumalaydi. Diskning kinetik energiyasini toping?

Berilgan: $m = 2 \text{ kg}$, $\vartheta = 4 \text{ m/s}^2$

Topish kerak: $W_k - ?$

Yechilishi: Disk gorizontal tekislikda dumalayotganligi uchun uning to'la kinetik energiyasi ilgarilanma harakat kinetik energiyasi bilan


aylanma harakat kinetik energiyasi yig'indisidan iborat: $W_k = \frac{m\vartheta^2}{2} + \frac{J\omega^2}{2}$

(1). Diskning o'z o'qiga nisbatan inersiya momenti $J = \frac{1}{2}mR^2$ (2). Agar $\omega = \frac{\vartheta}{R}$ ekanligini inobatga olsak (1) va (2) tenglamalardan $W_k = \frac{3}{4}m\vartheta^2$ (3) kelib chiqadi. Bu esa qidirilayotgan formula bo'lib u orqali W_k ni hisoblaymiz. Javobi: $W_k = 24 J$.

Mustaqil yechish uchun masalalar:


1. Yer sharining o'z aylanish o'qiga nisbatan inersiya momenti va harakat miqdori topilsin. $M = 6 \cdot 10^{24} kg$, $R = 6400 km$ deb oling ($9.7 \cdot 10^{37} kgm/s$, $7 \cdot 10^{33} kgm^2/s$).
2. 1m uzunlikdagi va $0.5kG$ og'irlikdagi bir jinsli sterjen vertikal tekislikda o'z o'rtasidan o'tgan gorizontal o'q atrofida aylanmoqda. Agar aylantiruvchi moment $9.81 \cdot 10^{-2} N \cdot m$ ga teng bo'lsa, sterjen qanday burchak tezlanish bilan aylanadi? ($\varepsilon \approx 2.35 rad/s^2$).
3. $R = 0.2m$ radiusli $P = 5kG$ og'irlikdagi disk o'z og'irlik markazidan o'tuvchi o'q atrofida aylanmoqda. Disk aylanish burchak tezligining vaqtga bog'lanishi $\omega = A + Bt$ tenglama orqali berilgan, bunda $B = 8 rad/s^2$. Disk gardishiga qo'yilgan urinma kuchning kattaligi topilsin. Ishqalanish nazarga olinmasin ($F = 4N$).
4. $0.5m$ radiusli va $m = 50kg$ massali disksimon g'ildirakning gardishiga $10kG$ urinma kuch ta'sir qiladi. 1) G'ildirakning burchak tezlanishi topilsin. 2) Kuch ta'sir qila boshlagandan qancha vaqt o'tgach g'ildirakning tezligi $100 ayl/s$ ga mos keladi? ($\varepsilon = 7.8 rad/s^2$, $80s$ dan keyin).
5. $R = 0.2m$ radiusli va $m = 10kg$ massali moxovik aylantiruvchi qayish bilan motorga ulangan. Sirg'anishsiz harakatlanayotgan qayishning taranglik kuchi o'zgarmas bo'lib, $T = 14.7N$ ga teng. Harakat boshlanishidan $\Delta t = 10 s$ o'tgandan keyin maxovik sekundiga necha marta aylanadi? Maxovik bir jinsli disk deb hisoblansin. Ishqalanish hisobga olinmasin ($v = 23.4 ayl/s$).
6. Atvud mashinasida ishqalanishsiz haralatlanuvchi shkivga cho'zilmaydigan shur orqali ikkita jism $m_A = 65kg$ va $m_B = 75kg$ osilgan. (5.2-rasm). Shkivning massasi $m = 6kg$ radiusi esa $R = 0.45m$.
 - a) Har bir jismning tezlanishini aniqlang, b) agar shkiv inersiya momenti hisobga olinmasa necha foiz xatolik bo'ladi?

(a) $0.69 m/s^2$, $0.69 m/s^2$, b) 2%).



5.2-rasm

7. Massasi M va radiusi R bo'lgan shar balandligi H bo'lgan qiya tekislikdan dumalab tushmoqda. Sharning qiya tekislik etagidagi tezligini hisoblang (5.3-rasm), ($\vartheta = \sqrt{\frac{10}{7} gH}$).



5.3-rasm

8. Inersiya momenti $245 kgm^2$ ga teng bo'lgan maxovik g'ildirak $20 ayl/s$ bilan aylanadi. Aylantiruvchi momentning ta'siri to'xtatilgandan bir minut o'tgach g'ildirak to'xtaydi. 1) Ishqalanish kuchining momenti, 2) aylantiruvchi moment ta'siri to'xtatilgandan boshlab to g'ildirak to'xtaguncha uning aylanishlar soni topilsin ($M = 513 N \cdot m$, $N = 600 ayl$).
9. 2 kg og'irlilikdagi disk gorizontal tekislikda $4 m/s$ tezlik bilan sirpanishsiz dumalaydi. Diskning kinetik energiyasi topilsin ($W_k = 24 J$).
10. 6 sm diametrli shar gorizontal tekislikda sekundiga $4 ayl/s$ bilan sirg'anishsiz dumalaydi. Sharning massasi 0.25 kg bo'lsa sharning kinetik energiyasi topilsin ($W_k = 0.1 J$).
11. Og'irligi 1 kG va diametri 60 sm bo'lgan disk o'z markazidan tekisligiga tik ravishda o'tgan o'q atrofida $20 ayl/s$ bilan aylanadi. Diskni to'xtatish uchun qancha ish bajarish kerak? ($A = 355 \text{ J}$).
12. $\vartheta = 9 \text{ km/soat}$ tezlik bilan ketayotgan vilosipedchining kinetik energiyasi topilsin. Vilosiped bilan vilosipedchining birgalikdagi

- og'irligi $P = 78kG$, ikkala g'ildirakning og'irligi $P_1 = 3kG$ ga teng. Vilosiped g'ildiraklari gardish deb hisoblansin ($W = 253J$).
13. $R = 10sm$ radiusli mis shar o'z og'irlik markazidan o'tuvchi o'q atrofida $v = 2ayl/sek$ ga mos tezlik bilan aylanadi. Sharning burchak tezligini ikki marta orttirish uchun qanday ish bajarish kerak? ($A = 34.1J$).
 14. G'ildirak tormozlanishi natijasida tekis sekinlanuvchan aylanma harakat qilib, 1 minutda o'z tezligini 300 ayl/s dan 180 ayl/min gacha kamaytiradi. G'ildirakning inersiya momenti $2 \text{ kg} \cdot \text{m}^2$. 1) G'ildirakning burchak tezlanishi, 2) tormozlovchi moment, 3) tormozlanish ishi, 4) g'ildirakning shu minut davomidagi aylanishlar soni topilsin.
 $\varepsilon = -0.21 \text{ rad/s}^2$, $M_t = 0.42 N \cdot m$, $A = 630J$, $N = 240 \text{ ayl}$.
 15. Ventilyator 900 ayl/min ga mos tezlik bilan aylanadi. Ventilyator o'chirilgandan keyin, tekis sekinlanuvchan harakat qilib to'xtaguncha 75 marta aylanadi. Tormozlanish ishi $44.4 J$ ga teng. 1) Ventilyatorning inersiya momenti, 2) tormozlanish kuchini momenti topilsin ($J = 0.01 \text{ kgm}^2$, $M_t = 9.4 \cdot 10^{-2} N \cdot m$).
 16. Inersiya momenti $J = 245 \text{ kgm}^2$ bo'lgan maxovik g'ildirak 20 ayl/s bilan aylanadi. G'ildirak aylantiruvchi kuch momentining ta'siri to'xtatilgandan keyin 1000 marta aylanib to'xtadi. 1) Ishqalanish kuchining momenti, 2) aylantiruvchi kuch momentining ta'siri to'xtatilgan paytdan g'ildirakning to'liq to'xtash paytigacha o'tgan vaqt topilsin ($M_{ishq} = 308N \cdot m$, $t = 100s$).
 17. $\varepsilon = 0.5 \text{ rad/s}^2$ o'zgarmas burchak tezlanish bilan aylanayotgan maxovuk g'ildirak harakat boshlanishidan $t_1 = 15s$ o'tgandan keyin $L = 73.5 \text{ kg} \cdot \text{m}^2/\text{s}$ ga teng harakat miqdoriga ega bo'ladi. Harakat boshlanishidan $t_2 = 20s$ o'tgandan keyin g'ildirakning kinetik enargiyasini toping ($W_k = 490J$).
 18. $m = 5kg$ massali diskning gardishiga urinma $F = 2kG$ o'zgarmas kuch qo'yilgan. Kuchning ta'siri boshlangandan keyin $t = 5s$ o'tgach disk qanday kinetik energiyaga ega bo'ladi? ($W_k = 1.92kJ$).
 19. Massalari $m_1 = 0.3kg$, $m_2 = 0.7kg$ bo'lgan ikkita kichik jism ip bilan birlashtirilgan va silliq silindrik sirtga uning cho'qqisisiga nisbatan simmetrik qo'yilgan. Silindrik sirtning jismlarni tutashtiruvchi radiuslari orasidagi burchak 60° ga teng. Jismlas sistemasi tezlanishini toping ($a = 2 \text{ m/s}^2$).

20. Og'irligi 80 kG bo'lgan va radiusi 1m gorizontal platforma 20 ayl/min ga mos burchak tezlik bilan aylanadi. Platformaning markazidan qo'llarini yoyib, toshlarni ushlagan holda odam turibdi. Agar odam qo'lini tushirib, o'zining inersiya momentini $2.94 \text{ kg} \cdot \text{m}^2$ dan $0.98 \text{ kg} \cdot \text{m}^2$ gacha kamaytirsa, platformaning bir minutdagi aylanishlar soni qancha bo'ladi? Platforma bir jinsli doiraviy disk deb hisoblansin ($\nu = 21 \text{ ayl/min}$).

21. $m=10 \text{ kg}$ massali harakatsiz platformaning ustida og'irligi $M=60 \text{ kg}$ odam turibdi. Agar odam aylanish o'qining atrofida 5m radiusli aylana bo'ylab platformaga nisbatan 4 km/soat tezlik bilan harakatlansa, platforma minutiga necha marta aylana boshlaydi? Platformaning radiusi 10 m . platforma bir jinsli doiraviy disk deb, odamni moddiy nuqta deb hisoblang.
($\nu = 0.49 \text{ ayl/min}$)



§6. Elektr o'zaro ta'sir

- Ikkita zaryadlangan jismlar orasidagi o'zaro ta'sir kuchi Kulon qonuniga ko'ra quyidagi tenglama orqali ifodalanadi:

$$F = \frac{q_1 q_2}{4\pi\epsilon\epsilon_0 r^2}$$

bunda q_1 va q_2 lar jismlarning elektr zaryadlari, r -ular orasidagi masofa, ϵ -muhitning dielektrik singdiruvchanligi, ϵ_0 elektr doimiysi bo'lib, u $\epsilon_0 = 8.85 \cdot 10^{-12} \text{ F/m}$ ga teng.

- Kulon qonunini ifodalovchi tenglamadagi barcha o'zgarmas kattaliklar uchun quyidagicha belgilash kiritamiz:

$$k = \frac{1}{4\pi\epsilon_0}$$

Unga ko'ra $k = 9 \cdot 10^9 \text{ Nm}^2/\text{C}^2$. Bundan Kulon qonuni

$$F = k \frac{q_1 q_2}{\epsilon r^2}$$

ko'inishga keladi.

- Ixtiyoriy ikkita zaryadning o'zaro ta'sir potensial energiyasini umumiyl holda quyidagi ko'inishda yozish mumkin:

$$W_p = \frac{1}{4\pi\epsilon\epsilon_0} \frac{q_1 q_2}{r} = k \frac{q_1 q_2}{r^2}$$

Masala yechish namunalari

1. Havoda bir-biridan qanday masofada 1 mkC va 10 nC zaryadlar 9 mN kuch bilan o'zaro tasirlashadi.

Berilgan: $q_1 = 1 \text{ mkC}$, $q_2 = 10 \text{ nC}$, $F = 9 \text{ mN}$, $\epsilon = 1$

Topish kerak: $r - ?$

Yechilishi: Kulon qonuniga ko'ra $F = k \frac{q_1 q_2}{\epsilon r^2}$, bundan $r^2 = k \frac{q_1 q_2}{\epsilon F}$ yoki $r = \sqrt{k \frac{q_1 q_2}{\epsilon F}}$ dan r ni hisoblasak, $r = 10 \text{ sm}$ kelib chiqadi. Javobi: 10 sm .


2. Havoda bir-biridan $r_1 = 20 \text{ sm}$ masofada joylashgan ikkita nuqtaviy zaryad o'zaro qandaydir kuch bilan ta'sirlashadi. Xuddi shunday kuch bilan moyda o'zaro ta'sirlashishi uchun ularni qanday r_2 masofaga joylashtirish kerak? Havo uchun muhitning dielektrik singdiruvchanligi $\epsilon_1 = 1$ va moy uchun $\epsilon_2 = 5$ deb oling.

Berilgan: $F_1 = F_2$, $\epsilon_1 = 1$, $\epsilon_2 = 5$, $r_1 = 20 \text{ sm}$

Topish kerak: $r_2 - ?$

Yechilishi: Zaryadlarning havoda o'zaro ta'sir kuchi $F_1 = k \frac{q_1 q_2}{\epsilon_1 r_1^2}$ kabi aniqlanadi, zaryadlarning moydagi o'zaro ta'sir kuchi esa $F_2 = k \frac{q_1 q_2}{\epsilon_2 r_2^2}$ ga teng. Masala shartiga ko'ra $F_1 = F_2$ bo'lani uchun $k \frac{q_1 q_2}{\epsilon_1 r_1^2} = k \frac{q_1 q_2}{\epsilon_2 r_2^2}$, bundan $r_2^2 = \frac{\epsilon_1 r_1^2}{\epsilon_2}$ yoki $r_2 = \sqrt{\frac{\epsilon_1 r_1^2}{\epsilon_2}}$. Javobi: 9 sm .

3. 6.1-rasmdan foydalangan holda $q_1 = 8.6 \cdot 10^{-5} \text{ C}$ va $q_2 = 5 \cdot 10^{-5} \text{ C}$ zaryadlarning $q_3 = 6.5 \cdot 10^{-5} \text{ C}$ zaryadga ta'sir etuvchi natijaviy kuchni aniqlang.



6.1-rasm

Yechilishi:

$$F_{31} = k \frac{q_1 q_3}{r_{31}^2} = \frac{9 \cdot 10^9 N \cdot m^2 / C^2 \times 6.5 \cdot 10^{-5} C \times 8.6 \cdot 10^{-5} C}{(0.6m)^2} = 140N$$

$$F_{32} = k \frac{q_2 q_3}{r_{32}^2} = \frac{9 \cdot 10^9 N \cdot m^2 / C^2 \times 6.5 \cdot 10^{-5} C \times 5.0 \cdot 10^{-5} C}{(0.3m)^2} = 325N$$

Endi kuchlarning x o'qiga proyeksiyasini topamiz:


$$F_{31x} = F_{31} \cos 30^\circ = 140N \cdot \cos 30^\circ = 120N \quad F_{31y} = -F_{31} \cos 30^\circ = -140N \cdot \sin 30^\circ = -70N$$

demak, $F_x = F_{31x} = 120N$, $F_y = F_{32} + F_{31y} = 325N - 70N = 255N$.

Natijaviy kuchni hisoblasak, $F = \sqrt{F_x^2 + F_y^2} = \sqrt{(120N)^2 + (255N)^2} = 280N$

Mustaqil yechish uchun masalalar:

- Vodorod atomining yadrosi bilan elektroni orasidagi tortishish kuchi topilsin (6.2-rasm). Vodorod atomining radiusi $0.5 \cdot 10^{-8} sm$, yadro zaryadi elektron zaryadiga miqdor jihatdan teng va qarama-qarshi ishoralidir ($F = 9.23 \cdot 10^{-8} N$).




6.2-rasm

- Bir-biridan $r_1 = 5 sm$ masofada turgan ikkita zaryad havo ($\epsilon_1 = 1$) da o'zaro $F_1 = 120 mN$ kuch bilan, ma'lum bir elektr o'tkazmaydigan suyuqlikda esa $r_2 = 10 sm$ masofada o'zaro $F_2 = 15 mN$ kuch bilan

ta'sirlashadi. Suyuqlikning dielektrik singdiruvchanligi nimaga teng? ($\epsilon_2 = 2$).


3. Ikkita nuqtaviy zaryad o'zaro ta'sir kuchining ular orasidagi masofaga bog'lanish grafigi chizilsin. Grafik $2 \leq r \leq 10 \text{ sm}$ intervalda 2 sm oraliq bilan chizilsin. Zaryadlar miqdori mos ravishda $2 \cdot 10^{-8} \text{ C}$ va $3 \cdot 10^{-8} \text{ C}$.
4. Ikkita protonning Nyuton tortishish kuchi ularning Kulon itarishish kuchidan necha marta kichik? Protonning zaryadi miqdor jihatdan elektron zaryadiga teng ($1.25 \cdot 10^{36}$ marta).
5. Natriy atomini bombardimon qilayotgan proton va uning yadrosiga $6 \cdot 10^{-12} \text{ sm}$ gacha yaqin keldi deb hisoblab, proton bilan natriy yadrosining elektrostatik itarishish kuchi topilsin. Natriy yadrosining zaryadi proton zaryadidan 11 marta ko'p. Natriy atomi elektron qobig'inining ta'siri hisobga olinmasin ($F = 0.7 \text{ N}$).
6. Rasmida tasvirlangan uchta zaryaddan uchinchi zaryadga ta'sir qiluvchi natijaviy kuchni aniqlang (6.3-rasm), ($F = 0.5 \text{ N}$).




6.3-rasm

7. Har birining og'irligi 0.2 kG bo'lgan ikkita zaryadlangan metal sharcha bir-biridan biror oraliqda turibdi. Agar shu oraliqda ularning elektrostatik energiyasi o'zaro gravitatsion ta'sir energiyasidan million marta kattaligi ma'lum bo'lsa, sharchaning zaryadi topilsin ($q = 1.7 \cdot 10^{-8} \text{ C}$).
8. Zaryadi q va massasi m bo'lgan ikkita zarrachaning elektrostatik o'zaro ta'sir energiyasi ularning gravitatsion o'zaro ta'sir energiyasidan necha marta katta? Masalani: 1) elektronlar uchun, 2) protonlar uchun yeching ($\frac{W_{el}}{W_{gr}} = 4.17 \cdot 10^{42}$, $\frac{W_{pr}}{W_{gr}} = 1.24 \cdot 10^{36}$).
9. Biri ikkinchisidan 4 marta katta bo'lgan zaryad havoda bir-biridan 5sm masofada turibdi va 18 dina kuch bilan o'zaro itarishmoqda. Bu zaryadlar qanday masofada 8 dina kuch bilan ta'sirlashadi? Zaryadlar miqdori aniqlang ($q_1 = 14nC$, $q_2 = 3.5nC$, $r_2 = 7.5\text{sm}$).

10. Massasi $m = 3 \cdot 10^{-3} \text{ kg}$, zaryadi $q_1 = 2 \cdot 10^{-8} \text{ C}$ bo'lgan sharcha havo ($\varepsilon = 1$) da tok o'tkazmaydigan ingichka ipga osilgan. Agar sharchadan pastga $r = 0.1 \text{ m}$ masofada ikkinchi $q_2 = -1.5 \cdot 10^{-7} \text{ C}$ zaryad joylashtirilgan bo'lsa, ipning taranglik kuchini toping. Og'irlik kuchining tezlanishini $g = 9.81 \text{ m/s}^2$ deb oling (32.1N).
11. Og'rлиги 980 mкN , zaryadi $q = 20 \text{ nC}$ bo'lgan sharcha havo ($\varepsilon = 1$) da ingichka ipak ipga osilgan. Ipning taranglik kuchi ikki marta kamayishi uchun pastga bu zaryadga ishorasi va miqdori bir xil bo'lgan boshqa bir zaryadni qanday masofaga joylashtirish lozim? (8.57 sm).
12. Uzunligi $l = 20 \text{ sm}$ bo'lgan iplarga osilgan ikkita bir-xil sharcha bir-biriga tegib turibdi. Sharchalarga umumiyligi $q_0 = 0.4 \text{ mкC}$ zaryad berilgandan keyin, ular bir-biridan shunday uzoqlashganki, bunda iplar orasidagi burchak $\alpha = 60^\circ$ ni tashkil etgan. Har bir sharchaning massasini toping (1.59g).
13. Uzunligi $l = 1 \text{ m}$ li ipak iplarga osilgan, har birining massasi $m = 0.25 \text{ g}$ dan bo'lgan, bir xil zaryadlangan ikkita sharcha havo ($\varepsilon = 1$) da bir-biridan $r = 6 \text{ sm}$ ga uzoqlashgan. Har bir sharchaning zaryadi nimaga teng? ($q = 5.4 \text{ nC}$).
14. Har birining uzunligi 60 sm dan bo'lgan ikkita ipak ipga massalari 0.42g bo'lgan ikkita sharcha osilgan. Bu iplarning bir uchi bitta nuqtaga mahkamlangan bo'lib ikkinchi uchiga mahkamlangan sharlar bir xilda zaryadlanib suvgaga tushirilgan. Agar sharlar itarishish kuchi tufayli bir-biridan 6sm uzoqlashgan bo'lsa ularda qancha zaryad bor? Suv uchun $\varepsilon = 81$ ga teng ($q = 79.6 \text{ nC}$).
15. Bir-biridan 5 sm masofada turgan ikkita zaryad $\varepsilon_1 = 1$ bo'lgan muhitda 120 mкN kuch bilan ta'sirlashmoqda, boshqa muhitda 10sm masofada 15 mкN kuch bilan ta'sirlashmoqda. ε_2 ni toping ($\varepsilon_2 = 2$).
16. Kulon qonunidagi (6.4-rasm) proporsionallik koeffisiyentini aniqlashda ishlatilgan Kulon tarozisi ishlash prinsipini tushintiring.
17. Tomonining uzunligi l bo'lgan kvadrat uchlariga q , $2q$, $3q$ va $4q$ zaryadlar joylashtirilgan. $2q$ zaryadga ta'sir qiluvchi kuch kattaligini va yo'nalishini toping (6.5-rasm), $(10.1 \cdot k \frac{q}{l^2}, 61^\circ)$.




6.4-rasm




6.5- rasm

18.Qiymatlari $+65\text{m}\mu\text{C}$, $+48\text{m}\mu\text{C}$ va $-95\text{m}\mu\text{C}$ bo'lgan zaryadlangan zarrachalar bir to'g'ri chiziqda joylashgan. O'rtadagi zarracha qolgan ikki zarrachadan bir xil 0.35m masofada joylashgan. Har bir zarraga boshqa ikki zarraning ta'sir kuchini toping (6.6- rasm).
($120\text{N}, 560\text{N}, 450\text{N}$).



6.6- rasm



§7. Elektr maydon kuchlanganligi

- Elektr maydon kuchlanganligi deb maydonga kiritilgan birlik musbat sinov q_0 zaryadga ta'sir qiluvchi F kuchga miqdor jihatdan teng bo'lgan kattalikka aytildi:

$$E = \frac{F}{q_0}$$

- Elektr maydon induksiyasi:

$$D = \epsilon_0 E$$

- Ostrogradskiy-Gauss teoremasi:

$$N = \int (\vec{D} \cdot d\vec{S} \cdot \vec{n}) = DS \cos \alpha$$

- Gauss teoremasiga ko'ra maydon kuchlanganligi oqimi barcha zaryadlarning algebraik yig'indisiga proporsionaldir:

$$N_E = \sum_{i=1}^n q_i$$

Gauss teoremasidan turli geometrik shakldagi zaryadlangan jismlarning hosil qilgan maydon kuchlanganli uchun quyidagi natijalar kelib chiqadi:

1. Zaryadlangan cheksiz uzun ipning biror a masofada hosil qilgan elektr maydon kuchlanganligi

$$E = \frac{\tau}{2\pi\epsilon\epsilon_0 a}.$$

Bunda τ uzunlik birligiga to'g'ri keladigan zaryad miqdori yoki zaryadning chiziqli zichligi deyiladi.

2. Zaryadlangan cheksiz tekislikning elektr maydon kuchlanganligi

$$E = \frac{\sigma}{2\epsilon\epsilon_0},$$

σ -zaryadning sirt zichligi yoki 1m^2 yizaga to'g'ri keladigan zaryad miqdori.

3. Yassi kondensator qoplamlari orasidagi elektr maydon kuchlanganligi

$$E = \frac{\sigma}{\epsilon\epsilon_0}$$

4. Nuqtaviy zaryadning yoki zaryadlangan sharning shar markazidan r masofada hosil qilgan maydon kuchlanganligi

$$E = \frac{q}{4\pi\epsilon\epsilon_0 r^2} = k \frac{q}{r^2}$$

- Shuningdek, bir jinsli elektr maydon uchun quyidagi ifoda ham o'rnlidir

$$E = \frac{U}{d}$$

d-kondensator qoplamlari orasidagi masofa.

Agar tekislik R radiusli disk bo'lsa, markazidan a uzoqlikdagi maydon kuchlanganligi:

$$E = \frac{\sigma}{2\epsilon\epsilon_0} \left(1 - \frac{a}{\sqrt{R^2 + a^2}}\right).$$

Masala yechish namunalari

1. $7.43nC$ va $-14.67nC$ ikkita zaryad oralig'i 5 sm. 1-zaryaddan 3 sm, 2-zaryaddan 4 sm masofadagi elektr maydon kuchlanganligini toping.

Berilgan: $q_1 = 7.43nC$, $q_2 = -14.67nC$, $r_1 = 3\text{sm}$, $r_2 = 4\text{sm}$, $r = 5\text{sm}$


Topish kerak: $E - ?$

Yechilishi:

Masala sharti asosida chizilgan chizmadagi burchak $\alpha = 90^\circ$ bo'lganligi uchun $E = \sqrt{E_1^2 + E_2^2}$ (1) kabi yoziladi. Boshqa tomondan $E_1 = k \frac{q_1}{\epsilon r_1^2}$ va $E_2 = k \frac{q_2}{\epsilon r_2^2}$ ekanligidan $E = \frac{k}{\epsilon} \sqrt{\frac{q_1}{r_1^4} + \frac{q_2}{r_2^4}}$ (2).

Javobi: $E = 112 \text{ kV/m}$.

2. $q = -3.0 \cdot 10^{-6} \text{ C}$ bo'lgan nuqtaviy zaryaddan 30 sm masofadagi elektr maydon kuchlanganligini hisoblang (7.1-rasm).



7.1-rasm

Berilgan: $q = -3.0 \cdot 10^{-6} \text{ C}$, $r = 30 \text{ sm}$, $E = ?$

Yechilishi:

$$E = k \frac{q}{R^2} = \frac{9 \cdot 10^9 N \cdot m^2 / C^2 \times 3 \cdot 10^{-6} C}{(0.3m)^2} = 3 \cdot 10^5 N/C$$

3. Ikkita $q_1 = 8nC$ va $q_2 = -6nC$ nuqtaviy zaryad o'rtasidagi nuqtadagi elektr maydon kuchlanganligi toping. Zaryadlar oralig'i $r = 10sm$, $\epsilon = 1$.

Berilgan: $q_1 = 8 \cdot 10^{-9} \text{ C}$, $q_2 = -6 \cdot 10^{-9} \text{ C}$, $r = 10 \text{ sm}$, $\epsilon = 1$

Topish kerak: $E = ?$

Yechilishi: q_1 zaryadni $r_1 = \frac{r}{2} = 5 \text{ sm}$ masofada hosil qilgan maydon kuchlanganligi $E_1 = k \frac{q_1}{\epsilon r_1^2}$ (1), q_2 zaryadni $r_2 = \frac{r}{2} = 5 \text{ sm}$ masofada hosil qilgan elektr maydon kuchlanganligi $E_2 = k \frac{q_2}{\epsilon r_2^2}$ (2). Maydon kuchlanganligining superpozitsiya prinsipiga ko'ra $E = E_1 + E_2$ (3), (1) va (2) ni (3) ga qo'ysak $E = \frac{k}{\epsilon} \sqrt{\frac{q_1}{r_1^2} + \frac{q_2}{r_2^2}}$ (4), bundan qidirilayotgan E kattalik hisoblanadi.

Javobi: 50400 V/m

4. Bir xil ishorali zaryadlangan va bir xil $\sigma = 3 \cdot 10^{-8} \frac{C}{m^2}$ sirt zichlikka ega bo'lgan cheksiz tekislik yuza birligiga qanday kuch ta'sir qiladi?

Berilgan: $\sigma = 3 \cdot 10^{-8} \frac{C}{m^2}$, $\epsilon_0 = 8.85 \cdot 10^{-12} F/m$

Topish kerak: $\frac{F}{S} = ?$

Yechilishi: Zaryadlangan cheksiz tekislik maydon kuchlanganligi

$$E = \frac{\sigma}{2\epsilon_0} \quad (1), \text{ boshqa tomondan } E = \frac{F}{q} \quad (2), \text{ bunda } q = \sigma S \quad (3) \text{ ekanligidan}$$


$$\frac{F}{S} = 5.1 \text{ N/m}^2.$$

Javobi: 5.1 N/m^2

5. Ikkita Nuqtaviy zaryad bir-biridan 10sm masofada joylashgan.(7.2-rasm). Birinchisining zaryadi $q_1 = -25 \mu\text{C}$, ikkinchisi $q_2 = +50 \mu\text{C}$. a) birinchi zaryaddan 2sm masofadagi elektr maydon kuchlanganligini aniqlang. b) elektron elektr maydon ta'sirida qanday tezlanish bilan harakatlanadi?

Topish kerak: $E - ?, a - ?$

Yechilishi:



7.2-rasm

Rasmdan ko'rilib turibdiki, elektr maydon kuchlanganligi bir tomonga yo'nalgan.

$$E = k \frac{q_1}{r_1^2} + k \frac{q_2}{r_2^2} = k \left(\frac{q_1}{r_1^2} + \frac{q_2}{r_2^2} \right) = (9 \cdot 10^9 \text{ N} \cdot \text{m}^2 / \text{C}^2) \left(\frac{25 \cdot 10^{-6} \text{ C}}{(2.0 \cdot 10^{-2} \text{ m})^2} + \frac{50 \cdot 10^{-6} \text{ C}}{(8.0 \cdot 10^{-2} \text{ m})^2} \right) = 6.3 \cdot 10^8 \text{ N/C}$$

Elektron tezlanishini hisoblasak:

$$a = \frac{F}{m} = \frac{qE}{m} = \frac{(1.6 \cdot 10^{-19} \text{ C})(6.3 \cdot 10^8 \text{ N/C})}{9.11 \cdot 10^{-31} \text{ kg}} = 1.1 \cdot 10^{20} \text{ m/s}^2$$

Javobi: $E = 6.3 \cdot 10^8 \text{ N/C}$, $a = 1.1 \cdot 10^{20} \text{ m/s}^2$.


Mustaqil yechish uchun masalalar:

1. Har bir uchida 2.33 nC zaryad turgan kvadratning markaziga manfiy zaryad joylashtirilgan. Agar har zaryadga ta'sir etuvchi natijaviy kuch nolga teng bo'lsa, markazdagi zaryad miqdori qancha? ($q = -2.23 \cdot 10^{-9} \text{ C}$).
2. Muntazam oltiburchakning uchlariga uchta musbat va uchta manfiy zaryad joylashtirilgan. Har bir zaryadning miqdori $q = 1.5 \text{ nC}$. Oltiburchakning tomoni 3 sm. Bu zaryadlarni turli kombinatsiyalarda

joylashtirib, oltiburchak markazidagi elektr maydon kuchlanganligi toping (Zaryadlarning joylashishiga qarab


$$1) E = 0, \quad 2) E = 6 \cdot 10^4 \text{ V/m}, \quad 3) E = 3 \cdot 10^4 \text{ V/m}.$$

3. Radiusi va og'irligi bir xil bo'lgan ikkita sharcha iplarga osilgan bo'lib, ularning sirtlari bir-biriga tegib turadi (7.3-rasm). Sharchalarga $q_0 = 4 \cdot 10^{-7} \text{ C}$ zaryad berilgandan keyin sharchalar o'zaro itarishib, bir-biridan 60° burchakka uzoqlashadi. Osilish no'qtasidan sharchaning markazigacha bo'lgan oraliq 20 sm. Sharchaning og'irligi topilsin. ($P = 1.6 \cdot 10^{-3} \text{ kG}$).




7.3-rasm

4. Massasi $m = 1 \text{ gr}$ bo'lgan, uzunligi $\ell = 55 \text{ sm}$ bolgan cho'zilmaydigan vaznsiz ipga osilgan zaryadlangan zarraga qiymati $E = 9500 \text{ N/C}$ bo'lgan tashqi elektr maydon ta'sir qilmoqda. Bunda zarra muvozanat vaziyatiga nisbatan $x = 12 \text{ sm}$ ko'tarilgan (7.4-rasm). Zarraning zaryad miqdori va ishorasini aniqlang.



7.4-rasm

5. Radiusi va og'irligi bir xil bo'lgan ikkita sharcha iplarga osilgan bo'lib, ularning sirtlari bir-biriga tegib turadi. Osilish no'qtasidan sharchaning markazigacha bo'lgan masofa 10 sm. Har bir sharchaning og'irligi $5 \cdot 10^{-13} \text{ kG}$. Iplarning tarangligi 0.098 N ga teng bo'lishi uchunsharchalarga qancha zaryad berish kerak? ($q = 1.1 \cdot 10^{-6} \text{ C}$).



7.5-rasm


6. 7.5-masaladagi sharchalar kerosinga tushirilganda iplar bir-biridan 54° ga uzoqlashadi deb hisoblab, sharchalar materialining zichligi topilsin ($\rho_1 = 2550 \text{ kg/m}^3$).
7. 5-rasmdan foydalanib elektr maydon kuchlanganligi holga teng bo'lgan nuqtani aniqlang ($x = d(\sqrt{2} + 1) = 2.41d$).
8. Radiusi va og'irligi bir xil bo'lgan zaryadlangan ikkita sharchani bir xil zaryadlangan ikkita sharchani bir xil uzunlikdagi iplarga osib, zichligi ρ_1 va dielektrik kirituvchanligi ϵ bo'lgan suyuq dielektrikka tushirildi. Havoda va dielektrikda iplarning bir-biridan uzoqlashish

burchagi bir xil b'lishi ushun sharchalar materialining zichligi qancha bo'lishi kerak? ($\rho = \frac{\epsilon \rho_1}{\epsilon - 1}$).

9. Zaryadlangan cheksiz tekislikning elektr maydoni shu maydonga kiritilgan zaryadlangan cheksiz uzun ipning har metriga qanday kuch bilan ta'sir etadi? Ipdagi zaryadning chiziqli zichligi $3 \cdot 10^{-8} C/sm$ va tekislikdagi zaryadning sirt zichligi $2 \cdot 10^{-9} C/sm^2$ ($F = 3.4 N$).
10. $3 \cdot 10^{-8} C/cm$ chiziqli zichlikda, bir xil ishorada zaryadlangan va bir-biridan 2 sm uzoqlikda bo'lgan ikkita cheksiz uzun iplar(uzunlik birligida) qanday kuch bilan itarishadi? Bu iplar bir-biriga 1sm gacha yaqinlashtirish uchun(uzunlik birligida) qanday ish bajarish kerak?
 $(\frac{F}{l} = 8.1 N/m, \frac{A}{l} = 0.112 J/m)$.
11. Diametri 1sm bo'lgan mis shar yog' ichiga joylashtirilgan. Yog'ning zichligi $\rho = 800 kG/m^3$. Agar bir jinsli elektr maydonida shar yog' ichida muallaq bo'lsa, sharning radiusi qancha bo'ladi?
 $(q = \frac{4\pi r^3 g(\rho_1 - \rho_2)}{3E} = 1.1 \cdot 10^{-8} C)$
12. Gorizontal holatdagi yassi kondensator plastinkalari orasi zaryadlanib simob tomchisi muvozanat holatida turibdi. Elektr maydonning kuchlanganligi $E = 600 V/sm$. Tomchi zaryadi $0.8 nC$ ga teng. Tomchining zaryadini toping ($r = 4.4 \cdot 10^{-7} m$).
13. $10^8 sm/s$ tezlik bilan qarama-qarshi harakatlanayotgan ikkita elektron bir-biriga qancha masofagacha yaqinlashishi mumkin?
 $(r = 5.1 \cdot 10^{-10} m)$.
14. Cheksizlikdagi $2 \cdot 10^{-8} C$ nuqtaviy zaryadnizaryadning sirt zichligi $\sigma = 10^{-9} C/sm^2$ bo'lgan, 1sm radiusli shar sirtidan 1sm uzoqlikdagi nuqtaga keltirish uchun qanday ish bajariladi? ($A = 1.13 \cdot 10^{-4} J$).
15. 13. U potensiallar ayirmasi $1V, 5V, 10V, 100V, 1000V$ ga teng bo'lgan oraliqdan o'tayotgan elektronning oladigan tezligini toping ($5.93 \cdot 10^5 m/s, 1.33 \cdot 10^6 m/s, 1.87 \cdot 10^6 m/s, 5.93 \cdot 10^6 m/s, 1.87 \cdot 10^7 m/s$).
16. Radioaktiv yemirilishda poloniy atomining yadrosidan α -zarracha $1.6 \cdot 10^9 sm/s$ tezlik bilan uchib chiqadi. α -zarrachaning kinetik energiyasi va α -zarrachani xuddi shunday tezlikda haydab chiqarishdagi maydon potensiallarining ayirmasi topilsin.
 $(W = 8.5 \cdot 10^{-13} J, U = 2.66 \cdot 10^6 V)$
17. Zaryadlangan cheksiz uzun ipdan $r_1 = 4 sm$ oraliqda $q = 2/3 nC$ nuqtaviy zaryad turibdi. Maydon ta'sirida zaryad $r_2 = 2 sm$ oraliqqa siljiydi,

bunda $A = 50 \text{ erg}$ ish bajaradi. Ipdagi zaryadning chiziqli zichligi topilsin ($\tau = 6 \cdot 10^{-7} \text{ C/m}$).

18. Musbat zaryadlangan cheksiz uzun ip elektr maydoni hosil qilgan. Shu maydon ta'sirida α -zarracha ipdan $x_1 = 1 \text{ sm}$ uzoqlikdagi nuqtadan $x_2 = 4 \text{ sm}$ uzoqlikdagi nuqtaga qarab harakatlanib o'z tezligini $2 \cdot 10^5 \text{ m/s}$ dan $3 \cdot 10^6 \text{ m/s}$ ga o'zgartirdi. Ipdagi zaryadning chiziqli zichligi topilsin ($\tau = 3.7 \cdot 10^{-6} \text{ C/m}$).
19. Zaryadining chiziqli zichligi $2 \cdot 10^{-9} \text{ C/sm}$ bo'lgan musbat zaryadlangan cheksiz uzun ip elektr maydoni hosil qilgan. Maydonning ta'sirida elektron ipga 1sm naridan 0.5 sm gacha yaqinlashganda qanday tezlikka erishadi? ($g = 2.97 \cdot 10^7 \text{ m/s}^2$).
20. 1 sm radiusli zaryadlangan shar markazidan 10 sm uzoqlikdagi maydon nuqtasining potensiali topilsin. Masalani quyidagi hollar uchun yechilsin: 1) shar zaryadining sirt zichligi 10^{-11} C/sm^2 , 2) sharning potensiali 300 voltga teng ($U = 11.3 \text{ V}$, $U = 30 \text{ V}$).
21. 1 sm radiusli, $4 \cdot 10^{-8} \text{ C}$ zaryadli shar yog' ichiga joylashtirilgan. Shar sirtidan $x = 1, 2, 3, 4, 5 \text{ sm}$ uzoqlikdagi maydon nuqtalaridan $U = f(x)$ bog'lanish grafigini chizing.
22. Bir valentli iordanan $2 \cdot 10^{-8} \text{ sm}$ uzoqlikdagi elektr maydon kuchlanganligi topilsin. Ionning zaryadi nuqtaviy deb hisoblang ($E = 3.6 \cdot 10^{10} \text{ V/m}$).
23. 7.6-rasmdan foydalanib A niqtadagi natijaviy elektr maydon kuchlanganligini hisoblang ($E_A = 4.5 \cdot 10^6 \text{ V/m}$).



7.6-rasm

§8. Elektr maydon potensiali. Elektr sig’imi.



- Nuqtaviy zaryad maydonining potensiali: $\varphi = \frac{q}{4\pi\epsilon_0 r} = k \frac{q}{\epsilon r}$, bunda r -potensiali hisoblanayotgan nuqtadan zaryadgacha bo’lgan masofa,
- Cheksiz tekislik zaryad maydonining potensiali: $\varphi = \frac{\sigma r}{\epsilon_0}$, bu yerda σ – zaryad sirt zichligi,
- Zaryadlangan silindr zaryad maydoning potensiali:

$$\varphi = \frac{q}{2\pi\epsilon_0 l} \ln \frac{r_2}{r_1},$$

bu yerda r_1 va r_2 lar mos ravishda silindrning ichki va tashqi radiuslari.

 - q zaryadni potensiali φ_1 bo’lgan no’qtadan potensiali φ_2 bo’lgan no’qtaga ko’chirishda bajarilgan ish:

$$A = q(\varphi_1 - \varphi_2) = qU$$

bunda $U = \varphi_1 - \varphi_2$ -potensiallar farqi yoki kuchlanish deyiladi.

- Yakkalangan o’tkazgich zaryadi uning potensiali bilan quyidagicha bog’langan:

$$q = C\varphi$$

- Yassi kondensatorning elektr sig’imi:

$$C = \frac{\epsilon_0 S}{d},$$

bu yerda S -qoplama yuzi, d -qoplamlar orasidagi masofa.

- Sferik kondensatorning elektr sig’imi:

$$C = \frac{4\pi\epsilon_0 r R}{R - r}$$

Agar sferalardan birinchisi cheksizlikda bo’lsa u holda,

$$C = \lim_{R \rightarrow \infty} \frac{4\pi\epsilon_0 r R}{R - r} = 4\pi\epsilon_0 \lim_{R \rightarrow \infty} \frac{r}{1 - \frac{r}{R}} = 4\pi\epsilon_0 r$$

sharning elektr sig’imi kelib chiqadi, bu yerda r -shar radiusi.

- Silindrik kondensatorning elektr sig’imi:

$$C = \frac{2\pi\epsilon_0 L}{\ln R/r}, \text{ bu yerda } L \text{-silindr uzunligi.}$$

- Kondensatorlar sistemasi parallel ulanganda, ularning umumiyligini aniqlash formularini:

$$C = \sum_{i=1}^n C_i$$

- Kondensatorlar sistemasi ketma-ket ulanganda, ularning umumiyligini aniqlash formularini:

$$\frac{1}{C} = \sum_{i=1}^n \frac{1}{C_i}$$

- Zaryadlangan yakka o’tkazgichning energiyasi quyidagi uch formuladan bittasi orqali topilishi mumkin:

$$W = \frac{1}{2} qU, W = \frac{1}{2} CU^2, W = \frac{q^2}{2C}$$

- Elektr maydon energiyasi zichligi:

$$W_0 = \frac{\epsilon_0 E^2}{2}$$

- Yassi kondensator uchun xususiy holda elektr maydon energiyasi:

$$W = \frac{\sigma^2 S d}{2\epsilon_0}$$

formula yordamoda aniqlanadi.

Masala yechish namunalari

1. Yer sharining sig’imini toping. Yer sharining radiusini 6400 km. Yer shariga 1C elektr miqdori berilsa potensiali qanchaga o’zgaradi?

Berilgan: $R = 6400 \text{ km}$, $q = 1 \text{ C}$, $\epsilon_0 = 8.85 \cdot 10^{-12} \text{ F/m}$

Topish kerak: $C - ?, \varphi - ?$

Yechilishi: Sharning elektr sig’imi $C = 4\pi\epsilon_0 R$ ekanligini bilgan holda

hisoblaymiz va $C = 711 \text{ mF}$ ekanligini topamiz. $\varphi = \frac{q}{C}$ dan $\varphi = 1400 \text{ V}$ kelib chiqadi. Javobi: 1400 V

2. Yassi kondensator plastinkalar orasidagi potensiallar ayirmasi $U = 90 \text{ V}$ (1-rasm). Har bir plastinkalarning yuzi $S = 60 \text{ sm}^2$ va zaryadi $q = 10^{-9} \text{ C}$. Plastinkalar orasidagi masofani toping.

Berilgan: $U = 90 \text{ V}$, $q = 1 \text{ nC}$, $S = 60 \text{ sm}^2$

Topish kerak: $d - ?$

Yechilishi: O'tkazgichning elektr zaryadi bilan potensiali orasidagi bog'lanish formulasidan quyidagini yozamiz $q = \frac{C}{U}$ (1). Ikkinchi tomondan yassi kondensator sig'imi uchun $C = \frac{\epsilon\epsilon_0 S}{d}$ (2), bundan $d = \frac{\epsilon\epsilon_0 S}{C}$ (3). (3) ni (1) ga ta'sir ettirib $d = \frac{\epsilon\epsilon_0 S U}{C}$ ekanini aniqlaymiz va hisoblaymiz. Javobi: $d = 477.9 \cdot 10^{-5} m$.

3. 2-rasmdagи kondensatorlar sistemasi sig'imini toping. Har bir kondensatorning sig'imi $C = 0.5 \text{ m}kF$

Berilgan: $C_1 = C_2 = C_3 = C = 0.5 \text{ m}kF$,

Topish kerak: $C - ?$

Yechilishi: C_1 va C_2 kondensatorlar o'zaro parallel ulanganligi uchun $C_{12} = C_1 + C_2$ (1). Hosil bo'lган C_{12} sig'im bilan C_3 sig'imi o'zaro ketma-ket ulangan deyishimiz mumkin va $C_{um} = \frac{C_{12}C_3}{C_{12} + C_3}$ (2) yoki (1) ga ko'ra (2) dan $C_{um} = \frac{(C_1 + C_2)C_3}{C_1 + C_2 + C_3}$ (3). Bundan sistemaning sig'imini hisoblaymiz.

Javobi: $C_{um} = 0.33 \text{ m}kF$.

4. Radiusi 1 m bo'lган shar $\varphi = 30 \text{ kV}$ potensialgacha zaryadlangan sharning energiyasini toping.

Berilgan: $R = 1 \text{ m}$, $\varphi = 30 \text{ kV}$, $\epsilon_0 = 8.85 \cdot 10^{-12} \text{ F/m}$, $\epsilon = 1$

Topish kerak: $W - ?$


Yechilishi: Zaryadlangan shar energiyasi uchun quyidagini yozamiz: $W = \frac{C\varphi^2}{2}$ (1). Bundan sharning sig'imi φ uchun $C = 4\pi\epsilon\epsilon_0 R$ (2). (2) ko'ra

$$(1) \text{ dan } W = \frac{4\pi\epsilon\epsilon_0 R\varphi^2}{2} = 2\pi\epsilon\epsilon_0 R\varphi^2 \quad (3). \quad W = 0.05 \text{ J}. \quad \text{Javobi: } W = 0.05 \text{ J}.$$


5. Plastinkalari orasidagi masofa havo bo'lган yassi kondensator plastinkalarining yuzasi $S = 0.01 \text{ m}^2$, plastinkalar oralig'i esa $d = 5 \text{ mm}$. Agar razryad vaqtida 4.19 mJ issiqlik ajralib chiqishi uchun plastinkalar orasiga qancha potesiallar farqi berish kerak?

Berilgan: $R = 1 \text{ m}$, $\varphi = 30 \text{ kV}$, $\epsilon_0 = 8.85 \cdot 10^{-12} \text{ F/m}$, $\epsilon = 1$

Topish kerak: $U - ?$



8.1-rasm



8.2-rasm

Yechilishi: Zaryadlangan kondensator energiyasi $W = \frac{\epsilon\epsilon_0 SU^2}{2d}$ (1).

Razryad vaqtida bu energiya issiqlik ajralishga sarflanadi ya'ni $Q = W$ va $Q = \frac{\epsilon\epsilon_0 SU^2}{d}$ (2). Bundan $U = \sqrt{\frac{2dQ}{\epsilon\epsilon_0 S}}$ (3). Hisoblasak, $U = 21.7kV$ kelib chiqadi. Javobi: $U = 21.7kV$.

- Zaryadi $20/3nC$ bo'lgan zaryadyad maydonida $40/3nC$ zaryadni $40sm$ dan $25sm$ masofagacha yaqinlashtirish uchun qancha ish bajarilishi kerak?

Berilgan: $q_1 = \frac{20}{3} \cdot 10^{-9} C$, $q_2 = \frac{40}{3} \cdot 10^{-9} C$, $r_1 = 40sm$, $r_2 = 25sm$

Topish kerak: $A = ?$

Yechilishi: Zaryadlari q_1 va q_2 ga teng bo'lgan sharchalar r_1 masofada

turganda ular orasidagi o'zaro ta'sir energiyasi $W_1 = k \frac{q_1 q_2}{\epsilon r_1}$ (1), r_2 masofaga


yaqinlashtirsak esa $W_1 = k \frac{q_1 q_2}{\epsilon r_2}$ (2). $A = W_2 - W_1$ bo'lganligi uchun

$A = k \frac{q_1 q_2}{\epsilon r_2} - k \frac{q_1 q_2}{\epsilon r_1} = k \frac{q_1 q_2}{\epsilon} \left(\frac{1}{r_1} - \frac{1}{r_2} \right)$ (3). Natijada: $A = 1.2 \cdot 10^{-6} J$ ekanligi kelib chiqadi. Javobi: $A = 1.2 \text{ } mkJ$.

Mustaqil yechish uchun masalalar:

- Massasi $1g$ va zaryadi $10^{-8} C$ bo'lgan sharcha potensiali 600 voltga teng bo'lgan A nuqtadan potensiali nolga teng nuqtaga ko'chirildi. Agar sharcha B nuqtada 20 sm/s tezlikka erishgan bo'lsa, uning A nuqtadagi tezligi qanday bo'lgan? ($\vartheta = 16.7 \cdot 10^{-2} \text{ m/s}$).
- Bir jinsli elektr maydonida elektron 10^{14} sm/s^2 tezlanish oladi. 1) Elaktr maydon kuchlanganligi, 2) boshlang'ich tezligi nolga teng bo'lgandagi elektronning 10^{-6} s da oladigan tezligi, 3) bu vaqt ichida elektr maydon kuchining bajargan ishi hamda 4) bunda elektronning o'tgan potensiallar ayirmasini toping ($E = 5.7 V/m$, $\vartheta = 10^6 \text{ m/s}$, $A = 4.5 \cdot 10^{-19} J$, $U = 2.8 V$).
- 2sm radiusli sharcha $2000V$ potensialgacha manfiy zaryadlandi. Zaryadlashda sharchaga berilganzaryadni tashkil qilgan hamma elektronlarning umumiy massasi topilsin ($2.5 \cdot 10^{-20} kg$).

4. Har birining zaryadi $10^{-10} C$, radiusi 1 mm bo'lgan sakkista tomchi qo'shilib, bitta katta tomchi hosil qilgan. Katta tomchining potensialini toping ($U = 3600\text{ V}$).
5. 8.3-rasmdan foydalanib mikrofonning ishlash prinsipini tushintiring.




8.3-rasm


7. 792 V potensialgacha zaryadlangan sharcha zaryadining sirt zichligi $3.33 \cdot 10^{-7} \text{ C/m}^2$. Sharchaning radiusini toping ($r = 2.1\text{ sm}$).
8. $2.5 \cdot 10^{-4} \text{ m}\kappa\text{F}$ sig'imli kondensator yasash uchun 0.05mm qalinlikdagi paraffin shimdirilgan qog'ozning ikki tomoniga staniol doirachalar yopishtirilgan. Bu doirachalarning diametri topilsin ($D = 3\text{ sm}$).
9. $R_1 = 10\text{ sm}$ va $R_2 = 10.5\text{ sm}$ radiusli ikkita konsentrik sferadan iborat sferik kondensatornong sig'imi topilsin. Sferalar orasidagi bo'shliq yog' bilan to'ldirilgan. Yog'ga joylashtirilgan shar xuddi shunday sig'imga ega bo'lishi uchun uning radiusi qancha bo'lishi kerak?
($C = 1.17 \cdot 10^{-9} \text{ F}$, $R = 2.1\text{ m}$).
10. 3000 V potensialgacha zaryadlangan 10 sm radiusli A sharni kuchlanish manbaidan uzib(sig'imi hisobga olinmaydigan) sim bilan oldin uzoqlashtirilgan zaryadsiz B sharga ulandi, so'ngra B shardan uzilgandan so'ng uzoqlashtirilgan zaryadsiz C sharga ulandi. C va B sharlarning radiusi 10 sm . 1) A sharning boshlang'ich energiyasi 2) ulangandan keyin A va B sharlarning energiyasi va ulanishdagi razryad ishi, 3) ulangandan keyin A va C sharlarning energiyasi va ulanishdagi razryad ishini toping
(1) $5 \cdot 10^{-5} \text{ J}$, 2) $E = 1.25 \cdot 10^{-5} \text{ J}$, 3) $E = 31.25 \cdot 10^{-7} \text{ J}$, $A = 62.5 \cdot 10^{-7} \text{ J}$).
11. $U_1 = 20\text{ V}$ potensiallar farqigacha zaryadlangan kondensator $C_2 = 33 \text{ m}\kappa\text{F}$ sig'imli $U_2 = 4\text{ V}$ potensiallar farqigacha zaryadlangan boshqa kondensator bilan parallel ulangan. Agar kondensatorlar ulangandan keyin ularning qoplamaridagi kuchlanish $U = 2\text{ V}$ bo'lsa,

kondesatorlar o'zaro har xil ishorali zaryadlangan qoplamlar bilan ulangan deb olib birinchi kondensator sig'imini toping ($C_1 = 11 \text{ mF}$ yoki $C_1 = 3 \text{ mF}$).

12. Yassi kondensator qoplamlari orasi bir xil $d = 0.5 \text{ mm}$ qalinlikdagi shisha ($\epsilon_1 = 7$), slyuda ($\epsilon_2 = 6$) va parafinlangan qog'oz ($\epsilon_3 = 2$) dan iborat dielektriklar bilan to'ldirilgan. Agar kondensator qoplamalarining yuzi $S = 200 \text{ sm}^2$ bo'lsa, kondensatorning elektr sig'imini toping ($C = 437 \text{ pF}$).
13. Yuzi $S = 100 \text{ sm}^2$ bo'lgan yassi kondensator qoplamlari qanday kuch bilan o'zaro ta'sirlashadi? Ular orasidagi potensiallar farqi $U = 500 \text{ V}$, masofa esa $d = 3 \text{ mm}$. Qoplamlar orasi vakuum ($F = 1.23 \text{ mN}$).
14. Radiuslari mos ravishda $R_1 = 5 \text{ sm}$, $R_2 = 10 \text{ sm}$, $R_3 = 15 \text{ sm}$ va zaryadlari $q_1 = 200 \text{ nC}$, $q_2 = 300 \text{ nC}$, $q_3 = 500 \text{ nC}$ bo'lgan uchta metal shar ingichka sim bilan ulanganda sharlarda qayta taqsimlangan q_1 , q_2 , q_3 zaryadlar va potensialini toping ($q_1 = 1/6 \text{ mC}$, $q_2 = 1/3 \text{ mC}$, $q_3 = 1/2 \text{ mC}$, $\varphi = 30 \text{ kV}$).
15. Zaryadi $q = -3.8 \text{ mC}$ bo'lgan nuqtaviy zaryaddan 62 sm shimalida a nuqta, 88 sm sharqiy tomonida b nuqta joylashgan (8.4-rasm). Potensiallar farqi $V_a - V_b$ va kuchlanganliklar farqi $E_a - E_b$ ni aniqlang ($1.6 \cdot 10^4 \text{ V}$, $9.9 \cdot 10^4 \text{ N/C}$, 64°).



8.4-rasm




8.5-rasm

16. Tomonlari uzunligi l bo'lgan muntazam uchburchak uchlariga rasmida ko'rsatilgandek nuqtaviy zaryadlar joylashtirilgan. Uchburchak har bir tomoni o'rtasidagi maydon potensialini aniqlang (8.5-rasm) ($-6.85kq/l$, $-3.46kq/l$, $-5.15kq/l$).
17. Ikkita bir xil zaryadlar $q_1 = q_2 + 38 \text{ mC}$ bir-biridan 36 sm masofada joylashgan. Zaryadi $q = -1.5 \text{ mC}$ bulgan nuqtaviy zaryad rasmdagidek A nuqtadan B nuqtaga ko'chirilsa potensial energiyasi qanchaga o'zgaradi (8.6-rasm)? (1.8 J).
18. Agar boshlang'ich tezlikka ega bo'limgan elektron yassi kondensatorda bir plastinkadan ikkinchi plastinkagacha bo'lgan masofani o'tganda $v = 10^9 \text{ sm/s}$ tezlikka erishgan bo'lsa, kondensator qoplamaridagi zaryadlarning sirt zichligini toping. Kondensator

qoplamlari orasidagi masofa $d = 3sm$, elektronning massasi $m = 9.1 \cdot 10^{-31} kg$, zaryadi $e = 1.6 \cdot 10^{-19} C$. ($\sigma = 8.4 \cdot 10^{-8} C/m^2$)

19. $20 \text{ m}kF$ sigimli kondensator $100V$ potensialgacha zaryadlangan. Shu kondensatorning energiyasi topilsin ($W = 0.1J$).
20. Kerosinga botirilgan sharning potensiali $4500V$ va zaryadining sirt zichligi $3.4 \text{ CGC}_q / sm^2$. Sharning 1) radiusi, 2) zaryadi, 3) sig'imi, 4) energiyasi topilsin.
 (1) $R = 7 \cdot 10^{-3} m$, 2) $q = 7nC$, 3) $C = 1.55 \text{ m}kF$, 4) $W = 1.58 \cdot 10^{-5} J$).
21. 2 sm radiusli zaryadlangan A shar 3 sm radiusli B sharga tekkizildi. Keyin sharlarni bir-biridan ajratganda B sharning energiyasi $0.4 J$ ga teng bo'lib qoldi. Tekkizilguncha A sharda qancha zaryad bo'lган? ($q = 2.7 \cdot 10^{-6} C$).
22. $2200V$ potensiallar farqigacha tezlashtirilgan elektron uzunligi $6.5sm$, orasidagi masofa $1.3sm$ bo'lgan qoplamlar orasidan gorizontal yunalishda uchib o'tmoqda. Plastinkalar orasidagi potensiallar farqi $250V$. Elektron qoplamlar orasidan qanday burchak ostida uchib chiqishini hisoblang (8.7-rasm) (16°).



8.6-rasm


23. Fotokamera chaqmog'i $C = 600 \text{ m}kF$ sig'imli kondensator orqali $U = 330V$ kuchlanish ostida qancha zaryad yig'adi? Chaqnash davomiyligi $t = 1 \text{ mks}$ bo'lsa quvvat sarfini hisoblang. ($W = 36 J$, $P = 36 kW$)

24. Har birining yuzi $100sm^2$ bo'lgan kondensator plastinkalari potensiallari ayirmasi $280V$. Plastinkalardagi zaryadning sirt zichligi. 1) Kondensator ichidagi maydon kuchlanganligi, 2) plastinkalar oralig'i, 3) elektronning kondensatorning bir plastinkasidan to ikkinchi plastinkasiga bo'lgan masofani o'tishidagi olgan tezligi, 4) kondensatorning energiyasi, 5) kondensatorning sig'imi, 6) kondensator plastinkalarining o'zaro tortishish kuchini toping
 1) $P = 560 V / sm$, 2) $d = 5mm$, 3) $\vartheta = 10^7 m/s$, 4) $W = 6.95 \cdot 10^{-7} J$,
 5) $C = 1.77 \cdot 10^{-11} F$, 6) $13.9 \cdot 10^{-5} N$.

8.7-rasm

25. Yassi kondensator plastinkalarining yuzi 100sm^2 va ularning oralig'i 5mm. Kondensatorni razryadlaganda $4.19 \cdot 10^{-3}\text{J}$ issiqlik ajralib chiqqan bo'lsa, kondensator plastinkalariga qanday potensiallar ayirmasi berilganligini aniqlang ($U = 21.7\text{kV}$).
26. Ikkita bir xil zaryadlangan kondensatorlar bir xil qutblari bilan o'zaro tutashtirilgan. Kondensator qoplamlarining yuzi s va ularning umumiyligi zaryadi q ga teng. Kondensator qoplamlari orasidagi masofa birinchi kondensator uchun $d_1 = d_0 + \vartheta_t$, ikkinchi kondensator uchun esa $d_2 = d_0 + \vartheta_t$ qonuniyat bo'yicha o'zgargan bo'lsa zanjirdan o'tuvchi tok kuchini toping ($I = \frac{q\vartheta}{2d_0}$).

27. Yassi kondensator dielektrik bilan to'ldirilgan bo'lib, uning plastinkalariga biror potensiallar ayirmasi berilishi natijasida energiyasi $2 \cdot 10^{-5}\text{J}$ ga teng bo'ladi (8.8-rasm). So'ngra kondensatorni kuchlanish manbaidan uzib qo'yib, dielektrikni kondensator ichidan olib tashlandi. Dielektrikni olib tashlash uchun elektr maydon kuchini yengishda bajarilishi kerak bo'lgan ish $7 \cdot 10^{-5}\text{J}$ ga teng. Dielektrikning dielektrik kirituvchanligi topilsin ($\varepsilon = 4.5$).



8.8-rasm

28. Quyidagi hollarda nuqtadagi elektr maydon energiyasining hajm zichligi topilsin: 1) nuqta 1sm radiusli zaryadlangan shar sirtidan 2sm uzoqlikda, 2) cheksiz zaryadlangan tekislik yaqinida va 3) zaryadlangan cheksiz uzun ipdan 2sm uzoqlikda joylashgan. Shar va tekislikdagi zaryadning sirt zichligi $1.67 \cdot 10^{-5}\text{C/m}^2$ va ipdagagi zaryadning chiziqli zichligi $1.67 \cdot 10^{-7}\text{C/m}$. Uchala hol uchun muhitning dielektrik singdiruvchanligini 2 ga teng deb oling

$$1) W_0 = \frac{\sigma^2 R^2}{2\varepsilon\varepsilon_0 (R+x)^4} = 9.7 \cdot 10^{-2} \text{J/m}^3, \quad 2) W_0 = \frac{\sigma^2}{8\varepsilon\varepsilon_0} = 1.97 \text{J/m}^3,$$

$$3) W_0 = \frac{r^2}{8\pi^2 \varepsilon\varepsilon_0 x^2} = 0.05 \text{J/m}^3.$$

§9. Elektr toki



- Baqt birligi ichida o'tkazgichning ko'ndalang kesim yuzasidan oqib o'tuvchi zaryad miqdoriga son jihatdan teng bo'lgan kattalik elektr toki deyiladi:

$$I = \frac{\Delta q}{\Delta t} \text{ yoki } I = \frac{dq}{dt}$$

Agar I o'zgarmas bo'lsa, u holda

$$I = \frac{q}{t}$$

- Elektr tokining zichligi:

$$j = \frac{\Delta q}{\Delta S} \text{ yoki } j = \frac{dI}{dS} \text{ va } j = \frac{I}{S}$$

- Zanjirning bir qismi uchun Om qonuni

$$U = IR$$

- Om qonunining differential shakli $j = \sigma E$, bu yerda $\sigma = \frac{1}{\rho}$ - moddaning solishtirma qrshiligi.
- O'tkazgich qarshiligi

$$R = \rho \frac{l}{S}$$

bunda l -o'tkazgich uzunligi, ρ -solishtirma qarshilik bo'lib, u aynan bir metal uchun o'zgarmas kattalikdir.

- O'tkazgichning solishtirma o'tkazuvchanligi metallarda $\sigma = \frac{1}{\rho}$ ga teng.
- Solishtirma qarshilik va qarshilikning temperaturaga bog'liqligi:

$$\rho = \rho_0(1 + \alpha t), \quad R = R_0(1 + \alpha t)$$

bunda ρ_0 - $t = 0^\circ C$ dagi solishtirma qarshilik, R_0 esa $t = 0^\circ C$ dagi qarshilik,

α -qarshilikning temperatura koeffisiyenti.

- Zanjirning biror qismida I tokning bajargan ishi:

$$A = IUt$$

bunda t -ish bajarish uchun ketgan vaqt.

- Berk zanjir uchun Om qonuni:

$$I = \frac{\varepsilon}{R + r}$$

Bunda ε - manbaning EYUK i, r - manbaning ichki qarshiligi.

- Manbaning qisqa tutashuv toki:

$$I_q = \frac{\varepsilon}{r}$$

- Zanjirning to'liq quvvati:

$$P = \varepsilon I$$

- Tarmoqlanuvchi zanjir uchun Kirxgofning birinchi qoidasiga ko'ra tugunda uchrashuvchi barcha toklarning algebraik yig'indisi nolga teng:

$$\sum_{i=1}^n I_i = 0$$

- Har qanday yopiq kontur uchun Kirxgofning ikkinchi qoidasiga ko'ra konturdagi barcha toklarning mos holda qarshiliklarga ko'paytmasining algebraik yig'indisi barcha EYUK larning yig'indisiga teng:

$$\sum_{i=1}^n I_i R_i = \sum_{i=1}^n \varepsilon_i$$

- Qarshiliklarni o'zaro ketma-ket ulaganda natijaviy qarshilik: $R = \sum_{i=1}^n R_i$.
- Qarshiliklarni o'zaro parallel ulaganda natijaviy qarshilik: $\frac{1}{R} = \sum_{i=1}^n \frac{1}{R_i}$.
- Elektr tokining ishi: $A = IUt = \frac{U^2}{R} t$.
- Elektr tokining quvvati: $P = IU = \frac{U^2}{R} t$.
- Joul-Lens qonuni: $Q = I^2 R t = \frac{U^2}{R} t$.

Masala yechish namunalar


1. Tok zichligi $j = 30 A/m^2$ bo'lganda birlik hajmdagi mis simdan har sekundda ajralayotgan solishtirma issiqlik miqdori topilsin. $\rho = 0.017 \Omega \cdot mm^2 / m$

Berilgan: $j = 30 A/m^2$, $\rho = 0.017 \cdot 10^{-6} \Omega \cdot m$

Topish kerak: $Q_{sol} - ?$

Yechilishi: Elementar hajmdan vaqt birligi ichida ajralayotgan issiqlik miqdori solishtirma issiqlik miqdori deyiladi va $Q_{sol} = \frac{Q}{Vt}$ (1), to'liq issiqlik miqdori esa $Q = I^2 R t$ (2). (2) formulaga tok zichligining $I = jS$ ifodasini va qarshilikning $R = \rho \frac{l}{S}$ ifodasini qo'ysak, $Q = j^2 S l \rho t$ (3) bo'ladi. Agar $V = Sl$ ekanligini hisobga olsak, (3) dan $Q = j^2 \rho V t$ (4). (4) formulani (1) ga olib borib qo'ysak, $Q_{sol} = \rho j^2$ (5) va bundan Q_{sol} ni hisoblasak, $15.3 \cdot 10^{-6} \frac{J}{sm^3}$ ga teng. Javobi: $Q_{sol} = 15.3 \cdot 10^{-6} \frac{J}{sm^3}$.

2. 9.1-rasmida EYUKi $E = 12.0 \text{ V}$ va ichki qarshiligi $r = 0.5 \Omega$ bo'lgan o'zgarmas tok manbaiga $R = 65.0 \Omega$ bo'lgan tashqi qarshilik ulangan. a) zanjirdagi tok kuchini, b) zanjirning ab qismidagi kuchlanish tushuvini, c) ichki va tashqi qarshiliklardagi quvvatlarni aniqlang.



9.1-rasm

Berilgan: $E = 12.0 \text{ V}$, $R = 65.0 \Omega$, $r = 0.5 \Omega$

Topish kerak: $I - ?$, $U_{ab} - ?$, $P_R - ?$, $P_r - ?$

Yechilishi: Zanjirning ab qismidagi kuchlanish $U_{ab} = IR = E - Ir$. Berk zanjir uchun Om qonuniga ko'ra $I = \frac{E}{R+r} = 0.183 \text{ A}$. Bunga ko'ra, $U_{ab} = 11.9 \text{ V}$ kelib chiqadi. Ichki va tashqi qarshiliklardagi quvvatlar quyidagicha hisoblanadi: $P_R = I^2 R = 2.18 \text{ W}$, $P_r = 0.02 \text{ W}$.

Javobi: $I = 0.183 \text{ A}$, $U_{ab} = 11.9 \text{ V}$, $P_R = 2.18 \text{ W}$, $P_r = 0.02 \text{ W}$.

3. Uzunligi 500 m va diametri $2 \text{ mm} = 2 \cdot 10^{-3} \text{ m}$ bo'lgan mis simdan o'tayotgan tokning kuchi 2 A ga teng bo'lsa undagi kuchlanish topilsin. $\rho = 0.017 \Omega \cdot \text{mm}^2 / \text{m}$.

Berilgan: $l = 500 \text{ m}$, $d = 2 \text{ mm} = 2 \cdot 10^{-3} \text{ m}$, $I = 2 \text{ A}$

Topish kerak: $U - ?$

Yechilishi: Uzunligi l ga teng bo'lgan mis simdan o'tayotgan tok Om qonuniga ko'ra $I = \frac{U}{R}$ (1), mis simning qarshiligi esa $R = \rho \frac{l}{S}$ (2), bunda ρ -mis simning qarshiligi, S esa ko'ndalang kesimining yuzasi bo'lib $S = \frac{\pi d^2}{4}$ (3) ga teng. (3) ga ko'ra (2) dan $R = \rho \frac{4l}{\pi d^2}$ (4) va bu formulani (1)

ga olib borib qo'ysak $U = IR = \frac{4I\rho l}{\pi d^2}$ (5). (5) ifoda hisoblansa $5.4V$ kelib chiqadi. Javobi: $U = 5.4V$.

4. Quvvati $40W$ bo'lган $120V$ li lampochka berilgan. Lampochka $220V$ kuchlanishli tarmoqqa normal yonishi uchun unga ketma-ket qanday qo'shimcha qarshilik ulanishishi kerak? Shunday qarshilikni yasash uchun diametri $0.3mm$ bo'lган nixrom simdan necha metr olish kerak?

Nixrom uchun $\rho = 1 \Omega \cdot m^2 / m$.

Berilgan: $P_l = 40W$, $U_l = 120V$, $U_t = 220V$, $d = 0.3mm$

Topish kerak: $R_q - ?$

U_t -tarmoq kuchlanishi, U_q -qo'shimcha ulangan qarshilikdagi potesial tushuvi, P_l -lampochka quvvai, U_t -lampochka ulangandagi potensial tushuvi, R_q -ketma-ket ulangan qo'shimcha qarshilik.

Yechilishi: Qo'shimcha qarshilik ketma-ket ulanganligi uchun tok kuchi hamma qismlarda bir xil bo'ladi, kuchlanish esa $U_t = U_l + U_q$ bo'lgani uchun $U_q = U_t - U_l = 100V$. Lampochka quvvati uchun $P_l = U_l I$, bundan tarmoqdagi tok kuchini topamiz: $I = \frac{P_l}{U_l} = 0.33A$. Tarmoqdagi tok kuchi ma'lum bo'lgach qo'shimcha ulanishi kerak bo'lган qarshilikni topish qiyin emas. Om qonuniga ko'ra $R_q = \frac{U_q}{I} = 300\Omega$. Ushbu 300Ω qarshilikni hosil qilish uchun kerak bo'ladigan nixrom simning uzunligi esa $R_q = \rho_n \frac{l}{S}$ formuladan quyidagicha hisoblab topishimiz mumkin:

$$l = \frac{R_q S}{\rho_n} = \frac{R_q \pi d^2}{4 \rho_n}$$

nixromning solishtirma qarshiliqi $\rho_n = 10^{-6} \Omega \cdot m$ ni qo'yib $l = 21.2m$ ni topamiz. Javobi: $R_q = 300\Omega$ $l = 21.2m$.

5. Mis simli galtak chulg'amining qarshiligi $14^\circ C$ da 10Ω ga teng. Tokka ulangandan keyin chulgamning qarshiligi 12.2Ω ga teng bo'lib qoladi. Chulg'am qancha temperaturagacha qiziydi? Mis qarshiligining temperatura koeffitsienti $6 \cdot 10^{-3} grad^{-1}$ ga teng.

Berilgan: $t_1 = 14^\circ C$, $R_1 = 10\Omega$, $R_2 = 12.2\Omega$, $\alpha = 4.15 \cdot 10^{-3} grad^{-1}$

Topish kerak: $t_2 - ?$


Yechilishi: Mis simli g'altakning t_1 temperaturadagi qarshiligi $R_1 = R_0(1 + \alpha t_1)$ (1), t_2 temperaturada esa $R_2 = R_0(1 + \alpha t_2)$ (2), bunda R_0 $t = 0^\circ C$ dagi qarshilik. (2) ni (1) ga bo'lsak, $\frac{R_2}{R_1} = \frac{1 + \alpha t_2}{1 + \alpha t_1}$ (3), (3) dan t_2 ni topamiz

$t_2 = (R_2 / R_1)((1 + \alpha t_1) - 1) / \alpha$ (4). Masala shartidagi kattaliklarni (5) ga qo'ysak
 $t_2 = 70^0C$ kelib chiqadi.

Javobi: $t_2 = 70^0C$.


Mustaqil yechish uchun masalalar

1. Tok kuchi I vaqt t ga qarab $I = 4 + 2t$ tenglama buyicha o'zgaradi, bunda I amperlarda va t sekundlarda ifodalangan. 1) Utkazgihning ko'ndalang kesimidan $t_1 = 2s$ dan $t_2 = 6s$ gacha vaqt oralig'ida o'tadigan elektr miqdori va 2) shu vaqt oralig'ida o'tkazgnch ko'ndalang kesimidan shuncha elektr miqdori o'tishi uchun o'zgarmas tokning kuchi qancha bo'lishi kerakligini aniqlang (1) $q = 48C$, 2) $I = 12A$).
2. Qarshiligi $R = 40\Omega$ bo'lган pech yasash uchun, radiusi $2,3$ sm li chinni silindrga diametri $d = 1mm$ li nixrom simdan necha qavat o'rash kerak? ($N = 200$ ta o'ram).
3. Elektr lampochkasi volfram ipining qarshilngi 20^0C da $35,8\Omega$ ga teng, $120V$ kuchlapishli elektr tarmog'iga ulangan lampochka tolasidan $0,33A$ tok o'tsa, uning temperaturasi qancha bo'ladi? Volfram qarshiligining temperatura koeffisiyenti $4.6 \cdot 10^{-3} grad^{-1}$ ga teng ($t_2 = \frac{R_2 - R_0}{R_0 \alpha} = 2200^0C$).
4. Platina simning $t_1 = 20^0C$ haroratdagi qarshiligi $R_1 = 20\Omega$, $I = 500^0C$ dagi qarshiligi esa $R_2 = 59\Omega$. Platina qarshiligining harorat koeffisiyentini toping ($\alpha = 4.2 \cdot 10^{-3} grad^{-1}$).
5. Elementni oldin $R_1 = 2\Omega$ li tashqi qarshilikka so'ngra $R_2 = 0.5\Omega$ li tashqi qarshilikka ulandi. Bu hollarning har birida tashqi zanjirda olinadiqan quvvat bir xil va $2.54W$ ga teng bo'lsa, elementning *EYUK* i va uning ichki qarshiliginini toping. ($\varepsilon = 4V, r = 1\Omega$)
6. Uglerod birikmali qattiq moddadan yasalgan qirralari uzunliklari $1.0sm, 2.0sm$ va $4.0sm$ bo'lib rasmda ko'rsatilgandek koordinata o'qlari o'tkazilgan (9.2-rasm). a) x o'qi bo'yicha, b) y o'qi bo'yicha, c) z o'qi bo'yicha qarshiliklarni hisoblang. Materialning solishtirma qarshiliginini $\rho = 3 \cdot 10^{-5} \Omega \cdot m$ deb oling ($3.8 \cdot 10^{-4}\Omega, 1.5 \cdot 10^{-3}\Omega, 6.0 \cdot 10^{-3}\Omega$).




9.2-rasm

7. Misdan yasalgan ichki diametri 3.0sm va tashqi diametri 5.0sm bo'lgan 10.0m uzunlikdagi trubkaning qarshiligini hisoblang (9.3-rasm). ($1.7 \cdot 10^6 \Omega$).



9.3-rasm


8. Elektr yurituvchi kuchi 1.1V , ichki qarshiligi 1Ω bo'lgan element 9Ω li tashqi qarshilikka ulangan. 1) Zanjirdagi tok kuchi, 2) tashqi zanjirdagi potensialning tushishi, 3) elementning ichidagi potensialning tushishi, 4) element qanday foydali ish koeffitsienti bilan ishlashini toping ($1) I = 0.11\text{A}$, $2) U_1 = 0.99\text{V}$, $3) U_2 = 0.11\text{V}$, $4) \eta = 0.9$).
9. Elektr yurituvchi kuchi 2V bo'lgan elementning ichki qarshiligi 0.5Ω . Zanjirdagi tok kuchi 0.25A bo'lganda element ichidagi potensialning tushishi va zanjirning tashqi qarshiligini toping ($U = 0.125\text{V}$, $R = 7.5\Omega$).
10. 9.4-rasmdan foydalanib zanjirdagi tok kuchi I ni aniqlang ($I = 41\text{mA}$).



9.4-rasm

11. $EYUK = 6\text{V}$ bo'lgan element maksimal 3A tok beradi. Tashqi qarshilikda 1min da ajralib chiqqan eng ko'p issiqlik miqdori topilsin. ($Q = 1.08\text{kJ}$).


12.9.5-rasmda ko'rsatilgan elektr zanjiridan foydalanib a va b nuqtalar orasidagi potensiallar farqini va har bir batareyadagi kuchlanish tushuvini aniqlang. ($34V$, $85V$ batareya – $82V$; $45V$ batareya – $43V$)



9.5-rasm


13. Elementni oldin $R_1 = 2\Omega$ li tashqi qarshilikka so'ngra $R_2 = 0.5\Omega$ li tashqi qarshilikka ulandi. Bu hollarning har birida tashqi zanjirda olinadiqan quvvat bir xil va $2.54Vt$ ga teng bo'lsa, elementning EYUK i va uning ichki qarshiliginini toping ($E = 4V$, $r = 1\Omega$).

14. 9.6-rasmda ko'rsarilgan zanjirda R_1 va R_2 qarshiliklar orqali o'tuvchi tok kuchi va tok yunalishlarini aniqlang ($0.68A$; $0.33A$).



9.6-rasm

15. EYUK lari $E_1 = 2.0V$ va $E_2 = 3.0V$ ichki qarshiliklari $r_1 = r_2 = 0.35\Omega$ bo'lgan tok manbalariga tashqi $R = 4.0\Omega$ qarshilik 9.7-rasmda ko'rsatilgandek ulangan bo'lsa tashqi qarshilikda qanday kuchlanish hosil bo'lishini aniqlang.



9.7- rasm

§10. Turli muhitlarda elektr toki



- Faradeyning birinchi qonuni bo'yicha elektroliz vaqtida ajralib chiqqan modda massasi:

$$m = kIt = kq$$

k- moddaning elektrokimyoviy ekvivalenti, q - elektrolitdan o'tgan zaryad miqdori.

- Faradeyning ikkinchi qonuni bo'yicha elektroximiayivi ekvivalent kimyoviy ekvivalentga proporsionaldir:

$$k = \frac{1}{F} \frac{M}{n}$$

bu yerda F-Faradey doimiysi bo'lib uning qiymati: $F = 96500 \frac{C}{mol}$,

n -valentlik, M-molyar massa.

- Faradey qonunining umumiyo ko'rinishi: $m = \frac{1}{F} \frac{M}{n} \cdot It$.
- Gazlarda oqayotgan zichligi uncha katta bo'limgan tok zichligi uchun Om qonuni

$$j = qn(u_+ + u_-)E = \sigma E,$$

bunda $\sigma = qn(u_+ + u_-)$ - gazlarning solishtirma o'tkazuvchanligi n-juft ((bitta)+,(bitta)-) ionlarning hajm birligidagi soni-konsentratsiyasi, u_+ va u_- ionlarning harakatchanligi.

Masala yechish namunalari

1. Mis kuporosini elektroliz qilinganda bir soatda 0.5g mis ajraladi, har bir elektrodnning yuzi 75sm^2 bo'lsa tok zichligini toping.

Berilgan: $m = 0.5\text{g} = 5 \cdot 10^{-4} \text{kg}$, $S = 75\text{sm}^2 = 75 \cdot 10^{-4} \text{m}^2$, $t = 1 \text{ soat} = 3600\text{s}$

Topish kerak: $j - ?$

Yechilishi: Dastlab misning elektrokimyoviy ekvivalentini topamiz.

Buning uchun misning molyar massasi $M = 64 \cdot 10^{-7} \text{kg/mol}$ va

valentligini $n=2$ ekanligini inobatga olib $F=96485 \frac{C}{mol}$ ekanini bilgan holda Faradeyning ikkinchi qonunidan $k=\frac{1}{F} \frac{M}{n}=0.33 \cdot 10^{-6} \frac{kg}{C}$ (1), tok zichligi $j=\frac{I}{S}$ (2), Faradeyning birinchi qonuni $m=kIt$ (3). Bundan $j=\frac{m}{ktS}$ (4) kelib chiqadi, hisoblasak, $j=56A/m^2$. Javobi: $j=56A/m^2$.

2. Elektroliz qilinganda $AgNO_3$ eritmasidan 500mg kumush ajralishi uchun qancha elektr energiya sarflanishi kerak? Elektroddagi potensiallar ayirmasi 4V ga teng.

Berilgan: $m=500mg=0.5 \cdot 10^{-3} kg$, $F=96485 \frac{C}{mol}$, $U=4V$

Topish kerak: $W=?$

Yechilishi: Kumush uchun $M=0.11 kg/mol$ va $n=1$. Ma'lumki $W=qU$ (1), Faradeyning birinchi qonuniga ko'ra $m=kq$ (2), (2) dan zaryad q ni topib (1) ga qo'ysak $W=\frac{mU}{k}$ (3) ni hisoblasak, $W=1.8kJ$ bo'ladi.

Javobi: $W=1.8kJ$.

3. Razryad trubkasining 10sm oraliqdagi elektrodlariga 5V potensiallar ayirmasi berilgan. Trubka ichidagi gaz ionlashib, unda $1m^3$ hajmdagi juft ionlar soni 10^8 ga teng. Ionlar harakatchanligi $u_+=3 \cdot 10^{-2} m^2/V \cdot s$ va $u_-=3 \cdot 10^2 m^2/V \cdot s$. 1) Trubkadagi tok zichligi va 2) musbat ionlar orqali to'la tokning qancha qismi o'tishini toping.

Berilgan:

$U=5V$, $d=10sm=0.1m$, $n=10^8 m^{-3}$, $u_+=3 \cdot 10^{-2} m^2/V \cdot s$, $u_-=3 \cdot 10^2 m^2/V \cdot s$

Topish kerak: $j=?$, $\frac{j^+}{j}-?$

Yechilishi: Gazlardagi zichligi uncha katta bo'limgan toklar uchun tok zichligi Om qonuniga ko'ra $j=qn(u_++u_-)E$ (1). Masala shartiga ko'ra $q=e=106 \cdot 10^{-19} C$, $E=\frac{U}{d}$ ekanligidan $j=en\frac{(u_++u_-)U}{d}$ (2). (2) dan hisoblansa $j=0.24 \cdot 10^{-6} A/m^2$. Masalaning ikkinchi shartini quyidagicha aniqlaymiz: musbat ionlar zichligi uchun $j^+=\frac{enu^+U}{d}$, ushbu ifodaga

ko'ra $\frac{j^+}{j}=\frac{\frac{enu^+U}{d}}{\frac{0.24 \cdot 10^{-6}}{0.24 \cdot 10^{-6} d}}=\frac{enu^+U}{0.24 \cdot 10^{-6} d}=10^{-4}$. Javobi: $j=0.24 \cdot 10^{-6} A/m^2$, $\frac{j^+}{j}=10^{-4}$.

Mustaqil yechish uchun masalalar:

1. Mis xlorning suvdagi eritmasi ($CuCl_2$) ni elektroliz qilishda qancha vaqtdan keyin katodda 4.74g mis ajraladi? Tok kuchi $2A$ ga teng. (2soatda).
2. Vodorodning elekrokimyoviy ekvivalenti topilsin ($k = 1.04 \cdot 10^{-8} kg / C$).
3. Al_2O_3 eritmasidan elektroliz usuli bilan alyuminiy olishda eritilgan kriolitdan, elektrolitlardagi potensiallar ayirmasi $5V$ bo'lganda, $2 \cdot 10^4 A$ tok o'tgan. 1) $10^3 kg$ alyuminiy ajralishi uchun ketgan vaqt, 2) bunga qancha elektr energiyasi sarflanganligi topilsin.
(1) 149 soat , 2) $1.49 \cdot 10^4 kW \cdot \text{soat}$)
4. Xlor kislotasini elektroliz qilishda katodda $m_1 = 1.14g$ vodorod ajralib chiqqan vaqt ichida anodda ajralib chiqadigan xlorning massasini toping. Vodorodning elekrokimyoviy ekvivalenti $k_1 = 1.045 \cdot 10^{-8} kg / C$, xlorniki esa $k_1 = 36.7 \cdot 10^{-8} kg / C$ ($m_2 = 40g$).
5. Yuzi $25sm^2$ bo'lgan mis plastinka mis kuporosini elektroliz qilishda katodlik vazifasini bajaradi. Bir oz vaqt zichligi $0.02A/sm^2$ bo'lgan tok o'tkazilgandan so'ng, plastinka massasi $99mg$ ga ortadi. 1) Tokning qancha vaqt o'tganligi va 2) plastinkada hosil bo'lgan mis qatlaming qalinligini toping. (1) 10 min , 2) $4.6 \cdot 10^{-6} m$).
6. Buyumga kumush qoplashda $j = 0.7A/dm^2$ zichlikli tokdan foydalaniladi. Buyum sirtida $h = 54mkm$ qalinlikdagi kumush qatlami hosil bo'lishi uchun elektrolitdan tokning o'tishi kerak bo'lgan vaqtini toping ($t = 2\text{ soat}$).
7. Uzunligi $3sm$ va ko'ndalang kesimining yuzi $10sm^2$ bo'lgan naycha $1m^3$ dagi tarkibda $0.1kmol$ $CuSO_4$ bo'lgan eritma bilan to'ldirilgan. Eritma qarshiligi 38Ω . Eritmaning ekvivalent elektr o'tkazuvchanligi topilsin (92%).
8. $AgNO_3$ eritmasi solingan elektrolistik vannaga ketma-ket ulangan ampermetr $0.9A$ ni ko'rsatib turibdi. 5 minut tok o'tgandan so'ng $316mg$ kumush ajralib chiqqan bo'lsa, ampermetrning ko'rsatishi to'g'rimi? (Ampermetr $0.04A$ dan kam tok kuchini ko'rsatadi).
9. $AgNO_3$ va $CuSO_4$ eritmasi solingan ikkita elektrolistik vanna o'zaro ketma-ket ulangan. $180mg$ kumush ajratishga ketgan vaqt ichida qancha mis ajraladi? ($53mg$).
10. Suvni elektroliz qilib $t = 27^\circ C$ haroratli va normal atmosfera bosimi bo'lganda $V = 5l$ kislogodolish uchun vannaga ulangan akammulyator kamida qanday sig'imga ega bo'lishi kerak? Normal sharoitdagi

kislородning zichligi $\rho = 1.43 \text{ kg/m}^3$, elektrokimyoviy ekvivalentini esa $k = 8.29 \cdot 10^{-8} \text{ kg/C}$ ($21.8 \text{ A} \cdot \text{soat}$).

11. Alyuminiy uch oksidi (Al_2O_3) eritmasidan elektroliz usuli bilan alyuminiy olishda elektrodlardagi potensiallar ayirmasi $U = 5 \text{ V}$ bo'lganda, $I = 2 \text{ kA}$ tok o'tgan bo'lsa, $m = 10^3 \text{ kg}$ alyuminiy olish ichun ketgan vaqt t ni va sarf bo'lgan elektr energiyasi W ni toping.
(149 soat , $14.9 \text{ MW} \cdot \text{soat}$)
12. Mis sulfat (CuSO_4) eritmasi solingan elektrolitik vannada $t = 40 \text{ min}$ davomida $m = 1.98 \text{ g}$ mis ajralgan. Agar eritmaning qarshiligi $R = 1.3 \Omega$, batareyaning ichki qarshiligi $r = 0.3 \Omega$, qutblanish EYUKi $E_q = 1 \text{ V}$ bo'lsa, vannani tok bilan ta'minlash uchun zarur bo'lgan batareyaning EYUKini toping ($E = 5 \text{ V}$).
13. Rux sulfat (ZnSO_4) eritmasi elektroliz qilinganda katoddan $t = 50 \text{ min}$ davomida $m = 2.04 \text{ g}$ rux ajralgan. Agar elektrolitik vanna qisqichlarida kuchlanish $U = 4.2 \text{ V}$. Eritmaning qarshiligi $R = 1.8 \Omega$ bo'lsa, qutblanish EYUKini toping ($E_q = 0.6 \text{ V}$).
14. Kumush nitrat (AgNO_3) va mis sulfat (CuSO_4) eritmasi solingan ikkita elektrolitik vanna o'zaro ketma-ket ulangan. $m_1 = 180 \text{ mg}$ kumush ajralishiga ketgan vaqt ichida ajralgan misning massasini toping.
($m_2 = 53 \text{ mg}$).
15. Kumush nitrat (AgNO_3) eritmasini $t = 1 \text{ soat}$ davomida elektroliz qilganda 9.4 g kumush ajraldi. Agar vanna qisqichlaridagi kuchlanish $U = 1.5 \Omega$ bo'lsa, qutblanish EYUKini toping ($E_q = 0.7 \text{ V}$).
16. Agar elektroliz vaqtida $W = 5 \text{ kW} \cdot \text{soat}$ elektr energiyasi sarflangan bo'lsa, ajralgan misning massasini toping. Vanna qisqichlaridagi kuchlanish $U = 10 \text{ V}$ bo'lib, qurilmaning FIK $\eta = 75\%$. Misning elektrokimyoviy ekvivalenti $k = 3.3 \cdot 10^{-7} \text{ kg/C}$ ($m = 0.45 \text{ kg}$).
17. FIK $\eta = 80\%$ bo'lgan qurilmada elektroliz $U = 10 \text{ V}$ kuchlanish ostida olib borilayotgan bo'lsa, $m = 1 \text{ kg}$ alyuminiy olish uchun qancha elektr energiyasi sarflanadi? Alyuminiyning valentligi 3 ga teng deb oling.
($W = 134 \text{ J}$).
18. Uzunligi 84 sm va ko'ndalang kesimining yuzi 5 mm^2 bo'lgan naycha 0.1 N konsentratsiyali AgNO_3 eritmasi bilan to'ldirilgan. Agar AgNO_3 hamma molekulasingning 81 foizi dissosiasiyalansa, eritmaning qarshiligi topilsin ($R = 5.2 \cdot 10^5 \Omega$).

19.Uzunligi 84sm va ko'ndalang kesimining yuzi 5mm^2 bo'lgan trubka, har bir sm^3 muvozanat holda 10^7 juft ionli ionlashtirilgan havo bilan to'ldirilgan. Ionlarning harakatchanligi $u_+ = 1.3 \cdot 10^{-4} \text{m}^2 / \text{V} \cdot \text{s}$ va $u_- = 1.8 \cdot 10^{-4} \text{m}^2 / \text{V} \cdot \text{s}$ bo'lgandagi trubkaning qarshiligini toping. Ionlarni bir valentli deb hisoblang ($R = 3.4 \cdot 10^{14} \Omega$).

20.Elektron eng kam qanday tezlik bilan harakatlanganda vodorod atomini ionlashtira oladi. Vodorod atomining ionizatsiya potensiali 13.5V ($\vartheta = 2.2 \cdot 10^6 \text{m/s}$).

§11. Magnit maydon



- Parallel toklarning o'zaro ta'sir kuchi o'tkazgichlardan o'tayotgan toklarning kuchlari I_1, I_2 ga, o'tkazgichning uzunligi l ga to'g'ri proporsional bo'lib, ular orasidagi masofa r ga teskari proporsionaldir, ya'ni:

$$F = \frac{\mu\mu_0}{2\pi} \frac{I_1 I_2}{r} l$$

- Konturning magnit momenti konturdan o'tayotgan tok kuchi va kontur yuzasi ko'paytmasiga teng.

$$p_m = IS \text{ yoki } \vec{p}_m = I \cdot S \cdot \vec{n}$$

- Induksiyasi B bo'lgan magnit maydonida joylashgan tokli yopiq konturga ta'sir qiluvchi juft kuchning aylantiruvchi momenti quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$M = p_m B \sin \alpha \text{ yoki } M = [\vec{p}_m \cdot \vec{B}]$$

α -ramka tekisligiga o'tkazilgan normal bilan magnit induksiyasi orasidagi burchak.

- Bio-Savar-Laplas qonuniga ko'ra I tok o'tayotgan kontur elementi dl ning undan r masofada turgan biror A nuqtada hosil qilgan magnit maydon kuchlanganligi quyidagicha:

$$dH = \frac{I \sin \alpha dl}{4\pi r^2},$$

- Magnit maydon induksiyasi: $d\bar{B} = \mu\mu_0 \frac{I \sin \alpha \cdot dl}{4\pi r^2}$,

bunda α -radius vektor bilan kontur elementi dl orasidagi burchak.

Turli ko'inishdagi tokli konturlar uchun Bio-Savar-Laplas qonunini qo'llash orqali quyidagi natijalarni olish mumkin:

1. Aylanma shakldagi tokli kontur markazidagi hosil bo'lган magnit maydon kuchlanganganligi:

$$H = \frac{I}{2R}, \text{ magnit maydon induksiyasi: } B = \mu\mu_0 \frac{I}{2R}.$$

2. Cheksiz uzun to'g'ri chiziqli o'tkazgichning undan a masofada hosil bo'lган magnit maydon kuchlanganganligi:

$$H = \frac{I}{2\pi a}, \text{ magnit maydon induksiyasi: } B = \mu\mu_0 \frac{I}{2\pi a}.$$

3. Cheksiz uzun solenoid va toroidning hosil qilgan magnit maydon kuchlanganganligi:

$$H = In, \text{ magnit maydon induksiyasi } B = \mu\mu_0 In.$$

bu yerda n solenoidning uzunlik birligidagi o'ramlar soni.

4. Aylanma shakldagi tokning markazidan aylana tekisligiga tik o'tgan o'qda biror a masofada hosil bo'lган magnit maydon kuchlanganganligi

$$H = \frac{R^2 I}{2\sqrt{(R^2 + a^2)^3}}, \text{ magnit maydon induksiyasi } B = \mu\mu_0 \frac{R^2 I}{2\sqrt{(R^2 + a^2)^3}}$$

- Magnit maydon induksiyasi va magnit maydon kuchlanganganligi quyidagicha bog'langan:

$$B = \mu\mu_0 H$$

- Berilgan sirt orqali o'tayotgan magnit maydon induksiya oqimi Φ magnit maydon induksiyasi B ning yuza S hamda sirtga o'tkazilgan normal bilan magnit induksiyasi vektori orasidagi burchak kosinusining ko'paytmasiga teng:

$$\Phi = BS \cos\alpha \text{ yoki } \Phi = BS_n = B_n S$$

- Bir jinsli magnit maydondagi tokli o'tkazgichga ta'sir qiluvchi Amper kuchi F_A o'tkazgichdan o'tayotgan tokning kuchi I ga, o'tkazgich uzunligi l ga, magnit induksiyasi B ga va o'tkazgich bilan magnit induksiyasi chiziqlari orasidagi burchak sinusiga to'g'ri proporsional:

$$F_A = BlI \sin\alpha$$

- Bir jinsli magnit maydonda harakatlanayotgan zaryadlangan zarrachaga ta'sir qiluvchi Lorens kuchi F_L zarraning zaryadi q ga, tezligi ϑ ga, induksiyasi B ga va tezlik bilan magnit induksiyasi chiziqlari orasidagi burchak sinusiga to'g'ri proporsional:

$$F_L = B\vartheta q \sin\alpha$$

- Bir jinsli ($B = const$) magnit maydon energiyasi

$$W_m = \frac{B^2}{2\mu\mu_0} V = \frac{HB}{2} V = \frac{1}{2} \mu\mu_0 H^2$$

bunda V- magnit maydon egallagan fazoning hajmi.

- Birlik hajmga to'g'ri keluvchi magnit maydon energiyasi – magnit maydon energiyasining hajmiy zichligi deyiladi va u quyidagiga teng:

$$\frac{W_m}{V} = W_0 = \frac{B}{2\mu\mu_0} = \frac{HB}{2}$$

- Elektromagnit maydon uchun to'liq energiya elektr maydon energiyasi bilan magnit maydon energiyasi yig'indisiga teng:

$$W = W_e + W_m$$

Masala yechish namunalari

1. Induksiyasi 0.05 Tl bo'lgan magnit maydonda uzunligi 1m bo'lgan sterjen aylanmoqda. Aylanish o'qi sterjenning bir uchidan o'tgan bo'lib, u magnit maydonnong kuch chiziqlariga parallel. Sterjenning har bir aylanishida u bilan kesishuvchi magnit oqimining o'zgarishi topilsin.

Berilgan: $B = 0.05 \text{ Tl}$, $l = 1\text{m}$

Topish kerak: $\Phi - ?$

Yechilishi: Masala shartiga ko'ra magnit maydon induksiyasi B yoki magnit maydon kuchlanganligi H - S ga perpendikulyar bo'lganligidan: $\Phi = BS$ (1). Sterjen aylanishidan hosil bo'lgan sirt $S = \pi l^2$ (2). $B = \mu\mu_0 H$ ekanligini hisobga olib $\Phi = \mu\mu_0 H \pi l^2$ (3) formulani hosil qilamiz va hisoblansa $\Phi = 157 \text{ mWb}$ kelib chiqadi. Javobi: $\Phi = 157 \text{ mWb}$.

2. Elektromagnit qutblari orasida induksiyasi 0.1 Tl bo'lgan bir jinsli magnit maydoni hosil bo'ladi. Maydon kuch chiziqlariga tik o'rnatilgan 70 sm uzunlikdagi simdan 70 A tok o'tganda simga ta'sir qiluvchi kuch topilsin.

Berilgan: $B = 0.1 \text{ Tl}$, $l = 0.7 \text{ m}$, $I = 70 \text{ A}$

Topish kerak: $F - ?$

Yechilishi: Magnit maydondagi tokli o'tkazgichga ta'sir qiluvchi Amper kuchi $F_A = BIl \sin\alpha$ (1), bunda α o'tkazgich uzunligi l bilan magnit induksiyasi B orasidagi burchak bo'lib u 90° ga teng ekanligidan $\sin\alpha = 1$ ga teng va $F_A = IBl$ (2). Son qiymatlarini qo'yib hisoblaymiz va javobi: $F_A = 5 \text{ N}$.

3. Bir xil tezlik bilan harakatlangan proton va elektron bir jinsli magnit maydonga uchib kiradi. Proton trayektoriyasining egrilik radiusi R_1 elektron elektron trayektoriyasi radiusi R_2 dan qancha katta bo'ladi?

Berilgan: $\vartheta_1 = \vartheta_2$

Topish kerak: $\frac{R_1}{R_2} - ?$

Yechilishi: Magnit maydoni tomonidan elektron va protonga Lorens kuchi ta'sir qiladi: $F_1 = F_2 = qB\vartheta$ (1) chunki bir jinsli ($B = const$) magnit maydonda elektron va proton bir xil tezlikda harakatlanganligi uchun ya'ni $\vartheta_1 = \vartheta_2$ bo'lganligi uchun $F_1 = F_2$ kelib chiqadi, o'z navbatida zarralar quyidagi bir xil tezlanish bilan harakatlanadi $a = \frac{F}{m} = \frac{qB\vartheta}{m}$ (2).

Agar $a = \frac{\vartheta^2}{R}$ ekanligini inobatga olsak $\frac{qB\vartheta}{M} = \frac{\vartheta^2}{R}$ kelib chiqadi bundan $R_2 = \frac{m_e \vartheta}{q_e B}$ -elektron uchun, $R_1 = \frac{m_p \vartheta}{q_p B}$, ikalasini nisbatidan hisonlasak, $\frac{R_1}{R_2} = \frac{m_p}{m_e} = 1840$. Javobi: 1840 marta.

4. O'zaksiz solenoiddagи magnit induksiyasining oqimi $5 \cdot 10^{-6} Wb$. Solenoid uzunligi $25sm$ bo'lganda, shu solenoidning magnit momenti topilsin.

Berilgan: $\Phi = 5 \cdot 10^{-6} Wb$, $l = 25sm = 0.25m$

Topish kerak: $P_m - ?$

Yechilishi: Konturning magnit momenti $P_m = IS$ (1), buni solenoidga qo'llasak $P_m = INS$ (2), solenoid uchun magnit oqimi esa $\Phi = \frac{\mu\mu_0 INS}{l}$ (3).

Bundan (2) ga ko'ra $\Phi = \frac{\mu\mu_0 P}{l}$, yoki $P_m = \frac{\Phi l}{\mu\mu_0}$ ni hisoblasak $P_m = 1m^2 A$.

Javobi: $P_m = 1m^2 A$

5. Tok o'tayotgan $r = 1sm$ bo'lgan doiraviy sim o'rami markazdagi magnit maydonning kuchlanganligini toping?

Berilgan: $I = 1A$, $r = 1sm = 0.01m$

Topish kerak: $H - ?$

Yechilishi: Bio-Savar-Laplas qonunidan kelib chiqadigan birinchi natijaga ko'ra aylana shakldagi tokli kontur markazida hosil bo'lgan magnit maydon kuchlanganligi $H = \frac{I}{2R}$ formuladan aniqlanadi. H ni hisoblasak: $H = 50A/m$ kelib chiqadi. Javobi: $H = 50A/m$.


6. 5A tok o'tayotgan cheksiz uzun o'tkazgichdan 2sm uzoqlikdagi nuqtada magnit maydonning kuchlanganligini toping (11.1-rasm).

Berilgan: $I = 5 \text{ A}$, $r = 2 \text{ sm} = 0.02 \text{ m}$

Topish kerak: $H - ?$

Yechilishi: I tok o'tayotgan cheksiz uzun o'tkazgichning undan biror masofadagi nuqtada hosil qilgan magnit maydon kuchlanganligi $H = \frac{I}{2\pi R}$ ga teng ekanligidan hisoblansa $H = 40 \frac{\text{A}}{\text{m}}$ kelib chiqadi. Javobi:

$$H = 40 \frac{\text{A}}{\text{m}}.$$



11.1-rasm

7. 11.2-rasmda tokli cheksiz uzunlikdagi ikkita to'g'ri o'tkazgichning kesimi tasvirlangan. O'tkazgichlar AB oralig'i 10 sm , $I_1 = 5.0 \text{ A}$, $I_2 = 7.0 \text{ A}$. I_1 va I_2 toklarning oraligi o'rtasidagi magnit maydon induksiyasini hisoblang.

Berilgan: $I_1 = 5.0 \text{ A}$, $I_2 = 7.0 \text{ A}$, $AB = 10 \text{ sm}$

Topish kerak: $B - ?$


Yechilishi: Bizga ma'lumki, cheksiz uzun to'g'ri o'tkazgichning undan biror masofada hosil qilgan magnit maydon kuchlanganligi $B = \frac{\mu_0 I}{2\pi r}$. Shunga ko'ra I_1 va I_2 toklarning o'rtada hosil qilgan magnit maydon induksiyasini hisoblaymiz:

$$B_1 = \frac{\mu_0 I_1}{2\pi r} = \frac{(4\pi \cdot 10^{-7} \text{ T} \cdot \text{m} / \text{A})(5.0 \text{ A})}{2\pi(0.05 \text{ m})} = 2.0 \cdot 10^{-5} \text{ Tl}$$

$$B_2 = \frac{\mu_0 I_2}{2\pi r} = \frac{(4\pi \cdot 10^{-7} \text{ T} \cdot \text{m} / \text{A})(7.0 \text{ A})}{2\pi(0.05 \text{ m})} = 2.8 \cdot 10^{-5} \text{ Tl}$$

Natijaviy magnit maydon iduksiyasi: $B = B_1 + B_2 = 4.8 \cdot 10^{-5} \text{ Tl}$.

Javobi: $B = 4.8 \cdot 10^{-5} \text{ Tl}$



11.2-rasm

8. O'ramlar soni 1000 bo'lgan solenoiddan $I = 1 \text{ A}$ tok o'tganda $\Phi = 0.1 \cdot 10^{-3} \text{ Wb}$ magnit oqimi vujudga kelgan bo'lsa undagi magnit maydon energiya zichligini toping.

Berilgan: $N = 1000$, $I = 1 \text{ A}$, $\Phi = 0.1 \cdot 10^{-3} \text{ Wb}$

Topish kerak: $W - ?$

Yechilishi: Quyidagilarga egamiz: $\frac{W_m}{V} = W_0 = \frac{B}{2\mu\mu_0} = \frac{HB}{2}$ (1) yoki solenoid uchun $H = nI = I \frac{N}{l}$ (2), ikkinchi tomondan $\Phi = BS$ (3) dan $W = \frac{IN\Phi}{2}$ kelib chiqadi. Javobi: 0.05J.

8. Kichik diametrli va $l = 30sm$ uzunlikdagi solenoid ichida magnit maydon energiyasining hajmiy zichligi $1.35 J/m^3$ ga teng bo'lishi uchun amper o'ramlar soni qancha bo'lishi kerak?

Berilgan: $l = 30sm = 0.3m$, $W_0 = 1.75 J/m^3$

Topish kerak: $IN - ?$

Yechilishi: Bizga ma'lumki, $W_0 = \frac{HB}{2}$ (1). Solenoid uchun magnit maydon kuchlanganligi $H = nI = I \frac{N}{l}$ (2). Agar $B = \mu\mu_0 H$ ekanligini inobatga olsak $W = \frac{\mu\mu_0 H^2}{2}$ (3). Bunga (2) ni ta'sir ettirsak, $W_0 = \frac{\mu\mu_0 (IN)^2}{2l^2}$ (4) va bundan $IN = l \sqrt{\frac{2W}{\mu\mu_0}}$ bo'ladi va hisoblashlar natijasida $IN = 500A \cdot o'ram$ degan javobga ega bo'lamiz. Javobi: $IN = 500A \cdot o'ram$.

Mustaqil yechish uchun masalalar

- Doiraviy kontur tekisligi magnit maydoniga, maydon kuch chiziqlari bilan 90° burchak hosil qiladigan qilib o'rnatilgan. Magnit maydonining kuchlanganligi 2000 ersted . Konturning radiusi 2sm bo'lib, undan $2A$ tok o'tadi. O'tkazgichning harakat tezligi 20 sm/s va magnit maydoni yo'naliishiga tik yo'nalgan. 1) O'tkazgich 10 sekund davomida harakat qilgandagi bajargan ishi va 2) shu harakatga sarflangan quvvat topilsin $1 \text{ ersted} = \frac{1}{4\pi} 10^{-3} A/m$ ($A = 0.2 J$, $P = 2 \cdot 10^{-2} W$).
- Kvadrat ramka simga shunday osilganki, magnit maydonining kuch chiziqlari ramka tekisligiga o'tkazilgan normal bilan 90° burchak tashkil qiladi. Ramkaning tomonlari 1 sm . Maydonning magnit induksiyasi $1.37 \cdot 10^2 Tl$. Ramka bo'ylab $I = 1A$ tok o'tganda, u 1° burchakka buriladi. Simning siljish moduli topilsin. Simning uzunligi 10 sm , ipning radiusi 0.1 mm ($5 \cdot 10^{10} N/m^2$).
- 300 V potensiallar ayirmasi bilan tezlashtirilgan elektron 4 mm uzoqlikdagi to'g'ri uzun simga parallel ravishda harakatlanadi. Simdan 5 A tok o'tsa, elektronga qanday kuch ta'sir qiladi?

$(4 \cdot 10^{-16} N)$.


4. Elektron magnit maydoniga uning kuch vhiziqlariga tik uchib kiradi. Elektronning tezligi $\vartheta = 4 \cdot 10^7 m/s$. Magnit maydonining induksiyasi $10^{-3} Tl$. Magnit maydonida elektronning normal va tangensial tezlanishi qanchaga teng bo'ladi? ($a_t = 0$, $a_n = const = 7 \cdot 10^{15} m/s^2$).
5. Zaryadli zarracha aylana bo'yicha $10^6 m/s$ tezlik bilan magnit maydonida harakat qiladi. Magnit maydonining induksiyasi $0.3 Tl$. Aylananing radiusi $4 sm$. Zarrachaning energiyasi $12 keV$ ga teng bo'lganda uning zaryadini toping ($q = 3.2 \cdot 10^{19} C$).
6. Ikki parallel cheksiz uzun to'g'ri o'tkazgich vakkumda bir-biridan $r = 40 sm$ masofada joylashgan. Agar ularning biridan $I_1 = 12 A$, ikkinchisidan esa $I_2 = 18 A$ tok o'tayotgan bo'lsa, simlarning uzunlik birligiga to'g'ri keluvchi kuchini toping ($F/l = 1.08 \cdot 10^{-4} N/m$).
7. $I = 12.5 A$ tok o'tayotgan, tomonlari $l = 40 sm$ dan bo'lgan kvadrat kontur joylashgan. O'tkazgich bilan kontur bir tekislikda yotadi. Agar to'g'ri o'tkazgichdan konturning eng yaqin tomonigacha bo'lgan masofa $a = 10 sm$ bo'lsa, konturga ta'sir qiluvchi kuchni toping. ($F = 32 mKN$).
8. Vakuumda har bir metrining massasi $m/l = 20 g/m$ bo'lgan ikki parallel cheksiz uzun to'g'ri o'tkazgichlarga parallel joylashgan o'qqa uzunligi $l_0 = 10 sm$ ga teng vaznsiz iplar bilan osilgan. Agar o'tkazgichlardan miqdor jihatdan teng va qarama-qarshi yo'naligan toklar o'tganda iplar vertikaldan $\alpha = 20^\circ$ burchakka og'gan bo'lsa, tok kuchuning qiymatini toping.
9. Galvonometrning $N = 40$ ta o'ramli to'g'ri to'rtburchak shalkidagi ramkasi $B_0 = 0.8 Tl$ induksiyali bir jinsli magnit maydonda joylashgan. Agar ramkaga $M_{max} = 6.4 \cdot 10^{-4} N \cdot m$ bo'lgan maksimal aylantiruvchi kuch ta'sir etayotgan bo'lsa, ramkadan o'tayotgan tokning kuchini toping ($I = 0.02 A$).
10. Induksiyasi $B = 0.2 Tl$ bo'lgan bir jinsli magnit maydonda $r = 30 sm$ radiusli, o'ramlar soni $N = 75$ bo'lgan yupqa g'altak turibdi. Agar g'altak o'ramlari orqali $I = 8 A$ tok o'tayotgan bo'lsa, g'altakning magnit momenti va g'altakka ta'sir etuvchi aylantiruvchi kuch momenti nimaga teng bo'ladi? G'altak tekisligiga o'tkazilgan normal bilan magnit induksiyasi orasidagi burchak $\alpha = 30^\circ$.
($p_m = 170 A \cdot m^2$, $M = 1.6 N \cdot m$).
11. Ikkita to'g'ri uzun o'tkazgich bir-biridan $10 sm$ uzoqlikda joylashgan. O'tkazgichlardan qarama-qarshi yo'nalishda $I_1 = I_2 = 5 A$

tok o'tmoqda . Har bir o'tkazgichdan 10 sm narida turgan nuqtadagi magnit maydon kuchlanganligening qiymati va yo'nalishi topilsin ($H = 8A/m$).

12. Vertikal holatda joylashgan o'tkazgich bo'y lab yuqoridan pastga $I = 8A$ tok o'tadi. Yer va tok magnit maydonlari qo'shilishidan hosil bo'lgan maydonning kuchlanganligi o'tkazgichdan qanday ruzoqlikda yuqoriga vertikal yo'nalgan bo'ladi? Yer maydonining gorizontal tashkil etuvchisi $H_2 = 0.2 \text{ ersted}$ $1 \text{ ersted} = \frac{1}{4\pi} 10^{-3} A/m$ ($r = 0.08m$).

13. Tokli to'g'ri o'tkazgichning AB kesmasi o'rtasiga o'tkazilgan perpendikulyarda AB kesmadan 5 sm uzoqlikda turgan C nuqtadagi tokli o'tkazgich hosil qilgan magnit maydonining kuchlanganligi hisoblansin. O'tkazgichdan $20A$ tok o'tadi. AB kesma C nuqtadan $60^\circ C$ burchak ostida ko'rindi ($H = 31.8 A/m$).

14. Cheksiz uzun to'g'ri tokli o'tkazgichdan $I = 25A$ o'zgarmas tok o'tmoqda. (11.3-rasm). Tokli o'tkazgichning undan $10sm$ masofadagi P nuqtada hosil qilgan magnit maydon induksiyasini aniqlang ($B = 5.0 \cdot 10^{-5} T$).



11.3-rasm

15. To'g'ri burchakli qilib egilgan o'tkazgichdan $20A$ tok o'tadi. Burchak uchidan $10sm$ narida, burchak bissektrisasiida yotgan nuqtadagi magnit maydonining kuchlanganligi topilsin ($H = 77.3 A/m$).

16. Ko'ndalang kesimi $S = 1.0 mm^2$ bo'lgan mis simdan qilingan halqa orqali o'tayotgan $20A$ tok halqaning markazida kuchlanganligi $H = 2.24e$ ga teng magnit maydoni hosil qiladi. O'tkazgichning uchlari qanday potensiallar ayirmasiga kulanganligini toping/ ($U = \frac{\pi \rho I^2}{SH} = 0.12V$).


17. Doiraviy kontur o'qida kontur tekisligidan 3 sm naridagi magnit maydonining kuchlanganligi topilsin. Kontur radiusi 4 sm va konturdagi tok $2A$ ($H = 12.7 A/m$).

18. Radiusi 11 sm bo'lgan doiraviy o'ram markazidagi magnit maydonining kuchlanganligi 0.8 ersted . Shu o'ram o'qida o'ram tekisligidan 10sm naridagi magnit maydonining kuchlanganligini toping ($H = 25.7 A/m$).

19. Cheksiz uzun o'tkazgich o'ziga urinma holda doiraviy sirtmoq hosil qiladi. O'tkazgich bo'y lab $5A$ tok o'tmoqda. Sirtmoq markazida


magnit maydon kuchlanganligi $41A/m$ bo'lganda sirtmoq radiusi qancha bo'ladi? ($r=8sm$).

20. Oralig'i $l = 60sm$ bo'lgan relslarda ularga tik ravishda sterjen yotibdi. Sterjenni harakatlantirish uchun undan o'tishi kerak bo'lgan eng kichik tok kuchini aniqlang. Relslar va sterjen $B = 60mTl$ induksiyali bir jinsli vertical magnit maydonda joylashgan. Sterjenning massasi $m = 0.5 kg$, uning relslarga ishqalanish koeffisiyenti $\mu = 0.1$ ($I = 13.6A$).
21. 30sm uzunlikdagi g'altak 1000 o'ramdan iborat. G'altakdan o'tayotgan tok $2A$ ga teng bo'lsa, g'altak ichidagi magnit maydonining kuchlanganligi topilsin. G'altak diametrini uning uzunligiga nisbatan kichik deb hisoblang. ($H = 6670A/m$)
22. Ikkita doiraviy o'ram bir-biriga tik ravishda ikkita o'zaro perpendikulyar tekisliklarda joylashib, o'ramlarning markazlari bir-biriga mos keladi. Har bir o'ramning radiusi 2 sm va ulardan o'tayotgan tok $I_1 = I_2 = 5A$. Shu o'ramlar markazidagi magnit maydon kuchlanganligi topilsin ($H = 177/m$).
23. O'zaksiz g'altakning ichidagi magnit maydonning induksiyasi $B_0 = 2 \cdot 10^{-4} Tl$. Agar g'altakning ichiga nikel o'zak ($\mu = 800$) kiritilsa, o'zakdagi magnit maydonning induksiyasi va o'zakning ko'ndalang kesimi ($S = 10sm^2$) orqali o'tuvchi magnit induksiya oqimi nimaga teng? ($B = 0.16 Tl$, $\Phi = 1,6 \cdot 10^{-4} Wb$).
24. Uzunligi $l = 30 sm$ va massasi $m = 5g$ bo'lgan to'g'ri o'tkazgich vaznsiz iplarga osib qo'yilgan. Magnit maydon kuch chiziqlari o'tkazgichga perpendikulyar ravishda gorizontal yo'nalgan. Har bir $F_A = 4 \cdot 10^{-2} N$ yuklanishga chiday oladigan iplar uzilib ketishi uchun o'tkazgichdan qanday tok o'tishi kerak? Magnit maydon kuchlanganligi $H = 39.2 \cdot 10^3 A/m$ ($I \geq 2.1A$).
25. Uzunligi $l = 12sm$ bo'lgan tokli o'tkazgichdan $30A$ tok o'tmoqda. (11.4-rasm). Tokli o'tkazgich magnit maydonga $\theta = 60^\circ$ burchak ostada joylashtirilgan. Tashqi magnit maydoni taxminan $0.90Tl$ ga teng bo'lsa tokli o'tkazgichga magnit maydon tomonidan ta'sir qiluvchi kuchni aniqlang ($F = 2.8N$).



11.4-rasm

26. Vertikal holatda osilgan elektr zanjiri 11.5-rasmida ko'rsatilgandek joylashgan. Tashqi magnit maydoni gorizontal rasm tekisligidan bizga yunalgan. Zanjirning uzunligi $l = 10\text{sm}$ uzunlikdagi ab qismiga pastga yunalgan $F = 3.48 \cdot 10^{-2} \text{N}$ kuch ta'sir qilmoqda. Zanjirdagi tok kuchi $I = 0.245\text{A}$ ga teng bo'lsa, tshqi magnit maydon induksiyasini aniqlang ($B = 0.42\text{Tl}$).



11.5-rasm

27. Uzunligi $l = 0.4\text{m}$ va massasi $m = 204\text{g}$ bo'lgan o'tkazgich ikki dinamometga osilgan va $B = 0.5\text{T}$ induksiyali o'tkazgichga perpendikulyar yo'nalgan gorizontal magnit maydonga joylashgan. O'tkazgichdan $I = 6\text{A}$ tok o'tmoqda. Dinamometrning ko'rsatishi F ni toping ($F_1 = 1.6\text{N}$, $F_2 = 0.4\text{N}$).

28. $U = 10^3 \text{V}$ potensiallar ayirmasi bilan tezlashtirilgan elektron bir jinsli magnit maydonga induksiya kuch chiziqlariga perpendikulyar ravishda uchib kirgan. Agar magnit maydon induksiyasi $B = 2 \cdot 10^{-3} \text{Tl}$ bo'lsa, elektronning harakat trayektoriyasining egrilik radiusi va uning aylanish radiusini toping ($R = 5.33\text{sm}$, $t = 1.79 \cdot 10^{-8} \text{s}$).

29. Massalari soni $A_{20} = 20$ va $A_2 = 22$, kinetik energiyasi $W_k = 6.2 \cdot 10^{-16} \text{J}$ bo'lgan bir karra ionlangan neon ionlari $B = 0.24\text{Tl}$ induksiyali bir jinsli magnit maydonga kuch chiziqlariga perpendikulyar ravishda uchib kiradi va yarim aylana chizib, maydondan ikki dastaga ajralgan holda uchib chiqsa dastalar orasidagi masofani aniqlang. ($\Delta l = 8.24\text{sm}$)

30. Mass-spektrometrda bir karra ionlangan argon izotopi ionlari $U = 800\text{V}$ kuchlanishli elektr maydonda tezlashtirilgandan keyin $B = 0.32\text{Tl}$ induksiyali bir jinsli magnit maydonga kuch chiziqlariga perpendikulyar ravishda uchib kirib, vakuumda $R_1 = 7.63\text{sm}$ va $R_2 = 8.05\text{sm}$ radiusli yoylar bo'ylab harakatlanuvchi ikki dastaga ajralgan bo'lsa argon izotoplarining massalarini aniqlang.

($A_1 = 36$, $A_2 = 40$).

31. Ikkita to'g'ri o'tkazgich bir-biridan 10 sm uzoqlikda joylashgan. O'tkazgichlardan bir xil yo'nalishda $I_1 = 20A$ va $I_2 = 30A$ tok o'tadi. O'tkazgichlarni 20 sm uzoqlikkacha siljitishtida (o'tkazgichning uzunlik birligi uchun) qancha ish bajariladi?
- $$(A = \int_{x_1}^{x_2} F dx = \int_{x_1}^{x_2} \mu \mu_0 I_1 I_2 / 2\pi dx, \frac{A}{l} = \frac{\mu \mu_0 I_1 I_2}{2\pi} \ln \frac{x_2}{x_1} = 8.3 \cdot 10^{-5} J/m).$$
32. Ikkita to'g'ri o'tkazgich bir-biridan biror uzoqlikda joylashgan. O'tkazgichlardan miqdor va yo'nalish jihatdan bir xil bo'lган toklar o'tadi. Agar o'tkazgichlar oralig'ini ikki marta orttirishda (o'tkazgich uzunlik birligi uchun) bajarilgan ish 5.5 erg/sm ga teng bo'lsa, har bir o'tkazgichdan o'tayotgan tok kuchi topilsin. ($I_1 = I_2 = 20A$)
33. Induktivligi $0.001H$ bo'lган bir qavatli g'altakdagi sim chulg'aming o'ramlar soni qancha? G'altakning diametri 4 sm, simning diametri 0.6mm, o'ramlari zinch joylashgan ($N = 380 \text{ ta o'ram}$).
34. Uzunligi 50 sm va ko'ndalang kesimining yuzi 2 sm^2 bo'lган solenoid $2 \cdot 10^{-7} H$ induktivlikka ega. Solenoid ichidagi magnit maydonining energiyasining hajm zichligi 10^{-3} J/m^3 bo'lishi uchun solenoiddan qancha tok o'tishi kerak? ($I = 1 A$).
35. $I = 1A$ tok o'tganda induktivligi $L = 0.001 H$ bo'lган g'altakni kesib o'tuvchi magnit oqimi $\Phi = 200 \text{ mWb}$ bo'lsa, g'altakdagi o'ramlar soni qancha bo'ladi? ($N = 500$).
36. Uzunligi 120 sm va kondalang kesimining yuzi 3 sm^2 bo'lган temir o'zakli solenoidda 42000 mWb magnit oqimi hosil qilish uchun undagi amper-oramlar soni qancha bo'lishi kerak? (955 amper-o'ram).
37. Uzunligi $l = 40 \text{ sm}$ va ko'ndalang kesimi yuzi $S = 4 \text{ sm}^2$ bo'lган solenoidning induktivligi $L = 25 \text{ mH}$. Solenoid ichidagi magnit maydon energiyasi zichligi $w = 0.05 \text{ J/m}^3$ bo'lsa, solenoiddan o'tayotgan tok kuchini toping ($I = 0.8A$).
38. Tokli solenoidning yopiq o'zagidagi magnit maydon kuchlanganligi $H = 1.2 \text{ kA/m}$ bo'lsa, o'zakdagagi magnit maydon energiyasining zichligini toping. Shu sharoitdagi temirning nisbiy magnit singdiruvchanligi $\mu = 900$ ($w = 814 \text{ J/m}^3$).
39. Uzunlik birligiga to'g'ri keluvchi o'ramlar soni $n = 800 \text{ m}^{-1}$ bo'lган o'zaksiz tokli solenoidning ichidagi magnit maydoni energiyasi zichligi $w = 2.5 \text{ J/m}^3$ bo'lsa, solenoiddan o'tayotgan tok kuchini toping ($I = 2.5A$).

40. Ko'ndalang kesimining yuzi $1mm^2$ bo'lgan alyuminiy sim magnit meridianiga tik bo'lgan gorizontal tekislikka osilgan va u orqali (g'arbdan sharqqa) $1.6A$ tok o'tmoqda. 1) Yer magnit maydonining simga ta'sir qiluvchi kuchi sim og'irligining qancha qismini tashlkil qiladi? 2) Shu kuch ta'sirida $1m$ simning og'irligi qanchaga kamayadi? Yer magnit maydonining gorizontal tashkil etuvchisi 0.2 ersted (1) 0.125% , (2) $3.2 \cdot 10^{-5} N$).

41. Kuchlanganligi $H = 8 \cdot 10^3 A/m$ bo'lgan magnit maydoni bilan kuchlanganligi $E = 10 V/m$ bo'lgan elektr maydoni bir xil yo'nalgan. Elektron $\vartheta = 10^5 m/s$ tezlik bilan shu magnit maydonga uchib kiradi. Quyidagi hollar uchun elektronning normal, tangensial va to'la tezlanishlarini toping: 1) elektronning tezligi maydon kuch chiziqlariga parallel yo'nalgan, 2) elektronning tezligi kuch chiziqlariga tik yo'nalgan.

(1) $a_n = 0$, $a = a_t = 1.76 \cdot 10^{14} m/s^2$, (2) $a_t = 0$, $a = a_n = 2.5 \cdot 10^{14} m/s^2$).



§12. Elektromagnit induksiya hodisasi

- Agar magnit maydon bir jinsli bo'lmasa yoki magnit maydon o'zgaruvchan bo'lsa u holda bunday magnit maydon oqimi kontur yuzasini kesib o'tganda konturda induksion EYUK yuzaga keladi va u quyidagiga teng:

$$\varepsilon_i = -\frac{d\Phi}{dt} \text{ yoki } |\varepsilon_i| = \frac{\Delta\Phi}{\Delta t}.$$

- Magnit oqimining o'zgarishi konturdagi tok kuchining ham o'zgarishiga olib keladi bu o'zinduksiya hodisasi deyiladi.

$$\varepsilon_i = -L \frac{dI}{dt} \text{ yoki } |\varepsilon_i| = L \left| \frac{\Delta I}{\Delta t} \right|$$

bu yerda L -kontur induktivligi.

- Solenoid induktivligi:

$$L = \mu\mu_0 n^2 l S$$

$n = \frac{N}{l}$ -uzunlik birligidagi o'ramlar soni, l -solenoid uzunligi, S -ko'ndalang kesimi.

- Magnit maydonda harakatlanayotgan to'g'ri o'tkazgichda hosil bo'lган induksion EYUK $\varepsilon = Bl\vartheta \sin \alpha$, aylanma ramkada hosil bo'lган induksion EYUK esa $\varepsilon = \omega BS \sin \alpha t$, bu yerda S-kontur yuzasi, ω -ramkaning ko'ndalang kesimi.
- Magnit oqimining o'zgarishi qo'shni konturdagi tok kuchining o'zgarishiga ham sabab bo'ladi bu o'zinduksiya hodisasi deyiladi.

$$\varepsilon = -L_{12} \frac{dI}{dt} \text{ yoki } |\varepsilon_i| = L_{12} \left| \frac{\Delta I}{\Delta t} \right|$$

- O'zinduksiyaga ko'ra tok uzilganda tokning kamayishi uchun: $I = I_0 e^{-\frac{R}{L}t}$ formula orinlidir, bunda R-qarshilik, L-induktivlik.
- EYUK li tok manbai ulanganda esa, tok kuchi quyidagi qonun bo'yicha ortib boradi:

$$I = I_0 (1 - e^{-\frac{R}{L}t})$$

Masala yechish namunaları

1. Induksiyasi 1 Tl bo'lган magnit maydoniga yuzi 0.01 m^2 bo'lган doiraviy sim joylashtirilgan. O'ram tekisligi magnit maydoniga tik. Maydon 0.01 sekund uzib qo'yilsa, o'ramda hosil bo'lган EYUK ning o'rtacha qiymatini toping.

Berilgan: $B = 1 \text{ Tl}$, $S = 0.01 \text{ m}^2$, $t = 10 \text{ s}$

Topish kerak: $\varepsilon_i = ?$

Yechilishi: Faradeyning elektromagnit induksiya qonuniga ko'ra $\varepsilon_i = -\frac{d\Phi}{dt} (1)$, bu yerda $d\Phi = S dB (2)$, masala shartiga ko'ra B kattalik 1 Tl dan 0 gacha o'zgaradi va $\Delta B = -1 \text{ Tl}$. Shunga ko'ra $\varepsilon_i = -\frac{S dB}{dt} (3)$.

(3) ni hisoblanadi.

Javobi: $\varepsilon_i = 1 \text{ V}$.

2. O'ramlari soni 400 bo'lган g'altakning uzunligi 20 sm va ko'ndalang kesimi 9 sm^2 . 1) G'altakning induktivligi va 2) shu g'altak ichiga temir o'zak kiritilgandagi induktivligi topilsin. Shu sharoitda o'zakning magnit kirituvchanligini 400 deb oling.

Berilgan: $l = 20 \text{ sm} = 0.2 \text{ m}$, $N = 400$, $S = 9 \cdot 10^{-4} \text{ m}^2$, $\mu = 400$

Topish kerak: $L_1 = ?$, $L_2 = ?$

Yechilishi: g'altakning induktivligi: $L = \mu\mu_0 n^2 l S$, bunda $n = \frac{N}{l}$ bo'lgani uchun $L = \mu\mu_0 \frac{N^2}{l} S$.

Javobi: $L_1 = 0.9 \text{ mH}$, $L_2 = 0.36 \text{ H}$.

3. Induktivligi 0.2 H va qarshiligi 1.64Ω bo'lgan g'altak berilgan. EYUK ni uzib g'altak qisqa tutashtirilganda 0.05 s o'tgach g'altakdagi tok kuchi necha marta kamayadi (12.1-rasm)?

Berilgan: $L = 0.2 \text{ H}$, $R = 1.64 \Omega$, $t = 0.05 \text{ s}$


Topish kerak: $\frac{I_0}{I} - ?$

Yechilishi: O'zaro induksiya

uchun $I = I_0 e^{-\frac{Rt}{L}}$

formuladan foydalanamiz.

Bundan $\frac{I_0}{I} = e^{\frac{Rt}{L}}$ kelib chiqadi. Javobi: $\frac{I_0}{I} = 1.5$ marta



12.1-rasm

Mustaqil yechish uchun masalalar

42. $U = 3000 \text{ V}$ potensiallar ayirmasi bilan tezlashtirilgan elektron solenoid magnit maydoni ichiga uning o'qiga nisbatan $\alpha = 30^\circ$ burchak ostida uchib kiradi. Solenoidning amper-o'ramlar soni 5000. Solenoid uzunligi 25 sm. Solenoid magnit maydonidagi elektron vintsimon trayektoriyasining qadami topilsin ($l = 3.94 \text{ sm}$).

43. Induksiyasi 0.1 T bo'lgan bir jinsli magnit maydonda 10 sm uzunlikdagi o'tkazgich maydoniga tik yo'nalishda 15 m/s tezlik bilan harakat qiladi. O'tkazgichdagi induksiyalangan EYUK topilsin. ($\varepsilon = -Bl\vartheta = -0.15 \text{ V}$).

44. Diametri 10 sm bo'lgan 500 o'raklı g'altak magnit maydonida turibdi. Magnit maydonining induksiyasi 0.1 s davomida 0 dan 2 Wb/m^2 gacha ko'payganda g'altakdagi induksiya EYUK ning o'rtacha qiymati qancha bo'ladi? ($\varepsilon_{o:rt} = 78.5 \text{ V}$).

45. O'ramlari soni $N = 100$ va ko'ndalang kesimi yuzi $S = 50 \text{ sm}^2$ bo'lgan solenoid vakuumdagi bir jinsli magnit maydonda chulg'amining tekisligi kuch chiziqlariga perpendikulyar ravishda joylashgan. Solenoid $t = 0.1 \text{ s}$ vaqt ichida 180° burchakka burilganda solenoidda


hosil bo'ladigan induksion elektr yurituvchi kuchni toping. Magnit maydon kuchlanganligi $H = 5 \cdot 10^4 \text{ A/m}$ ($\varepsilon = 0.628 \text{ V}$).

46. Uzunligi 20 sm va ko'ndalang kesim yuzi 30 cm^2 bo'lgan solenoidga sim o'rami kiygizilgan. Solenoid 320 o'ramga ega, undan 3 A tok o'tadi. Solenoiddagi tok 0.001 sekund davomida uzilsa, kiygizilgan o'ramda o'rtacha qancha *EYUK* induksiyalanadi? ($\varepsilon = 0.018 \text{ V}$).
47. Samolyot havoda $g = 1000 \text{ km/soat}$ tezlik bilan Yerning magnit maydoniga perpendikulyar harakatlanmoqda (12.2-rasm). Samolyot qanotining uzunligi $l = 70 \text{ m}$ va Yerning magnit maydon induksiyasi $B = 5 \cdot 10^{-5} \text{ T}$ bo'lsa, samolyot qanotida hosil bo'ladigan *EYUK* ning qiymatini hisoblang ($\varepsilon = 1 \text{ V}$).



12.2-rasm


48. Inson tanasidagi qon tomirlaridan oqayotgan qon tezligini aniqlash uchun rasmida tasvirlangandek qurilma Yug'ilgan (12.3-rasm). Qon tomiri diametri $d = 2.0 \text{ mm}$, magnit maydon kuchlanganligi $B = 0.08 \text{ T}$, kuchlanish $U = 0.1 \text{ V}$ bo'lsa, qonning harakat tezligini aniqlang. ($g = 0.63 \text{ m/s}$).



12.3-rasm

49. Uzunligi 144 sm va diametri 5 sm bo'lgan solenoidga sim o'rami kiygizilgan. Solenoid cho'lg'ami 2000 o'ramga ega, undan 2 A tok o'tadi. Solenoidga temir o'zak qo'yilgan. Solenoiddagi tok 0.002 s davomida uzilsa, kiygizilgan o'ramda qancha *EYUK* induksiyalanadi? ($\varepsilon_{ort} = 1.57 \text{ V}$).

50. Uzunligi 20 sm va diametri 3sm bo'lgam g'altak 400 o'ramga ega. G'altakdan 2A tok o'tadi. 1) G'altak induktivligi va 2) g'altakning ko'ndalang kesimidan o'tayotgan magnit oqimi topilsin.
 $(L = 7.1 \cdot 10^{-4} H, \Phi = 3.55 \cdot 10^{-6} Wb)$.
51. Ikkita g'altak bitta umumiyo'zakka o'ralgan. Birinchi g'altakning induktivligi $0.2H$, ikkinchisini esa $0.8H$. Ikkinci g'altakning qarshiligi 600Ω . Birinchi g'altakdan o'tayotgan 0.3A tokni 0.001 sekund ichida uzib qo'yilsa, ikkinchi g'altakdan qancha tok o'tadi?
 $(I_2 = \frac{L_{12}\Delta I}{R\Delta t} = \frac{\sqrt{L_1 L_2} \Delta I}{R\Delta t} = 0.2A)$.
52. Magnit induksiya oqimining o'zgarish tezligi $\Delta\Phi/\Delta t = 24.5 Wb/s$ bo'lgan magnit maydon kuch chiziqlari atrofida $r = 5sm$ radiusli aylana bo'ylab hosil bo'lgan uyurmaviy elektr maydonning kuchlanganligini toping ($\varepsilon = 78.5 V/m$).
53. Induksiyasi $0.2 Wb/m^2$ bo'lgan bir jinsli magnit maydoniga radiusi 2 sm bo'lgan doiraviy kontur joylashtirilgan. Kontur tekisligi magnit maydoniga tik bo'lib, qarshiligi 1Ω . G'altak 90° ga burilganda undan qancha elektr miqdori o'tadi? ($q = 2.5 \cdot 10^{-4} C$).
54. 12.4-rasmdan foydalanib transformatorlar transformatsiya koeffisiyentlarini aniqlang.



12.4-rasm

55. G'altakning qarshiligi $R = 10\Omega$ va induktivligi $L = 0.144H$. G'altak ulangandan qancha vaqt o'tgach, undagi tok kuchi oldingi belgilangan tokning yarmiga teng bo'ladi? (0.01s dan keyin).
56. Induktivligi $L = 0.021H$ bo'lgan g'altak orqali $I = I_0 \sin \omega t$ qonuni bo'yicha vaqtga bog'liq holda o'zgaradigan tok o'tadi, bunda $I_0 = 5A$, $\omega = \frac{2\pi}{T}$, $T = 0.02s$. 1) G'altakda hosil bo'ladigan EYUK va 2) g'altak magnit maydonining vaqtga bog'lanishini toping.
 $(\varepsilon = -33 \cos 100\pi t V)$.

57. Ikkita g'altakning o'zaro induktivligi $0.005H$ ga teng. Birinchi g'altakdagi tok $I = I_0 \sin \omega t$ qonuni bo'yicha o'zgaradi, bunda $I_0 = 10A$, $\omega = \frac{2\pi}{T}$, $T = 0.02 s$. 1) Ikkinchi g'altakning induksiyalangan EYUK ning vaqtga bog'lanish tenglamasini tuzing. 2) Bu EYUK ning eng katta qiymatini toping ($\varepsilon = 1.57 \cos 100\pi t$, $\varepsilon_{\max} = 1.57 V$).


58. Magnit maydonda joylashgan Vilson kamerasida olingan fotografiyada elektronning trayektoriyasi 10 sm radiusli aylana yoyini ko'rsatadi. Magnit maydonining induksiyasi $10 mT$. Elektron energiyasini elektron voltlarda hisoblansin ($W = 88 keV$).

59. Toroid temir o'zagining uzunligi $l_2 = 1m$, havo bo'shlig'ining uzunligi $l_1 = 3mm$. Toroid o'ramlarining soni $N = 2000$. Cho'lg'amlardan $I = 1A$ tok o'tganda havo bo'shlig'idan magnit maydonining kuchlanganligini toping.

$$(H_1 = \frac{B_1}{\mu_0 \mu_i} = 6.2 \cdot 10^5 A/m).$$

60. Toroid temir o'zagining uzunligi 2 mm. Toroid chulg'amlarining amper-o'ramlar soni 2000. Shu amper-o'ram miqdorida havo bo'shlig'ining uzunligi ikki marta orttirilganda, havo bo'shlig'ining magnit maydon kuchlanganligi qancha marta kamayadi? (1.9 marta).

§13. O'zgaruvchan tok



- O'zgaruvchan tok uchun Om qonuni:

$$I_0 = \frac{U_0}{Z} \quad \text{yoki} \quad I_{ef} = \frac{U_{ef}}{Z}$$

bunda:

$$I_{ef} = \frac{I_0}{\sqrt{2}}, \quad U_{ef} = \frac{U_0}{\sqrt{2}},$$

bunda U_0 va I_0 tok kuchi va kuchlanishning maksimal qiymatlari

- Zanjirning to'la qarshiligi quyidagiga teng:

$$Z = \sqrt{R^2 + (X_L - X_C)^2}$$

R – aktiv qarshilik, X_L – induktiv qarshilik, X_C – sig’im qarshilik.

- Kuchlanish va tok kuchi orasidagi faza siljishi:

$$\operatorname{tg} \varphi = \frac{X_L - X_C}{R}$$

- O’zgaruvchan tok quvvati:

$$P = U_{ef} I_{ef} \cos \varphi = \frac{1}{2} U_0 I_0 \cos \varphi$$

- Rezonans chastotasi: $\nu = \frac{1}{2\pi} \sqrt{\frac{1}{LC}}$
- Tramsformatornong transformatsiya koeffisiyenti quyidagiga teng:

$$k = \frac{U_1}{U_2} = \frac{I_2}{I_1} = \frac{n_1}{n_2}$$

bunda U_1 , I_1 , n_1 – mos ravishda birinchi o’ramdagi kuchlanish, tok kuchi va o’ramlar soni; U_2 , I_2 , n_2 – mos ravishda ikkinchi o’ramdagi kuchlanish, tok kuchi va o’ramlar soni. Agar $k > 1$ bo’lsa, transformator pasaytiruvchi ($U_2 < U_1$), $k < 1$ bo’lsa kuchaytiruvchi ($U_2 > U_1$) transformator bo’ladi.

Masala yechish namunalari

1. 10Ω aktiv qarshilikli va L induktivlikli g’altak $127 V$ kuchlanishli va $50 H$ chastotalio’zgaruvchan tok zanjiriga ulangan. G’altak $400 W$ quvvat iste’mol qiladi, kuchlanish bilan tok o’rtasidagi fazalar siljishi 60° , g’altak induktivligini toping.

Berilgan:

$$R = 10 \Omega$$

$$U = 127 V$$

$$\nu = 50 Hz$$

$$P = 400 W$$

$$\varphi = 60^\circ$$

$$L = ?$$

Javobi: $L = 0.055 H$.

Formulasi:

$$P = \frac{U^2}{Z} \cos \varphi$$

$$Z = \frac{U^2}{P} \cos \varphi$$

$$Z = \sqrt{R^2 + (\omega L)^2}$$

Yechilishi:

$$L = \frac{\sqrt{Z^2 - R^2}}{\omega} = 0.055 H$$

2. $1 mF$ sig’imli kondensator va 3000Ω aktiv qarshilikli reostat, $50 Hz$ chastotali o’zgaruvchan tok zanjiriga ulangan. Reostat induktivligi juda oz. Kondensator va reostat ketma-ket, parallel ulangan hollar uchun to’la qarshilikni toping.

Berilgan:

$$C = 1\text{mkF}$$

$$R = 3000\Omega$$

$$\nu = 50\text{Hz}$$

$$Z = ?$$

Formulasi:

$$Z_1 = \sqrt{R^2 + R_c^2}$$

$$\frac{1}{Z_2} = \sqrt{\frac{1}{R^2} + \frac{1}{R_c^2}}$$

Yechilishi:

$$Z_1 = 4380\Omega$$

$$Z_2 = 2180\Omega$$

Javobi: $Z_1 = 4380\Omega$, $Z_2 = 2180\Omega$.

3. O'zgaruvchan tok kuchlanishi $u = U_0 \sin(\omega t + \pi/6)$ qonuni bo'yicha o'zgaradi. Davrning 1/12 ulushidagi bu kuchlanishning oniy qiymati $u = 10\sqrt{3}$ bo'lsa, uning amplitudaviy qiymatini toping.


Berilgan: $t = \frac{T}{12}$, $u = 10\sqrt{3}V$, $u = U_0 \sin(\omega t + \pi/6)$

Topish kerak: $U_0 - ?$

Yechilishi: Kuchlanishning o'zgarish qonunini $u = U_0 \sin(\frac{2\pi}{T}t + \frac{\pi}{6})$ deb yozib olib, unga t ning va u ning qiymatlarini qo'yamiz:

$$10\sqrt{3} = U_0 \sin\left(\frac{2\pi}{T}t + \frac{\pi}{6}\right), U_0 = \frac{10\sqrt{3}}{\sin\left(\frac{2\pi}{T}t + \frac{\pi}{6}\right)} = 20\text{ V}. \text{ Javobi: } U_0 = 20\text{ V}.$$

4. 220V kuchlanishli va 50Hz chastotali o'zgaruvchan tok zanjiriga 35.4mkF sig'inli kondensator, 100Ω aktiv qarshilik va $0.7H$ induktivlik ketma-ket ulangan. Zanjirdagi tok kuchi hamda sig'im qarshilik, aktiv va induktiv qarshiliklarga kuchlanish tushuvlarini toping (13.1-rasm).



13.1-rasm

Topish kerak: $U_R - ?, U_L - ?, U_C - ?, I - ?$

Berilgan:

$$\begin{aligned} U &= 220V \\ v &= 50Hz \\ C &= 35.4\text{m}\mu F \\ R &= 100\Omega \\ L &= 0.7H \\ I &=? , R_C = ?, \\ U_c &=? , U_L = ? \end{aligned}$$

Formulasi:

$$\begin{aligned} Z &= \sqrt{R^2 + (R_L - R_C)^2} \\ I &= \frac{U}{Z} \\ R_C &= \frac{1}{\omega C}, R_L = \omega L \\ U_C &= IR_C \\ U_L &= IR_L \end{aligned}$$

Yechilishi:

$$\begin{aligned} I &= 1.34A \\ U_C &= 121V \\ U_R &= 134V \\ U_L &= 295V \end{aligned}$$

Javobi: $I = 1.34A$, $U_C = 121V$, $U_R = 134V$, $U_L = 295V$.

5. Transformatorning birlamchi chulg'amidagi kuchlanish $U = 220V$ bo'lgan. Agar transformatsiyalash koeffisiyenti $k = 10$ bo'lib, qarshiligi $R_2 = 4 \Omega$ bo'lgan ikkilamchi chulg'amdan $I_2 = 5A$ tok o'tayotgan bo'lsa, ikkilamchi chulg'am qisqichlaridagi EYUK ni toping. Birlamchi chulg'amidagi energiya isrofini hisobga olmang.

Berilgan: $k = 10$, $U_1 = 220V$, $R_2 = 4 \Omega$, $I_2 = 5A$

Topish kerak: $\varepsilon_2 - ?$

Yechilishi: Transformatorning ikkilamchi chulg'amida induksiyalangan U_2 kuchlanish uning qisqichlaridagi kuchlanish bilan R_2 qarshilikda isrof bo'lgan $I_2 R_2$ kuchlanishning yig'indisiga teng: $U_2 = \varepsilon_2 + I_2 R_2$. U holda transformatsiyalash koeffisiyenti quyidagi formula bilan aniqlanadi:


$$k = \frac{N_1}{N_2} = \frac{U_1}{U_2} = \frac{U_1}{\varepsilon_2 + I_2 R_2}.$$

Bundan ikkilamchi chulg'am uchlaridagi EYUK quyidagiga teng bo'ladi: $\varepsilon_2 = \frac{U_1 - kI_2 R_2}{k} = 2V$. Javobi: $\varepsilon_2 = 2 V$.

Mustaqil yechish uchun masalalar

1. Uzunligi $l = 50sm$ va ko'ndalang kesimining yuzi $S = 10 sm^2$ bo'lgan g'altak $v = 50 Hz$ chastotali o'zgaruvchan tok zanjiriga ulangan. G'altakning o'ramlar soni $N = 3000$. Kuchlanish bilan tok o'rtasidagi fazalar siljishi 60° bo'lsa, g'altakning aktiv qarshiliginini toping. ($R = 4.1\Omega$).
2. G'alakning cho'lg'ami ko'ndalang kesimi yuzi $1 mm^2$ bo'lgan 500 o'ram mis simdan iborat. G'altakning uzunligi 50 sm va uning

- diametri 5 sm. Qanday chastotali o'zgaruvchan tokda g'altakning to'la qarshiliqi aktiv qarshiligidan ikki baravar katta bo'ladi? ($300Hz$).
6. $C_1 = 0.2\text{m}\mu\text{F}$ va $C_2 = 0.1\text{m}\mu\text{F}$ sig'imli ikki kondensator $220V$ kuchlanishli $50Hz$ chastotali o'zgaruvchan tok zanjiriga ketma-ket ulangan. 1) Zanjirdagi tok kuchini, 2) birinchi va ikkinchi kondensatordagi potensialning tushishini toping ($I = 4.6mA$, $U_1 = 73.4V$, $U_2 = 146.6V$).
 7. Uzunligi 25 sm va 5 sm radiusli g'altak chulg'ami ko'ndalang kesimi yuzi 1 mm^2 bo'lgan 1000 o'ram simdan iborat. G'altak $50Hz$ chastotali o'zgaruvchan tok zanjiriga ulangan. 1) Aktiv qarshilik va 2) induktiv qarshilik g'altakning to'la qarshiligining qancha qismini tashkil qiladi? (74%, 68%).
 8. $20\text{ m}\mu\text{F}$ sig'imli kondensator va 130Ω aktiv qarshilikka ega rheostat $50Hz$ chastotali o'zgaruvchan tok zanjiriga ketma-ket ulangan. 1) Kondensatordagi va 2) reostatdagi kuchlanishning tushishi zanjirga berilgan kuchlanishning qancha qismini tashkil qiladi? (72.5%, 68.5%).
 9. Kondensator bilan elektr lampochka $440V$ kuchlanishli va $50Hz$ chastotali o'zgaruvchan tok zanjiriga ulangan. Lampochkadan $0.5A$ tok o'tishi va lampochkadagi potensialning tushishi $110V$ ga teng bo'lishi uchun kondensatorning sig'imi qanday bo'lishi kerak? ($C = 3.74\text{m}\mu\text{F}$).
 10. $\nu = 50Hz$ chastotali o'zgaruvchan tok zanjiriga $L = 2.26 \cdot 10^{-2} H$ induktivlik va R aktiv qarshilik ketma-ket ulangan. Kuchlanish bilan tok o'rtasidagi fazalar siljishi 60° , R ning kattaligini toping ($R = 12.3\Omega$).
 11. R aktiv qarshilik va L induktivlik $127V$ kuchlanishli va $50Hz$ chastotali o'zgaruvchan tok zanjiriga parallel ulangan. Zanjir $404W$ quvvatni iste'mol qiladi hamda kuchlanish vat ok kuchi orasidagi fazalar siljishi 60° , R aktiv qarshilik bilan L induktivlikni toping ($R = 40\Omega$).
 12. $220V$ kuchlanishli o'zgaruvchan tok zanjiriga C sig'im, R aktiv qarshilik va L induktivlik ketma-ket ulangan. Kondensatordagi kuchlanishning tushishi $U_C = 2U_R$ va induktivlikdagi kuchlanishning tushishi $U_L = 3U_R$ bo'lsa, aktiv qarshilikdagi kuchlanish tushushi U_R topilsin ($U_R = 156V$).
 13. 13.2-rasmida $C = 1.0\text{m}\mu\text{F}$ sig'imli kondensator, $U_{eff} = 120V$ kuchlanishga ulangan bo'lsa tok kuchini hisoblang, tok chastotasi $\nu = 60Hz$. ($I = 45.2mA$).



13.2-rasm

14. Transformatorning birlamchi chilg' amodagi tokning kuchi $I_1 = 5A$, uning uchlaridagi kuchlanish $U_1 = 120V$, ikkinchi chulg' amida tokning kuchi $I_2 = 2A$, kuchlanish esa $U_2 = 285V$ bo'lsa, transformatorning $\cos\varphi = 1$ bo'lgandagi $FIK - \eta$ ni toping ($\eta = 95\%$).
15. Radiopryomnikning tok kuchi transformatorlardagi birlamchi chulg' am $N_1 = 110000$ o'ramdan iborat bo'lib, u $U_1 = 220V$ kuchlanishli tarmoqqa ulangan. Agar ikkilamchi chulg' amning qarshiligi $R_2 = 0.5\Omega$ va uning uchlaridagi chug'lantirish kuchlanishi tok kuchi $I_2 = 1A$ bo'lganda $U_2 = 6.5V$ bo'lsa, ikkilamchi o'ramdagi chulg' amlar sonini toping ($N_2 = 350$).
16. Pasaytiruvchi transformatorning birlamchi chulg' ami $U = 220V$ kuchlanishli tarmoqqa ulangan. Transformatorning ikkilamchi chulg' ami uchlaridagi EYUK $E_2 = 9V$, chulg' amining qarshiligi $R_2 = 1\Omega$, undan o'tuvchi tok $I_2 = 2A$ bo'lsa, transformatorning transformatsiyalash koeffisiyenti va FIK ni toping. Birlamchi chulg' amdagagi energiya isrofini hisobga olmang ($k = 20$, $\eta = 82\%$).

2-BOB. TEBRANISH VA TO'LQINLAR. OPTIKA. ATOM VA YADRO FIZIKASI. MOLEKULYAR FIZIKA.

§14. Mexanik tebranishlar va to'lqinlar



- Garmonik tebranma harakat qilayotgan jismning muvozanat holatdan siljishini ifodalovchi quyidagi tenglama garmonik tebranma harakat tenglamasi geyiladi:

$$x = A \sin\left(\frac{2\pi}{T}t + \varphi_0\right) \text{ yoki } x = A \sin(\omega t + \varphi_0) \quad (1)$$

Bunda: φ_0 – boshlang'ich faza, A – amplituda, T – tebranish davri

- Garmonik tebranma harakat qilayotgan jismning tezligi va tezlanishi mos holda quyidagicha ifodalanadi:

$$\vartheta = \frac{dx}{dt} = \frac{2\pi}{T} A \cos\left(\frac{2\pi}{T}t + \varphi_0\right) \text{ yoki } \vartheta = A\omega \cos(\omega t + \varphi_0) \quad (2)$$

$$a = \frac{d^2x}{dt^2} = \frac{d\vartheta}{dt} = -\frac{4\pi^2}{T^2} A \sin\left(\frac{2\pi}{T}t + \varphi_0\right) = -\frac{4\pi^2}{T^2} x \quad (3)$$

$$\text{yoki } a = -A\omega^2 \sin(\omega t + \varphi_0) = -\omega^2 x \quad (3')$$

yoki

$$\vartheta = \vartheta_m \cos\left(\frac{2\pi}{T}t + \varphi_0\right) = \vartheta_m \cos(\omega t + \varphi_0) \quad (4)$$

$$a = -a_m \sin\left(\frac{2\pi}{T}t + \varphi_0\right) = -a_m \sin(\omega t + \varphi_0) \quad (5)$$

bunda: $\vartheta_m = A \frac{2\pi}{T} = A\omega$ - maksimal tezlik ifodasi, $a_m = \frac{4\pi^2}{T^2} A = \omega^2 A$ – maksimal tezlanish ifodasi.


- Garmonik tebranma harakatni yuzaga keltiruvchi kuch:

$$F = ma = -m \frac{4\pi^2}{T^2} A \sin\left(\frac{2\pi}{T}t + \varphi_0\right) = -m \frac{4\pi^2}{T^2} x = -m\omega^2 x = -kx \quad (6)$$

bunda, $k = \frac{4\pi^2}{T^2} m$ – kvazielastik kuchning deformatsiya koeffisiyenti bo'lib undan prujinaga osilgan m massali jismning tebranish davri ifodasi kelib chiqadi: $T = 2\pi \sqrt{\frac{m}{k}}$ (7)

- Kichik burchak ostida tebranayotgan matematik mayatnikning tebranish davri (14.1-rasm) esa:

$$T = 2\pi \sqrt{\frac{l}{g}} \text{ chastotasi } \nu = \frac{1}{2\pi} \sqrt{\frac{g}{l}} \quad (8)$$



14.2-rasm

- Garmonik tebranma harakat qilayotgan jismning kinetik energiyasi:

$$W_k = \frac{m\vartheta^2}{2} = m \frac{2\pi^2}{T^2} A^2 \cos^2(\frac{2\pi}{T}t + \varphi_0) \quad (9)$$

$$\text{yoki } T = W_k = \omega^2 A^2 \cos^2(\omega t + \varphi_0) \quad (9')$$


- Garmonik tebranma harakat qilayotgan jismning potensial energiyasi:

$$W_k = \frac{kx^2}{2} = m \frac{2\pi^2}{T^2} A^2 \sin^2(\frac{2\pi}{T}t + \varphi_0) \quad (10)$$

$$\text{yoki } W_k = m\omega^2 A^2 \sin^2(\omega t + \varphi_0) \quad (10')$$

- Garmonik tebranma harakat qilayotgan jismning to'liq energiyasi:

$$W_k = m \frac{2\pi^2}{T^2} A \quad (11)$$



14.2-rasm

- To'lqin uzunligi λ (14.2-rasm) bo'lgan to'lqinning tarqalish tezligi:

$$\vartheta = \frac{\lambda}{T} = \lambda\nu \quad (12)$$

bunda T – tebranish davri, ν – tebranish chastotasi.

- To'lqin manbaidan biror l masofadagi fazo nuqtasining siljishi quyidagicha:
(ya'ni yuguruvchi to'lqinning tenglamasi)

$$x = A \sin\left(\frac{2\pi}{T}t + \frac{2\pi l}{\lambda}\right) \quad (13)$$

- To'lqin manbaidan l_1 va l_2 masofalardagi ikki nuqtaning fazalar farqi

$$\varphi_2 - \varphi_1 = 2\pi \frac{l_2 - l_1}{\lambda} = 2\pi \frac{\Delta l}{\lambda} \quad (14)$$

- To'lqin interferensiyasida amplitudaning maksimum va minimum shartlari mos holda quyidagicha:

$$\Delta l = l_2 - l_1 = 2n \frac{\lambda}{2}, (n = 0, 1, 2, \dots) \quad (15)$$

$$\Delta l = l_2 - l_1 = (2n+1) \frac{\lambda}{2}, (n = 0, 1, 2, \dots) \quad (16)$$

- Bo'ylama to'lqinning elastik muhitda tarqalish tezligi:

$$\vartheta = \sqrt{\frac{E}{\rho}} \quad (17)$$

bunda E – Yung moduli, ρ – muhitning zichligi.

- Ko'ndalang to'lqinning elastik muhitda tarqalish tezligi:

$$\vartheta = \sqrt{\frac{G}{\rho}} \quad (18)$$

bunda G – moddanining siljish moduli deyiladi.

Masala yechish namunaları

1. Amplitudasi 0.1 m, davri 4 sekund va boshlang'ich fazasi nolga teng bo'lgan garmonik tebtanma harakat tenglamasini yozing.

Berilgan: $A = 0.1 \text{ m}$, $T = 4 \text{ s}$, $\varphi_0 = 0$

Harakat tenglamasini yozish kerak.

Yechilishi: Garmonik tebranma harakatlanayotgan jismning harakat tenglamasi (1) formulaga ko'ra $x = A \sin\left(\frac{2\pi}{T}t + \varphi_0\right)$. Masala shartidan kelib chiqib berilgan kattaliklarni o'rniga qo'ysak masalaning javobi quyidagicha bo'ladi: $x = 0.1 \sin\frac{\pi}{2}t$.

2. Garmonik tebranma harakat qilayotgan jismning amplitudasi 5 sm, davri 4 sek ga teng. Tebranayotgan nuqtaning maksimal tezligini va uning maksimal tezlanishini toping.

Berilgan: $A = 5 \text{ sm}$, $T = 4 \text{ s}$

Topish kerak: $\vartheta_m = ?$, $a_m = ?$

Yechilishi: Maksimal tezlik va maksimal tezlanishni quyidagi formulalar orqali aniqlaymiz: $\vartheta_m = A \frac{2\pi}{T}$, $a_m = \frac{4\pi^2}{T^2}$. Hisoblasak,

$$\vartheta_m = A \frac{2\pi}{T} = 7.85 \cdot 10^{-2} \text{ m/s}, \quad a_m = \frac{4\pi^2}{T^2} = 0.12 \text{ m/s}^2.$$

3. Massasi 10g bo'lgan moddiy nuqta $x = 5 \sin(\frac{\pi}{5}t + \frac{\pi}{4}) \text{ sm}$ tenglama bo'yicha tebranadi. Nuqtaga ta'sir etuvchi maksimal kuch va tebranayotgan nuqtaning to'la energiyasini toping.

$$\text{Berilgan: } m = 10\text{g} = 10^{-2} \text{ kg}, \quad x = 5 \sin(\frac{\pi}{2}t + \frac{\pi}{4}) \text{ sm}$$

Topish kerak: $F_m = ?$, $W_t = ?$

Yechilishi: Dastlab garmonik tebranayotgan moddiy nuqtaning tezlanishini topamiz: $a = \frac{d^2x}{dt^2} = \frac{d^2}{dt^2}(5 \sin(\frac{\pi}{5}t + \frac{\pi}{4})) = \frac{\pi^2}{5} \sin(\frac{\pi}{5}t + \frac{\pi}{4}) \text{ sm/s}^2$.

Moddiy nuqtani garmonik tebranma harakatga keltiruvchi kuch esa (6) ga ko'ra: $F = ma = m \frac{\pi^2}{5} \sin(\frac{\pi}{5}t + \frac{\pi}{4}) \cdot 10^{-2}$, bu kuch maksimal qiymatga $\sin(\frac{\pi}{5}t + \frac{\pi}{4}) = 1$ bo'lganda erishadi. $F_m = m \frac{\pi^2}{5} = 2 \cdot 10^{-4} \text{ N}$.

Garmonik tebranayotgan moddiy nuqtaning to'liq energiyasi esa (11) tenglamadan hisoblanadi: $W_k = m \frac{2\pi^2}{T^2} A$. Masala shartida berilgan harakat tenglamasidan $\frac{\pi}{5}t = \frac{2\pi}{T}$ va $T = 10\text{s}$ ekanligini aniqlaymiz. To'liq energiyani hisoblasak: $W_t = 5 \text{ mks}$.

4. Prujinaga osilgan mis sharcha vertikal tebranmoqda. Prujinaga mis sharcha o'rniga shunday radiusli alyuminiy sharcha osilsa, tebranish davri qanday o'zgaradi?

Berilgan: $\rho_1 = 8600 \text{ kg/m}^3$ -misning zichligi, $\rho_2 = 2600 \text{ kg/m}^3$ -alyuminiy zichligi.

Topish kerak: $\frac{T_1}{T_2} = ?$

Yechilishi: (7) formulaga ko'ra mis va alyuminiy sharlarning tebranishlari mos holda quyidagicha bo'ladi: $T_1 = 2\pi \sqrt{\frac{m_1}{k}}$, $T_2 = 2\pi \sqrt{\frac{m_2}{k}}$.

Bundan $\frac{T_1}{T_2} = \sqrt{\frac{m_1}{m_2}}$. Masala shartiga ko'ra $V_1 = V_2$ bo'lgani uchun $\frac{T_1}{T_2} = \sqrt{\frac{\rho_1}{\rho_2}} = 1.82$.

5. Agar $\vartheta = 6 \text{ m/s}$ tezlik bilan tarqalayotgan to'lqinning chastotasi $v = 6 \text{ Hz}$ ekanligi ma'lum bo'lsa uning to'lqin uzunligini va bir-biridan $l_2 - l_1 = 50 \text{ sm}$ oraliqda yotgan nuqtalarining $\varphi_2 - \varphi_1$ fazalar farqini toping.

Berilgan: $v = 6 \text{ Hz}$, $\vartheta = 6 \text{ m/s}$, $l_2 - l_1 = 50 \text{ sm} = 0.5 \text{ m}$

Topish kerak: $\lambda - ?$, $\varphi_2 - \varphi_1 - ?$


Yechilishi: To'lqin uzunligini (12) formulaga ko'ra quyidagicha topamiz: $\lambda = \frac{\vartheta}{v} = 1 \text{ m}$. (3) formulaga ko'ra to'lqin no'qtalarining orasidagi masofa Δl to'lqin uzunligiga nisbatan qancha o'zgarsa fazalar farqi ham 2π ga nisbatan shunchaga o'zgaradi, ya'ni: $\frac{l_2 - l_1}{\lambda} = \frac{\varphi_2 - \varphi_1}{2\pi}$ yoki, $\varphi_2 - \varphi_1 = \frac{2\pi \Delta l}{\lambda} = 3.14$, fazalar farqi burchak xarakteriga ega ekanligi uchun $\varphi_2 - \varphi_1 = 180^\circ$.

6. $t = \frac{T}{6}$ payt uchun tebranish manbaidan $l = \frac{\lambda}{12}$ masofadagi nuqtaning muvozanat vaziyatidan qanchaga siljishi aniqlansin. Tebranish amplitudasi $A = 0.05 \text{ sm}$ (14.3-rasm).

Berilgan: $l = \frac{\lambda}{12}$, $t = \frac{T}{6}$, $A = 0.05 \text{ m}$

Topish kerak: $x - ?$

Yechilishi: To'lqin manbaidan l masofadagi fazo nuqtasining siljishi (13) ga ko'ra $x = A \sin\left(\frac{2\pi}{T} t + \frac{2\pi l}{\lambda}\right)$,



14.3-rasm

ikkinci tomondan (1) ga ko'ra $\vartheta = \frac{\lambda}{T}$ uchun $x = A \sin\left(\frac{2\pi}{T} t + \frac{2\pi l}{\lambda}\right)$, bundan $x = 2.5 \text{ sm}$.

7. Tovushning po'latdagi tarqalish tezligini toping.

Berilgan: $E = 216 \text{ GPa}$, $\rho = 7.7 \cdot 10^3 \text{ kg/m}^3$

Topish kerak: $\vartheta - ?$


Yechilishi: (17) ga ko'ra to'lqinning tarqalish tezligi $\vartheta = \sqrt{\frac{E}{\rho}}$, bundan hisoblash natijasida $\vartheta = 5296 \text{ m/s}$ kelib chiqadi.

Mustaqil yechish uchun masalalar:

- Agar 1 minutda 150 tebranish bo'lib, tebranishlarning boshlang'ich fazasi 45° ga teng va amplitudasi 5 sm bo'lgan garmonik tebranma harakat tenglamasini yozing. Shu harakat grafigini chizing.

$$(x = 5 \sin(5\pi t + \frac{\pi}{4}) \text{ sm}).$$
- Garmonik tebranishlar amplitudasi 50 mm, davri 4 sekund va boshlang'ich fazasi $\pi/4$. 1) Mazkur tebranishning tenglamasini yozing. 2) $t = 0, t = 15s$ bo'lganda tebranayotgan nuqtaning muvozanat vaziyatdan siljishini toping. 3) Bu harakat grafigini chizing.

$$(1) x = 50 \sin(\frac{\pi t}{2} + \frac{\pi}{4}) \text{ mm}, \quad (2) x_1 = 35.2 \text{ mm}, \quad x_2 = 0.$$
- Garmonik tebranayotgan nuqta harakat boshlanishidan qancha vaqt o'tgach muvozanat vaziyatdan yarim amplitudaga teng siljiydi? Tebranish davri 24 sekund, boshlang'ich fazasini nolga teng deb oling ($t = 2s$).
- Garmonik tebranishning boshlang'ich fazasi nolga teng. Davrning qanday qismini o'tgach nuqtaning tezligi maksimal tezligining yarmiga teng bo'ladi? ($t = \frac{1}{6}T$).
- $x = 7 \sin 0.5\pi t$ tenglama bo'yicha harakat qilayotgan nuqta harakat boshlanishidan qancha vaqt o'tgach muvozanat vaziyatidan maksimal siljishiga qadar yo'lni bosib o'tadi? (1 s dan so'ng).
- 14.4-rasmida ikki xil tebranish grafigi keltirilgan. Garfikdan foydalanib A va B tebranishlar davri, chastotasi va amplitudasini toping.




14.4-rasm

- Nuqtaning harakat tenglamasi $x = 2 \sin(\frac{\pi}{2}t + \frac{\pi}{4}) \text{ sm}$ ko'rinishida berilgan.
 - Tebranishlar davrini, 2) nuqtaning maksimal tezligini, 3) uning maksimal tezlanishini toping (1) 4s, 2) $3.14 \cdot 10^{-2} \text{ m/s}$, 3) $4.94 \cdot 10^{-2} \text{ m/s}^2$).
- Nuqtaning harakat tenglamasi $x = \sin \frac{\pi}{6}t$ ko'rinishida berilgan. Maksimal tezlik va maksimal tezlanishlarga erishiladigan vaqt

paytlarini toping ($t = 0, 6, 12, \dots$ da maksimal tezlikka, $t = 3, 9, 15, \dots$ da maksimal tezlanishlarga erishiladi).

9. Nuqta garmonik tebranadi. Tebranishlar davri 2 sekund, amplitudasi 50 mm, boshlang'ich fazasi nolga teng. Nuqtaning muvozanat vaziyatidan 25 mm ga siljigan paytdagi tezligi topilsin ($\vartheta = 0.136 m/s$).
10. Nuqtaning maksimal tezlanishi $49.3 sm/s^2$, tebranish davri 2 sekund va nuqtaning muvozanat vaziyatidan 25 mm ga siljigan paytdagi garmonik tebranishning harakat tenglamasini yozing.

$$(x = 5 \cdot 10^{-2} \sin(\pi t + \frac{\pi}{6}) m)$$
.
11. Borland C++ Builder6 dasturlash tili yordamida $y = e^{-0.005} \sin 4x$ va $y = e^{-0.005} \cos 4x$ so‘nuvchi tebranma harakatlarni grafik ko’rinishda tasvirlang (14.5-rasm).





14.5-rasm

12. MathCAD dasturiy tizimida garmonik tebranma harakatlarni grafik ko’rinishini hosil qiling.

$$q(t) := e^{-0.05t} \sin(2t)$$

$$i(t) := \frac{d}{dt} q(t) \rightarrow -5 \cdot 10^{-2} \cdot \exp(-5 \cdot 10^{-2} \cdot t) \cdot \sin(2 \cdot t) + 2 \cdot \exp(-5 \cdot 10^{-2} \cdot t) \cdot \cos(2 \cdot t)$$

$$u(t) := \frac{d}{dt} i(t) \rightarrow -3.997500000000000 \cdot \exp(-5.000000000000000 \cdot 10^{-2} \cdot t) \cdot \sin(2 \cdot t) - .2000000000000000 \cdot \exp(-5.000000000000000 \cdot 10^{-2} \cdot t) \cdot \cos(2 \cdot t)$$



14.6-rasm

13. Garmonik tebranishning boshlang'ich fazasi nolga teng. Nuqta muvozanat vaziyatidan 2.4 sm siljiganda nuqtaning tezligi 3 sm/s bo'ladi. 2.8 sm siljiganda esa tezligi 2 sm/s bo'ladi. Shu tebranishning amplitudasi va davrini toping ($A = 3.1 \cdot 10^{-2} m$, $T = 4.1 s$).
14. Vaqtning 1) $t = \frac{T}{12} s$, 2) $t = \frac{T}{8} s$, 3) $t = \frac{T}{6} s$ paytlari uchun garmonik tebranayotgan nuqta kinetik energiyasining uning potensial energiyasiga bo'lgan nisbati nimaga teng? Tebranishning boshlang'ich fazasi nolga teng 1) $\frac{W_k}{W_p} = 3$; 2) $\frac{W_k}{W_p} = 1$; 3) $\frac{W_k}{W_p} = \frac{1}{3}$.
15. Nuqta muvozanat vaziyatidan siljishi: 1) $x = \frac{A}{4}$, 2) $x = \frac{A}{2}$, 3) $x = A$ ni tashkil qiladigan paytlar uchun garmonik tebranayotgan nuqta kinetik energiyasining uning potensial energiyasiga nisbati nimaga teng? A – amplituda (1) $\frac{W_k}{W_p} = 1.5$; 2) $\frac{W_k}{W_p} = 3$; 3) $\frac{W_k}{W_p} = 0$).
16. Garmonik tebranma harakatda bo'lgan jismning to'la energiyasi $3 \cdot 10^{-5} J$, jismga ta'sir etuvchi maksimal kuch $1.5 \cdot 10^{-3} N$ ga teng. Tebranish davri 2 sekund va boshlang'ich faza 60^0 bo'lsa, bu jismning harakat tenglamasini yozing ($x = 0.04 \sin(\pi t + \frac{\pi}{3}) m$).
17. Moddiy nuqtaning garmonik tebranishlar amplitudasi $A = 2sm$, tebranishlarning to'la energiyasi $W = 3 \cdot 10^{-7} J$. Muvozanat vaziyatidan qancha siljiganda tebranayotgan nuqtaga $F = 2.25 \cdot 10^{-5} N$ kuch ta'sir etadi? ($x = \frac{FA^2}{2W} = 1.5 \cdot 10^{-2} m$).
18. Avtomobilning massasi $m = 1200 kg$ bo'lib har bir oyog'iga $300 kg$ massa tug'ri keladi. Avtomobil o'z yuki ta'sirida prujinasining siqilishi $3 sm$ ga teng bo'lsa bikrligini aniqlang ($k = \frac{F}{x} = 4.5 \cdot 10^{-2} m$).
19. Prujinaga $10 kG$ yuk osilgan. Prujina $1 kG$ kuch ta'sirida $1.5 sm$ cho'zilishi ma'lum bo'lsa, yukning vertikal tebranish davrini aniqlang ($0.78 s$).
20. Prujinaga yuk osilgan. Yuk tebranishining maksimal kinetik energiyasi $1 J$ ekanligi ma'lum bo'lsa, prujina deformatsiya koefisiyenti aniqlansin. Tebranish amplitudasi 5 sm ($k = 805 N/m$).
21. Prujinaga toshlar qo'yilgan tarozi pallasi osilgan. Bunda vertikal tebranishlar davri $0.5 s$ ga teng. Pallaga qo'shimcha toshlar qo'yilganidan keyin vertikal tebranishlar davri $0.6 s$ bo'ladi. Shu qo'shimcha yuk tufayli prujina qanchaga cho'zilgan? ($\Delta l = 2.7 sm$).

22. Uzunligi 40 sm va radiusi 1 mm bo'lgan rezinka shnurga og'irligi $0.5kG$ tosh osilgan. Shu rezinkaning Yung moduli $0.3kG/mm^2$ ekanligi ma'lum bo'lsa, toshning vertikal tebranish davrini toping ($T = 0.93s$).
23. $\nu = 4Hz$ chastotali to'lqin $\vartheta = 6m/s$ tezlik bilan harakatlanayotgan bo'lsa, uning to'lqin uzunligi bir-biridan $\Delta l = 50sm$ oraliqda yotgan ikki nuqtasining fazalar farqini toping ($A = 1.5m$, $\Delta\phi = 120^\circ$).
24. Kamerton bilan suvda hosil qilingan to'lqin bir qirg'oqdan $S = 200m$ masofadagi ikkinchi qirg'oqqa $t = 125s$ da yetib keladi. Agar suv to'lqinin qirg'oqqa urilish chastotasi $\nu = 0.4Hz$ bo'lsa, uning to'lqin uzunligini toping ($\lambda = 4m$).
25. Davri $10^{-14}s$ ga teng tebranishning to'lqin uzunligini toping. Tebranishning tarqalish tezligi $3 \cdot 10^8 m/s$ ($\lambda = 3 \cdot 10^{-6}m$).
26. Chastotasi $\nu = 500Hz$ va amplitudasi $A = 0.25mm$ bo'lgan tovush havoda tarqalmoqda, to'lqin uzunligi $\lambda = 70sm$. 1) Tebranishning tarqalish tezligini 2) havo zarrachalarining maksimal tezligini toping.
(1) $350m/s$, (2) $0.785m/s$).
27. So'nmaydigan tebranish $x = 4\sin 600\pi sm$ tenglama ko'rinishida berilgan. Tebranish boshlangandan $0.01s$ o'tgandan keyin tebranishlar manbaidan $75sm$ masofada turuvchi nuqtaning muvozanat vaziyatdan siljishini toping. Tebranishning tarqalish tezligi $300m/s$, ($x = 0.04m$).
28. So'nmaydigan tebranish $x = \sin 2.5\pi sm$ tenglama ko'rinishida berilgan. Tebranish boshlangandan $t = 1s$ o'tgandan keyin tebranishlar manbaidan $20m$ masofadagi nuqtaning muvozanat vaziyatidan siljishini, tezligi va tezlanishini toping. Tebranish tarqalish tezligi $100m/s$, ($x = 0$, $\vartheta = 7.85 \cdot 10^{-2} m/s$, $a = 0$).
29. Tebranish manbaidan $10m$ va $16m$ masofadagi ikki nuqtaning tebranishining fazalar farqi qanchaga teng bo'ladi? Tebranish davri $0.04s$ va tarqalish tezligi $300m/s$ ($\Delta\phi = \pi -$ nuqtalar qarama-qarshi fazada tebranadi).
30. To'lqin uzunligi $1m$ bo'lgan to'lqinda, bir-biridan $2m$ masofada turuvchi ikki nuqta tebranishi fazalarining farqini toping ($\Delta\phi = 4\pi -$ nuqtalar birday fazada tebranadi).
31. Tebranish manbaidan $4sm$ masofadagi nuqta $t = \frac{T}{6}$ paytda muvozanat vaziyatidan yarim amplitudaga teng siljiydi. Yuguruvchi to'lqin uzunligini toping ($\lambda = 0.48m$).
32. Turg'un to'lqinning birinchi va to'rtinchi qavariqlari orasidagi masofa $15sm$ bo'lsa, tebranish to'lqin uzunligini aniqlang ($\lambda = 0.1m$).

33. Tovushning misdagi tarqalish tezligi topilsin. Misdagi Yung moduli $E = 11.8 \cdot 10^{10} N/m^2$, misning zichligi $\rho = 8600 kg/m^3$ ($\vartheta = 3700 m/s$).
34. Tovushning kerosindagi tarqalish tezligi $1330 m/s$, kerosinning siqilish koeffisiyenti topilsin. Kerosin zichligi $800 kg/m^3$ deb oling. ($\beta = \frac{1}{\rho \vartheta^2} = 7.1 \cdot 10^{-10} m^2/N$).
35. Okeanning chuqurligi exolot yordamida o'lchangan. Agar tovush paydo bo'lgan paytdanunu qabul qilib olguncha $t = 5 s$ vaqt o'tgan bo'lsa, okeanning chuqurligini toping. Tovushning okean suvida tarqalish tezligi $\vartheta = 1450 m/s$ deb oling ($h = 36.5 m$).
36. Cho'yanda tovushning tarqalish tezligini birinchi marta fransuz olimi Bio quyidagicha aniqlagan. Cho'yan bir uchida zang urildi, bunda quvurning ikkinchi uchidagi kuzatuvchiga ikkita tovush: dastlab cho'yan bo'y lab kelgan bir tovush, biro z vaqtdan keyin havo bo'y lab kelgan ikkinchi tovush eshitildi. Quvurning uzunligi $S = 930 m$, yetib kelgan tovushlar vaqtining farqi $\Delta t = 2.5 s$ bo'lsa, tovushning cho'yanda tarqalish tezligini toping. Tovushning havodagi tezligi $\vartheta = 340 m/s$ ($\vartheta = 3925 m/s$).
37. Tovush havodan suvgaga o'tgandauning to'lqin uzunligining necha marta kata bo'lishini aniqlang. Tovushning havodagi tezligi $\vartheta_0 = 340 m/s$, suvda tarqalish tezligi esa $\vartheta = 1450 m/s$, ($\frac{\lambda}{\lambda_0} = 4.26$).
38. Delphinning dengiz suvidagi tovushi tezligini hisoblang. Yung moduli $E = 2.0 \cdot 10^9 N/m^2$, suv zichligi $1025 kg/m^3$. Tovush chastotasi $\nu = 10000 Hz$ bo'lsa tovush to'lqin uzunligi nimaga teng bo'ladi? ($\vartheta = 1.4 \cdot 10^3 m/s$, $\lambda = 14 mm$.)
39. Pianino simi uzunligi $1.10 m$, massasi esa $9.0 g$. Chastotasi $131 Hz$ bo'lgan tovush hosil qilish uchun pianino simiga qanday kuch bilan ta'sir qilish lozim? ($F_t = \mu \vartheta^2 = \frac{m}{l} \vartheta^2 = 679 N$).
40. "lyo" tonining chastotasi $\nu = 435 Hz$ ga mos kelgan, plastinkaning markazidan $r = 12 sm$ masofada yozilgan tovush to'lqinining do'ngliklari orasidagi masofani toping. Plastinkaning aylanish chastotasi $\nu_0 = 33 ayl/min$, ($l = 2\pi r \frac{\nu_0}{\nu} = 0.95 mm$).
41. To'lqin massasi $15 kg$, to'lqin uzunligi $0.3 m$ bo'lib $1000 N$ kuch ta'siri ostida $300 m$ masofa bosib o'tganligi ma'lum bo'lsa, to'lqin tezligi va chastotasini aniqlang ($\vartheta = \sqrt{\frac{F}{\mu}} = \sqrt{\frac{Fl}{m}} = 140 m/s$, $\nu = \frac{\vartheta}{\lambda} = 470 Hz$).

42. Inson qulog'i eshitishi uchun kerak bo'ladigan eng kichik tovush intensivligi $I_0 = 1.0 \cdot 10^{-12} W/m^2$ bo'lib tovush balandligi $\beta = 75 Db$ bo'lsa havodagi tovush intensivligini aniqlang ($I = I_0 \cdot 10^{\beta/10} = 3.2 \cdot 10^{-5} W/m^2$).




§15. Elektromagnit tebranishlar va to'lqinlar

Ma'lumki elektromagnit induksiya hodisasiga ko'ra magnit maydonning o'zgarishi uyurmaviy elektr maydonni hosil qiladi. O'z navbatida, elektr maydonning o'zgarishi magnit maydon vujudga kelishiga sabab bo'ladi. Ingliz olimi Maksvell bir necha qonunlarni umumlashtirib fazoda mavjud bo'lgan elektr maydon magnit maydonga va hosil bo'lgan magnit maydon elektr maydonga aylanib turishi va bu almashtirish fazo bo'ylab tarqalishini isbotladi.


Demak, o'zaro bir-biri bilan bog'liq bo'lgan va bir-biriga aylanib turuvchi elektr va magnit maydonlardan iborat maydon elektromagnit maydon deyiladi.

Maksvell elektr va magnit maydonlar biri ikkinchisi bilan almashinib turishi fazoning faqat bir qismida sodir bo'lmay balki yorug'lik tezligiga teng tezlik bilan fazoda tarqalishini kashf etdi. Shunday qilib fazoda o'zgaruvchan elektromagnit maydonning tarqalishi elektromagnit to'lqinlar deyiladi. Elektromagnit to'lqinlar yuzaga kelishi uchun zanjirda tebranish konturi bo'lishi kerak. Bunda elektr maydon kondensator plastinkalari orasida, magnit maydon induktiv g'altak ichida va uning atrofida to'planadi. Elektromagnit tebranishni tashqi muhitga chiqarib uni fazoda tarqatish uchun ya'ni elektromagnit to'lqinlarni yuzaga keltirish uchun konturdagi kondensator plastinkalarini bir-biridan uzoqlashtirish kerak bo'ladi. Natijada ochiq kontur hosil bo'ladi. Bunday ochiq kontur yoki to'g'ri o'tkazgich fazoga elektromagnit to'lqinlar tarqatadi. 15.1-rasmda elektromagnit to'lqinlarni tarqatish sxematik ko'rinishi tasvirlangan.




15.1-rasm

Fazoda hosil bo'lgan elektromagnit tolqinni qabul qiluvchi qurilma esa **resonator** deyiladi (15.2-rasm).



15.2-rasm

Rezonatorda majburiy elektromagnit tebranish yuzaga keladi, uning chastotasi tashqaridan kelayotgan elektromagnit tebranish chastotasiga tenglashganda rezonans hosil bo'ladi. Elektromagnit to'lqinlarni bunday usulda tarqatish yoki qabul qilishni dastlab Gers tajribada amalgam oshirgan. Unga ko'ra rezonans ro'y berganda resonator sharchalari orasida uchqun paydo bo'ladi. Ushbular asosida radio kashf etilgan bo'lib unga kora dastlab tovush elektromagnit to'lqinga aylantiriladi, qabul qilgich esa uni qabul qilib yana tovush to'lqiniga aylantiradi. Eng sodda radio qabul qilgich sxemasi quyidagicha keltirilgan:



15.3-rasm

Amaliy mashg'ulotning maqsadi shunday qabul qilgichlarni yig'ishdan iborat.

- Elektromagnit tebranish konturining tebranish davri quyidagicha:

$$T = \frac{2\pi}{\sqrt{\frac{1}{LC} - \left(\frac{R}{2L}\right)^2}} \quad (1)$$

Bunda L -konturning induktivkigi, C -kondensatorning sig'imi. Agar kontur qarshiligi R yetarlicha kichik bo'lsa u holda

$$\left(\frac{R}{LC}\right)^2 \ll \frac{1}{LC}$$

bo'lganligi uchun (1) dan quyidagi aormula kelib chiqadi:

$$T = 2\pi\sqrt{LC} \quad (2)$$

Bu formula Tomson formulasi deyiladi.

- Energiyaning saqlanish qonuniga ko'ra konturdagi kondensator qoplamlari orasidagi maksimal elektr maydon energiyasi g'altakdagi maksimal magnit maydon energiyasiga aylanadi ya'ni:

$$\frac{Cu^2}{2} + \frac{Li^2}{2} = \text{const} \quad (3)$$

$$\text{yoki } W_t = \frac{CU_0^2}{2} = \frac{LI_0^2}{2} \quad (3')$$

bu yerda tok $i = I_0 \cos\omega t$ va kuchlanish $u = U_0 \sin\omega t$ qonunga muvofiq o'zgaradi.

- So'nuvchi elektromagnit tebranish hosil qilayotgan konturdagi kondensator plastinkalari orasidagi potensiallar farqi quyidagicha:

$$U = U_0 e^{-\delta} \cos\omega t \quad (4)$$

bunda $\delta = \frac{R}{2L}$ - so'nish koeffisiyenti bo'lib u nolga teng bo'lsa u holda tebranish so'nmaydigan erkin tebranish deyiladi va

$$U = U_0 \cos\omega t \quad (5)$$


agar t vaqt $U = 0$ dan boshlansa

$$U = U_0 \sin\omega t \quad (6)$$

- Elektromagnit to'lqinning uzunligi $\lambda = cT$ (7), bunda c - elektromagnit to'lqinning tezligi $c = 3 \cdot 10^8 \text{ m/s}$.
- Elektromagnit to'lqinning nisbiy dielektrik singdiruvchanligi ϵ va nisbiy magnit singdiruvchanligi μ bo'lган muhitdagi tarqalish tezligi quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$\vartheta = \frac{c}{n} = \frac{c}{\sqrt{\epsilon\mu}}$$

- Elekrtomagnit to'lqinlar shkalasi:



15.4-rasm

Masala yechish namunalari

1. Radioning tebranish konturi $C = 200 \text{ pF}$ sig'imi yassi kondensator va induktivligi $L = 5 \cdot 10^{-3} \text{ H}$ bo'lgan g'altakdan tuzilgan. Shu radio qanday to'lqin uzunligiga moslashgan?

Berilgan: $C = 200 \text{ pF} = 200 \cdot 10^{-12} \text{ F}$, $L = 5 \cdot 10^{-3} \text{ H}$

Topish kerak: $\lambda - ?$

Yechilishi: (2) formulaga ko'ra $T = 2\pi\sqrt{LC}$, ikkinchi tomondan ma'lumki $\lambda = cT$, bunda c – elektrromagnit to'lqining tezligi $c = 3 \cdot 10^8 \text{ m/s}$. Bu ikkala formulani birgalikda yechsak: $\lambda = 2\pi c\sqrt{LC} = 2 \cdot 10^3 \text{ m}$ ga teng bo'ladi.

2. Induktivligi $L = 3 \cdot 10^{-5} \text{ H}$ bo'lgan g'altak plastikalarining sathi $S = 10 \text{ sm}^2$ va ular oraliqlari $d = 0.1 \text{ mm}$ bo'lgan yassi kondensatorga ulangan. Agar kontur 750 m uzunlikdagi to'lqinga rezonanslashsa, plastinkalar oralig'ini to'ldiruvchi muhitning dielektrik singdiruvchanligi nimaga teng?

Berilgan: $L = 30 \text{ mH}$, $S = 0.01 \text{ m}^2$, $d = 0.1 \text{ mm}$, $\lambda = 750 \text{ m}$

Topish kerak: $\epsilon - ?$

Yechilishi: Biz bilamizki yassi kondensator sig'imi quyidagiga teng: $S = \frac{\epsilon \epsilon_0 S}{d}$, yuqoridagi masalaning yechilishidan ma'lumki $\lambda = 2\pi c\sqrt{LC}$, bundan tenglikning ikkala tomonini kvadratga oshirsak $\lambda^2 = 4\pi^2 c^2 LC$. Yassi kondensatorning sig'imi uchun yozilgan yuqoridagi tenglamani ta'sir ettirsak $\lambda^2 = 4\pi^2 c^2 LC \frac{\epsilon \epsilon_0 S}{d}$, bundan ϵ ni topsak $\epsilon = \frac{\lambda^2 d}{4\pi^2 c^2 LS \epsilon_0}$. Masala shartidan va $\epsilon_0 = 8.85 \cdot 10^{-12} \text{ F/m}$ ekanligidan $\epsilon = 6$.

3. Tebranish konturidagi tok kuchining vaqt bo'yicha o'zgarish tenglamasi quyidagi ko'rinishda berilgan: $I = -0.02 \sin 400\pi t$ A. Konturning induktivligi $1H$.

1) Tebranish davri, 2) kontur sig'imi, 3) kondensator qoplamlaridagi maksimal potensiallar ayirmasi, 4) magnit maydonning maksimal energiyasi, 5) elektr maydonning maksimal energiyasi topilsin.

Berilgan: $I = -0.02 \sin 400\pi t$, $L = 1H$

Topish kerak: $T = ?$, $C = ?$, $U_m = ?$, $W_m = ?$, $W_e = ?$

Yechilishi: Masala shartiga ko'ra: $I = -0.02 \sin 400\pi t$ (1). Zanjirdagi tokning vaqt bo'yicha o'zgarish qonuniga ko'ra $I = C \frac{dU}{dt} = -CU_0 \frac{2\pi}{T} \sin \frac{2\pi}{T} t$ (2).

Ushbu tenglamalarni taqqoslasak $T = 5ms$ kelib chiqadi, ikkinchi tomondan Tomson formulasiga ko'ra: $T = 2\pi\sqrt{LC}$ dan $C = \frac{T^2}{4\pi^2 L} = 0.63mF$.

(1) formuladan ko'rindiki agar $\sin 400\pi t = 1$ bo'lgandagi tok eng katta qiymatga erishadi, ya'ni $I_{max} = 0.02A$. U holda magnit maydonining maksimal energiyasi $W_m = \frac{LI_{max}^2}{2} = 0.2mJ$.

Energiyaning saqlanish qonuniga ko'ra (3) formuladan $W_e = W_m = \frac{CU_{max}^2}{2} = \frac{LI_{max}^2}{2} = 0.2 mJ$. Javoblar: $T = 5ms$, $C = 0.63mF$, $W_m = 0.2mJ$.

Mustaqil yechish uchun masalalar

1. Tebranish konturi $800CGC_c$ sig'imli kondensator hamda $2 \cdot 10^{-3} H$ induktivlikka ega g'altakdan iborat. Kontur qanday to'lqin uzunlikka sozlangan? Kontur qarshiligi hisobga olinmasin $1 CGC_c = 1/c^2 \cdot 10^9 F$. ($\lambda = 2500m$).
2. Induktivligi $2 \cdot 10^{-3} H$, sig'imi 62 dan $480CGC_c$ gacha o'zgara oladigan tebranish konturini qanday to'lqin diopozonga sozlash mumkin? Kontur qarshiligi juda kichik ($700m \div 1950m$).
3. $2 mF$ sig'imda $1000 Hz$ tovush chastotasini olish uchun tebranish konturiga qanday induktivlik ulash kerak? Kontur qarshiligi hisobga olinmasin ($L = 12.7mH$).
4. Tebranish konturi $0.2 mF$ sig'imli kondensator va $5.07 \cdot 10^{-3} H$ induktiv g'altakdan iborat. 1) Kondensator qoplamlaridagi potensiallar ayirmasi qanday so'nish logarifmik dekrementida $10^{-3}s$ ichida uch baravar kamayib ketadi. 2) bunda kontur qarshiligi qanchaga teng? (1) $T = 2ms$, (2) $R = 11.1 \Omega$)

5. Tebranish konturi $10^{-2} H$ induktivlik, $0.405 mF$ sig'imi va 2Ω qarshilikdan iborat. Bir davrda kondensator qoplamlaridagi potensiallar ayirmasi necha marta kamayishi topilsin (*1.04 marta*)
6. Tebranish konturi $1.1 \cdot 10^{-9} F$ sig'imga va $5mH$ induktivlikka ega. So'nish logarifmik dekrementi 0.005 ga teng. So'nish tufayli konturning 99% energiyasi qancha vaqtda yo'qoladi? ($6.8 \cdot 10^{-3} s$).
7. Agar tebranish konturi kondensatorining qoplamlaridagi maksimal zaryad $q_0 = 2.5 \cdot 10^{-8} C$, konturdan o'tayotgan maksimal tok $I_0 = 31.4 mA$ bo'lsa, konturdagi elektromagnit tebranishlar chastotasini toping. Agar konturning induktivligi $L = 2 \cdot 10^{-7} H$ ga teng bo'lsa, konturdagi kondensator sig'imi nimaga teng bo'ladi? ($\nu = 200 kHz$, $C = 3.2 mF$).
8. Tebranish konturi $0.025 mF$ sig'imli konturdan hamda $1.015 H$ induktivlikka ega g'altakdan iborat. Zanjirning qarshiligini hisobga olmaymiz. Kondensator $2.5 \cdot 10^{-6} C$ elektr miqdori bilan zaryadlangan.
- 1) Bu tebranma kontur uchun kondensator qoplamlaridagi potensiallar ayirmasining (sonli koeffisiyentlar bilan) va zanjirdagi tok kuchining vaqtga bog'liq ravishda o'zgarish tenglamasi yozilsin.
 - 2) $\frac{T}{8}, \frac{T}{4}$ va $\frac{T}{2} s$ ga teng vaqtdagi kondensator qoplamlaridagi potensiallar ayirmasining qiymati va zanjirdagi tok kuchi topilsin.
 - 3) bir davr chegarada bu bog'lanishlarning grafiklarini chizing.
- (1) $U = 100 \cos(2\pi \cdot 10^3 t) V$, $I = -15.7 \sin(2\pi \cdot 10^3 t) mA$, (2) $U_1 = 70.7 V$, $I_1 = -11.1 mA$, $U_2 = 0$, $I_2 = -15.7 mA$, $U_3 = 100V$, $I_3 = 0$).
9. Tebranish konturi kondensatori qoplamlaridagi potensiallar ayirmasining vaqtga qarab o'zgarish tenglamasi $U = 50 \cos 10^4 \pi t V$ ko'rinishga ega. Kondensatorning sig'imi $10^{-7} F$ ga teng. 1) Tebranish davri, 2) kontur induktivligi, 3) vaqt bo'yicha zanjirdagi tok kuchining o'zgarish qonuni, 4) shu konturga muvofiq keluvchi to'lqin uzunligini toping.
- (1) $T = 2 \cdot 10^{-4} s$, (2) $L = 10.15 mH$, (3) $I = -157 \sin 10^4 \pi t mA$, (4) $\lambda = 600 m$).
10. Radiolokator $\lambda = 20 sm$ li to'lqin uzunlikda $n = 5000 \frac{1}{s}$ impuls chiqaradi. Agar impulsning davomiyligi $\tau = 2 mks$ bo'lsa, har bir impulsdagi tebranishlar soni va radiolokatorning ta'sir masofasini toping. ($N = 3000$, $S = 30 km$).
11. Radiolokator $\lambda = 15 sm$ li to'lqin uzunlikda ishlab, har bir sekundda $n = 4000 \frac{1}{s}$ impuls chiqaradi. Agar impulsning davomiyligi $\tau = 0.2 mks$

bo'lsa, har bir impulsda joylashgan ultraqisqa to'lqinlar soni va radiolokator ta'sir masofasini toping ($n = \frac{\tau}{T} = 40$, $S = \frac{\vartheta}{2n} = 37.5\text{km}$).


12. Agar radiolokatorning ta'sir masofasi $S = 25\text{km}$ bo'lsa, impulsning maksimal chastotasini toping ($\nu = \frac{c}{2S} = 6000\frac{1}{s}$).

13. Uzatuvchi qurilma $\lambda = 25m$ to'lqin uzunlikda ishlaydigan radiostansiya chastotasi $\nu_T = 400\text{Hz}$ bo'lgan tovush signalini uzatsa, tovush tebranishining bir davriga joylashgan yuqori chastotali elektromagnit tebranishlar sonini toping ($n = \frac{\lambda_T}{\lambda} = \frac{c}{\lambda\nu_T}$).

14. Televizion eshittirishni eltuvchi ultraqisqa to'lqinning chastotasi $\nu = 50\text{MHz}$ bo'lib, $t = 40ms$ davomida tasvirning $N = 50000$ elementini uzatadi. Impulsdan iborat bo'lgan har bir tasvir elementga joylashgan ultraqisqa to'lqinlar sonini toping ($n = \frac{\tau}{T} = \frac{t/N}{1/\nu} = 40$).

15. $t = \frac{T}{8}\text{s}$ vaqt payti uchun tebranish konturi magnit maydon energiyasining elektr maydon energiyasiga nisbatini toping ($\frac{W_m}{W_e} = 1$).

16. Quyoshdan Yerga kelayotgan radiatsion nurlar intensivligi $I = 1350\text{W/m}^2$. Elektromagnit to'lqinlarning E va B lar qiymatlarini hisoblang (15.5-rasm). ($E_0 = \sqrt{\frac{2I}{\epsilon_0 c}} = 1.01 \cdot 10^3 \text{V/m}$, $B_0 = \frac{E_0}{c} = 3.37 \cdot 10^{-6} \text{Tl}$).



15.5-rasm

17. Uzunligi $l = 50\text{sm}$ va ko'ndalang kesimining yuzi $S = 10\text{sm}^2$ bo'lgan g'altak $\nu = 50\text{Hz}$ chastotali o'zgaruvchan tok zanjiriga ulangan. G'altakning o'ramlar soni $N = 3000$. Kuchlanish bilan tok o'rtasidagi fazalar siljishi 60° bo'lsa, g'altak aktiv qarshiligini toping ($R = 4.1\Omega$).

18. Elektr doimiysi ($\epsilon_0 = 8.85 \cdot 10^{-12} \frac{\text{C}^2}{\text{N} \cdot \text{m}^2}$) va magnit doimiysi $\mu_0 = 4\pi \cdot 10^{-7} \frac{\text{N} \cdot \text{s}^2}{\text{C}^2}$ ni bilgan holda elektromagnit to'lqinlarning vakuumdagi tezligini hisoblang ($c = 3 \cdot 10^8 \text{m/s}$).

19. Chastotasi $\nu = 75 \text{ MHz}$ bo'lgan elektromagnit to'lqinning gletsirinda tarqalish tezligi va to'lqin uzunligini toping. Gletsirining nisbiy dielektrik singdiruvchanligi $\epsilon = 39$ ga teng ($\vartheta = 0.43 \cdot 10^8 \text{ m/s}$, $\lambda = 57 \text{ sm}$).
20. Muhitdagi elektromagnit to'lqin tezligini hisoblash formulasini keltirib chiqaring ($\vartheta = \frac{c}{\sqrt{\epsilon \mu}}$).
21. So'nuvchi elektromagnit tebranishlarni MATLAB, MathCAD, Maple dasturiy tizimlarida va C++, Dev C++, Turbo Pascal, Borland C++Builder6, Borland Delphi7 kabi dasturlash tillarida grafiklarini hosil qiling. So'nishning logarifmik dekrementini o'zgartiring va grafiklarni taqqoslang.
22. 15.4-rasmdan foydalanib radioto'lqin va mikroto'lqinlar uchun (AM, FM, TV, mobil aloqa) to'lqin uzunliklari va chastotalarni hisoblang.
23. Tebranish konturining ishlash prinsipi va ahamiyatini tushintiring.
24. Elektromagnit to'lqinlarni hosil qilish va Gers vibratorining ishlash prinsipini tushintiring.



§16. Geometrik optika

- Yorug'lik nurining qaytish qonuniga ko'ra ikki muhit chegarasiga tushgan nur va nur tushgan nuqtadan chegaraga o'tkazilgan perpendikulyar bitta tekislikda yotadi va tushish burchagi α qaytish burchagi α' ga tengdir.

$$\alpha = \alpha' \quad (1)$$

- Yorug'lik nuri bir muhittan ikkinchi muhitga o'tganda esa yorug'lik nurining sinish qonuni o'rinali bo'ladi.

$$\frac{\sin \alpha}{\sin \beta} = n = \frac{\vartheta_1}{\vartheta_2} \quad (2)$$

bunda α – tushish burchagi, β – sinish burchagi, n – ikkinchi muhitning birinchi muhitga nisbatan sindirish ko'rsatkichi, ϑ_1 va ϑ_2 – mos holda birinchi va ikkinchi muhitlarda yorug'lik nurining tarqalish tezliklari.

- Sferik ko'zguning optik kuchi quyidagiga teng:

$$D = \frac{1}{F} = \frac{2}{R} = \frac{1}{f} + \frac{1}{d} \quad (3)$$

- Sferik ko'zguning fokus masofasi: $F = \pm \frac{R}{2}$ (3')

bunda f -ko'zgudan tasvirgacha masofa, d -buyumdan ko'zgugacha bo'lgan masofa, R -ko'zguning egrilik radiusi, F -uning fokus masofasi.

- Bir jinsli muhitda yupqa linzaning optik kuchi quyidagicha bo'ladi:

$$\frac{1}{f} + \frac{1}{d} = \frac{1}{F} = D = (n - 1) \left(\frac{1}{R_1} + \frac{1}{R_2} \right) \quad (4)$$

R_1 va R_2 lar linza sirtlarining egrilik radiuslari.

(3) va (4) formulalardan masala yechishda foydalanilayotganda shuni nazarda tutish kerakki, agar hisoblanayotgan masofa ko'zgudan yoki linzadan nur yo'naliishi bo'yicha hisoblansa musbat, nurga qarshi yo'naliishda hisoblansa manfiy deb olinadi.

- O'zaro biror α burchak ostida tutashtirilgan ikkita ko'zgu orasidagi buyumning tasvirlari soni:

$$n = \frac{2\pi}{\alpha} \quad (5)$$

- Linzaning yoki ko'zguning chiziqli kattalashtirishi quyidagicha:

$$k = \frac{y'}{y} = \frac{f}{d} \quad (6)$$

bu yerda y -jismning balandligi, y' -tasvirning balandligi.

- Lupaning kattalashtirishi:

$$k = \frac{L}{F} \quad (7)$$

formula orqali aniqlanadi. Bunda $L = 25\text{sm}$ -inson ko'zining eng yaxshi ko'rish masofasi, F -lupaning fokus masofasi.

- Mikroskopning kattalashtirishi:

$$k = LdD_1D_2 \quad (8)$$

bunda d -ob'ektiv okulyarning fokus masofalari oralig'i, D_1, D_2 -mos holda ob'ektiv va okulyarning optik kuchlari.

- Teleskop ko'rish trubasining kattalashtirishi:

$$k = \frac{F_1}{F_2} \quad (9)$$


F_1 va F_2 -ob'ektiv va okulyarning fokus masofalari.

Masala yechish namunalari

- Botiq sferik ko'zguning egrilik radiusi 20 sm, ko'zgudan 30 sm uzoqlikda balandligi 1 sm bo'lgan buyum qo'yilgan (16.1-rasm). Tasvirning vaziyati va balandligi topilsin.

Berilgan: $R = 20\text{sm}$, $d = 30\text{sm}$, $y = 1\text{sm}$

Topish kerak: $f - ?$, $y' - ?$



16.1-rasm

Yechilishi: (3) formulaga ko'ra $F = \frac{R}{2} = 10\text{sm}$ yoki, $\frac{1}{F} = \frac{1}{d} + \frac{1}{f}$ dan $f = \frac{Fd}{F+d} = 15\text{sm}$. (6) formuladan quyidagilarni yozamiz: $k = \frac{f}{d} = 0.5$

bo'lganidan $y' = ky = 0.5\text{sm}$. Javobi: $f = 15\text{sm}$, $y' = 0.5\text{sm}$.

- Shishaning sindirish ko'rsatkichi 1.52, 1) shisha-havo, 2) suv-havo, 3) shisha suv bo'linish sirtlari uchun to'la ichki qaytishning chegaraviy burchaklarini toping.

Berilgan: $n_{sh} = 1.52$, $n_h = 1$, $n_s = 1.33$

Topish kerak: $\alpha_0 - ?$

Yechilishi: Agar $\beta \geq 90^\circ$ bo'lsa va nur optik zichligi katta muhitdan optik zichligi kichik muhitga o'tganda to'la ichki qaytish hodisasi kuzatiladi. To'la ichki qaytishning chegaraviy burchagini topish formulasini quyidagicha: $\sin \alpha_0 = \frac{n_2}{n_1}$. Hisoblashlar natijasida quyidagilarni olamiz:

$$1) \alpha_0 = 41^\circ, \quad 2) \alpha_0 = 49^\circ, \quad 3) \alpha_0 = 61^\circ.$$

- Ikki yoqlama qavariq linza yuzlarining egrilik radiuslari $R_1 = R_2 = 50\text{sm}$. Linza materialining sindirish ko'rsatkichi $n = 1.5$. Linzaning optik kuchini toping.

Berilgan: $R_1 = R_2 = 50\text{sm}$, $n = 1.5$

Topish kerak: $F - ?$


Yechilishi: Yupqa linzaning formulasiga (4) ko'ra
 $\frac{1}{f} + \frac{1}{d} = \frac{1}{F} = D = (n-1)\left(\frac{1}{R_1} + \frac{1}{R_2}\right)$, masala shartiga ko'ra $R_1 = R_2$ bo'lgani uchun
 $D = (n-1)\frac{2}{R} = 2dptr.$

Mustaqil yechish uchun masalalar

- Agar buyum egrilik radiusi $40sm$ bo'lgan qavariq sferik ko'zgudan $30sm$ uzoqlikda joylashtirilgan bo'lsa, ko'zgudagi buyumning tasviri qanday masofada hosil bo'ladi? (16.2-rasm)
 Buyum $2sm$ kattalikda bo'lsa, tasvirning kattaligi qanday bo'ladi?
 Hisoblash millimetrlı qog'ozda grafik yo'l bilan tekshiring.

($a_2 = 0.12m$, $y' = -8mm$. Tasvir mavhum, to'g'ri, kichraygan).


- Qavariq sferik ko'zguning egrilik radiusi $60sm$. Ko'zgudan $10sm$ uzoqlikda balandligi $2sm$ keladigan buyum qo'yilgan. Tasvirning vaziyati va balandligi topilsin. Chizmasi chizilsin.
 ($a_2 = 7.5sm$, $y' = -1.5mm$. Tasvir mavhum, to'g'ri, kichraygan).
- Buyumning botiq ko'zgudagi tasviri uning o'z kattaligidan ikki marta katta. Buyum bilan tasvir o'rtasidagi masofa $15sm$. Ko'zguning: 1) fokus masofasi va 2) optik kuchi aniqlansin.
 (1) $F = -10sm$; 2) $D = -10dptr$.
- Yorug'lik sindirish ko'rsatkichi n bo'lgan jismga i burchak bilan tushadi. Qaytgan nur singan nurga perpendikulyar bo'lishi uchun i va n o'zaro qanday bog'lanishi kerak? ($tgi = n$).
- Suv quyilgan stakan ustiga qalin shisha plastinka qo'yilgan. Suv bilan shishaning bo'linish sirtidan to'la ichki qaytish ro'y berishi uchun yorug'lik nuri plastinkaga qanday burchak bilan tushishi kerak? Shishaning sindirish ko'rsatkichi 1.5, ($\sin r = n_2 = 1.33$).
- Ba'zi bir shisha navlarining qizil va binafsha nurlar uchun sindirish ko'rsatkichi 1.51 va 1.53 ga teng. Bu nurlar shisha-havo chegarasiga tushganda to'la ichki qaytish limit burchagi topilsin.
 ($\varphi_q = 41^{\circ}28'$, $\varphi_b = 40^{\circ}49'$).
- Ba'zi bir monoxromatik nur uchun prizma materialining sindirish ko'rsatkichi 1.6 ga teng. Nur prizmadan chiqayotganda to'la ichki qaytish ro'y bermasligi uchun bu nurning prizmaga eng katta tushish



16.2-rasm

burchagi qanday bolishi kerak? Prizmaning sindirish burchagi 45° ga teng (108°).

8. Yorug'lik dastasi teng yonli prizmaning yon sirti bo'ylab sirpanadi. Prizmaning chegara sindirish burchagi qancha bo'lganda singan nurlar ikkinchi yon sirtda to'la ichki qaytadi? Mazkur nurlar uchun prizma materialining sindirish ko'rsatkichi 1.6, ($77^\circ 22'$).
9. Natriyning sariq chizig'i uchun ($\lambda = 5.89 \cdot 10^{-7} m$) kvars linzaning bosh fokus masofasi $16sm$ bo'lsa, simob spektri ultrabinafsha chizig'i uchun ($\lambda = 2.59 \cdot 10^{-7} m$) kvars linzaning bosh fokus masofasi topilsin. Ko'rsatilgan to'lqin uzunliklari uchun kvarsning sindirish ko'rsatkichi mos holda 1.504 va 1.458 ($F = 0.146m$).
10. Optik kuchi 10 dioptriya bo'lgan ikki yoqlama qavariq linzadan $15sm$ masofada, optik o'qqa perpendikulyar qilib balandligi $2sm$ keladigan buyum qo'yilgan (16.3-rasm). Tasvirning vaziyati va balandligi topilsin. Chizmasini chizing ($a = 0.3m$, $y = 4sm$).



16.3-rasm


11. Linzaning havodagi fokus masofasi $20sm$ bo'lsa, linza suvgaga botirligandagi fokus masofasini toping. Linza yasalgan shishaning sindirish ko'rsatkichi 1.6, ($F = 0.59m$).
12. Egrilik radiuslari $R_1 = R_2 = 8sm$ bo'lgan flintglasdan qilingan ikki yoqlama qavariq linzaning bo'ylama xromatik abberatsiyasi topilsin. Flintglasning qizil nur ($\lambda_1 = 7.6 \cdot 10^5 sm$) uchun sindirish ko'rsatkichi 1.5 va binafsha nur ($\lambda_2 = 4.3 \cdot 10^{-5} sm$) uchun sindirish ko'rsatkichi $n = 1.8$, ($F_q - F_b = 3sm$).
13. Fokus masofasi $2sm$ ga teng lapaning: 1) eng aniq ko'rish uzoqligi $25sm$ bo'lgan normal ko'z uchun va 2) eng aniq ko'rish uzoqligi $15sm$ bo'lgan yaqinni ko'rар ko'z uchun kattalashtirishi topilsin.
(1)12.5; (2)7.5)
14. Lupa normal ko'z uchun $k = 10$ marta kattalashtirishi uchun lupani chegaralovchi sirtlarning egrilik radiuslari ($R_1 = R_2$) qanchaga teng bo'lishi kerak? Lupa yasalgan shishaning sindirish ko'rsatkichi $n = 1.5$, ($R_1 = R_2 = 25mm$).
15. Yuzi $2x2m$ bo'lgan surat undan $4.5m$ uzoqlikka qo'yilgan fotoapparat bilan suratga olinmoqda. Tasvir $5x5sm$ o'lchamda hosil bo'lgan,

apparat ob'ektivining fokus masofasi qancha bo'lgan? Suratdan ob'ektivgacha bo'lgan masofani ob'ektivning fokus masofasiga nisbatan katta deb hisoblang ($F = 0.112 \text{ m}$).


16. Egrilik radiuslari bir xil va sindirish ko'rsatkichi $n = 1.5$ bo'lgan ikki yoqlama qavariq linzaning bosh fokuslari egrilik markazlarida yotishini isbotlang.

17. Egrilik radiuslari $R_1 = 22 \text{ sm}$ va $R_2 = -46 \text{ sm}$ bo'lgan qavariq-botiq linzaning fokus masofasini toping (16.4-rasm), ($F = 0.84 \text{ m}$).

18. Yorug'lik nuri havodan shishadan yasalgan yupqa yassi parallel plastinka sirtiga $\alpha = 60^\circ$ burchak ostida tushmoqda (16.5-rasm). Shishaning sindirish ko'rsatkichi $n = 1.5$ ekanligini bilgan holda shisha ichidagi sinish va plastinkadan chiqishdagi sinish burchaklarini toping ($\theta_A = 35.3^\circ$, $\theta_B = 60^\circ$).



16.4-rasm



16.5-rasm

19. Absolyut sindirish ko'rsatkichi $n = 1.5$ bo'lgan shishadan yasalgan, egrilik radiuslari $R = 0.5 \text{ sm}$ dan kata bo'lgan ikki yoqlama qavariq linza lipa sifatida ishlatilmoqda. Normal ko'rish masofasi $L_0 = 25 \text{ sm}$ ga moslashgan akkomodatsiyalangan ko'z uchun lapaning kattalashtirishini toping ($k = \frac{2(n-1)L_0}{R} = 50 \text{ marta}$).

20. Proyeksiyada apparat ob'ektivining optic kuchi $D = 8 \text{ dptr}$, ob'ektivdan ekrangacha bo'lgan masofa esa $f = 7 \text{ m}$ bo'lsa, proyeksion apparatning kattalashtirishini toping. Agar diopozitivdagi rasmning balandligi $h = 36 \text{ mm}$ bo'sa, ekranda hosil bo'lgan tasvirining balandligi nimaga teng bo'ladi? ($k = 41$, $h = 1.476$).

21. Mikroskop ob'ektivining fokus masofasi $F_1 = 5 \text{ mm}$, ob'ektiv bilan okulyar orasidagi masofa esa $l = 16 \text{ sm}$. Agar mikroskop kattalashtirishi $k = 2000$ bo'lsa, uning okulyarining kattalashtirishi nimaga teng bo'ladi? ($k_2 = \frac{L_0 + kF_1}{l - F_1} = 8$).


22. Mikroskop ob'ektivining fokus masofasi $F_1 = 3\text{ mm}$, tubusining uzunligi ob'ektivning orqa fokusidan okulyarning old fokusigacha bo'lган masofa $\delta = 15\text{ sm}$ bo'lib, mikroskopning kattalashtirishi $k = 2500$. Mikroskop okulyarining fokus masofasini toping.

$$(F_2 = \frac{\delta}{F_1} \frac{L_0}{k} = 5 \text{ mm}).$$

23. $d = 5\text{ km}$ balandlikdan uchib borayotgan samolyotdan ob'ektning rasmini $H : h = 1 : 20000$ masshtabda olish uchun ishlatiladigan ob'ektivining bosh fokus masofasi qanday bo'ladi?

$$(F = \frac{d}{h/H + 1} = 25 \text{ sm}).$$

24. Ko'zning akkomodatsiya chegaralari $d_1 = 16\text{ sm}$ va $d_2 = 80\text{ sm}$ bo'lган yaqinni ko'ruvchi odam ko'zoynagi bilan uzoqdagi buyumlarni juda yaxshi ko'ra oladi. U shu ko'zoynagi bilan kitobni ko'zini zo'riqtirmasdan o'qiy oladigan kitobgacha bo'lган eng qisqa masofa masofa d_1' ni toping ($d_1' = \frac{d_1 d_2}{d_2 - d_1} = 20 \text{ sm}$).



§17. To'lqin optikasi

- O'zaro parallel ikkita kogerent yorug'lik manbalarining ekranda hosil qilgan intenferensiylarining qo'shni maksimumlari oralig'i intenferension polosalar orasidagi masofa deb yuritiladi, qo'shni minimumlari orasidagi masofa esa intenferension polosaning eni deyiladi va u quyidagicha ifodalanadi:

$$l = \frac{L}{d} \lambda \quad (1)$$

bunda L -yorug'lik manbaidan ekrangacha masofa, λ -to'lqin uzunligi, d -to'lqinlarning bir-biridan kechikish masofasi.

- Yassi parallel plastinkadan o'tuvchi yorug'lik to'lqini uchun intenferensiyaning kuchayish sharti

$$2hn\cos\beta = 2k \frac{\lambda}{2}, (n = 0,1,2,3,...) \quad (2)$$

intenferensiyaning sharti susayish sharti esa:

$$2hn\cos\beta = (2k+1) \frac{\lambda}{2}, (n = 0,1,2,3,...) \quad (3)$$

bunda β – sinish burchagi, h – plastinka qalinligi, n – plastinkaning nur sindirish ko’rsatkichi. Qaytgan yorug’likda esa aksincha hisoblanadi.

- Nyuton halqalari(1-rasm)da qaytgan yorug’lik to’lqini uchun intenferensiyaning kuchayish sharti o’tgan yorug’lik to’lqini uchun susayish sharti bo’ladi va halqaning radiusi quyidagicha bo’ladi:

$$r_k = \sqrt{(2k-1)R \frac{\lambda}{2}}, \text{ muhitda } r_k = \sqrt{(2k-1)R \frac{\lambda}{2n}} \quad (4)$$

- Aksincha o’tgan yorug’lik to’lqini uchun intenferensiyaning kuchayish sharti esa qaytgan yorug’lik to’lqini uchun susayish sharti hisoblanadi. Bu holda halqaning radiusi quyidagisha bo’ladi:

$$r_k = \sqrt{kR\lambda}, \text{ muhitda } r_k = \sqrt{kR \frac{\lambda}{n}} \quad (5)$$

bunda λ – to’lqin uzunligi, R – linzaning egrilik radiusi.

- Tirqish difraksiyasida minimumlarning vaziyati quyidagi shartdan aniqlanadi:

$$a \sin \varphi = k\lambda \quad (k = 1,2,....) \quad (6)$$

bunda a – tirqish kengligi λ to’lqin uzunligi φ difraksiya burchagi.

- Monoxromatik nurlar dastasi difraksion panjaraga normal tushganda hosil bo’lgan difraksion spektrlarining vaziyati quyidagi shartdan aniqlanadi:

$$d \sin \varphi = k\lambda \quad (k = 0,1,2,3,....) \quad (7)$$

bunda d – panjara doimiysi bo’lib, panjaraning l – uzunligidagi barcha tirqishlarni soni orqali $d = \frac{l}{n}$ kabi ifodalanadi.

- Difraksion panjaraning chiziqli dispersiyasi quyidagi ifoda orqali ifodalanadi:

$$D = F \frac{d\varphi}{d\lambda} \quad (8)$$

bunda F – linzaning fokus masofasi. $\frac{d\varphi}{d\lambda}$ – panjaraning burchak dispersiyasi.

- Agarda $\frac{dn}{d\lambda}$ hosila musbat bo’lsa, dispersiya-anomal deb ataladi. Anomal dispersiya berilgan muhitda, ayrim to’lqin uzunlikdagi yorug’likning yutilishi hisobiga kuzatiladi.

- Normal dispersiyada sindirish ko'rsatkichining to'lqin uzunligiga bog'liqligi Koshi tenglamasi bilan ifodalanadi:

$$n \approx n_0 + \frac{a}{\lambda_0^2} \quad (9)$$

bu yerda n_0 – juda katta to'lqin uzunligidagi sindirish ko'rsatkichi, n_0 va a berilgan muhit uchun doimiy kattaliklar.

- Tirqishga joylashadigan Frenel sohalarining soni R_m – tashqi radiusi bilan quyidagicha bog'langan bo'ladi:

$$m = \frac{R_m^2}{\lambda} \left(\frac{1}{a} + \frac{1}{b} \right) \quad \text{yoki} \quad R_m = \sqrt{\frac{ab}{a+b}} m \lambda, \quad m = 1, 2, \dots \quad (10)$$

bu yerda a – manbadan tirqishgacha, b – ekrandan tirqishgacha masofa.

Masala yechish namunalari

1. Agar yashil yorug'lik filtrini ($\lambda = 5 \cdot 10^{-5} \text{ sm}$) qizil yorug'lik filtriga ($\lambda = 6.5 \cdot 10^{-5} \text{ sm}$) ga almashtirilsa, Yung tajribasida ekrandagi qo'shni intenferensiya yo'llari orasidagi masofa necha marta oshadi?

Berilgan: $\lambda_y = 500 \text{ nm}$, $\lambda_q = 650 \text{ nm}$

Topish kerak: $\frac{l_q}{l_y} - ?$

Yechilishi: (1) formulaga ko'ra ikkita qo'shni yashil polosalar oralig'i $l_y = \frac{L}{d} \lambda_y$, qizil polosalar oralig'i esa $l_q = \frac{L}{d} \lambda_q$. Bu tenglamalardagi L va d kattaliklar o'zgar-

mas. Shuning uchun $\frac{l_q}{l_k} = \frac{\lambda_q}{\lambda_k} = 1.3$. Javobi: 1.3.

2. Nyuton halqalari hosil qiladigan qurilma normal tushadigan oq yorug'lik bilan yoritilmoxda. 1) To'rtinchchi ko'k halqa ($\lambda_1 = 4 \cdot 10^{-5} \text{ sm}$), 2) uchinchi qizil halqa ($\lambda_2 = 6.3 \cdot 10^{-5} \text{ sm}$) radiuslari topilsin. Kuzatish o'tuvchi yorug'likda olib boriladi. Linzaning egrilik radiusi 5m.

Berilgan: $\lambda_1 = 400 \text{ nm}$, $\lambda_q = 630 \text{ nm}$, $R = 5 \text{ m}$

Topish kerak: $r - ?$

Yechilishi: Masala shartiga ko'ra kuzatish o'tgan yorug'likda olib borilmoqda va ko'k va qizil ranglar o'tgan yorug'lik intenferensiyasining kuchayishini bildiradi. Shu sababli (5) formulaga ko'ra 4-tartibdagi ko'k halqa radiusi uchun: $r_1 = \sqrt{4R\lambda_1} = 2.8 \text{ mm}$. 3-tartibdagi qizil halqa radiusi uchun: $r_2 = \sqrt{3R\lambda_2} = 3 \text{ mm}$.

Javobi: $r_1 = 2.8 \text{ mm}$, $r_2 = 3 \text{ mm}$.

3. Beshinchı va yigırma beshinchı yorug' Nyuton halqalari o'rtasidagi masofa 9mm ga teng. Linzaning esrilik radiusi 15m . Qurilmaga normal tushayotgan monoxromatik yorug'likning to'lqin uzunligi topilsin. Kuzatish qaytgan yorug'likda olib boriladi.

Berilgan: $R = 15 \text{ m}$, $l = 9 \text{ mm} = r_{25} - r_5$

Topish kerak: $\lambda = ?$

Yechilishi: Qaytgan yorug'lik uchun kuchayish sharti bajarilganda halqaning radiusi (4) formulaga ko'ra $r_k = \sqrt{(2k-1)R \frac{\lambda}{2}}$ bo'lganligi uchun $l = r_{25} - r_5$ ni hisoblasak, $l = \sqrt{(2 \cdot 25 - 1)R \frac{\lambda}{2}} - \sqrt{(2 \cdot 5 - 1)R \frac{\lambda}{2}} = 7\sqrt{R \frac{\lambda}{2}} - 3\sqrt{R \frac{\lambda}{2}} = 4\sqrt{R \frac{\lambda}{2}}$.


Bundan $l^2 = 16R \frac{\lambda}{2} = 8R\lambda$ yoki $\lambda = \frac{l^2}{8R} = 675\text{nm}$. Javobi: $\lambda = 675\text{nm}$.

4. Tirqishga to'lqin uzunligi λ monoxromatik yorug'lik dastasi normal tushadi. Tirqish eni 6λ (17.1-rasm). Yorug'likning uchinchi difraksiya maksimumi qanday burchak ostida kuzatiladi?

Berilgan: $a = 6\lambda$ $k = 3$.

Topish kerak: $\varphi = ?$

Yechilishi: Tirqish difraksiyasi uchun quyidagiga egamiz: $a \sin \varphi = k\lambda$. Masala shartiga ko'ra $a = 6\lambda$ $k = 3$ bo'lgani uchun $6\lambda \sin \varphi = 3\lambda$. Bundan $6 \sin \varphi = 3$ yoki $\sin \varphi = 0.5$ va $\varphi = 30^\circ$. Javob: $\varphi = 30^\circ$.



17.1-rasm

5. Difraksion panjarali goniometrning ko'rish trubasi kollimator o'qiga 20° burchak ostida qo'yilgan. Bunda trubaning ko'rish sohasidagi geliy spektrining qizil chizig'i ($\lambda_1 = 6680\text{\AA}$) ko'rindi. Shu burchak bilan undan yuqori tartibdagagi ko'k geliy chizig'i ($\lambda_2 = 4470\text{\AA}$) ham ko'rinishi payqalgan bo'lsa, difraksion panjara doimiysi nimaga teng? Mazkur panjara yordamida kuzatish mumkin bo'lgan eng katta spektr tartibi 5 ga teng. Yorug'lik panjaraga normal tushadi.

Berilgan: $\varphi = 20^\circ$, $\lambda_1 = 668 \text{ nm}$, $\lambda_2 = 447 \text{ nm}$ $k = 5$

Topish kerak: $d = ?$

Yechilishi: 6 - formulaga ko'ra panjaraga hosil bo'lgan spektr vaziyati quyidagicha: Qizil spektr uchun $d \sin \varphi = k_1 \lambda_1$. Ko'k spektr uchun $d \sin \varphi = k_2 \lambda_2$.

Ushbu tenglamalarni birgalikda yechilsa: $\frac{k_2}{k_1} = \frac{\lambda_q}{\lambda_k} = \frac{668}{447} = 1.5$. Spektr tartibi k - butun son bo'lganligi uchun k ni eng katta qiymati 5 bo'lgani uchun $k_1 = 2$ va $k_2 = 3$ deyish mumkin. U holda: $d \sin \varphi = k_1 \lambda_q$ dan $d = \frac{k_1 \lambda_q}{\sin \varphi} = 4 \cdot 10^{-6} m$.

Javob: $d = 4 \cdot 10^{-6} m$. Ushbu natijani keyingi $d \sin \varphi = k_2 \lambda_q$ tenglamadan ham olish


mumkin. Shu o'rinda $\sin 20^\circ = 0.342$ ekanligini aytib o'tamiz.

6. Birinchi tartibli spektrda $\lambda = 5890 \text{ \AA}$ uchun difraksion panjara burchak dispersiyasi aniqlansin (17.2-rasm). Difraksion panjara doimiysi $2.5 \cdot 10^{-4} \text{ sm}^{-1}$ ga teng.

Berilgan $d = 2.5 \cdot 10^{-6} m$,
 $d = 589 \cdot 10^{-9} m$, $k = 1$.

Topish kerak: $\frac{d\varphi}{d\lambda} = ?$

Yechilishi: $d \sin \varphi = k\lambda$ bundan $\sin \varphi = \frac{k\lambda}{d} = 0.236$ va $\varphi = 13^\circ 5'$. Ikkinchidan yuqoridagi tenglamani differentialsallash orqali quyidagicha olamiz: $d \cos \varphi d\varphi = k d\lambda$, bundan $\frac{d\varphi}{d\lambda} = \frac{k}{d \cos \varphi}$. $\varphi = 13^\circ 5'$ bo'lgani uchun $\cos \varphi = 0.972$ va masala shartiga ko'ra $\frac{d\varphi}{d\lambda} = 4.1 \cdot 10^5 \text{ rad/m}$. Javob: $4.1 \cdot 10^5 \text{ rad/m}$.



17.2-rasm

Mustaqil yechish uchun masalalar

- Ikkita kogerent yorug'lik manbai orasidagi masofa $l = 0.24 \text{ mm}$ bo'lib ekrandan $b = 2.5 \text{ m}$ uzoqlikda joylashgan va ekranda yorug', qorong'u polosalar hosil qilgan. Polosalar har 5 sm da 10.5 tadan joylashgan bo'lsa, ekranga tushayotgan yorug'lik to'lqin uzunligini aniqlang ($\lambda = 457 \text{ nm}$).
- Ikkita monoxromatik yorig'lik manbaidan kuzatilayotgan intenferension manzarada ekranda 4 sm masofada 8.5 polosa kuzatilmoqda. Ekrandan yoruglik manbalarigacha masofa $b = 2.75 \text{ m}$ ekanligini bilgan holda, manbalar orasidagi masofani toping ($l = 0.3 \text{ mm}$).

3. Yung tajribasida to'lqin uzunligi $\lambda = 6 \cdot 10^{-5} \text{ sm}$ bo'lgan monoxromatik yorug'lik bilan yoritilgan teshiklar o'rtasidagi masofa 1 mm va teshiklar o'rtasidaqi masofa 1 mm va teshikdan ekrangacha masofa 3 m Uchta birinchi yorug' yo'llarning vaziyatini toping ($y_1 = 1.8 \text{ mm}$, $y_2 = 3.6 \text{ mm}$, $y_3 = 5.4 \text{ mm}$).
4. Frenel ko'zgulari bilan qilingan tajribada yorug'lik manbaining mavhum tasvirlari o'rtasidagi masofa 0.5 mm ga, ekrangacha masofa 5 m ga teng bo'lgan. Yashil yorug'likda bir-birlaridan 5 mm masofada intenferensiya yo'llari hosil bo'lgan. Yashil yorug'likning to'lqin uzunligi topilsin ($\lambda = 5 \cdot 10^{-7} \text{ m}$).
5. Yung tajribasida yupqa shisha plastinka intenferensiyalanayotgan nurlardan birining yo'liga joylashtirilgan, shu sababli markaziy yorug' yo'l (markaziy yo'l hisobga olinmaganda) dastlabki beshinchchi yorug' yo'l egallagan vaziyatga siljigan. Nur plastinkaga perpendikulyar tushadi. Plastinkaning sindirish ko'rsatkichi 1.5 . To'lqin uzunligi $6 \cdot 10^{-5} \text{ sm}$. Plastinkaning qalinligi qancha?

$$(h = \frac{k\lambda}{n-1} = 6 \cdot 10^{-6} \text{ m}).$$
6. Vertikal joylashgan sovun pardasi suyuqlikning oqishi tufayli pona hosil qiladi. Simob yoyining ($\lambda = 5461 \text{ \AA}$) qaytgan yorug'likdagi intenferensiya yo'llarini kuzatar ekanmiz, beshta yo'l o'rtasidagi masofa 2 sm ga barobar ekanini topamiz. Pona burchagi sekund hisobida topilsin, yorug'lik parda sirtiga perpendikulyar tushadi. Sovunli suvning sindirish ko'rsatkichini 1.33 ga teng deb oling.

$$(tg\alpha = \frac{k\lambda}{2nl} = 5.13 \cdot 10^{-5}, \alpha = 11^\circ).$$
7. Agar ikkinchi va yigirmanchi qorong'i Nyuton halqalari o'rtasidagi masofa 4.8 mm bo'lsa, uchinchi va o'n oltinchi qorong'i halqalar o'rtasidagi masofa qanchaga teng? Kuzatish qaytgan yorug'likda olib borilmoqda (3.6 mm).
8. Nyuton halqalari kuzatiladigan qurilma to'lqin uzunligi 0.6 mkm bo'lgan normal tushayotgan monoxromatik yorug'lik bilan yoritilmoqda. Qaytgan yorug'likda to'rtinchi qorong'i halqa kuzatiladigan joydagি linza bilan shisha plastinka o'rtasidagi havo qatlaming qalinligi topilsin (1.2 mkm).
9. Oq yorug'lik dastasi $d = 0.40 \text{ mkm}$ qalinlikdagi shisha plastinkaga normal holda tushayotir. Shishaning sindirish ko'rsatkichi $n = 1.5$. Qaytgan dastada ko'zga ko'rnatadigan spektr ($4 \cdot 10^{-4} \text{ mm}$ dan $7 \cdot 10^{-4} \text{ mm}$

gacha) chegarasida yotuvchi qaysi yorug'li to'lqin uzunliklari kuchayadi? ($\lambda = 4.8 \cdot 10^{-7} m$).

10. Agar yorug'lik manbaidan to'lqin sirtigacha bo'lgan masofa masofa $1m$, to'lqin sirtidan kuzatish no'qtasigacha ham $1m$ va $\lambda = 5 \cdot 10^{-7} m$ bo'lsa, Frenelning birin-chi besh zonasi radiuslarini hisoblang.
 $r_1 = 0.5 mm$, $r_2 = 0.71 mm$, $r_3 = 0.86 mm$, $r_4 = 1.0 mm$, $r_5 = 1.12 mm$).
11. Yassi to'lqin uchun Frenelning birinchi besh zonasi radiuslari hisoblansin. To'lqin sirtdan kuzatish no'qtasigacha masofa $1m$. To'qin uzunligi $5 \cdot 10^{-7} m$ ($167 m$).
12. Eni $2 mkm$ tirkishdan to'lqin uzunligi $\lambda = 5890 \text{ \AA}$ monoxromatik yorug'lik normal tushadi. Yunalishlar bo'yicha yorug'lik minimumlari kuzatiladigan burchaklar topilsin.
 $(\varphi_1 = 17^{\circ}8'$, $\varphi_2 = 36^{\circ}5'$, $\varphi_3 = 62^{\circ}$).
13. Ikkinci tartibli spektrdagagi qizil chiziqli $\lambda = 7 \cdot 10^{-7} m$ ko'rmoq uchun ko'rish trubasini kollimator o'qiga 30° burchak bilan o'rnatishga to'g'ri kelsa, difraktsion panjara doimiysi nimaga teng? Mazkur panjara uzunligining $1 sm$ iga qancha shtrix chizilgan? Panjaraga yorug'lik tik tushadi $d \sin \varphi = k\lambda$, $k = 2$,

$$d = \frac{2\lambda}{\sin \varphi} = 2.8 \cdot 10^{-6} m$$
, $N_0 = \frac{1}{d}$, $N_0 = 357 \cdot 10^{-3} m$.
14. Birinchi tartibli spektrdagagi simobning yashil chizig'i ($\lambda = 5461 \text{ \AA}$) $19^{\circ}8'$ burchak bilan kuzatilayotgan bo'lsa, difraktsion panjaraning $1mm$ uzunligida necha shtrix bo'ladi? ($d \sin \varphi = k\lambda$, $N_0 = \frac{1}{d}$, $\frac{\sin \varphi}{N_0} = k\lambda$,

$$N_0 = \frac{\sin \varphi}{k\lambda} = 600 mm$$
).
15. Difraktsion panjaraga yorug'lik dastasi normal tushadi. Birinchi tartibli spektrdagagi natriy chizig'inining ($\lambda = 5890 \text{ \AA}$) difraktsiya burchagi $17^{\circ}8'$ ga teng ekanligi topilgan. Biror chiziqli ikkinchi tartibli spektrda $24^{\circ}12'$ ga teng difraktsiya burchagini beradi. Mazkur chiziqlarning to'lqin uzunligi va panjaraning $1mm$ dagi shtrixlar sonini toping


$$\lambda_2 = \frac{589 \cdot 10^{-9} \cdot 0.41}{2 \cdot 0.295} = 409 \cdot 10^{-9} m$$
, $N_0 = \frac{1}{d}$, $d = \frac{\lambda_1}{\sin \varphi_1}$, $N_0 = \frac{\sin \varphi_1}{\lambda_1} = 500 mm^{-1}$.
16. Difraksion panjara to'lqin uzunligi $\lambda = 590 nm$ bo'lgan monoxromatik yorug'lik bilan yoritilmoqda. Uchinchi tartibli spektr $10^{\circ}12'$, ikkinchi tartibli spektr $6^{\circ}12'$ burchak ostida kuzatilayotgan bo'lsa, yorug'lik to'lqin uzunligini aniqlang ($\lambda = 550 nm$).

17. Har bir millimetrida 75 ta shtrixi bo'lgan difraksion panjara to'lqin uzunligi $\lambda = 500 \text{ nm}$ bo'lgan monoxromatik yorug'lik bilan yoritilmoqda. Ekrandagi markaziy yorug' polosadan ikkinchi yorig' polosagacha masofa $h = 11.25 \text{ sm}$ bo'lsa, difraksion panjaradan ekrangacha masofani toping ($l = \frac{hd}{k\lambda} = 1.5 \text{ m}$).
18. Har bir millimetrida 400 shtrixi bo'lgan difraksion panjaraga yorug'lik nuri tik tushmoqda. Difraksion panjara va ekran oralig'i $l = 25 \text{ sm}$. Nolinchi maksimumdan uchinchi tartibli maksimumgacha masofa $h = 27.4 \text{ sm}$ bo'lsa, yorug'lik to'lqin uzunligini aniqlang ($\lambda = 400 \text{ nm}$).
19. Difraksion panjaraga tik tushayotgam monoxromatik yoruglik niring to'lqin uzunligi $\lambda = 627 \text{ nm}$ ga teng bo'lib, markaziy va birinchi polosalar oralig'i $h = 39.6 \text{ sm}$. Ekran va difraksion panjara oralig'i $l = 120 \text{ sm}$ ekanligini bilgan holda difraksion panjara doimiysining qiymatini hisoblang ($d = 2 \text{ mkm}$).
20. Difraktsion panjaraga razryad trubkasidan yorug'lik dastasi normal tushadi. $\varphi = 41^\circ$ yo'nalishda $\lambda_1 = 6563 \text{ \AA}^0$ va $\lambda_2 = 4102 \text{ \AA}^0$ ikki spektr chizig'i bir to'g'ri chiziqdida yotishi uchun difraktsion panjara doimiysi nimaga teng bo'lishi kerak? ($d = \frac{k_1 \lambda_1}{\sin \varphi} = \frac{5 \cdot 6563 \cdot 10^{-10}}{0.656} = 5 \cdot 10^{-4}$).
21. Difraktsion panjaraga yorug'lik dastasi normal tushadi. Gonnometrni biror φ burchakka burganda $\lambda = 4.4 \cdot 10^{-4} \text{ mm}$ chizig'i uchinchi tartibli spektrda ko'zga chalinadi. Ko'rindigan spektr sohasida ($4 \cdot 10^{-4}$ dan $7 \cdot 10^{-4} \text{ mm}$ gacha) yotuvchi to'lqin uzunliklariga mos keluvchi biron boshqa xil spektral chiziqlar shu φ burchak bilan ko'rindimi ($\lambda_2 = \frac{3}{2} \lambda_1 = 660 \text{ nm}$).
22. Geliy bilan to'ldirilgan razryad trubkasi (4-rasm) dan yorug'lik dastasi difraktsion panjaraga normal tushadi. Ikkinci tartibli spektrdagagi geliy chizig'i ($\lambda = 6.7 \cdot 10^{-5} \text{ sm}$) uchinchi tartibli spektrdagagi qaysi chiziq ustiga tushadi? ($d \sin \varphi = 2\lambda_1$, $d \sin \varphi = 3\lambda_2$, $\lambda_2 = \frac{2}{3} \lambda_1 = 447 \text{ nm}$).
23. Difraktsion panjaraga monoxromatik yorug'lik dastasi normal tushadi. Uchinchi tartibli maksimum normalga $30^\circ 48'$ burchak bilan kuzatiladi. Tushayotgan yorug'lik to'lqin uzunliklarida ifodalangan panjara doimiysini toping ($d \sin \varphi = 3\lambda$, $\frac{d}{\lambda} = \frac{3}{\sin \varphi} = 5$, $d = 5\lambda$).

24. Birinchi tartibli spektrdagи $\lambda = 6680\text{Å}^0$ uchun difraktsion panjara burchak dispersiyasi $2.02 \cdot 10^5 \text{ rad/m}$. Difraktsion panjara davrini toping ($d = \sqrt{\frac{1}{(d\varphi/d\lambda)^2} + \lambda^2} = 5 \cdot 10^{-6} \text{ m}$).

25. Agar spektrni ekranga proyeksiyalovchi linzaning fokus masofasi 40cm bo'lsa, oldingi masaladagi difraktsion panjaraning chiziqli dispersiyasini toping ($D = 81\text{mkm}/(\text{H} \cdot \text{m})$).

§18. Fotoeffekt



- Yorug'lik kvanti yoki foton energiyasi

$$\varepsilon = h\nu \quad (1)$$

bunda: ν - tebranish chastotasi, $h = 6.626 \cdot 10^{-34} \text{ J} \cdot \text{s}$ - Plank doimiysi

- Fotonning massasi

$$m_f = \frac{h\nu}{c^2} = \frac{h}{c\lambda_s} \quad (2)$$

- Fotonning impulsi

$$k_f = \frac{h\nu}{c} = m_f c = \frac{h}{\lambda} \quad (3)$$


- Fotoeffekt hodisasi uchun Eynshteyn tenglamasi

$$h\nu = A_{ch} + \frac{m_e g_e^2}{2} \quad (4)$$

bunda A_{ch} – elektronning moddadon chiqish ishi (18.1-rasm), m_e – elektron massasi, g_e – elektron tezligi bo'lib, agar $g_e = 0$ bo'lsa u holda

$$h\nu_0 = A_{ch} \quad (5)$$

bunda ν_0 – fotoeffektning qizil chegarasi deyiladi.



18.1-rasm

Masalalar yechish namunalari

1. Fotonga muvofiq keladigan to'lqin uzunlik 0.016\AA^0 bo'lsa, uning energiyasi, massasi va harakat miqdorini toping.

Berilgan: $\lambda = 1.6 \cdot 10^{-12} \text{ m}$

Topish kerak: $\varepsilon_\varphi = ?$ $m_\varphi = ?$ $p_\varphi = ?$

Yechilishi: Foton energiyasi (1) ga ko'ra $\varepsilon = h\nu$, bunda $\nu = \frac{c}{\lambda}$ - tebranish chastotasi bo'lib $\varepsilon = h \frac{c}{\lambda} = 1.1 \cdot 10^{-13} \text{ J}$. (2) Formuladan esa foton massasini hisoblaymiz: $m_\varphi = \frac{h}{\lambda c} = 1.4 \cdot 10^{-30} \text{ kg}$. (3) Formuladan esa foton impulsini hisoblaymiz: $k_\varphi = m_\varphi c = 4.2 \cdot 10^{-22} \text{ kg} \cdot \text{m/c}$.

2. Elektronning kinetik energiyasi to'lqin uzunligi $\lambda = 5200\text{\AA}^0$ bo'lgan fotonning harakat miqdoriga teng bo'lishi uchun u qanday tezlik bilan harakat qilishi kerak?

Berilgan: $\lambda = 520 \cdot 10^{-9} \text{ m}$

Topish kerak: $\vartheta - ?$

Yechilishi: Harakatlanayotgan elektronning kinetik energiyasi $E_k = \frac{m_e \vartheta_e^2}{2}$.

Masala shartiga ko'ra $E_k = \varepsilon$ bo'lishi uchun $\frac{m_e \vartheta_e^2}{2} = h \frac{c}{\lambda}$ bundan

$$\vartheta = \sqrt{\frac{2hc}{\lambda m_e}} = 9 \cdot 10^5 \text{ m/c}.$$

3. Litiy uchun fotoeffektning qizil chegarasini toping.

Berilgan: $A_{ch} = 2.4 \text{ eV} = 2.4 \cdot 1.6 \cdot 10^{-19} \text{ J} = 3.84 \cdot 10^{-19} \text{ J}$, $c = 3 \cdot 10^8 \text{ m/c}$,

$$h = 6.626 \cdot 10^{-34} \text{ J}$$

Topish kerak: $\lambda_0 = ?$

Yechilishi: Fotoeffektning qizil chegarasi uchun (5) formulaga ko'ra quyidagiga egamiz: $A_{ch} = h \frac{c}{\lambda_0}$ shundan $\lambda_0 = \frac{hc}{A_{ch}} = 5.2 \cdot 10^{-7} m$. Javob: $\lambda_0 = 5.2 \cdot 10^{-7} m$.

4. Natriy sirtidan uchib chiqqan elektronlarning tezligi va kinetik energiyasini hisoblang. Chiqish ishi $A_{ch} = 2.28 eV$, $\lambda = 410 nm$.

Berilgan: $A_{ch} = 2.28 eV$, $\lambda = 410 nm$,

Topish kerak: $\vartheta - ?, E_k - ?$

Yechilishi: Fotoeffektda kinetik energiya uchun $E_k = h\nu - A$ (*) formula o'rini. $h\nu = \frac{hc}{\lambda} = 3.03 eV$. (*) formulaga muvofiq kinetik energiya $E_k = 0.75 eV$. $E_k = \frac{m\vartheta_{max}^2}{2}$ dan $m = 9.1 \times 10^{-31} kg$ ekanligini hisobga olsak, $\vartheta_{max} = \sqrt{\frac{2E_k}{m}} = 5.1 \cdot 10^5 m/s$ kelib chiqadi. Demak uchib chiqqan elektronlar tezligi metal ichidagi tezligidan katta ekan.


5. $\lambda = 0.140 nm$ to'lqin uzunligiga ega rentgen nurlari yupqa uglerod qatlamida sochilmoxda. Rentgen nurlarining 0° , 90° , 180° gradus burchakda sochilgandagi to'lqin uzunligini hisoblang (18.2-rasm).

Berilgan: $\lambda = 0.140 nm$, $\alpha = 0^\circ, 90^\circ, 180^\circ$

Topish kerak: $\lambda' - ?$

Yechilishi: Kompton effekti $\lambda' = \lambda + \frac{h}{mc}(1 - \cos\phi)$ formulasiga ko'ra 0° uchun $\lambda' = \lambda = 0.140 nm$, 90° uchun $\lambda' = \lambda + \frac{h}{mc} = 0.140 nm + 2.4 \cdot 10^{-12} m = 0.1424 nm$. 180° uchun $\lambda' = \lambda + 2 \frac{h}{mc} = 0.140 nm + 2(0.0024) nm = 0.145 nm$.

Demak, burchak ortsa (0° dan 180° gacha) to'lqin uzunligi ham ortar ekan.



18.2-rasm


Mustaqil yechish uchun masalalar

- Qizil yorug'lik nurlari ($\lambda = 7 \cdot 10^{-5} sm$), 2) rentgen nurlari ($\lambda = 0,25 \text{ } \overset{\circ}{A}$) va 3) gamma nurlari ($\lambda = 1.24 \cdot 10^{-3} \text{ } \overset{\circ}{A}$) fotonining massasini toping (1) $m = 3.2 \cdot 10^{-36} kg$ 2) $m = 8.8 \cdot 10^{-32} kg$ 3) $m = 1.8 \cdot 10^{-30} kg$).
- Elektronning harakat miqdori to'lqin uzunligi $\lambda = 5200 \text{ } \overset{\circ}{A}$ bo'lgan fotonning

3. harakat miqdoriga teng bo`lgani uchun u qanday tezlik bilan harakat qilishi kerak? ($\varrho = 1.4 \cdot 10^3 \text{ m/s}$).
4. Foton massasi tinch turgan elektron massasiga teng bo`lishi uchun uning energiyasi qancha bo`lishi kerak? ($E = 81 \cdot 10^{-15} \text{ J}$, $E = 510 \cdot 10^3 \text{ eV}$).
5. Monoxramatik fotonlar dastasini $t = 0.5 \text{ min}$ vaqt ichida $S = 2 \text{ sm}^2$ maydon ichida olib o`tadigan harakat miqdori $p_f = 3 \cdot 10^{-4} \text{ g} \cdot \text{sm/s}$. Bu dasta uchun maydon birligiga vaqt birligida tushadigan energiyasini toping ($E_1 = 150 \text{ J/(s} \cdot \text{m}^2\text{)}$).
6. Ikki atomli gaz molekulاسining kinetik energiyasi qanday temperaturada to'lqin uzunligi $\lambda = 5,89 \cdot 10^{-4} \text{ mm}$ bo`lgan foton energiyasiga baravar bo`ladi? ($T = 9800 \text{ K}$).
7. Yuqori energiyalarda rentgen va gamma nurlanish dozalarini rentgen bilan o`lchash uchun sharoit vujutga keltirish qiyin bo`lganidan, GOET 8848-63 da kvantlar energiyasi 3 MeVgacha bo`lgan nurlanishlar uchun rentgenda doza birligi sifatida foydalanishga yo`l qo`yadi. Rentgen nurlanishning qanday chegaradagi to'lqin uzunligiga rentgen o`lchov birligini qo`llash mumkinligini aniqlang. ($\lambda = \frac{hc}{E} = 0.41 \cdot 10^{-12} \text{ m}$).
8. Harakat miqdori 20°C temperaturadagi vodorod molekulасining xarakat miqdoriga teng bo`lgan foton massasini toping. Molekula tezligini o`rtacha kvadratik tezlikka teng deb hisoblang. ($m_1 = 2.1 \cdot 10^{-32} \text{ kg}$).
9. Muayyan metall uchun fotoeffektning qizil chegarasi $\lambda = 2750 \text{ \AA}^0$. Fotoeffektni vujudga keltiruvchi foton energiyasining minimal qiymati nimaga teng? ($E_{min} = 4.5 \text{ eV}$).
10. Metall sirtidan $U = 3 \text{ V}$ teskari potensial bilan butunlay ushlanadigan elektronlarni ajratuvchi yorug'likning chastotasi topilsin. Mazkur metallning fotoeffekti tushayotgan yorug'lik chastotasi $6 \cdot 10^{14} \text{ s}^{-1}$ bo`lganda boshlanadi. Bu metalldan elektron chiqayotganda bajariladigan ishni toping ($v = \frac{A + eU}{h} = 13.2 \cdot 10^{14} \text{ Hz}$).
11. Kaliy to'lqin uzunligi 3300 \AA^0 bo`lgan yorug'lik bilan yoritilganida chiqadigan fotoelektronlar uchun tutuvchi potensial kattalikni toping ($h\nu = A + eU$, $h \frac{c}{\lambda} = A - eU$, $A = 2eB = 3.2 \cdot 10^{-19} \text{ J}$, $U = \frac{hc/\lambda - A}{e} = 1.75 \text{ V}$, $U = 1.75 \text{ V}$).

12. Elektron-pozitron juftini qanday minimal energiya hosil qiladi? Hosil qilgan foton to'lqin uzunligi qancha bo'ladi? ($\lambda = \frac{hc}{E} = 1.2 \cdot 10^{-12} m$).
13. Seziy to'lqin uzunligi $\lambda = 400 nm$ bo'lgan binafsha nur bilan yoritilganda uning sirtidan uchib chiqqan elektronlarning kinetik energiyasi va tezligini toping. Seziydan elektronlarning chiqish ishi $A_{ch} = 1.7 \cdot 10^{-19} J$ ($W_k = 5 \cdot 10^{-19} J$, $\vartheta = 1.05 \cdot 10^6 m/s$).
14. Metal plastinkaga to'lqin uzunligi $\lambda = 400 nm$ bo'lgan nur tushganda uning sirtidan uchib chiqayotgan fotoelektronlar potensiallar ayirmasi $U = 1.5 V$ bo'lgan tormozlovchi elektr maydon bilan to'liq ushlangan bo'lsa, metaldan etronning chiqish ishi va qizil chegarasining uzunligini toping ($A = 2.57 \cdot 10^{-19} J = 1.6 eV$, $\lambda = 773 nm$).
15. To'lqin uzunligi $\lambda = 600 nm$ bo'lganbir jinsli yorug'lik dastasi metal plastinka sirtiga tik ravishda tushmoqda, agar plastinka yuzasiga $t_0 = 1 s$ da $n_0 = 6 \cdot 10^{13}$ ta yorug'lik fotoni tushsa, plastinkada $t = 1 soat$ davomida qancha issiqlik miqdori ajraladi? ($Q = n_0 \frac{t \cdot hc}{t_0 \cdot \lambda} = 7.16 \cdot 10^{-2} J$).
16. Chiqish ishi $A = 3.8 \cdot 10^{-19} J$ bo'lgan litiydan uchib chiqayotgan fotoelektronlarning maksimal kinetik energiyasi $W_k = 0.2 \cdot 10^{-19} J$ bo'lsa, fotoeffektni yuzaga keltiruvchi yorug'lik nurining to'lqin uzunligini toping ($\lambda = \frac{hc}{W_k + A} = 497 nm$).
17. Rubidiy to'lqin uzunligi $\lambda = 317 nm$ bo'yicha ultrabinafcha nurlar bilan yoritilganda undan uchib chiqayotgan fotoelektronlarning maksimal kinetik energiyasi $W_k = 1.84 \cdot 10^{-19} J$. Rubidiydan elektronning chiqish ishini va fotoeffektning qizil chegarasiga mos keluvchi to'lqin uzunligini toping ($A = 3.43 \cdot 10^{-19} J$, $\lambda_0 = 579 nm$).

§19. Atom fizikasi



- Atomning statsionar holati uchun quyidagilar o'rini:
Atom statsionar holatda bo'lganda o'zidan nur chiqarmaydi. Elektron statsionar holatda bo'lganda unga markazga intilma

kuchdan iborat bo'lgan Kulon kuchi ta'sir qiladi va bu kuch ta'sirida electron aylana bo'ylab harakatlanadi:

$$F = \frac{m_e \vartheta_k^2}{r_k} = \frac{1}{4\pi\epsilon_0} \frac{q_e^2}{r_k^2} = k \frac{e^2}{r_k^2} \quad (1)$$

bunda $m_e = 9,1 \cdot 10^{-31} \text{ kg}$ – elektronning massasi;

ϑ_k – elektronning k -inchi orbitadagi tezligi;

r_k – k -orbita radiusi;

$\epsilon_0 = 8,85 \cdot 10^{-12} \text{ F/m}$ – elektr doimiysi;

$e = q_k = 1,6 \cdot 10^{-19} \text{ C}$ – k -inchi orbitadagi elektronning zaryadi;

- Elektronlar yadro atrofida ma'lum statsionar orbitalarda aylanib, bu orbitalarga diskret energiyalar to'g'ri keladi.
- Borning ikkinchi postulati chastota qoidasi ham deyiladi va unga ko'ra elektron bir statsionar holatdan qo'shni statsionar holatga o'tganda atom o'zidan yorug'lik kvanti $h\nu$ ni chiqaradi yoki yutadi:

$$h\nu_{kn} = W_k - W_n \quad (3)$$

- Borning uchinchi postulitiga ko'ra elektron statsionar orbitada harakatlanganda uning orbital impuls momenti $m\vartheta_k r$ faqatgina $\hbar = \frac{h}{2\pi}$ ga karrali bo'ladi ya'ni:

$$m\vartheta_k r_k = k \frac{h}{2\pi} \quad (2)$$

bunda $h = 6,625 \cdot 10^{-34} \text{ J} \cdot \text{s}$ – Plank doimiysi, $\hbar = \frac{h}{2\pi} = 1,02 \cdot 10^{-34} \text{ J} \cdot \text{s}$.

Bor postulatalaridan quyidagi xulosalar kelib chiqadi:

1) k -inchi orbita radiusi

$$r_k = k^2 \frac{h^2 \epsilon_0}{\pi m_e e^2} \quad (4)$$

2) k -inchi orbitada harakatlanayotgan elektronning tezligi:

$$\vartheta_k = k \frac{e^4}{2h\epsilon_0} \frac{1}{k} \quad (5)$$

3) Vodorod atomi uchun $k=1$ bo'lganda $r_k = 0,53 \cdot 10^{-10} \text{ m}$ potensial va to'liq energiyalari quyidagicha:

$$W_k = \frac{m\vartheta_k^2}{2} = \frac{1}{k^2} \frac{me^4}{8h^2\epsilon_0^2}, \quad W_n = \frac{1}{4\pi\epsilon_0} \frac{q(-q)}{rk} = -\frac{2}{n^2} \frac{me^4}{qh^2\epsilon_0^2} \quad (6)$$

$$W_t = W_k + W_n$$


4) Vodorod atomi uchun spektral seriyalarning chastotasi quyidagichga:

$$\nu_{kn} = \frac{me^4}{8h^2\epsilon_0^2c} \left(\frac{1}{n^2} - \frac{1}{k^2} \right) = R c \left(\frac{1}{n^2} - \frac{1}{k^2} \right) \quad (7)$$

bunda $R = \frac{me^4}{8h^2\epsilon_0^2c} = 1.097 \cdot 10^7 \frac{1}{m}$ – Ridberg doimiysi. c – yorug'lik tezligi.

5) To'lqin soni esa:

$$\frac{1}{\lambda} = \frac{\nu_{kn}}{c} = R \left(\frac{1}{n^2} - \frac{1}{k^2} \right)$$




19.1-rasm. Rezerford tajribasining sxematik ko'rinishi

Masala yechish namunalari

1. Vodorod atomidagi birinchi uchta bor elektron orbitalarining radiuslari va ulardagi elektron tezligini toping.

Yechilishi: (4)-formulaga ko'ra $r_k = k^2 \frac{h^2 \epsilon_0}{\pi m_e e^2}$,

(5)-formulaga ko'ra esa $\vartheta_k = k \frac{e^4}{2h\epsilon_0} \frac{1}{k}$ (19.2-rasm). Javobni jadval ko'rinishida quyidagicha yozish mumkin:



19.2-rasm

	1	2	3
ϑ	2.18	1.08	0.73
r	52.9	216.6	476.1

2. Spektrning ko'rinaradigan sohasidagi vodorod spiral chiziqlarining eng katta va eng kichik to'lqin uzunliklarini toping.

Yechilishi: Barcha seriyalardagi vodorod spektral chiziqlarining to'lqin uzunligi quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$\frac{1}{\lambda} = \frac{v_{kn}}{c} = R \left(\frac{1}{n^2} - \frac{1}{k^2} \right)$$

$k=1, n=2,3,4, \dots$ bo'lganda ultrabinafsha sohasidagi Layman seriyasi;

$k=2, n=3,4,5, \dots$ bo'lganda ko'rinaradigan sohadagi Balmer seriyasi;


$k=3, n=4,5,6, \dots$ bo'lganda infraqizil sohadagi Paschen seriyasi;

$k=4, n=5,6,7, \dots$ bo'lganda infraqizil sohadagi Brekhet seriyasi;

$k=5, n=6,7,8, \dots$ bo'lganda infraqizil sohadagi Pfund seriyasi.

Pavshanki, shu seriyadagi spektral chiziqlarning eng kichik to'lqin uzunligi $n=\infty$ da bo'ladi. Unda formuladan $\frac{1}{\lambda_1} = \frac{R}{4}$ yoki $\lambda_1 = \frac{4}{R} = 3.65 \cdot 10^{-7} m$, eng katta to'lqin uzunlik esa $n=3$ ga muvofiq keladi: $\lambda_2 = 6.56 \cdot 10^{-7} m$. Shunday qilib, vodorodning ko'zga ko'rinaradigan spektri $\lambda_1 = 3650 \text{ \AA}$ dan $\lambda_2 = 6560 \text{ \AA}$ gacha to'lqin uzunligida yotadi.

3. 19.3-rasmdaga birinchi Layman seriyasida $n=2$ holatdan $n=1$ holatga o'tish tasvirlangan. Ushbu o'tishdagi nurlangan to'lqin uzunligini aniqlang.



19.3-rasm

Yechilishi: Plank formulasi $h\nu = E_u - E_f$ dan foydalanamiz. $h\nu = E_2 - E_1 = 10.2\text{eV} = 1.63 \cdot 10^{-18}\text{J}$. $\lambda = \frac{c}{\nu}$ formuladan to'lqin uzunligini hisoblaymiz, $\lambda = \frac{c}{\nu} = \frac{hc}{E_2 - E_1} = 1.22 \cdot 10^{-7}\text{m}$ -to'lqin uzunligiga ega bo'lgan ultrabinafsha nurga to'g'ri keladi.


Mustaqil yechish uchun masalalar

1. Birinchi bor orbitasidagi elektronning kinetik, potensial va to`la energiyasi son qiymatini toping ($W_k = \frac{me^4}{8e_0^2 h^2 k^2} = 13.6\text{eV}$, $W_0 = -2W_k = -27.2\text{eV}$, $W_{ro`la} = W_k + W_n = -13.6\text{eV}$).
2. 1) Birinchi bor orbitasidagi vodorod atomi elektronning aylanish davri; 2) uning burchak tezligini toping (1) $T = 1.43 \cdot 10^{-16}\text{s}$; 2) $\omega = 4.4 \cdot 10^{16}\text{rad/s}$.
 - 1) Vodorod spektorining ultura binafsha seriyasidagi eng katta to'lqin uzunligini toping,
 - 2) elektron urulishidan vodorod atomlari g`alayonlanishida chiziq paydo bo`lishi uchun qanday eng kichik tezlikka ega bo`lishi kerak? (1) $\lambda = 1.21 \cdot 10^{-7}\text{m}$; 2) $\nu = 1.90 \cdot 10^4\text{m/s}$.
3. Vodorod atomidagi elektron yuqorigi statsionar orbitadan pastkisiga tushganda uning energiyasi $\Delta W = 1.892\text{eV}$ ga kamaygan bo`lsa, nurlanishning to'lqin uzunligini toping ($\lambda = \frac{hc}{\Delta W} = 65\text{nm}$).
4. Vodorod atomining dastlabki g`alayonlanish potensialini aniqlang. (10.2V).
5. Vodorod atomining ultrabinafsha Layman seriyasidagi minimal ($m=1, n=\infty$) to'lqin uzunligini toping ($\lambda = 91.2\text{nm}$).
6. Vodorod atomi normal ($n_1 = 1$) holatdan, bosh kvant soni $n_2 = 2$ bo'lgan o'yg'otilgan holatga o'tgan bo`lsa, atomning uyg'otish energiyasini toping ($W = 1.02\text{eV}$).
7. Vodorod atomidagi spektrining ko'rinaradigan sohasidagi eng kichik ($m=2, n=3$) nurlanish chastotasi $\nu = 4.6 \cdot 10^{14}\text{Hz}$ ga teng ekani ma'lum bo`lsa, Balmer formulasidan Ridberg doimiysini aniqlang ($R = 1.105 \cdot 10^7\text{m}^{-1}$).
8. Vodorod atomidagi elektron ikkinchi Bor orbitasidan birinchi Bor orbitasiga o'tganda atom energiyasining o'zgarishi $\Delta W = 1.63 \cdot 10^{-18}\text{J}$ bo`lsa Ridberg doimiysini aniqlang $R = 1.094 \cdot 10^7\text{m}^{-1}$.

9. 1834 yida I. Froungofer Quyosh spektrining ko'rinaladigan qismida vodorodning to'rtta ($\alpha, \beta, \gamma, \delta$) yutilish spektral chiziqlarini aniqlagan. Yutilish spektridagi eng katta to'lqin uzunligi $\lambda_a = 656nm$ (ya'ni $n=2$ da $m_a = 3$). Qolgan uchta ($m_\beta = 4, m_\gamma = 5, m_\delta = 6$) spektral chiziqning to'lqin uzunliklari $\lambda_\beta, \lambda_\gamma, \lambda_\delta$ ni aniqlang.
 $(\lambda_\beta = 486nm, \lambda_\gamma = 434nm, \lambda_\delta = 410nm)$.
- 10.1) Vodorod atomlari elektronlar urulishidan g`alayonlanishga vodorod spektri seriyalarining barcha chiziqlari paydo bo`lishi uchun bu elektronlar qancha eng kichik energiyaga (elektron-volt hisobida) ega bo`lishi kerak? (1) Vodorod spekti barcha seriyalarining hamma chiziqlari vodorod atomi ionlanganiga paydo bo`ladi. Bu elektronlar energiyasi $13.6eV$ ga yetganida sodir bo`ladi $v_{min} = \sqrt{\frac{2eU_1}{m}} = 2.2 \cdot 10^6 m/s$).
11. Vodorod atomlari elektronlar urulishidan g`alayonlanishida vodorod spektori bitta spektral chiziqqa ega bo`lishi uchun bombardimon qiluvchi elektronlarning energiyasi qanday chegarada bo`lishi kerak? (Atomning birinchi g`alayonlangan holatga o`tkazish uchun zarur bo`lagan energiya $W_1 = 10.2eV$ Atomni ikkinchi g`alayonlangan holatga o`tkazish uchun ($k=1, n=3$) zarur bo`lgan energiya $W_2 = 12.1eV$ ekanligini topish qiyin emas. Shunday qilib, bombardimon qiluvchi elektronlar energiyasi $10.2 < W < 12.1eV$ miqiyosida bo`lsa vodorod spektiri faqat bitta spektral chiziqqa ega bo`ladi).
12. Vodorod atomlari monoxramatik yorug`lik kvantlardan g`alayonlanishida uchta spektral chiziq kuzatilgan bo`lsa, bu yorug`likning to'lqin uzunliklari qanday chegarada yotishi kerak? ($973\overset{\circ}{A} < \lambda < 1026\overset{\circ}{A}$).
13. To'lqin uzunligi $\lambda = 4860\overset{\circ}{A}$ bo`lgan foton atomi nurlantirganida vodorod atomida elektronning kinetik enargiyasi qanchaga o`zgargan? ($2.56eV$).
14. Difraksion panjaraga atomlar vodorod to`lg`azilgan razryad turbasidan yorug`lik dastasi normal tushib turubdi. Panjara doimiysi $5 \cdot 10^{-4}$ sm. Bu panjara yordamida beshinchi tartib spektorda $41^\circ C$ burchak bilan kuzatiladigan spektral chiziq elektronning qanday o`tishiga muvofiq keladi? ($n=3$ dan $k=2$ o`tishga).
- 1) Bir karra ionlashgan geliy;
 - 2) ikki karra ionlashgan litiyning birinchi g`alayonlanish potensialini toping ($U = 40.8V; U = 91.8V$).

15.19.3-rasmdaga birinchi Balmer seriyasida $n=6$ holatdan $n=2$ holatga o'tish tasvirlangan. Ushbu o'tishdagi nurlangan to'lqin uzunligini aniqlang.

§20. Molekulyar fizika



- Ideal gaz holatini tavsiflovchi quyidagi tenglama Mendeleyev – Klaneyron tenglamasi deyiladi:

$$PV = \frac{m}{\mu} RT \quad (1)$$

Bunda: P - gaz bosimi, V – gazning hajmi, T – gazning absolyut temperaturasi bo'lib, $T = t + 273$ o'rinni .

t – Selsiy shkalasi $^{\circ}\text{C}$ bo'yicha olingan temperatura.

m – gazning massasi, μ - molar mass.

- $\frac{m}{\mu} = \nu$ - moddaning miqdori bo'lib $\nu = \frac{m}{\mu} = \frac{N}{N_A} = \frac{V}{V_0}$ o'rinni.

N – berilgan moddadagi molekula (yoki atom)lar soni.

$N_A = 6.025 \cdot 10^{23} \frac{1}{\text{mol}}$ – $\nu = 1 \text{ mol}$ bo'lgandagi molekula(yoki atom)lar soni-Avogadro soni deyiladi.

$V_0 = 22.4 \frac{\text{m}^3}{\text{kmol}}$ 1mol gazning normal sharoitdagi hajmi.


$R = 8.31 \frac{\text{J}}{\text{mol} \cdot \text{K}}$ - universal gaz doimiysi deyiladi.

$$P = \frac{2}{3} n \bar{W}_0 = \frac{2}{3} n \frac{m_0 \cdot \bar{v}^2}{2} = nRT \quad (2)$$

Bunda: n – hajm birligidagi molekulalar soni yoki molekulalar kontsentratsiyasi deyiladi va u uchun quyidagilar o'rinni:

$$n = \frac{N}{V} = \frac{N_A}{V_0} = \frac{N_A}{\mu} \frac{\text{m}}{\text{V}}$$

- Gaz molekulalarining idish devorlariga beradigan bosimini ifodalovchi quyidagi tenglama gazlar kinetik nazariyasining asosiy tenglamasi deyiladi (1-a va b-rasmlar):



20.1-rasm

- Gaz molekulasining ilgarilanma harakatining o'rtacha kinetik energiyasi:
- $$W_k = \frac{m\bar{g}^2}{2} = \frac{3}{2}kT$$
- ϑ_{kv} - gaz molekulasining o'rtacha kvadratik tezligi bo'lib u uchun quyidagi ifodalar o'rini:


$$\vartheta_{kv} = \sqrt{\frac{3RT}{\mu}} = \sqrt{\frac{3kT}{m_0}} \quad (3)$$

Bunda m_0 - bitta molekula massasi,


$k = \frac{R}{N_A} = 1.38 \cdot 10^{-23} \frac{J}{K}$ - Bolsman doimiysi

deyiladi. Shuni ham ta'kidlash lozimki, har qanday modda uchun: $T=273K$, $P=10^5 Pa$, $V_0 = 22.4 \cdot 10^{-2} m^3$ (1) Qiymatlar normal sharoitni belgilaydi.

- O'zgarmas massali gaz uchun izotermik ($T=const$) jarayonda Boyl-Mariot qonuni o'rini (20.2-rasm). $P_1V_1 = P_2V_2 = const \quad (4)$
- O'zgarmas massali gaz uchun izobarik ($P=const$) jarayonda Gey-Lyussak qonuni o'rini (20.3-rasm).



20.2-rasm




20.3-rasm

$$\frac{V_1}{T_1} = \frac{V_2}{T_2} = const \quad (5) \text{ yoki } V = V_0(1 + \alpha t) = \alpha V_0 T \quad (5')$$

- O'zgarmas massali gaz uchun izoxorik ($V=const$) jarayonda esa Sharl qonuni o'rini bo'ladi (20.4-rasm).

$$\frac{P_1}{T_1} = \frac{P_2}{T_2} = \text{const} \quad (6) \text{ yoki}$$

$$P = P_0(1 + \beta t) = \beta P_0 T \quad (6')$$



20.4-rasm

- O'zgarmas massali gaz uchun birlashgan gaz qonuni:(Klaneyron teng-lamasi).

$$\frac{P_1 V_1}{T_1} = \frac{P_2 V_2}{T_2} = \text{const} \quad (7) \text{ yoki} \quad \frac{PV}{T} = \text{const} \quad (7')$$

- Dalton qonuniga ko'ra gazlar aralashmasining bosimi har bir gaz hosil qilgan partsial bosimlarining yig'gindisiga teng:

$$P = P_1 + P_2 + \dots + P_n \quad (8)$$

Masala yechish namunalari:

- Sig'imi 12 litr bo'lgan ballonda $8.1 \cdot 10^6 \frac{N}{m^2}$ bosim va $17^\circ C$ temperaturada azot to'ldirilgan. Ballonda qancha azot bor?

Berilishi: $V = 12l = 12 \cdot 10^{-3} m^3$, $P = 8.1 \cdot 10^6 Pa$, $T = 273 + 17 = 290 K$,

$$M_{\text{azot}} = 28 \cdot 10^{-3} \frac{kg}{mol}$$

Topish kerak $m = ?$

Yechilishi:

Azotning massasini Mendeleyev-Klaneyron tenglamasidan toppish yoki (1) tenglamaga ko'ra $PV = \frac{m}{\mu} RT$ bunda $m = \frac{PV\mu}{RT}$ hisoblaymiz.

Javob: $m = 1.13 kg$.

- Agar $p = 200 mm simust$ bosimda vodorod molekulasingin o'rtacha kvadaristik tezligi $2400 m/s$ ga teng bo'lsa, bu sharoitda $1 sm^3$ hajmdagi vodorod molekulalarining sonini toping.

Berilishi: $P = 266.6 Pa$, $\vartheta_{kv} = 2.4 \cdot 10^3 \frac{m}{s}$. $\mu = 2 \cdot 10^{-3} \frac{kg}{mol}$

Topish kerak $n = ?$

Yechilishi:

(2) tenglamaga ko'ra: $P = nkT$, $k = \frac{R}{N_A}$ tengligidan: $P = n \frac{R}{N_A} T$ bundan

$n = \frac{PN_A}{RT}$ (a). Ikkinchchi tomondan (3) tenglamaga ko'ra $\vartheta_{kv} = \sqrt{\frac{3RT}{\mu}}$ ikki

tomonlama kvadratga ko'tarsak $\vartheta_{kv}^2 = \frac{3RT}{\mu}$ bundan $RT = \frac{\vartheta_{kv}^2 \mu}{3}$ (b). (b)

ga ko'ra (a) dan: $n = \frac{3PN_A}{g_{kV}^2 \mu}$ ushbu formula orqali hisoblasak $n = 4.2 \cdot 10^{24} m^3$ kelib chiqadi.

3. Binoni to'ldirib turgan qishdagi (7^0C) havoning og'irligi yozdag'i (37^0C) havoning og'irligidan necha marta katta? Bosim bir xil deb olinsin.

Berilishi: $t_1 = 7^0C \Rightarrow T = 273 + 7 = 280K$, $t_2 = 37^0C \Rightarrow T = 273 + 37 = 310K$

Topish kerak $\frac{S_1}{S_2} = ?$

Yechilishi: (1) tenglamaga ko'ra bиринчи holat uchun $\frac{PV_1}{T_1} = \frac{m}{\mu} R$, ikkinchi holat uchun esa: $\frac{PV_2}{T_2} = \frac{m}{\mu} R$ ushbu tenglamalarning o'ng tomonlari tengligi uchun va $P = const$ bo'lganligidan: $\frac{V_1}{T_1} = \frac{V_2}{T_2}$ (a) ushbu tenlamani (5) tenglama bilan Gey-Lyussak qonuni ham tasdiqlaydi.

(a) tenglamadan: $\frac{T_1}{T_2} = \frac{V_1}{V_2}$ va $V = \frac{m}{S}$ bo'lganligi uchun $\frac{T_1}{T_2} = \frac{\frac{S_1}{m}}{\frac{S_2}{m}} = \frac{S_1}{S_2}$ ushbu

tenglama orqali qidirilayotgan nisbatni hisoblaymiz. Javob: $\frac{S_1}{S_2} = 1.1$ marta.

4. Sig'imi $1m^3$ bo'lgan berk idishda 0.9 kg suv va 1.6 kg kislorod bor. 500^0C temperaturada suvning to'liq bug'ga aylanishi ma'lum bo'lsa, bu temperaturada idishdagi bosim nimaga teng?

Berilishi: $V = 1 m^3$, $m_1 = 1.6 \text{ kg}$, $m_2 = 0.9 \text{ kg}$, $t = 500^0C \Rightarrow T = 273 + 500 = 773K$.

Topish kerak $P = ?$

Yechilishi:

Dalton qonuniga ko'ra (8 – tenglama) $P = P_1 + P_2$ (a) bunda P_1 - kislorodning normal bosimi $\left(\mu_1 = 32 \cdot 10^{-3} \frac{kg}{mol}\right)$, P_2 - suv bug'ining

normal bosimi $\left(\mu_2 = 18 \cdot 10^{-3} \frac{kg}{mol}\right)$ bo'lib (1)ga ko'ra ular quyidagicha ifodalanadi: $P_1 = \frac{m_1 RT}{\mu_1 V}$, $P_2 = \frac{m_2 RT}{\mu_2 V}$ (b). (a) ga ko'ra (a) dan

$P = P_1 + P_2 = \frac{m_1 RT}{\mu_1 V} + \frac{m_2 RT}{\mu_2 V} = \frac{RT}{V} \left(\frac{m_1}{\mu_1} + \frac{m_2}{\mu_2} \right)$ hisoblasak $P = 640 \cdot 10^3 Pa$ kelib

chiqadi.

Mustaqil yechish uchun masalalar

1. 20°C temperaturada $750 \text{ mm sim ust. bosimda } 10 \text{ kg kislorod qanday hajmni egallaydi? } (V = 7.6 \cdot 10^{-3} \text{ m}^3).$
2. Og'zi mahkam berkitilgan shishadagi havoning 7°C temperaturada bosimi 1 atmosfera. Shisha isitilganda havo bosimi 1.3 atmosferaga yetganda tiqin otilgan. Shisha qanday temperaturagacha isitilganligi topilsin ($T = 364^{\circ}\text{K} = 91^{\circ}\text{C}$).
3. 6.4 kg kislorod sig'adigan ballon devori 20°C temperaturada 160 kg/sm^2 bosimga chidasa, uning eng kichik hajmi qanday bo'ladi? ($V = 3.1 \cdot 10^{-2} \text{ m}^3$).
4. Balandligi 5 m va polining yuzi 200 m^2 bo'lgan auditoriyadagi havoning massasi topilsin. Binonin temperaturasi 17°C , bosimi $750 \text{ mm sim. ust. ga teng.}$ (Bir kilomol havoning massasi 2.9 kg/mol deb olinsin) ($M = 1200 \text{ kg}$).
5. Gaz solingan 10 m^3 hajmli ballonda 17°C temperatura va $720 \text{ mm sim. ust. bosimda qancha miqdorda kilomol gaz bo'ladi? } (0.4 \text{ kmol}).$
6. 50°C temperaturada to`yingan suv bug`ining elastikligi $92.5 \text{ mm sim. ust. ga teng bo`lsa, bu bug`ning zichligi nimaga teng } (\rho = 0.083 \text{ kg/m}^3).$
7. 15°C temperaturada va $730 \text{ mm sim. ust. bosimidagi vodorodning zichligi topilsin } (p = 0.81 \text{ kg/m}^3).$
8. 10 g kislorod 10°C temperatura va 3 atmosfera bosimda turibdi. U o'zgarmas bosimda qizdirilgandan so'ng kengayib, 10 l hajmni egallaydi. Gazning 1) kengaygandan oldingi hajmi, 2) kengaygandan keyingi temperaturasi, 3) kengaygandan oldingi zichligi va 4) kengaygandan keyingi zichligini toping. $1) V_1 = \frac{MRT}{\mu p} = 2.4 \cdot 10^{-3} \text{ m}^3, 2) T = \frac{\mu p V_2}{MR} = 1170^{\circ}\text{K} 3) p_1 = \frac{\mu p}{RT_1} = 4.14 \text{ k/m}^2 \text{ n } 4) p_2 = \frac{\mu p}{RT_2} = 1 \text{ kg/m}^3.$
9. $V_1 = 3 \text{ litr}$ sig'imli A idishda $P_0 = 2 \text{ atm}$ bosimda gaz bor. $V_2 = 4 \text{ litr}$ sig'imli B idishda $P_0 = 1 \text{ atm}$ bosimda huddi o'shancha gaz bor. Ikkala idishda ham temperaturalar bir xil. Ikkala idish naycha bilan tutashtirilsa, gaz bosimi qanday bo'ladi? ($P = \frac{P_0 V_1 + P_0 V_2}{V_1 + V_2} = 1.4 \cdot 10^3 \text{ N/m}^2$).
10. 1 litr hajmli idish 6 g korbanad angidrid va 5 g azot bilan to`ldirilgan. 127°C temperaturada idishdagi umumiy bosim qanday? ($P = 4.5 \cdot 10^5 \text{ Pa}$).

11. Idishda $10^{\circ}C$ temperaturada va $10^6 Pa$ bosimda 14g azot va 9g vodorod bor. aralashma bir kilomolining massasi 2) idishning hajmini toping.
 $1) \mu = 4,6 \text{ kg/mol}$, $2) V = 11.7 \text{ l}$.
12. 10. Havo og`irligining 23.6% qismi kisloroddan, 76.4% qismi azotdan tashkil topgan deb hisoblab, havoning 750 mm sim. ust. bosimda va $13^{\circ}C$ haroratda zichligi topilsin. Bu sharoitda kislorot va azotning partsial bosimini toping $\rho = 1,2 \text{ kg/m}^3$, $P_1 = 0.236 \cdot 10^5 \text{ N/m}^2$, $P_2 = 0.764 \cdot 10^5 \text{ N/m}^2$.
13. 600 m/s tezlik bilan uchib ketayotgan azotning molekulasi idish devoriga normal ravishda urilib, undan tezligini yo`qotmasdan elastik qaytadi. Urilish vaqtida idish devorining olgan kuch impulsini toping ($5.6 \cdot 10^{-23} \text{ N} \cdot \text{s}$).
14. 4 litr sig`imli idishda 1g vodorod bor. Bu idishning xar 1 sm^3 hajmda qancha molekula bor? ($7.5 \cdot 10^{18}$).
15. Havoni bir kilomolining massasi 29 kg/kmol ga teng bo`lgan bir jinsli gaz deb hisoblab, $17^{\circ}C$ temperaturada havo molekulalarining o`rtacha kvadratik tezligini toping (500 m/s).
16. $20^{\circ}C$ temperaturada vodorod molekulasining harakat miqdori topilsin. Molekulaning tezligini o`rtacha kvadratik tezlikka teng deb hisoblang ($6.3 \cdot 10^{-24} \text{ kg} \cdot \text{m/s}$).
17. Havosi qisman so'rib olingan ikki uchi kavsharlangan uzunligi $L = 1 \text{ m}$ bo`lgan gorizontal holatdagi nayning o`rtasida $h = 20 \text{ sm}$ uzunlikdagi simob ustuni bor. Nay vertikal holatda bo`lganda uning ichidagi simob ustuni $l = 10 \text{ sm}$ pastga siljigan. Gorizontal holatda bo`lgan naydagi havoning bosimini toping ($P_1 = 50 \text{ kPa}$).
18. Hajmi 400 l bo`lgan ballonda $P_1 = 2 \text{ MPa}$ bosim ostida gaz bor. Bosim $P_2 = 1 \text{ MPa}$ gacha kamaygan bo`lsa, ballondan chiqarib yuborilgan gazning massasini toping. Normal sharoitda gazning zichligi $\rho_0 = 0.6 \text{ kg/m}^3$ ga teng. Jarayon izotermik deb hisoblang. ($\Delta m = 2.4 \text{ kg}$)
19. Silindrning porsheni ostida gaz bor. Porshenning og`irligi $P = 6 \text{ N}$, tubining yuzi $S = 20 \text{ sm}^2$, atmosfera bosimi esa $P_0 = 750 \text{ mm sim ust}$ ga teng. Silindrda gazning hajmini ikki marta kamaytirish $V_1/V_2 = 2$ uchun, porshenga qanday qo'shimcha kuch ta'sir etishi kerak? Jarayon izotermik deb hisoblang. ($F = 206 \text{ N}$)
20. Aerostat qobig'i gaz bilan oxirigacha to'ldirilmaydi. Aerostat ko'tarilgani sari atmosfera bosimi kamaya boradi va kengaya boradi. Agar aerostat qobig'i $V_0 = 500 \text{ m}^3$ geliy bilan $P_0 = 10^5 \text{ Pa}$ bosimda to'ldirilgan bo`lsa, qanday h balandlikka ko'tarilgandan keyin gaz

qobig'inining hajmi $V = 600m^3$ ga teng bo'lib qoladi? Har $\Delta h = 11 m$ ga ko'tarilganda atmosfera bosimi $\Delta P = 133Pa$ ga kamayadi. Harorati balandlikka bog'liq emas deb hisoblang ($h = 1.378 km$).

21. Gaz to'ldirilgan ballonga ulangan manometr $t = 17^\circ C$ haroratli xonada $P = 240kPa$ bosimni ko'rsatadi. Ballon tashqariga olib chiqilganda manometrning ko'rsatishi $\Delta P = 40kPa$ ga kamaygan. Agar atmosfera bosimi $P_0 = 100kPa$ bo'lsa, tashqaridagi havoning haroratini toping.

$$(T_2 = T_1 \frac{P + P_0 - \Delta P}{P + P_0} = 256K).$$

22. Gaz to'ldirilgan balloon bo'yni kesimining yuzi $S = 2.5sm^2$ bo'lib, u og'irligi $P = 12N$ bo'lgan klapan bilan berkitilgan. Ballondagi havoning boshlang'ich bosimi va tashqi bosim bir xil bo'lib, $P_0 = 100kPa$, harorat esa $T_1 = -3^\circ C$ ga teng. Ballondagi havo klapani ochib chiqishi uchun uni qanday temperaturagacha qizdirish kerak?

$$(T_2 = T_1 \frac{P_0 + P/S}{P_0} = 400K).$$

23. Suv osti kemasining hajmi $V_1 = 40l$ bo'lgan sisternasida $P_1 = 15MPa$ bosim ostida siqilgan $t_1 = 27^\circ C$ haroratli havo bor. Shu sisternadan qancha hajmli suv sizib chiqishi mumkin? Kema $h = 20m$ chuqurlikda turibdi. Be yerda harorat $t_2 = 7^\circ C$ ga teng. Suvning zichligi $\rho = 1000kg/m^3$, atmosfera bosimi esa $p_0 = 100kPa$

$$(V = V_1 \left[\frac{P_0 T_2}{(p_0 + \rho g h) T_1} - 1 \right] = 1.85m^3).$$

24. Hajmi $V = 20l$ bo'lgan ballonda $t_1 = 27^\circ C$ hatorat va $p_1 = 7.5MPa$ bosim ostida siqilgan kislorod bor. Agar ballondagi gaz bilan payvandlash vaqtida ballondagi gazning harorati $t_2 = 27^\circ C$ gacha pasaygan va bosimi $P_2 = 5.9MPa$ ga teng bo'lsa, qancha massali kislorod sarflangan? Kislorodning normal sharoitdagি zichligi $\rho_0 = 1.43kg/m^3$,

$$(\Delta m = \rho_0 V_1 \frac{P_2 T_0}{P_0 T_2} \left(\frac{P_1 T_2}{P_2 T_1} - 1 \right) = 38.29g).$$

§21. Termodinamika



- Gaz molekulasining issiqlik harakati energiyasi (ichki energiya)

$$W = \frac{i}{2} \frac{m}{\mu} RT \quad (1)$$

Bunda i – molekulalarining erkinlik darajasi bo’lib, bir atomli gazlar uchun 3ga, va ikki atomli gazlar uchun 5 ga va 3 yoki undan ko’p atomli gazlar uchun 6ga teng.

Moddaning 1 mol miqdori temperaturasini $1 K$ ga oshirish uchun zarur bo’ladigan issiqlik miqdori molyar issiqlik sig’imi deyiladi va C harfi bilan belgilanadi:

$$C = \frac{\Delta Q}{v \cdot \Delta T} \quad (2)$$

Moddaning 1 kg miqdorini temperaturasini $1 K$ ga oshirish uchun kerak bo’ladigan issiqlik miqdori solishtirma issiqlik sig’imi deyiladi va c harfi bilan belgilanadi:

$$c = \frac{\Delta Q}{m \cdot \Delta t} \quad (3)$$

- Ular orasida quyidagicha bog’lanish mavjud:

$$C = \mu c \quad (4)$$

- Hajm o’zgarmaganda moddaning molyar issiqlik sig’imi:

$$C_v = \frac{i}{2} R \quad (5)$$

- Bosim o’zgarmaganda moddaning molyar issiqlik sig’imi esa:

$$C_p = C_v + R \quad (6)$$

Shu o’rinda, erkinlik darajasi i ga yuqoridagi qiymatlarni mos holda bir, ikki yoki ko’p atomli moddalar uchun qo’yib C_v va C_p molyar issiqlik sig’imlarining qiymatlarini hisoblash mumkin.

- Modda molekulasining o’rta arifmetik tezgligi va ehtimolligi eng yuqori bo’lgan tezgligi:

$$\bar{g} = \sqrt{\frac{8RT}{\pi\mu}}; g_e = \sqrt{\frac{2RT}{\mu}} \quad (7)$$

- Termodinamikasining birinchi qonuniga ko'ra tizimga berilgan issiqlik miqdori uning ichki energiyasini o'zgarishiga va tashqi kuchlarga qarshi ish bajarishga sarflanadi:

$$dQ = dW + dA \quad (8)$$

- Shu o'rinda tizim A ishni hajmini o'zgartirish uchun tashqi kuchlarga qarshi bajaradi. Shuning uchun:

$$A = \int_{V_1}^{V_2} PdV \quad (9)$$

(6) dagi dW – ichki energiyasini o'zgarishi esa

$$dW = \frac{i}{2} \frac{m}{\mu} RdT \quad (10)$$

- Adiabatik jarayonda gaz bosimi bilan uning hajmi orasidagi bo'glanishni ifodalovchi tenglama Piasson tenglamasi deyiladi:

$$PV^\gamma = const, TV^{\gamma-1} = const \quad (11)$$

bunda $\gamma = \frac{C_p}{C_v}$ - adiabata ko'rsatkichi deyiladi.

- Izobarik jarayonda bajarilgan ish: $A = P\Delta V = P(V_2 - V_1)$.
- Izotermik jarayonda bajarilgan ish: $A = RT \ln \frac{P_2}{P_1} = RT \ln \frac{V_2}{V_1}$.
- Adiabatik jarayonda bajarilgan ish: $A = \frac{P_1 V_1}{\gamma - 1} \left[1 - \left(\frac{V_1}{V_2} \right)^{\gamma-1} \right]$, yoki $A = \frac{m}{\mu} \frac{RT_1}{\gamma - 1} \left[1 - \left(\frac{V_1}{V_2} \right)^{\gamma-1} \right]$.
- Issiqlik foydali ish koeffitsienti

$$\eta = \frac{Q_1 - Q_2}{Q_1} \quad (12)$$

Bunda Q_1 – ishchi jismning isitgichdan olgan olgan issiqlik miqdori, Q_2 – sovutgichga berilgan issiqlik miqdori.

- Karlo siklining FIK :

$$\eta = \frac{T_1 - T_2}{T_1}, \text{ yoki } \eta = 1 - \frac{T_2}{T_1} \quad (13)$$

Bunda T_1 – isitgichning temperaturasi, T_2 – sovutgichning temperaturasi.

Masala yechish namunalari

1. $1.5 \cdot 10^5 N/m^2$ bosimda bo'lgan $2 l$ hajmli idishdagi ikki atomli gaz molekulalari issiqlik harakatinining energiyasi nimaga teng?

Berilgan: $V = 2l = 2 \cdot 10^{-3} m^3$, $P = 150 \cdot 10^3 Pa$

Topish kerak: $W = ?$

Yechilishi: Ushbu holatdagi gaz uchun Mendeleyev – Klaneyron tenglamasi:

$$PV = \frac{m}{\mu} RT \quad (\text{a}). \quad (1) \text{ formulaga ko'ra gazning ichki energiyasi } W = \frac{i}{2} \frac{m}{\mu} RT$$

(b). (a) ga ko'ra (b) dan: $W = \frac{i}{2} PV$. Ushbu tenglamadan qidirilayotgan kattalik hisoblanadi.

Javob : $W = 750 J$

1. 1) $V = \text{const}$ va 2) $P = \text{const}$ bo'lganda kislород solishtirma issiqlik sig'imi topilsin.

Kislород uchun a) $V = \text{const}$ va b) $P = \text{const}$ hol uchun solishtirma issiqlik sig'imi C ni topish kerak.

Yechilishi: (3) ga ko'ra $V = \text{const}$ hol uchun $C_v = \frac{i}{2} R$, bundan i=5 uchun

$$C_v = \frac{5}{2} \cdot 8.31 = 2.5 \cdot 8.31 = 20.8 \frac{J}{mol \cdot K}, \quad (1) \quad \text{ga ko'ra} \quad C = \mu c, \quad \text{yoki} \quad c = \frac{C}{\mu}$$

bo'lganligidan:

$$C_v = \frac{c_v}{\mu} = \frac{20.8}{32 \cdot 10^{-3}} = 650 \frac{J}{kg \cdot K}. \quad \text{Huddi shu usulda hisoblanadi:}$$

$$\text{a)} \quad C_p = C_v + R \quad \text{yoki} \quad C_p = \frac{C_v \mu + R}{\mu} = 910 \frac{J}{kg \cdot K}.$$

3. $300 mm sim ust$ bosimda zichligi $0.3 \frac{g}{l}$ bo'lgan gaz molekulalarining o'rtacha arifmetik, o'rtacha kavadratik va ehtimolligi eng katta tezliklari topilsin.

Berilishi : $P = 40 \cdot 10^3 Pa$, $\rho = 0.3 kg / m^3$.

Topish kerak: $\sqrt{\bar{g}^2} = \sqrt{\frac{3RT}{\mu}}$ (a). (5) tenglamaga ko'ra esa: $\bar{g} = \sqrt{\frac{8RT}{\pi\mu}}$,

$$g_{ii} = \sqrt{\frac{2RT}{\mu}} \quad (\text{b}). \quad \text{Ikkinchini tomonda holat tenglamasiga ko'ra} \quad PV = \frac{m}{\mu} RT \quad \text{dan}$$

$$\frac{RT}{\mu} = \frac{PV}{m} = \frac{P}{\frac{m}{V}}, \quad (\text{a}) \quad \text{va} \quad (\text{b}) \quad \text{tenglamalarga qo'llasak} \quad \sqrt{\bar{g}^2} = \sqrt{\frac{3P}{S}}, \quad \bar{g} = \sqrt{\frac{8P}{\pi S}},$$

$$g_{ii} = \sqrt{\frac{2P}{S}}$$

Ushbu tenglamalar orqali qidirilayotgan kattaliklarning son qiymatlari hisoblanadi. Javob : $\sqrt{\bar{g}^2} = 628 \text{ m/c}$, $\bar{g}_{ii} = 513 \text{ m/c}$, $\bar{g} = 580 \text{ m/c}$.

4. Temperaturasi 27°C bo'lgan 6.5 g vodorod $P = \text{const}$ bosimda tashqaridan berilayotgan issiqlik hisobiga ikki marta kengaygan. 1) Gazning kengayishi ishi, 2) gaz ichki energiyasining o'zgarishi, 3) gazga berilgan issiqlik miqdorini toping.

Berilishi : $m = 6.5 \cdot 10^{-3} \text{ kg}$, $T = 700 \text{ K}$, $V_2 = 2 \text{ V}$, $P = \text{const}$

Topish kerak $A = ?$, $\Delta W = ?$, $Q = ?$.

Yechilishi: Dastlab A ni quyidagicha topamiz: (7) ga ko'ra $dA = PdV$ yoki integrallasak, $A = \int_V^{2V} PdV = P(2V - V) = PV$. Holat tenglamasiga ko'ra

$$PV = \frac{m}{\mu} RT \quad A = \frac{m}{\mu} RT = \frac{6.5 \cdot 10^{-3}}{2 \cdot 10^{-3}} \cdot 8.31 \cdot 300 = 8.1 \text{ kJ}, \text{ endi ichki energiya o'zgarishi}$$

uchun (8) ga ko'ra quyidagini yozamiz: $\Delta W = \frac{i}{2} \frac{m}{\mu} R \Delta T$ (a). Bunda $i = 5$ ga

teng, va $P = \text{const}$ bo'lganligidan $\frac{V_1}{T_1} = \frac{V_2}{T_2}$ yoki $\frac{V_2}{T_1} = \frac{T_2}{T_1} = 2$ uchun $T_2 = 2T_1$ va

$$\Delta T = T_2 - T_1 = 2T_1 - T_1 = T_1 \quad \text{u holda (a) dan } \Delta W = \frac{5}{2} \frac{m}{\mu} RT_1.$$

Hisoblaymiz: $\Delta W = 2.5 \cdot \frac{6.5 \cdot 10^{-3}}{2 \cdot 10^{-3}} \cdot 8.31 \cdot 300 = 2.5 \cdot 8.1 \cdot 10^3 = 20.25 \text{ kJ}$ va nihoyat (6)

$$\text{ga ko'ra } Q = \Delta W + A = 20.25 \cdot 10^3 + 8.1 \cdot 10^3 = 28.35 \cdot 10^3 \text{ J}.$$

5. Karno sikli bo'yicha ishlaydigan ideal issiqlik mashinasi har bir siklda $7.35 \cdot 10^{-3} \text{ J}$ ish bajaradi. Isitgichning temperaturasi 100°C , sovitgichning temperaturasi 0°C . 1) Mashinaning FIK, 2) mashinaning bir siklda isitgichdan olgan issiqlik miqdori, 3) bir siklda sovitgichga bergen issiqlik miqdorini toping.

Berilishi : $A = 73.5 \cdot 10^3 \text{ J}$ $T_1 = 373 \text{ K}$, $T_2 = 273 \text{ K}$

Topish kerak $\eta = ?$, $Q_1 = ?$, $Q_2 = ?$

Yechilishi: (11) tenglamaga ko'ra quyidagicha yechamiz: $\eta = \frac{T_1 - T_2}{T_1}$

$$\text{bunda } \eta = \frac{373 - 273}{373} \cdot 100\% = 26.8\%. \quad \text{Ikkinchidan: } \eta = \frac{A}{Q_1},$$


$$Q_1 = \frac{A}{\eta} = \frac{73.5 \cdot 10^3}{0.268} = 274 \text{ kJ}. \quad Q_2 = Q_1 - A = 274 \cdot 10^3 - 73.5 \cdot 10^3 = 200 \text{ kJ}.$$

Mustaqil yechish uchun masalalar

1. 7°C temperaturada 1 kg dagi azot molekulalarining aylanma harakatining kinetik energiyasi nimaga teng? ($w_{ayl} = 8.3 \cdot 10^4 \text{ J}$).

2. $P = 8 \cdot 10^4 \text{ N/m}^2$ bosimda zichligi $\rho = 4 \text{ kg/m}^3$ bo`lgan 1 kg ikki atomli gaz bor. Bu sharoitda gaz molekulalari issiqlik harakatining energiyasini toping ($W = 5 \cdot 10^4 \text{ J}$).
3. Agar biror ikki atomli gazning normal sharoitda zichligi $1,43 \text{ kg/m}^3$ bo`lsa, bu gazning c_v va c_p solishtirma issiqlik sig`imlari nimaga teng? ($c_v = 650 \frac{\text{J}}{\text{kg} \cdot \text{K}}$, $c_p = 910 \frac{\text{J}}{\text{kg} \cdot \text{K}}$).
4. Agar biror gaz bir kilomolining massasi $\mu = 30 \frac{\text{kg}}{\text{kmol}}$ ga tengligi va uning uchun $\frac{c_p}{c_v} = 1.4$ nisbati ma'lum bo`lsa, gazning c_v va c_p solishtirma issiqlik sig`imini toping ($c_v = 693 \frac{\text{J}}{\text{kg} \cdot \text{K}}$, $c_p = 970 \frac{\text{J}}{\text{kg} \cdot \text{K}}$).
5. Massasi $m = 32 \text{ g}$ bo`lgan kislородning bosimini o'zgarmas hajmda $T_1 = 273 \text{ K}$ haroratdan boshlab uch marta orttirish uchun sistemaga berilgan issiqlik miqdori va ajargan ishni toping. Kislородning o'zgarmas hajmdagi solishtirma issiqlik sig`imi $c_v = 657 \frac{\text{J}}{\text{kg} \cdot \text{K}}$ ($Q_v = 11479 \text{ J}$, $A_v = 0$).
6. Normal sharoitda 2 l hajmli yopiq idishda m gramm azot va m gramm argon bor. Bu gaz aralashmasini 100° isitish uchun unga qancha issiqlik miqdori berish kerak? ($Q = 155 \text{ J}$).
7. Qanday temperaturada azot molekulalarining o`rtacha kvadratik tezligi ularning extimolligi eng katta tezligidan 50 m/s ga ortiq bo`ladi? ($T = 83 \text{ K}$).
8. Yopiq idishda 20 g azot va 32 g kislород bor. Bu gaz aralashmasini 28 K ga sovitilganda, uning ichki energiyasining o'zgarishini toping ($\Delta W = 1000 \text{ J}$).
9. 2 kmol karbonat angidrid gazi o'zgarmas bosimda 50 K isitilgan. 1) Gaz ichki energiyasining o'zgarishi 2) kengayganda bajarilgan ish 3) gazga berilgan issiqlik miqdorini toping ($\Delta W = 2500 \text{ kJ}$, $A = 830 \text{ kJ}$, $Q = 3300 \text{ kJ}$).
10. Hajmi $V_1 = 70 \text{ m}^3$ bo`lgan xonadagi havo $P = 100 \text{ kPa}$ o'zgarmas bosimda $T_1 = 280 \text{ K}$ dan $T_2 = 300 \text{ K}$ gacha isitilgan bo`lsa, havoning kengayishida bajarilgan ishni toping. ($A_p = pV_1(\frac{T_2}{T_1} - 1) = 500 \text{ kJ}$)

11. Massasi $m=14g$ bo'lgan azot $T=250K$ haroratli izotermik ravishda $p_2=1\text{ atm}$ bosimgacha kengayganda bajarilgan ish nimaga teng bo'ladi? ($A=\frac{m}{\mu}RT \ln \frac{P_1}{P_2} = 720J$).
12. Ikki atomli gazga 50 kal issiqlik berilganda, u o`zgarmas bosimda kengaygan. Gazning kengayishda bajargan ishini toping ($A=600J$).
13. $2\cdot10^5 N/m^2$ bosim ostida bo`lgan $17^\circ C$ temperaturali 5 litr hajmni egallagan gaz isitilganda izobarik ravishda kengaygan. Bunda gazning kengayish ishi $20\text{ kG}\cdot m$ ga teng bo`lgan. Gaz necha gradusga isitilgan? ($\Delta t=57^\circ$).
14. Ko`p atomli 1 kmol gaz erkin kengaya olish sharoitida $100^\circ C$ isitilgan. 1) Gazga berilgan issiqlik miqdori 2) gaz ichki energiyasining o`zgarishi 3)kengayishda bajarilgan ishni toping (1) $Q=3.32\cdot10^6 J$, 2) $\Delta W=2.49\cdot10^4 J$ 3) $A=8.31\cdot10^5 J$).
15. Ichki yonuv dvigatelining silindiridagi havo adiabatik siqiladi va bunda uning bosimi $P_1=1\text{ atm}$ dan $P_2=35\text{ atm}$ gacha o`zgaradi. Havoning boshlang`ich temperaturasi $40^\circ C$. Havoning siqilgandan keyingi temperurasini toping ($T=865K$).
16. Ideal issiqlik mashinasi Karko sikli bo'yicha ishlaydi. Agar bir siklda $300\text{ kG}\cdot m$ ga teng ish bajarilganligi va sovitkichga 3.2 kkal issiqlik berilgani ma'lum bo'lsa siklning FIK ni aniqlang. ($\eta=18\%$)
17. 21.1-rasmdan foydalanib Karko siklini tushintiring.




21.1-rasm

18. Ideal issiqlik mashinasi Karko sikli bo'yicha ishlaydi. Bunda isitkichdan olingan issiqlikning 80% i sovitkichga beriladi.

Isitkichdan olingan issiqlik miqdori 1.5 kkal ga teng. 1) Siklning *FIK*
2) To'la siklda bajarilgan ish topilsin. ($\eta = 20\%$ $A = 1.26 \cdot 10^3 J$)

19. $P = 10^6 Pa$ bosim ostida bo'lган $v = 10l$ hajmli havo ikki marta kengaytirilgan. Sistemaning kengayishi: a) izotermik; b) izobarik bo'lган jarayonlarda bajarilgan ishlarni va oxirgi bosimlarni toping. ($a) A_T = 702J$, $p_2 = 0.5 MPa$, $b) A_p = 1 kPa$, $p_2'' = 100 kPa$).
20. Karni sikli bo'yicha ishlovchi ideal issiqlik mashinasi isitkichdan olgan issiqlik miqdorining $\eta = 70\%$ inisovutkichga beradi. Agar isitkichning harorati $T_1 = 430K$ bo'lsa sovutkichning haroratini toping.
21. Karko sikli bo'yicha ishlovchi ideal issiqlik mashinasi isitkichning harorati $T_1 = 400K$, sovutkichniki esa, $T_2 = 300K$. Agar isitkichning harorati $\Delta T = 200K$ ga ko'tarilsa, siklning *FIK* i qanchaga oshadi? ($\frac{\eta_2}{\eta_1} = \frac{(T_1 - T_2 + \Delta T)T_1}{(T_1 - T_2)(T_1 + \Delta T)}$).
22. Teskari Karko sikli bo'yicha ishlaydigan ideal issiqlik mashinasi, xar bir siklda $3.7 \cdot 10^4 J$ ga teng ish bajaradi. Bunda mashina $-10^\circ C$ temperaturali jismdan issiqlik olib, $17^\circ C$ jismga issiqlik beradi. 1) Siklning *FIK* 2) bir siklda sovuq jismdan olingan issiqlik miqdori 3) bir siklda issiq jismga berilgan issiqlik miqdorini toping. (1) $\eta = 0.093$ 2) $Q_3 = 360J$ 3) $Q_1 = 397kJ$).
23. Ideal sovitish mashinasi teskari Karko sikli bo'yicha issiqlik nasosidek ishlaydi. Bunda mashina $2^\circ C$ temperaturali suvdan issiqlik oladi va uni $27^\circ C$ temperaturali xavoga beradi. 1) Biror vaqt oralig`ida xavoga berilgan issiqlik miqdorini shuncha vaqtda suvdan olingan isiqlik miqdoriga bo'lган nisbatidan iborat η_1 koeffitsiyent 2) biror vaqt oralig`ida suvdan olingan issiqlik miqdorini shuncha vaqt oralig`ida mashinaning ishlashi uchun sarflangan energiyaga bo'lган nisbatidan iborat η_2 koeffitsiyent (η_2 -mashinaning sovitish koeffitsiyenti deyiladi). 3) Biror vaqt oralig`ida mashinaning ishlashi uchun sarflangan energiyani shuncha vaqt xavoga berilgan issiqlik miqdoriga bo'lган nisbatidan iborat η_3 koeffitsiyent (η_3 siklning *FIK*) topilsin. Va *FIK* larning bog`lanishlarini toping ($\eta_1 = 1.09$, $\eta_2 = 11$, $\eta_3 = 0.083$).



§22. Yadro fizikasi

- Bog'lanish energiyasi

$$W = c^2 \Delta m \quad (1)$$

Bunda Δm yadroni tashkil qiluvchi zarralar massasi bilan yadroning o'znining massasi orasidagi farq bo'lib massa "defekti" deyiladi va u quyidagiga teng:

$$\Delta m = Zm_p + (A - Z)m_n - m_{ya} \quad (2),$$

bunda Z – tartib raqami.

m_p – protonning massasi;

m_n – neytronning massasi;

m_{ya} – izotop yadrosining massasi bo'lib u uchun $m_{ya} = m_a - Zm_e$ o'rini, bunda m_a – berilgan izotop massasi;

m_e – elektron massasi;

A – massa soni bo'lib u quyidagiga teng:

$$A = Z + N \quad (3)$$

Bunda N va Z mos holda neytron va protonlar soni bo'lib barcha elektronlar uchun quyidagicha yozish qabul qilingan: ${}_z X^A$, bunda X – element va Z ni yadro atominining nomeri deyish mumkin.

- Yadro reaksiyasi sodir bo'lganda energiyani o'zgarish quyidagicha ifodalanadi.

$$Q = c^2 (\sum_i m_{1i} - \sum_i m_{2i}) \quad (4)$$


Bunda: $\sum_i m_{1i}$ – zarralarning reaksiyagacha bo'lgan massalari yig'indisi, $\sum_i m_{2i}$ – zarralarning reaksiyasidan keying massalari yig'indisi

Shuni ta'kidlash kerakki, agar $\sum_i m_{1i} > \sum_i m_{2i}$ bo'lsa u holda reaksiya jarayonida energiya yutiladi, agar $\sum_i m_{1i} < \sum_i m_{2i}$ bo'lsa u holda reaksiya jarayonida energiya ajraladi. Energiya ajralgan yadro reaksiyasiga ekzotermik, energiya yutilgan yadro reaksiyasiga endotermik reaksiya deyiladi.

- Yadroning bog'lanish energiyasini MeV larda hosil qiladigan bo'lsak u holda (1) va (2) tenglamaga ko'ra:

$$W = 931 \frac{MeV}{m.a.b.} \Delta m = 931 \frac{MeV}{m.a.b.} [Zm_p + (A - Z)m_n - m_{ya}]$$

- Alfa siljish qonuni:



- Betta siljish qonuni:



- Radioaktiv parchalanish qonuni:

$$N = N_0 e^{-\lambda t} \quad (7)$$

- Radioaktiv moddaning yarim yemirilish davri yemirilish doimiysi bilan quyidagicha bog'langan:

$$T = \frac{\ln 2}{\lambda} \quad (8)$$

Masala yechish namunaları

1. Magniyning uchta izotopi: 1) ${}_{12} Mg^{24}$, 2) ${}_{12} Mg^{25}$ va 3) ${}_{12} Mg^{26}$ yadrolari tarkibidagi proton va neytronlar sonini toping.

Yechilishi : Yadro huddi atom kabi quyidagicha ifodalanadi: ${}_Z^A X$. Bunda X – element belgisi, A – massa soni, Z – atom raqami yoki yadrodağı protonlar soni. Bularni bilgan holda masalalarni quyidagicha yechamiz:
 a) yadro ${}_{12}^{24} Mg$ yoki ushbu izotop 12 ta protondan iborat. (3) ga ko'ra $N = A - Z = 24 - 12 = 12$ ta neytronda iborat. Masalani qolgan shartlari huddi shu kabi ifodalanadi.

2. Geliy ${}_2 He^4$ atom yadrosining bog'lanish energiyasini toping.

Yechilishi: (1) ga ko'ra yadroning bog'lanish energiyasi quyidagiga teng: $W = c^2 \Delta m$. (2) ga ko'ra esa massa defekti uchun quyidagini yozish mumkin:

$$\Delta m = Zm_p + (A - Z)m_n - m_{ya}$$

Ikkinci tomondan $m_{ya} = m_a - Zm_e$ bo'lganligi uchun yuqoridagilarga ko'ra:

$$\Delta m = Zm_{^1H} + (A - Z)m_n - m_a$$

Buni (1) ga qo'ysak

$$W = c^2 [Zm_{^1H} + (A - Z)m_n - m_a]$$

2He - geliy uchun : $A = c_1$, $Z = z$, $m_a = 4m.a.b.$, $m_{^1H} = 1m.a.b.$ va $m_n = 1m.a.b.$

bo'lganligi uchun $W = 28.6 MeV$ kelib chiqadi.

3. $^3Li^7 + ^1H^1 \rightarrow ^2H^4 + ^2He^4$ yadro reaksiyasida ajraladigan energiyani toping.

Yechilishi : Yadro reaksiyasi davrida energiyaning o'zgarishi uchun (4) ga ko'ra quyidagini yozamiz:

$$Q = c^2 (\sum_i m_{1i} - \sum_i m_{2i})$$

Ba'zi izotoplarning massalari (m.a.b.)

Izotop	Massa	Izotop	Massa	Izotop	Massa
$^1H^1$	1,00814	$^4Be^9$	9,01505	$^{14}Si^{30}$	29,98325
$^1H^2$	2,01474	$^5Be^{10}$	10,01612	$^{20}Ca^{40}$	39,97542
$^1H^3$	3,01700	$^6C^{12}$	12,00380	$^{27}Co^{56}$	55,95769
$^2He^3$	3,01699	$^7N^{13}$	13,00987	$^{29}Cu^{63}$	62,94962
$^2He^4$	4,0388	$^7N^{14}$	14,00752	$^{48}Cd^{113}$	112,94206
$^3Li^6$	6,01703	$^8O^{17}$	17,00453	$^{50}Hg^{200}$	200,02800
$^3Li^7$	7,01823	$^{12}Mg^{23}$	23,00145	$^{92}U^{235}$	235,11750
$^4Be^7$	7,01916	$^{12}Mg^{24}$	23,99267	$^{92}U^{238}$	238,12376
$^4Be^8$	8,00785	$^{13}Al^{27}$	26,99010	-	-

Jadvalga ko'ra $\sum_i m_{1i}$ uchun $\sum_i m_{1i} = (7,016 + 1,008) = 8,023$ va $\sum_i m_{2i}$ uchun esa $\sum_i m_{2i} = 4.0026 + 4.0026 = 8.0052$. Bularni hisobga olgan holda (1) dan Q ni hisoblang. Javob: $17.3 \cdot 10^6 ms$.

Mustaqil yechish uchun masalalar

- Geliy $^2He^4$ atom yadrosining bo'g'anish energiyasini toping ($225 MeV$).
- 1) $^1H^3$ va 2) $^2He^3$ yadrolarining bo'g'anish energiyasini toping . Bu yadrolardan qaysi biri eng barqaror ? (1) $W = 8.5 MeV$, 2) $W = 7.7 MeV$).
- Kislород atomi yadrosidagi $^8O^{16}$ bitta nuklonga to'g'ri keluvchi bog'lanish energiyasini toping. Javob : $W_0 = 7.97 MeV$.
- Deyteriy yadrosining $^1H^2$ bog'lanish energiyasini toping ($W = 2.2 MeV$).
- $^7N^{14} + ^2H^4 \rightarrow ^1H^1 + ^8O^{17}$ reaksiyasida yutilgan energiyani toping ($1.18 MeV$).

6. 1) ${}_1H^2 + {}_1H^2 \rightarrow {}_1H^1 + {}_1H^3$, 2) ${}_1H^2 + {}_1H^2 \rightarrow {}_2He^{81} + {}_0n^1$ yadro reaksiyalarida ajraladigan energiyani toping (1) 4.04 MeV 2) 3.26 MeV).
7. ${}_3Li^7 + {}_1H^2 \rightarrow {}_4Be^8 + {}_0n^1$ reaksiyasida ajraladigan energiyani toping (15 MeV).
8. Yarim yemirilish davri $T = 1620 \text{ yil}$ bo'lgan radiy atomlari soni $N_0 = 5 \cdot 10^8$ bo'lsa $t = 1$ sutkada yemirilgan atomlar sonini toping. ($\Delta N = 576ta$).
9. ${}_{92}U^{235}$ izotopi yadrosining massa defekti va bog'lanish energiyasini toping ($\Delta m = 3.18 \cdot 10^{-27} \text{ kg}$, $W_0 = 1.79 \cdot 10^3 \text{ MeV}$).
10. I.V. Kurchatov nomidagi Beloyarsk atom elektr stansiyasining blok gineratori $FIK - \eta = 40\%$ va quvvati $N = 600 \text{ MW}$ bo'lgan reaktorning issiqlik quvvati va bir sutkada ajralib chiqadigan issiqlik miqdorini toping. Agar uran ${}_{92}U^{235}$ izotopi yadrosining bo'linishida $\Delta W = 200 \text{ MeV}$ energiya ajralib chiqsa, reaktorda bir sutkada qancha massali uran sarf bo'ladi? $N = 1.5 \cdot 10^3 \text{ MW}$, ($Q = 1.3 \cdot 10^{14} \text{ J}$, $m = 1.6 \text{ kg}$).
11. $VVER = 400$ tipidagi suv reaktori har birining quvvati $N = 220 \text{ MW}$ dan bo'lgan ikkita turbogeneratorni harakatga keltiradi. Agar har bir oyda $m = 44.55 \text{ kg}$ uran ${}_{92}U^{235}$ izotopi sarflansa, generatorning FIK ni toping. $\eta = 30\%$
12. ${}_{81}Tl^{210}$ izotopi yadrosi uch karra ketma-ket betta yemirilish va bir karra alfa yemirilishdan keyin qanday element yadrosiga aylanadi? Parchalanish reaksiyasi tenglamasini tuzing. (${}_{82}P^{206} ga$, ${}_{81}Tl^{210} \rightarrow {}_{82}P^{206} + 3\beta + \alpha$).
13. 1) ${}_{13}Al^{27} + {}_2He^4 \rightarrow {}_{11}Si^{30} + {}_1H^1$ reaksiyada 1 g alyuminiyning barcha yadrolari boshqa yadroga aylansa qancha energiya ajrab chiqadi? 2) Alyuminiy yadrolari 8 MeV energiyali α -zarrachalar bilan bombardimon qilinganida $2 \cdot 10^8$ zarrachadan bitta α -zarracha boshqa yadroga aylantirsa, bu reaksiyaga qancha energiya sarflash kerak bo'ladi? (1) $W_1 = 5.35 \cdot 10^{22} \text{ MeV}$ 2) $W_2 = 3.6 \cdot 10^{20} \text{ MeV}$).
14. Yadro fizikasida nishonni bombardimon qiluvchi zaryadli zarrachalar sonini ularning mikroamper-soat bilan ifodalangan umumiyligi bilan harakterlash qabul qilingan. $1 \text{ mA} \cdot \text{s}$ qancha zaryadli zarralar soniga to'g'ri kelishini toping. Masalani : 1) elektronlar va 2) α -zarralar uchun yeching (1) $N = 2.2 \cdot 10^{16}$ 2) $N = 1.1 \cdot 10^{16}$).
15. ${}_{11}Na^{23}$ izotopning qo'zg'almas yadrosi bilan neytron markaziy elastik to'qnashgandan so'ng uning tezligi dastlabki tezligining qancha ulushini tashkil qiladi? (92%).

16. Zarb markaziy bo'lmay, neytron har to'qnashganida o'rta hisobda 45° ga og'sa, bundan oldingi masalada neytron bilan proton o'rtasidagi energiya taqsimotini toping. (Binobarin energiya neytron bilan proton o'ratasida o'rta hisobda baravar taqsimilanadi).
17. $4.6 MeV$ energiyali neytron protonlar bilan to'qnashish natijasida sekinlashadi. Neytron har to'qnashganda o'rta hisobda 45° og'adi deb hisoblab, uning energiyasi $0.23 eV$ gacha kamayishi uchun necha marta to'qnashishi kerakligini toping ($n \lg 2 = \lg \frac{W_0}{W} = \lg(2 \cdot 10^7)$) va $n = \frac{\lg(2 \cdot 10^7)}{\lg 2} = 24$).
18. Yulduzlarda sodir bo'ladigan termoyadro (sintez) reaksiyasida $m_H = 50000 \text{ kg}$ vodorod $m_{He} = 49644 \text{ kg}$ geliyga aylanganda ajraladigan energiyani toping ($Q = 3.204 \cdot 10^{19} \text{ J}$).
19. Kosmik nurlardagi tez mezonlarning energiyasi tazminan 300 MeV ; bu mezonning tinch holatdagi energiyasi 100 MeV . Laboratoriya soati bo'yicha bu mezon yashash vaqtida atmosferada qancha masofani bosib o'tadi? Mezonning hususiy yashash vaqtini $\tau_0 = 2 \cdot 10^{-6} \text{ s}$ (18 km masofani o'tadi).

3-BOB. FIZIKADAN MASALALAR YECHISHDA DASTURIY VOSITALARDAN FOYDALANISH USULLARI

§23. Fizikadan amaliy mashg’ulotlar jarayonida MathCAD dasturiy vositasidan foydalanish

MathCAD dasturiy vositasi va uning imkoniyatlari

Matematikada ifodalar, formulalar qanday yozilsa MathCAD tizimida ham xuddi shunday, o‘zgarishsiz, tabiiy ko‘rinishda yoziladi. MathCAD yordamida formulalar faqatgina chiroyli yozilmasdan balki masalani sonli yoki simvolli yechish imkoniyatiga ega. MathCAD o‘zining yordamchi tizimiga ega. Har qanday tenglama atrofida ixtiyoriy matnni joylashtirish mumkin, bu esa hisoblash jarayonini izohlash uchun juda zarur.

MathCAD yordamida nafaqat matematikaga doir masalalarni yechish mumkin balki bu dastur yordamida ilmiy – uslubiy materiallarni, dissertatsiya ishlarini, bitiruv malakaviy ishlarini, kurs ishlarini bajarish imkoniyati mavjud, chunki MathCAD yordamida matematik formulalarni, matnlarni, grafiklarni juda chiroyli qilib ifodalash mumkin, bundan tashqari MathCAD yordamida yuqori darajadagi elektron darsliklar yaratish imkoniyati mavjud.

MathCAD matematik dasturlash muhitida ishlashning yaqqol ajralib turadigan quyidagi imkoniyatlarini ajratib ko‘rsatish mumkin:

- MathCAD muhitida matematik ifoda, qabul qilingan ya’ni tabiiy ko‘rinishda ifodalanadi. Masalan, daraja yuqorida, indeks pastda, integralning yuqori va quyi chegaralari esa an’anaviy joyida turadi;
- MathCAD muhitida DASTURLASH va uni BAJARILISH jarayoni parallel kechadi. Foydalanuvchi MathCAD-hujjatida yangi ifoda kiritar ekan, uning qiymatini birdaniga hisoblash va ifodani kiritishda yo‘l qo‘yilgan yashiringan xatoliklarni ko‘rish imkoniyati mavjud;
- MathCAD paketi yetarli darajada qudratli matematik apparat bilan qurollanganki, ular orqali tashqi protseduralarni chaqirmsandan turib paydo bo‘ladigan muammolarni hal qilishimiz mumkin.

MathCAD muhti:

- ✓ (Chiziqli va chiziqli bo‘lmagan) algebraik tenglama va tizimlarni yechish;
- ✓ Oddiy differensial tenglama va tizimlarni (Koshi masalasi va chegaraviy masala) yechish;

- ✓ Xususiy hosilali differensial tenglamalarni yechish;
- ✓ Berilganlarga statik qayta ishlov berish (interpolyatsiya, ekstrapolyatsiya, approksimatsiya va ko‘pgina boshqa amallar);
- ✓ Vektor va matritsalar bilan ishlash (Chiziqli algebra va boshqalar);
- ✓ Funksional bog‘liqlikning maksimum va minimumini izlash kabi masalalarni oson, ko‘rgazmali hal qilishga katta imkon beradi.

MathCAD paketi matematik va fizik-kimyoviy formulalarga, hamda o‘zgarmaslarga asoslangan yordamchi qo‘llanmalar bilan boyitilgan.

MathCAD paketida turli sohalar bo‘yicha elektron darsliklar yaratish mumkin.

Foydalanuvchi o‘z oldiga qo‘yilgan masalani yechish bilan cheklanibgina qolmay, fizikaviy masalalarni yechishda o‘lchamlarni hisobga olish imkoniyatiga ega. Bunda foydalanuvchi tegishli birliklar tizimi tanlashi mumkin.

Bundan tashqari MathCAD muhiti animatsiya vositasi bilan qurollangan, bunda tuzilgan modellarni nafaqat statik (o‘zgarmas), balki dinamik (animatsion kliplar) holda yaratish imkoniyati mavjud.

MathCAD muhiti belgili matematika elementlari bilan boyitilgan bo‘lib, bunda masalani nafaqat sonli yechish, balki analistik usulda ham yechishga imkoniyat yaratilgan.

MathCAD muhitidan chiqmagan holda boshqa serverdagи hujjatlarni ishlatalish va Internet tavsiya qiladigan yuqori axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanish mumkin.

Masala yechish namunalari

- Yerni elektr o‘tkazuvchan va radiusi $R = 6400\text{km}$ bo‘lgan shar deb qabul qilib, uning sirti yaqinidagi elektr maydon kuchlanganligi $E = 100\text{V/m}$ ga teng bo‘lganda, undagi zaryad miqdori q va uning potensiali φ aniqlansin.

$$\text{Berilgan} \quad R := 6400000\text{m} \quad E := 100 \frac{\text{N}}{\text{C}} \quad k := 9 \cdot 10^9 \text{N} \cdot \frac{\text{m}^2}{\text{C}^2}$$

$$\text{Yechilishi} \quad q := E \cdot \frac{R^2}{k} \quad q = 4.551 \times 10^5 \text{C}$$

$$\psi := k \cdot \frac{q}{R} \quad \psi = 6.4 \times 10^8 \text{V}$$

+

2. Moddiy nuqtaning to‘g‘ri chiziqli harakat qonuni $x = A + Bt + Ct^2$ ko‘rinishga ega, bu yerda, $A = 4\text{m}$, $B = 2\text{m/s}$, $C = -0.5\text{m/s}^2$. Vaqtning $t_1 = 2\text{s}$ vaqt momenti uchun oniy tezligi v_1 va oniy tezlanish a_1 topilsin.

Berilgan

$$A := 4m \quad B := 2 \frac{m}{s} \quad C := -0.5 \frac{m}{s^2}$$

$$x(t) := A + B \cdot t + C \cdot t^2$$

Yechilishi

$$v(t) := \frac{d}{dt}x(t) \rightarrow 2 \cdot \frac{m}{s} - 1.0 \cdot \frac{m}{s^2} \cdot t \quad a(t) := \frac{d}{dt}v(t) \rightarrow -1.0 \cdot \frac{m}{s^2}$$

t := 2s

$$x(t) = 6 \text{ m}$$

+

$$v(t) = 0 \frac{m}{s}$$

$$a(t) = -1 \frac{m}{s^2}$$

3. Hajmi $V = 12l$ ballon $P = 8.1 \text{ MPa}$ bosimda va $t = 17^\circ\text{C}$ haroratda azot bilan to'ldirilgan. Ballonda qanday miqdorda azot joylashgan?

Berilgan

$$V := 12 \cdot 10^{-3} \text{ m}^3 \quad P := 8.1 \cdot 10^6 \text{ Pa} \quad T := 290 \text{ K} \quad R := 8.31 \frac{\text{J}}{\text{mol} \cdot \text{K}}$$

Yechilishi

$$v := P \cdot \frac{V}{R \cdot T} \quad v = 40.334 \text{ mol}$$

4. Hajmi $V = 1 \text{ mm}^3$ bo'lgan suvdagi molekulalar soni N ni va suv molekulasining massasi m_0 ni aniqlang. Shartli ravishda, suv molekulalarini shar shaklida deb, o'zaro bir-biriga tegib turganda, molekula diametri d ni toping.

Berilgan

$$V := 10^{-6} \text{ m}^3 \quad \mu := 0.018 \frac{\text{kg}}{\text{mol}} \quad N_A := 6 \cdot 10^{23} \frac{1}{\text{mol}} \quad \rho := 1000 \frac{\text{kg}}{\text{m}^3}$$

Yechilishi

$$\text{mass} := \rho \cdot V \quad \text{mass} = 1 \times 10^{-3} \text{ kg} \quad N := \frac{(\text{mass} \cdot Na)}{10^3} \quad N = 3.333 \times 10^{22}$$


$$d := \sqrt[3]{\frac{\mu}{\rho \cdot Na}} \quad d = 3.107 \times 10^{-10} \text{ m}$$

5. So'nuvchi tebranma harakatda siljish tenglamasi $y = e^{-\delta t} \sin(\omega t + \varphi)$ qonuni bo'yicha o'zgarmoqda. Siljish, tezlik va tezlanishning vaqtga bog'lanish tenglamalarini yozing va grafigini chizing. Bu yerda $\delta = 0.25$, $\omega = \pi rad$, $\varphi = \pi/6 rad$ ga teng deb oling.

$$y(t) := e^{-0.25 \cdot t} \sin\left(\pi \cdot t + \frac{\pi}{6}\right)$$

$$v(t) := \frac{d}{dt} y(t) \rightarrow -0.25 \cdot \exp(-0.25 \cdot t) \cdot \sin\left(\pi \cdot t + \frac{1}{6} \cdot \pi\right) + \exp(-0.25 \cdot t) \cdot \cos\left(\pi \cdot t + \frac{1}{6} \cdot \pi\right) \cdot \pi$$

$$a(t) := \frac{d}{dt} v(t) \rightarrow 6.25 \cdot 10^{-2} \cdot \exp(-0.25 \cdot t) \cdot \sin\left(\pi \cdot t + \frac{1}{6} \cdot \pi\right) - .50 \cdot \exp(-0.25 \cdot t) \cdot \cos\left(\pi \cdot t + \frac{1}{6} \cdot \pi\right) \cdot \pi - \exp(-0.25 \cdot t) \cdot \sin\left(\pi \cdot t + \frac{1}{6} \cdot \pi\right) \cdot \pi^2$$



6. Magnitlanmagan o'zaksiz toroid o'ramlaridan $I = 0.6A$ tok o'tkazildi. Diametri $d = 0.4mm$ bo'lgan simlar bir-biriga zinch qilib o'ralsan. Agar toroidning o'rta chiziq diametri $D = 0.3m$ va kesim yuzasi $S = 4 \cdot 10^{-4} m^2$ bo'lsa, uning induktivligi aniqlansin.

Berilgan	$I := 0.6A$	$d := 0.4 \cdot 10^{-3} m$	$D := 0.3m$	$S := 4 \cdot 10^{-4} m^2$
----------	-------------	----------------------------	-------------	----------------------------

$$\mu := 1 \quad \mu_0 := 4 \cdot \pi \cdot 10^{-7} \frac{H}{m}$$

Yechilishi	$n := \frac{1}{d}$	$n = 2.5 \times 10^3 \frac{1}{m}$	$V := \pi D \cdot S$	$V = 3.77 \times 10^{-4} m^3$
------------	--------------------	-----------------------------------	----------------------	-------------------------------

$$L := \mu \cdot \mu_0 \cdot n^2 V \quad L = 2.961 \times 10^{-3} H$$


+

7. G'altakdagi o'zgaruvchan tok kuchining tebranishi $I = I_0 \sin(\omega t + \varphi)$ qonun bo'yicha o'zgarmoqda, tokning va kuchlanishning vaqtga bog'lanish grafigini chizing. Bu yerda $I_0 = 1mA$, $\omega = 40\pi rad/sek$, $\varphi_0 = \pi/3 rad$, g'altak induktivligi $L = 2mGn$.

Berilgan $I_0 := 0.001A$ $v := 20 \cdot \frac{1}{s}$ $\psi_0 := \frac{\pi rad}{3}$ $L := 0.002H$

Yechish $I(t) := 0.001 \cdot \sin\left(40 \cdot \pi \cdot t + \frac{\pi}{3}\right) \rightarrow 1 \cdot 10^{-3} \cdot \sin\left(40 \cdot \pi \cdot t + \frac{1}{3} \cdot \pi\right)$

$$U(t) := L \cdot \frac{d}{dt} I(t) \rightarrow 8.0000000000000000000000000000000 \cdot 10^{-5} \cdot H \cdot \cos\left(40 \cdot \pi \cdot t + \frac{1}{3} \cdot \pi\right) \cdot \pi$$



8. Gorizontga α burchak ostida ϑ_0 boshlang'ich tezlik bilan otilgan jism trayektoriyasi paraboladan iborat. Harakatlanish tenglamasini vertikal y o'qi bo'yicha $y = \vartheta_y t - gt^2/2$ (1), x o'qi bo'yicha esa $x = \vartheta_x t$ (2) ko'rinishda yozish mumkin. Boshlang'ich tezlikning vertikal va gorizontal o'qlardagi proyeksiyalari mos ravishda $\vartheta_y = \vartheta_0 \sin \alpha$, $\vartheta_x = \vartheta_0 \cos \alpha$.

Harakatlanish vaqtining $t = \frac{x}{\vartheta_x} = \frac{x}{\vartheta_0 \cos \alpha}$ ga teng qiymatini (2)

tenglamaga qo'ysak, $y = \vartheta_0 \sin \alpha \frac{x}{\vartheta_0 \cos \alpha} - \frac{g}{2} \left(\frac{x}{\vartheta_0 \cos \alpha} \right)^2 \rightarrow$


$$y = \tan \alpha x - \frac{g}{2 \vartheta_0^2 \cos^2 \alpha} x^2 \quad (3)$$

tenglikka ega bo'lamiz. (3) tenglamadan x -argument, y -funksiya deb qarasak uning grafigi paraboladan iborat bo'ladi. Ushbu funksiya grafigini MathCAD dasturiy tizimidan foydalanib uch xil $30^\circ, 45^\circ, 60^\circ$ otilish burchaklari uchun bitta koordinatalar sistemasida o'rganamiz.

$$v_0 := 30 \frac{m}{s} \quad g = 9.807 \frac{m}{s^2} \quad \alpha_1 := \frac{\pi}{6} \quad \alpha_2 := \frac{\pi}{4} \quad \alpha_3 := \frac{\pi}{3}$$

$$y_1(x) := \tan(\alpha_1) \cdot x - \frac{g \cdot x^2}{2v_0^2 (\cos(\alpha_1))^2} \quad y_2(x) := \tan(\alpha_2) \cdot x - \frac{g \cdot x^2}{2v_0^2 (\cos(\alpha_2))^2}$$

$$y_3(x) := \tan(\alpha_3) x - \frac{g \cdot x^2}{2v_0^2 (\cos(\alpha_3))^2}$$



§24. Fizikadan amaliy mashg'ulotlar jarayonida MATLAB dasturiy vositasidan foydalanish

MATLAB dasturiy vositasi va uning imkoniyatlari

Matlab – matematik va ilmiy-texnik hisoblashlarni amalga oshirishga mo'ljallangan eng qadimiy, uzoq vaqtlar davomida ishlab chiqilgan va tekshirilgan, avtomatlashtirilgan tizimlardan biri bo'lib, u matrisa va matrisaviy amallarni kengaytirilgan talqini ustiga qurilgan. Mazkur tushuncha uning nomida o'z aksini topgan, ya'ni **MATLAB – matrix laboratory – matrisali laboratoriya**. Ma'lumki, juda ko'plab dasturlar va ular ustida amallar bajarish sikllar orqali amalga oshiriladi. Bu esa dasturni ishlashini sekinlashtiradi va ba'zi bir amallarni bajarishni dasturlash tillarida ko'p o'lchamli, xususan, ikki o'lchamli, ya'ni matrisalarni e'lon qilishni murakkablashtiradi. Matlabda asosiy ob'ekt sifatida matrisalardan foydalanish sikllar sonini keskin kamaytiradi.

Matlab tizimini yaratishdagi asosiy maqsadlardan biri bo'lib, texnik va matematik xisoblashlarga yo'naltirilgan, foydalanuvchi uchun qulay va sonli usullarni amalga oshirish uchun tadbiq etib kelinayotgan

an'anaviy dasturlash tillari imkoniyatlaridan ustunroq dasturlash tilini yaratish hisoblanadi. Mazkur tizimni yaratishda hisoblashlar tezligini oshirishga hamda tizimning turli xil masalalarini hal qilishga moslashuvchanligiga katta e'tibor qaratilgan.

Matlab tizimi dasturlashning uchta asosiy konsepsiyasini amalga oshiradi:

- modullarni, ya'ni protsedura va funksiyalarni yaratishga asoslangan protsedura modulli dasturlash;
- ob'ektga yo'naltirilgan dasturlash (ayniqsa, tizimning grafikli vositalarini joriy qilish ahamiyati);
- foydalanuvchining grafikli interfeysini yaratishga mo'ljallangan vizual-yo'naltirilgan dasturlash (GUI-Graphics User Interface).


Umuman olganda, Matlab dasturlash tili interpretatorlar sinfiga kiradi. Demak, bundan kelib chiqadiki, tizimning har bir buyrug'i nomi bo'yicha aniqlanadi va zudlik bilan joriy qilinadi. Bu esa ixtiyoriy dasturiy kodni qism-qism bo'yicha tekshirishni osonlashtiradi.

Tizimning asosiy imkoniyatlardan biri bu uning ochiqligi va kengaytirish mumkinligidir.

Tizimning juda ko'plab buyruq va funksiyalari matnli formatdagi m-fayl (kengaytmasi ".m") va C/C++ fayllari ko'rinishida bo'lib, barcha fayllarni modifikasiya qilish mumkin.

Matlab dasturiy ta'minot o'rnatish jarayoni boshqa dasturlardan farqlanmaydi. Matlab dasturi ishga tushirilganda unda asosan quyidagi oynalar ko'rindi.

Ishchi qism	Tarix oynasi	Funksiya chiqarish satri	Ayni paytdagi oynasi	Buyruqlar katalog
-------------	--------------	--------------------------	----------------------	-------------------



Matlab tizimini ishga tushgandan keyingi ishchi oynasi

- 1.Buyruqlar oynasi (Command Window);
- 2.Brouzernerning ishchi qismi (Workspace Browser);
- 3.Massiv muharriri (Array Editor);
- 4.Buyruqlar tarixi oynasi (Command History);
- 5.Ayni vaqtdagi katalog brouzeri (Current Directory Browser);
- 6.Start tugmasi (Start);
- 7.Browser so‘rovnomasasi (Help Browser);
- 8.Muharrir (Editor/Debugger);
- 9.Sharhlovchi (Profiler).

Asosiy buyruqlar oynasi MATLAB dagi barcha buyruqlarni paketlarni va kutubxonalarini e’lon qilish oynasi hisoblanadi.

O‘zgaruvchilar oynasi dastur tarkibida e’lon qilingan o‘zgaruvchilarni daraxt ko‘rinishida ifodalab boradi.

Buyruqlar tarixi oynasida esa dasturda bajarilayotgan buyruqlar ketma-ketligi saqlanib qoladi.

Matlabda **seans** ishi tushunchasi **sessiya (session)** deb yuritiladi, ya’ni foydalanuvchi ayni vaqtda foydalanayotgan xujjat – bu **sessiyadir**. Unda kiritish-chiqarish satrlari va xatoliklar haqida axborot joylashgan bo‘ladi. Matlab sessiyaga kiruvchi barcha o‘zgaruvchi va funksiyalar qiymatlari xotiraning ishchi qismida joylashgan bo‘ladi. Save (saqlash) buyrug‘i yordamida ularni (matlab.mat) – da saqlash mumkin. Load (yuklash) buyrug‘i esa ma’lumotlarni diskdan ishchi sohaga kiritish imkonini beradi. Diary (kundalik) buyrug‘i orqali ma’lumotlarni ayrim qismlarini kundalik ko‘rinishida saqlash mumkin.

Buyruqlar oynasini boshqarish buyruqlaridan eng muhimlarini keltiramiz:

- ✓ clc – ekranni tozalaydi va kursorni bo‘sh ekranning yuqori chap qismiga joylashtiradi;
- ✓ home – kursorni ekranning yuqori chap qismiga qaytaradi. Jadal su’ratlar bilan rivojlanib borayotgan kompyuterlashgan matematik tizimlar (KMT), ayniqsa, sonli hisoblashlarga yo‘naltirilgan tizimlar orasida Matlab matrisali matematik tizim alohida ajralib turadi. Matlab tizimini tashkil qiluvchi paketlar soni ko‘pligi uning juda ko‘plab soha masalalarini hal qilishga joriy etish imkoniyatini beradi. Hozirgi kunga kelib Matlab tizimi zamonaviy matematik va ilmiy-texnikaviy dasturiy ta’minoti sohasida deyarli jahon standarti bo‘lib qoldi.

Umuman olganda, ma'lumotlarni kiritish va hisoblashlarni amalga oshirish quyidagicha amalga oshiriladi:

Boshlang'ich ma'lumotlarni kiritishni ko'rsatish uchun >> belidan foydalaniladi;

Ma'lumotlar oddiy yozuvli tahrir yordamida kiritiladi;

Sozlangan funksiyalar (masalan, sin) yozma xarflar bilan yoziladi, hamda ularning argumentlari oddiy qavslar ichida yoziladi;

Ma'lumki, o'zgaruvchilar kompyuter xotirasida, ya'ni ishchi soha (workspace) da ma'lum bir joy egallaydi. Ishchi sohani keraksiz o'zgaruvchilardan tozalash uchun **clear** funktsiyasining turli xil ko'rinishlaridan foydalaniladi, masalan:

clear - barcha aniqlangan o'zgaruvchilarni yo'qotish;

clear x - aniqlangan x o'zgaruvchini yo'qotish;

clear a, b, c - aniqlangan bir necha o'zgaruvchilarni yo'qotish.

AMDP neyron to'ri, elektrotexnik qurilmalarni modellashtirish, murakkab matematik masalalarni yechish, fizik jarayonlarni kompyuterda modellashtirish kabi ko'plab sohalarda qo'llash uchun yaratilgan. Shuning uchun ham bu sohani chuqur o'rGANISH katta ahamiyatga ega.

Masala yechish namunalari

- Quyoshning radiatsiyasi $E = 385 \cdot 10^{24} J/s$ ga teng. Quyosh massasi $M = 2 \cdot 10^{30} kg$. Quyoshning bir kunda yuqotadigan massasini va yashash vaqtini hisiblang. Yorug'lik tezligi $c = 3 \cdot 10^8 m/s$.

>> E=385e24

E =

3.8500e+026

>> E=E*24*3600

E =

3.3264e+031

>> c=3e8

c =

300000000

>> m=E/c^2

m =

3.6960e+014

>> M=2e30

```

M =
2.0000e+030
>> t=M/m
t =
5.4113e+015
>> T=t/365
T =
1.4825e+013

```

Demak Quyosh bir kunda $3.696 \cdot 10^{14} kg$ massasini yuqotadi, butun massasi esa $1.5 \cdot 10^{13}$ yilga yetar ekan!

2. Tunnel hajmi $V = 1000 m^3$, absolyut temperaturasi $T = 300 K$, bosim esa $P = 100 kPa$, tunneldagi havo hajmi $\mu = 29 kmol/kg$ bo'lsa massasini toping.

```

>> P=100;
>> T=300;
>> V=1000;
>> M=0.029;
>> R=8.31;
>> m=P*V*M/(R*T)
m =
1.1633

```

3. Ishqalanish kuchining tezlikka bog'liqligi $F = \mu \frac{\rho g^2 A}{2}$ qonunga asosan aniqlanadi. Bu yerda μ -ishqalanish koeffisiyenti, ρ -havoning zichligi, A -yuza. MATLAB dasturi yordamida ishqalanish kuchini tezlikka bog'lanish jadvalini tuzing.

```

>> F=20000;
>> zichlik=0.000001;
>> tezlik=100*0.4470;
>> A=1;
>> %cd-ishqalanish koeffisiyenti
>> cd=F^2/(zichlik*tezlik^2*A)
cd =
2.0019e+007
>> tezlik=0:20:200;
>> tezlik=tezlik*0.447;
>> F=cd*zichlik*tezlik.^2*A/2;
>> jadval=[tezlik',F']
jadval =

```

```

1.0e+004 *
    0      0
0.0009  0.0800
0.0018  0.3200
0.0027  0.7200
0.0036  1.2800
0.0045  2.0000
0.0054  2.8800
0.0063  3.9200
